



ISBN 978-9943-563-70-4



9 789943 563704

KLASSIK RAQSDAN
HOB KATBOQ

KLASSIK RAQSDAN
HOB KATBOQ



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT MILLIY RAQS VA XOREOGRAFIYA OLIY MAKTABI

V.S.KOSTROVITSKAYA

KLASSIK RAQSDAN

100 SABOQ

(1-8 sinflar)

O'quv qo'llanma

Uchinchi, to'ldirilgan nashr

TOSHKENT – 2019
“NAVRO'Z” NASHRIYOTI

KBK 84.10 (50').2

UO'K: 70.18

K 45

V.S.Kostrovitskaya / KLASSIK RAQSDAN 100 SABOQ

O'quv qo'llanma. – Toshkent.: «Navro'z» nashriyoti, 2019. - 316 b.

Tarjimon:

RAVSHAN JOMONOV – Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi professori, filologiya fanlari nomzodi.

Mas'ul muharrir:

SH.M.TOXTASIMOV – Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi rektori

Muharrir:

H.ISMOILOV – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

M.K.GOFUROV – TDMRXOM prorektori

M.SH.MURODOVA – TDMRXOM “San'at nazariyasi va tarixi” kafedrasi mudiri, dotsent

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi ilmiy kengashida nashrga tavsiya etilgan. (№12 majlis bayoni, 30.06.2019)

ISBN 978-9943-563-70-4

**© V.S.Kostrovitskaya
© «Navro'z» nashriyoti, 2019**

TARJIMONDAN

Ushbu o'quv qo'llanmasi V.S.Kostrovitskayaning "100 уроков классического танца" (1-8 классы. Учебное пособие. Третье, дополненное издание. Издательство "Планета музыки", 2009. Санкт-Петербург-Москва-Краснодар) kitobining tarjimasidir. Tarjimon ko'rsatib o'tilgan nashrdagi matnni to'liq o'girishga harakat qildi. Biroq tarjima jarayonida bir qator murakkabliklarga duch kelindi. Avvalo, klassik raqs terminlarining aksariyati fransuzcha bo'lib, ular o'zgarishsiz qoldirildi. Rus tilidagi terminlar imkon qadar o'zbekchalashtirildi. Bunda ularning o'zbek adabiy tilidagi muqobillari olindi. Muqobil variantlar topilmagan yoki to'g'ri kelmagan holatlarda ruscha so'zning o'zi qoldirildi. Masalan, *ballon*, *zanoska*, *vivorotnost*, *pozitsiya*, *poza* kabi.

Ayrim so'z-terminlar kalkalash usulida tarjima qilindi: *yarimbarmoq* (полупалцы). Ehtimol, ushbu holat o'zbek adabiy tilida boshqacharoq ifodalanishi mumkin. Biz mazkur qo'llanmaning o'zbekcha matni talabalar qo'liga tezroq yetib borishi maqsadida hozircha mazkur terminni qo'llashga majbur bo'ldik.

Tarjimon tomonidan ayrim so'zlar talabalar nutqidan kelib chiqqan holda o'zbekchaga o'girildi. Masalan, rus tilidagi *наика* so'zi *uskuna* shaklida olindi, vaholanki ayrim tarjimonlar tomonidan *dastgoh* so'zi ham ishlatilmoqda. Ayrim holatlarda ruscha terminlar imkon darajasida o'zbekcha shaklda berildi: *orqalama* (*yonlama*, *oldinlama*) *sur le cou-de-pied*. Vaholanki, ushbu so'zni *sur le cou-de-pied* *orqaga* (*oldinga*, *yonga*) deb ham olish mumkin edi.

Mazkur tarjima, aslini olganda, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabidagi o'quv jarayonini adabiyotlar bilan tezroq tanishtirish maqsadida amalga oshirildi. Shu sababli ham tarjimada ayrim kamchiliklar uchrashi mumkin. Chunki ushbu tarjima, yuqorida ta'kidlanganidek, asar matni bo'yicha amalga oshirildi. Agar raqs harakatlari bilan bevosita tanishib, keyin tarjima qilish imkoni bo'lganda, ehtimol, butunlay o'zgacha bir tarjima yuzaga kelgan bo'lur edi. O'ylaymizki, kelgusi nashrlarda ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar bartaraf etiladi. Mazkur tarjima haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirgan mutaxassislarga tarjimon o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Ravshan JOMONOV.

10.05.2018

*Balerina, pedagog va klassik raqs
bo'yicha kitob muallifi – Vera Sergeyevna
Kostrovitskayaning porloq xotirasi hamda
tavalludining 103 yilligiga bag'ishlanadi*

NASHRIYOTDAN

1973-yil Leningradda V.S.Kostrovitskayaning “Klassik raqsdan 100 saboq” kitobi 25.000 nusxada birinchi marta nashr etildi. Unda 1-8 sinflarda klassik raqs saboqlarini o'rgatish metodikasi misollarda bayon qilib berildi.

Kitob Rossiya bo'ylab tez tarqalib ketdi, xorijdagi mutaxassislar e'tiborini tortdi, AQShda ingliz tiliga tarjima qilindi. Vera Sergeyevna biroz qo'shimcha va o'zgarishlar kiritdi, 1979-yilda Nyu-Yorkda “Klassik raqsdan 100 saboq”ning ingliz tilidagi yangi nashri paydo bo'ldi. 1980-yilda mazkur asar o'sha joyda ingliz tilida yana nashr etildi. 1981-yilda esa Leningradda muallif vafotidan so'ng, ammo Vera Sergeyevnaning o'zi tomonidan tuzatilgan va qo'shimcha kiritilgan ikkinchi nashri bosmadan chiqdi. Ushbu nashr anchadan buyon bibliografik nodir asar bo'lib qoldi.

Jahonda klassik raqsga, raqs san'atini o'rgatishning rus metodikasiga qiziqish bugun ham yo'qolmagan. Binobarin, 2008-yilga qadar V.S.Kostrovitskayaning “Klassik raqsdan 100 saboq” va “Klassik rasdan 101 saboq” kitoblari Nyu-York va Londonda sakkiz marta qayta nashr qilindi. 2003- yilda Berlinda V.S.Kostrovitskayaning “Klassik raqs maktabi” kitobi nemis tilida chop etildi. 2009-2010-yillarda Xitoy Xalq Respublikasida hamda Tayvanda xitoy tilida nashr etish mo'ljallangan.

Mazkur kitob V.S.Kostrovitskayaning “Klassik raqsdan 100 saboq” asarining Rossiyadagi uchinchi nashri hisoblanadi.

Taqdir taqozasiga ko'ra V.S.Kostrovitskaya merosiga mualliflik huquqi menga tegishlidir. Shu sababli ham (garchi matnga kengroq sharh berish, metodikani zamonaviy uslubda bayon etish takliflari bo'lsa-da) muallifning o'zi tomonidan kiritilgan tuzatish va qo'shimchalarni to'liq saqlab qolishni burchim deb hisoblayman.

V.S.Kostrovitskayaning klassik raqs bo'yicha kitoblariga hozirgi paytda ham ehtiyoj katta. Vera Sergeyevnaning o'zi haqida, uning iste'dodi to'g'risida esa kitobxonlar juda kam ma'lumotga ega, hatto qayta nashr etilgan kitoblarida ham ayrim achinarli xato va noaniqliklar uchraydi.

Ayni shu sababli ham Vera Sergeyevna haqida qisqacha biografik ma'lumotni berish joiz deb hisoblayman, vaholanki uning faoliyati to'g'risida alohida kitoblar yaratish mumkin.

Vera Sergeyevna Kostrovitskaya 1906-yilda Peterburgda teatr, ayniqsa, baletni sevadigan oilada tug'ilgan. 1916-yilda (Rossiyadagi Fevral inqilobidan 6 oy oldin) balet bilim yurtiga (o'sha davrda Imperatorlik teatr bilim yurti deb nomlangan) o'qishga kiradi. Mashhur rus balerinalari: O.O.Preobrajenskaya, A.Y.Vaganova, M.F.Romanova va Z.V.Frolovalar unga ustozlik qilganlar. U "Petrograd akademik yoshlar baleti" truppasida (baletmeyster – Djorj Balanchik, rassomlar – B.M.Erbshteyn va V.V.Dmitriyev) raqsga tushgan, san'at va adabiyot bo'yicha san'atshunos-poliglott Ivan Ivanovich Sollertinskiy ma'ruzalarini tinglagan, Peterburg-Petrograd-Leningradning talantli ijodkor yoshlari: kompozitor D.D.Shostakovich, rassomlar V.V.Dmitriyev, B.M.Erbshteyn, S.M.Gorshov, T.N.Glebova, qo'shiqchi M.V.Yudinalar safida bo'lgan.

1923-yilda balet bilim yurtini tugallab Mariinsk teatrida raqqosa bo'lgan. Biroq balerinaning shon-shuhrati uzoqqa cho'zilmaydi – Vera Sergeyevna kasalligi tufayli sahnadan ketishga majbur bo'ladi. 1936-yildan boshlab Leningrad davlat xoreografiya texnikumini "klassik raqs pedagogi" mutaxassisligi bo'yicha tugallab, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadi. V.S.Kostrovitskaya 1971-yilga qadar A.Y.Vaganova nomidagi Leningrad xoreografiya bilim yurtida dars berdi, Konservatoriyaning pedagogik yo'nalishlaridagi kurslarda klassik raqs metodikasi bo'yicha ma'ruzalar o'qidi, seminarlar olib bordi. A.Y.Vaganova qatnashmagan hollarda dars va repetitsiyalarda uning o'rnini egalladi.

Bu haqda uning shogirdi, yetakchi balerina, pedagog, Mariinsk teatri baletmeyster-repetitori Gabriella Komleva shunday xotirlaydi: "...Maktabda Kostrovitskayaning obro'-e'tibori juda yuqori edi. Bu narsa faqatgina Vaganovaning uzoq yillar duosini olganida, bosh metodist va ustozning birinchi yordamchisi bo'lganida emas... Uning siymosida tofakkur mustaqilligi hamda badiiy dunyoqarashning kengligi aks etib turardi. Uni qandaydir muhit (aura) o'rab turar, uni unchalik xush ko'rmaydiganlarda ham hurmat-e'tibor uyg'otar edi... Musiqa olami, rassomlik, she'riyat va adabiyot unga juda yaqin edi. Uning musiqiy qobiliyati mutlaqo cheksiz edi..."

A.Y.Vaganova shunday degan edi: "...Vera Kostrovitskayada kuchli aql va o'tkir ko'z mujassamlashgan... U hamma narsaga doimo shay bo'lib turadi: kichik bir kamchilikni, isbotlash tizimidagi har qanday bo'shliqni ilg'ay oladi".

V.Krasovskayaning "Vaganovaning ikki hayoti" kitobida quyidagilarni o'qiydiz: "...Vaganova uni qiziqish bilan tinglaydi, o'zining obro'-e'tiboriga qaramasdan u bilan bahsga kirishadi. Vaganova Kostrovitskaya siymosida o'zining bevosita vorisini ko'radi: mana shu tarzda o'z merosxo'rini asrab-avaylaydi".

V.S.Kostrovitskaya maktublarining birida xotirlaydi: "...O'zimning birinchi yozma ishimni Vaganovaning maslahati bilan 1948-yilda yozganman, Vaganova unga so'zboshi yozib, tahrir qilgan...". Gap 1961-yilda chop etilgan "Klassik raqs. Tutash harakatlar" nomli kichik bir kitob haqida boryapti. Pedagogik faoliyatini tugatgach, klassik raqs bo'yicha bir qator kitob va maqolalar muallifi sifatida baletdagi hayotini davom ettirdi, chunki u kitoblarda o'zining ko'p yillik amaliy tajribasini, kuzatish va tahlillarni umumlashtirgan edi.

V.S.Kostrovitskaya 1979-yil sentabrda hayotdan ko'z yumdi, ammo o'zidan porloq xotira, klassik raqsni o'rganish metodikasi bo'yicha bebaho kitoblar; balet bilim yurtidagi tahsil haqida, bolalik yillari haqida qiziqarli xotiralar qoldirdi. Ayniqsa, urush yillarida Leningrad blokadasidagi ayanchli mehnat haqida, taqdir hukmiga ko'ra shaharda qolib, balet bilim yurtida mashg'ulotlarni davom ettirgani hamda Leningrad frontida harbiy-konsert brigadalarida ishlagani to'g'risida muhim ma'lumotlar; o'z zamondoshlari: Djorj Balanchin, O.O.Preobrajenskaya, M.T.Semenova, A.I.Pushkin, I.I.Sollertinskiy va boshqalar haqida ijodiy portretlar va hikoyalar; keng ko'lamli yozishmalar undan meros bo'lib qoldi.

Mazkur materiallar qisman e'lon qilingan, boshqalari esa hamon o'z noshiri va kitobxonlarini kutib turibdi.

T.Fedotova

Sankt-Peterburg, dekabr, 2008 yil

MUALLIF HAQIDA SO‘Z

Ko‘p yillar davomida Leningrad xoreografiya bilim yurtida metodik ishlarga rahbarlik qilgan mashhur pedagog V.S.Kostrovitskayaning kitobi hayron qolarli darajada bo‘lib, aslida metodik ko‘rsatmalardan xoli. Bu boshlang‘ichlardan bitiruvchilarga qadar – barcha sakkiz sinf uchun darslar to‘plami. Ushbu to‘plam o‘z ishining ustasi tomonidan yaratilgan. Vera Sergeyevna o‘sha davrda katta tajriba orttirgan, hatto raqs sahnalashtirish ishiga moyilligi bo‘lgan. Uning xoreograflik iste’dodi 1920-yillarda namoyon bo‘lgan edi. “Molodoy balet”da G.M.Balanchivadze (bo‘lajak amerikalik mashhur xoreograf Djorj Balanchin) rahbarligida ish boshlagan artistlarning o‘zlari nomerlar qo‘yishga urinib ko‘radilar. Biz – uning sinfidagi o‘quvchilar, uning baletmeyterlik qobiliyatiga tan berardik: darslarda bizga ifodali, ajoyib poetik etyudlar, tugallangan miniatyuralar soddagin musiqada taklif etilardi. Bilim yurtining hisobot konsertlari uchun Vera Sergeyevna keng ko‘lamli nomerlar tayyorlardi, ularda ko‘plab ijrochilar, masalan, E.Brig bastalagan “Qushchalar” ishtirok etardi.

V.S.Kostrovitskaya keyinchalik mashhur pedagog bo‘lgan A.Y.Vaganova sinfini tugatgan, bu davrda buyuk ustozning pedagogik tizimi endigina shakllana boshlagan edi. Ushbu jarayon Vera Sergeyevnaning ko‘z o‘ngida, uning ishtirokida sodir bo‘ldi – avval tajriba obyekti sifatida, keyin esa buyuk ustozningsafdoshti tarzida namoyon bo‘ldi. Natijada Kostrovitskaya eng yaqin maslakdoshlaridan biri bo‘lib qoldi. U Vaganovaning beaded ishonchini qozonib, tez-tez uning o‘rniga dars o‘tardi, Leningrad konservatoriyasining pedagogika bo‘limida, keyinroq esa Xoreografiya bilim yurtida mashg‘ulotlar olib bordi. Vera Sergeyevna, imozi izidan borib, klassik raqsning murakkab va uyg‘un tizimini o‘lashtirish jarayonida intellektning ulkan ahamiyatiga ishontira oldi, oxir-oqibat sinchkov va doimiy izlanuvchan pedagog bo‘lib yetishdi.

Har bir dars harakatlarning shunchaki quruq ro‘yxati bilan chegaralanmaydi: ularda muallifning noyob qobiliyati va shaxsiyati namoyon bo‘ladi. Kostrovitskayaning o‘zi hech shubhasiz, badiiy timsol edi. O‘zining ko‘rinishi ham san‘at asaridek edi. Baland bo‘yli, xushbichim, ko‘zga tashlanib turmaydigan, ammo orasta kiyinadigan, boshini mag‘rur

tutib turadigan, ochiq chehrali ayol edi. Mayin-qat'iy ohangdagi ovozi qandaydir muhim bir narsani va'da qilardi. U bilan har bir uchrashuvda mazkur va'da amalga oshardi. Siz mo'jizalar olamiga kirib qolardingiz. Uning tanasi go'zallik taratib turardi, uning o'zi shohona saxiylik bilan boshqalarga bunday ajoyib peterburgcha go'zallikdan bahramand bo'lish imkonini berardi. Uning hayoti so'ngida bildimki, Vera Sergeyevna – buyuk fransuz shoiri, asli millati polyak bo'lgan G. Apolliner (uning haqiqiy familiyasi Kostrovitskiy)ning jiyani ekan.

Maktabda Kostrovitskayaning obro'-e'tibori juda yuqori edi. U eng avvalo o'ziga xos xarakteri, mustaqil fikrlay olishi hamda dunyoqarashining kengligi bilan ajralib turardi. Uning atrofida qandaydir muhit hukmron ediki, bu narsa hatto uni unchalik xushlamaydiganlarning ham hurmatiga sazovor edi. Biz o'quvchilar his etardikki, Vera Sergeyevnada ma'naviy olam barq etib turardi, bu esa bilim yurtidagi kundalik muloqotlarga shu'la berardi. Musiqa, rassomlik, she'riyat va adabiyot dunyosi uning jonu dili edi. Uning musiqiy qobiliyati mutlaqo cheksiz edi. Ayni shu narsa Kostrovitskayani Balanchivadze bilan yaqinlashtirardi. U juda yaxshi rasm chizardi, filarmoniyaga borishni kanda qilmasdi. Bizni ham o'z qiziqishlari doirasiga tortar, didni, ko'z o'tkirligini tarbiyalar, rassomlikka ishtiyoq uyg'otardi.

Mazkur kitob noyob pedagogning mahoratini muhrladi va ayni paytda Leningrad balet maktabi ko'plab ustozlarining tajribasini sarhisob qildi.

Gabriella Komleva,
dekabr, 2008-yil.

MUALLIFDAN

Mazkur kitob xoreografiya bilim yurti o'qituvchilari hamda badiiy havaskorlik to'garakalari uchun metodik qo'llanma hisoblanib, klassik raqs bo'yicha darslar metodikasiga bag'ishlangan.

Darslardagi misollar Rossiya madaniyat vazirligi tomonidan xoreografiya bilim yurtlari uchun tasdiqlangan sakkiz yillik ta'lim dasturiga muvofiq tuzilgan.

Kitobda harakatlarni ijro etish metodikasi berilmagan, chunki professor A.Y.Vaganovanning darsligi ("Klassik raqs asoslari"), Leningrad xoreografiya bilim yurti o'qituvchilari V.S.Kostrovitskaya va A.A.Pisarevlarining darsliklarida ("Klassik raqs maktabi") va boshqalarda ayni shu holatlar ko'rsatib berilgan.

Kichik va o'rta sinflarda balet ta'limining asoslari o'rganiladi va ko'plab yangi harakatlar o'zlashtiriladi, shu sababli ham ular uchun ko'p miqdordagi darslardan misollar mo'ljallangan. Kitobda birinchi sinflar uchun to'qqizta misol, ikkinchi-beshinchi sinflar uchun sakkiztadan, oltinchi-sakkizinchi sinflar uchun to'rttadan misollar o'rin olgan. Bundan tashqari, kitobda barmoqlarda bajariladigan ekzersis (mashq)dan qirq yettita misol joy olgan. Tabiiyki, ushbu misollar klassik raqs bo'yicha darslarni tuzishning barcha an'analari qamrab olmaydi, biroq ular darslarni mustaqil tashkil etishda pedagoglar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi sinfdagi va ikkinchi sinfning birinchi yarim yilligida darslardagi misollarga barcha dasturiy harakatlar kiritilgan, ular musiqiy bo'laklarga bo'lingan, musiqiy tempdagi o'zgarish harakatni ijro etishni texnik jihatdan tukomillashtirishning daraja ko'rsatgichi hisoblanadi.

Ikkinchi sinfning ikkinchi yarim yilligidan boshlab alohida harakatlar birlashtiriladi, avvalo, oddiy lari, keyin esa nisbatan murakkabroqlari. Keyingi sinflarda birinchi yarim yillikda ta'limning oldingi yilidagi kombinatsiyalar murakkablashtiriladi, yangi harakatlar alohida o'rganib boriladi.

O'rta va yuqori sinflarda harakatlarni musiqiy bo'laklarga taqsimlash kuni uchraydi; odatda, biz taktlar miqdori (xususan, adagio va allegro)ni ko'rsatish bilan chegaralanamiz.

Misollarda harakatlarni o'rganishning ketma-ketligi bayon qilingan, harakatlar yoki kombinatsiyalarni mashq paytida takrorlashning zaruriy miqdori ko'rsatilgan.

Shuni esda tutish lozimki, barcha mashqlar o'ng va chap oyoqlarda muvofiq bilan boshlanadi va V pozitsiyada tugallanadi. (Dastlabki holat V pozitsiyada bo'lmagan vaziyatlar alohida mavzu). Battements frappés,

battements doubles frappés, ronds de jambe en l'air va petits battements sur le cou-de-piedlar uchun dastlabki holat faqat birinchi darslarda ko'rsatilgan, bu haqda boshqa qaytarilmaydi. Har bir saboq gavdani egish bilan pord de brasda tugaydi, bu haqda har bir sinfnining birinchi sabog'idagi izohda ko'rsatilgan.

Saboqlardagi barcha misollardan (barmoqlardagi mashq - ekzersis misollaridan tashqari) qiz va yigitlar bir xil foydalanishi mumkin. Alohida bir harakat yoki kombinatsiya faqat qizlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, bu haqda almashtirish mumkin bo'lgan harakat yoki kombinatsiya ko'rsatilgan holda havola beriladi.

Har bir misol oxirida barmoqlardagi mashqlardan misollar beriladi, biroq saboqlarni shunday tuzish kerakki, barmoqlardagi mashqlar va sakrashlar (allegro) bir kunda bajarilmasligi lozim.

Klassik raqs metodikasining asosiy talablaridan biri – maqsadga yo'naltirilgan musiqiy tarbiyadir.

Zal o'rtasida uskuna bilan bajariladigan mashqlar improvizatsiya (badiha-tayyorgarlik ko'rmasdan) ostida bo'ladi. Adagio, allegro va barmoqlardagi harakatlarda improvizatsiya tayyor musiqiy shakl bilan almashadi.

Improvizatsiya pianinochining shaxsiy musiqiy tafakkuri tarzida ham, ammo qaysidir musiqiy asar mavzusi bo'yicha ham bo'lishi mumkin. Improvizatsion musiqa pedagog tomonidan berilgan kombinatsiya shakliga qat'iy bo'ysunishi, harakatlarning xarakteriga mos keladigan ma'lum bir ritmik shaklga ega bo'lishi lozim.

Agar, masalan, battements fondus bir kombinatsiyada battements frappés bilan ijro etilsa, musiqiy frazaning ritmik shakli turlicha xarakter kasb etishi mumkin. Battements fondus ijrosida rejali ohangdorlikni hamda battements frappés ijrosida keskin stakkatoga o'tishni qayd etish zarur.

Musiqi ma'lum bir temp (sur'at), vazn va ritmik shakl berib, harakatning xarakterli xususiyatlarini qayd etadi va aniqlab beradi, uning ijrosiga ko'maklashadi, ayni paytda o'quvchilarni musiqa xarakteri va harakat xarakteri orasidagi muvofiqlikni tushunishga o'rgatadi.

Pianinochining ijodiy fantaziyasi bilan ritmik shaklni birlashtirish (yaxshi, xilma-xil improvizatsiyalar) dars sifatini oshiradi. Ma'lum bir vazn, temp (sur'at) va shakl harakatning texnik xarakterini aniqlab beradi; turli xilda uyg'unlashgan melodiya (ohang) harakatlarning emotsional bo'yoqdorligini yaratadi, darsning musiqiy boyligini ta'minlaydi.

Uskuna oldidagi va zal o'rtasida bajariladigan mashqlardagi nota materialiga biz unchalik qo'shilmaymiz, chunki tayyor musiqiy shakl bilan harakatlarni sun'iy birlashtirish pedagogni kombinatsiyalarga bog'lab qo'yadi

yoki faqatgina temp va vaznga moslashib musiqiy asarga qarshi borishga majbur qiladi.

Allegro va barmoqlardagi harakatlarda nota materiali – musiqiy asarlar va balet adabiyotidan parchalar – harakat va kombinatsiyalarning xarakteriga muvofiq tarzda pianinochi tomonidan tanlanadi.

Agar balet spektaklida baletmeyster musiqaga to'liq bo'ysunib, uning mazmuni va shaklini uzatsa, darsda esa teskari hodisa sodir bo'ladi: musiqa o'z shakli bo'yicha harakatga bo'ysunadi.

Darsning barcha kombinatsiyalari musiqiy jummalarni hisobga olishi, musiqa bilan birga boshlanishi va tugallanishi kerak. Musiqiy jumlar katta va kichik bo'lishi mumkin: to'rt, sakkiz, o'n olti, o'ttiz ikki taktli va sh.k. Ekzersis va adagioning kombinatsiyalari bir yarim jumla ham bo'lishi mumkin: o'n ikki takt, yigirma to'rt va sh.k.

Klassik raqsdagi barcha harakatlarni bajarish uchun orqa (umurtqa)ni to'g'ri ushlash zarur, ayni shu narsa o'quvchining bardoshli bo'lishiga – aplombga yordam beradi.

A.Y.Vaganova "Klassik raqs asoslari" kitobida "Aplombning o'zagi (sterjeni) – umurtqa pog'onasi", deb yozadi.

Batafsilroq aytish lozimki, tananing chidamliligi – aplomb uchun eng muhimi – bel, beshinchi umurtqa hisoblanadi, chunki uning atrofida muntazam tarzda mayda, ammo kuchli mushaklar yuzaga keladi.

Orqaning aynan mana shu qismi, pastga erkin ko'tarilgan yelka va kuraklarda, xuddi yuqoriga ko'tarilgandek his qilinishi lozim. Ayni shu holdagi umurtqa (orqa) poldan sakralganda va sakrashlardan so'ng yengil qaytib tushganda barmoqlardagi barcha harakatlarda, pol bo'ylab aylanganda va havoda yordam beradi.

Erkin engashish, bukilish, bir holatdan ikkinchisiga uyg'un o'tishlardagi mujassamlashgan tana harakatlarining ifodaviyligi qo'l va bosh harakatlari bilan birikib, faqat yaxshi rostlangan qomatdagina o'z maqsadiga erishadi.

Qadni rostlashga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Birinchi sinfda orqa (umurtqa)ni belgacha ko'tarish (rostlash) tavsiya qilinmaydi, chunki hali mustahkamlanmagan oyoq mushaklarining egilib qolishi – lordozga olib borishi mumkin.

Erkin ko'krak qafasi, ichkariga tortilgan qorin, oshqozon va dumba mushaklari – mana birinchi sinfda talab qilinadigan narsalar. Tananing chidamliligiga qo'llar yordam beradi. Ikkinchi sinfdan boshlab oyoq va dumba mushaklari mustahkamlangach, orqa (umurtqa)ni belgacha ko'tarish tushunchasi va his etishi olib kiriladi.

Son, tayanch oyoq va (erkin tushirilgan yelkalarda) belning ichga tortilishini hosil qiluvchi yagona sterjen - aplombni egallash, texnikani rivojlantirish, qolaversa, ijro etish mahorati imkonini beradi.

Klassik raqsdagi qo'llarning vazifasi haqida bir-ikki og'iz so'z. Rus balet maktabi nafaqat pozitsiyalardagi qo'llar holatini batafsil aniqladi, balki ularning ikki qismidagi funksiyalarini ham aniqlab berdi. Birinchisi: qo'llar – raqsdagi yordamchilar, ular bir yoki ikki oyoqda, tovon yoki barmoqlarda turgan tananing umumiy barqarorligini ta'minlaydi, poldagi yoki havodagi barcha aylanishlarda yordam beradi, aylanishlarga kuch beradi, ularning kuchiga kuch qo'shib, ularni muvofiqlashtiradi.

Qo'llar katta sakrashlarda alohida rol o'ynaydi, ko'tarilish va havoda ushlab turishda ular ayni paytda pozaning shaklini saqlab qoladi.

Qo'llarning ikkinchi vazifasi – ijro etilayotgan raqsning mazmunini, hiyhayajonni plastik ifodalashdir, ayni shu qo'llar raqqosaning butun tanasiga uyg'un shakl bag'ishlaydi.

Qo'llarning uch pozitsiyasi hamda sinfdagi mashg'ulotlar to'g'ri o'rgatilgan va qat'iy amal qilingan tayyorgarlik holati sahna raqsida beqiyos imkoniyatlar ochib beradi, sinfdagi tartib-qoidalardan chekinish va baletmeysterning xilma-xil topshiriqlariga bo'ysunish imkonini beradi.

Uch pozitsiyaning shakli go'yo ulardan turli xil chekinishlar orqali namoyon bo'ladi, qo'llar qayerda yangi qadam (pas-pa) tashlanganda tana harakatini ongli bajara oladi; ommaviy, yakka va duet raqsdagi yangi holatlar klassik merosdagi akademik qonun-qoidalariga ko'p darajada bog'liq bo'ladi.

Pianinochi sinfdagi kundalik dars jarayonida va o'quvchilarni musiqiy tarbiyalashda ijodkor sifatida ishtirok etadi, tayyor musiqiy shaklni taqozo etadigan holatlarda esa pedagog topshirig'i bilan musiqiy adabiyotlar tanlab beradi.

Kitobda pozalarning holatini, zal o'rtasidagi mashqlar davomida to'g'ri, diagonal va aylana bo'yicha yo'nalishni belgilab beradigan, shartli tarzda raqamlangan sinf rejasi ham o'rin olgan.

Kitobning vazifasi – boshlovchi pedagoglarga darslarni mustaqil tashkil etish va o'quv dasturini yil bo'yicha taqsimlashda yordamlashishdir; ishonamizki, Leningrad xoreografiya bilim yurti pedagoglarining tajribasi asosida yaratilgan ushbu qo'llanma qo'yilgan maqsadni bajarishga ko'maklashadi.

BIRINCHI SINIF

BIRINCHI YARIM YILLIK

Gavda, oyoqlar, qo'llar va boshni tutishni o'zlashtirish uchun klassik raqsda qabul qilingan dastlabki mashqlar, harakatlarni muvofiqlashtirishning oddiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

(O'quvchilar mashqlarni dastlab uskunaga qarab ikki qo'lda, keyinroq esa bir qo'lda, o'ng va chap oyoqlarni almashtirgan holda bajaradilar. I va II pozitsiyalarda tayyorgarlik holatidan qo'llarni yozish – uskuna bilan zal o'rtasida préparation - to'rtta boshlang'ich akkordda bajariladi; qo'llarni tayyorgarlik holatiga tushirish esa ikkita yakunlovchi akkordda bajariladi. O'quv yilining oxirida préparation ikki boshlang'ich akkordda bajariladi.)

SABOQNING BIRINCHI MICOJI

USKUNA OLDIDAGI MASHQ (EKZERSIS) ¹

1. *Demi-plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I, II, III va V pozitsiyalarda ikkitadan demi-pliés. Har bir demi-plié ikki taktda ijro etiladi. Oyoqlar holatini almashtirish to'rt akkordda bajariladi.

2. *I pozitsiyadan battements tendus. 4/4 o'lchamdagi 32 takt.*

Oldinga, yon tomonga, orqaga va yon tomonga to'rttadan battements tendus, har biri 2 taktili.

3. *I pozitsiyadan demi-plié bilan battements tendus. 4/4 o'lchamdagi 16 takt.*

Birinchi taktda - battements tendus oldinga, ikkinchi taktda - demi-plié. Yana bir marta qaytariladi, ayni shu narsa ikki marta yonga, ikki marta orqaga va yana ikki marta yonga qarab ijro etiladi.

4. *I pozitsiya bo'yicha passé par terre. 4/4 o'lchamdagi 16 takt.*

Birinchi taktda – I pozitsiyada ushlab turilmasdan battement tendu oldinga, ikkinchi taktda - battement tendu orqaga; yana I pozitsiya bo'yicha passé va battement tendu oldinga va h.k. Mashq 8 marta qaytariladi.

5. *Demi-rond de jambe (chorak aylanishda). Musiqiy o'lcham 4/4.*

En dehors:

¹ Darcha misollar uskunaga qarab bajariladi.

a) 2/4 o'lchamda harakatdagi oyoq I pozitsiyadan oldinga ko'tariladi, 2/4 da yonga yoziladi, 2/4 da I pozitsiyaga qo'yiladi hamda 2/4 da I pozitsiya holati saqlanadi. Xarakat 4 marta takrorlanadi.

b) 2/4 o'lchamda oyoq I pozitsiyadan yonga ko'tariladi, xuddi shu o'lchamda orqaga I pozitsiyaga qo'yiladi, 2/4 o'lchamda I pozitsiya holati saqlanadi. Harakat to'rt marta takrorlanadi.

En dedans: ayni shu narsa oyoqlarni yon tomonga tashlab orqaga va oldinga tashlab yonga bajariladi.

6. *Qo'llar uchun mashq. 3/4 musiqiy o'lcham (sokin vals).*

I yoki V pozitsiyada uskunaga yonbosh holda turiladi, bir qo'l uskunani ushlaydi, boshqasi esa tayyorgarlik holatida bo'ladi.

a) 2 taktda qo'l tayyorgarlik holatidan I pozitsiyaga tushiriladi; ushbu holat 2 taktda saqlanadi; 2 taktda tayyorgarlik holatiga tushiriladi; 2 taktda tayyorgarlik holatida qoladi;

b) 2 taktda qo'l tayyorgarlik holatidan I pozitsiyaga ko'tariladi; 2 taktda III pozitsiyaga ko'tariladi; 2 taktda I pozitsiyaga tushiriladi; 2 taktda tayyorgarlik holatiga o'tadi;

c) 2 taktda qo'l tayyorgarlik holatidan I pozitsiyaga ko'tariladi; 2 taktda II pozitsiyaga olib boriladi; 2 taktda holat saqlab turiladi; 2 taktda tayyorgarlik holatiga tushiriladi.

d) 2 taktda qo'l I pozitsiyaga, 2 taktda III pozitsiyaga ko'tariladi; 2 taktda II pozitsiyaga yoziladi; 2 taktda tayyorgarlik holatiga tushiriladi.

Sanab o'tilgan mashqlarning har biri to'rt martadan takrorlanadi.

7. *V pozitsiyadan battements tendus. 4/4 o'lchamdagi 32 takt.*

Tўрттадан battements tendus (xar бири 2 тактдан) олдинга, ёнга, орқага ва ёнга.

8. *I pozitsiyadan battements tendus jetésга тайёргарлик машқлари. 4/4 мусикий ўлчам.*

Birinchii va ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq uchi bilan polga tiraladi, uchinchi chorakda 45⁰ga tashlanadi, to'rtinchi chorakda oyoq uchi bilan polga tashlanadi; keyingi taktning ikki choragida oyoq I pozitsiyada yig'iladi va ikki chorakda I pozitsiyaning dastlabki holati saqlanadi.

Mashq to'rt marta takrorlanadi, keyin yonga va orqaga bajariladi.

9. *Battement frappéga tayyorgarlik mashqi. 2/4 musiqiy o'lcham.*

Ikki boshlang'ich akkordda oyoq uchi polga tekkizilib, I yoki V pozitsiyadan yon tomonga olinadi (préparation).

Birinchi taktda oyoq tizzaga bukiladi va oldinga sur le cou-de-pied holatiga qo'yiladi; ikkinchi taktda mazkur holat saqlanadi; uchinchi taktda oyoq uchi polga tiralib yonga olinadi; to'rtinchi taktda holat saqlanadi.

Mashq to'rt marta takrorlanadi, so'ngra orqaga sur le cou-de-pied bajariladi.

10. *I pozitsiyada yarimbarmoqlardagi relevé. 4/4 o'lchamdagi 32 takt.*

a) Birinchi taktda yarimbarmoqlarda yengilgina ko'tariladi; ikkinchi taktda yarimbarmoqlarda turiladi; uchinchi taktda ikki tovonga yengilgina tushiriladi; to'rtinchi taktda I pozitsiyada turiladi.

b) Birinchi va ikkinchi choraklarda yarimbarmoqlarda ko'tariladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda yarimbarmoqlarda turiladi; keyingi taktning ikki choragida ikki tovonga tushiriladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda I pozitsiyada turiladi.

Har bir mashq to'rt martadan takrorlanadi.

ZAL O'RTASIDAGI HARAKATLAR

1. *Qo'llar uchun mashq. Musiqiy o'lcham 3/4.*

Uskuna bilan bajariladigan mashqda ko'rsatilgan harakatlar (6 p.) bir paytda ikki qo'l bilan bajariladi; oyoqlar I pozitsiyada yarim qayrilgan holatda.

2. *Musiqiy o'lcham 2/4. Marsh.*

Qo'llar belda, harakat o'ng oyoqdan boshlanadi, harakatlar almashadi; sekin yurishlardan tezrog'iga, so'ngra tez yugurishlar va h.k. Harakat aylana va diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga, 2-nuqtadan 6-nuqtaga; 4-nuqtadan 8-nuqtaga va 8-nuqtadan 4-nuqtaga.

SABOQNING IKKINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQ (EKZERSIS)

1. *Demi-plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I, II, III, V va IV pozitsiyalarda ikkitadan demi-plié, har biri 2 taktdan. Uskunaga qarab bajariladi.

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 4/4 bo'yicha 16 takt.*

To'rttadan battements tendus oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 4/4 o'lchamda. Uskunaga qarab bajariladi.

3. *Bir qo'lda uskunani ushlab turib, oldingi mashq takrorlanadi; biroq barcha yo'nalishlarda ikkitadan harakat ijro etiladi.*

4. *V pozitsiyadan battements tendus jetés. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Birinchi chorakda harakatdagi oyoq uchi polga tiraladi, ikkinchisida 450da tashlanadi, uchinchi chorakda oyoq uchi polga tushiriladi, to'rtinchisida esa V pozitsiyada yig'iladi. Harakat to'rt marta qaytariladi, so'ngra barcha yo'nalishlar bo'yicha to'rt martadan yonga, oldinga va yonga qarab ijro etiladi. Uskunaga qarab bajariladi.

5. *Bir qo'lda uskunani ushlab turgan holda 4-mashq takrorlanadi, barcha yo'nalishlarda ikkitadan harakat ijro etiladi.*

6. *Ronds de jambe par terre. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

En dehors: birinchi va ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq I pozitsiyadan oldinga olinadi, uchinchi va to'rtinchi chorakda yon tomonga olinadi; keyingi taktning ikki choragida orqaga olinib, uchinchi va to'rtinchi chorakda I pozitsiyaga qo'yiladi.

Harakat en dehors va en dedansda to'rt martadan takrorlanadi. Uskunaga qarab bajariladi.

Uskunani bir qo'lda ushlab turib oldingi mashq takrorlanadi, en dehorsda to'rt marta, en dedansda to'rt marta bajariladi.

Oxirida oddiygina port de bras bajariladi; qo'l tayyorgarlik holatidan I pozitsiyaga ko'tariladi, keyin III pozitsiyaga, II pozitsiyada yig'ilib, tayyorgarlik holatiga tushiriladi.

7. *Battements frappés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki holat — harakatdagi oyoq uchi polga tiraladi. Birinchi chorakda harakatdagi oyoq tizzaga bukilib, oldinlama tayanch sur le cou-de-piedda tepiladi; ikkinchi chorakda oyoq uchi yon tomonga olib boriladi, uchinchi va to'rtinchi chorakda ushbu holat saqlanadi. So'ngra orqalama sur le cou-de-piedda zarba beriladi. Harakat uskunaga qarab ijro etiladi va sakkiz marta takrorlanadi.

8. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Dastlabki holat — harakatdagi oyoq oldinlama sur le cou-de-piedda. Birinchi takt: oyoq II pozitsiyada yon tomonga yoziladi; ikkinchi takt: orqadan bukilib, sur le cou-de-piedga qo'yiladi; uchinchi takt: yonga II pozitsiyada yoziladi; to'rtinchi takt: oldindan sur le cou-de-piedga qo'yiladi. Harakat uskunaga qarab bajariladi va sakkiz marta qaytariladi.

9. *45° ga battements relevés lents. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I va yoki V pozitsiyadan birinchi taktida harakatdagi oyoq astagina 450 ga oldinga ko'tariladi; ikkinchi taktida holat saqlanadi, uchinchi taktida oyoq sekingina dastlabki holatga tushiriladi; to'rtinchi taktida I yoki V

pozitsiyadagi holat saqlanadi. Harakat uskunaga qarab ikki martadan oldinga, yonga va orqaga bajariladi.

10. *I, II va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlarda relevé. Musiqiy o'lcham 2/4.*

a) Birinchi takt: yarimbarmoqlarda ko'tariladi; ikkinchi takt: dastlabki holatga tushiriladi. Mashq har bir holatda to'rt martadan takrorlanadi.

b) Birinchi chorakda – demi-plié, ikkinchisida yarimbarmoqlarda ko'tariladi; to'rtinchi taktning ikki choragida tovonga sekingina tushiriladi. Mashq har bir pozitsiyada to'rt martadan takrorlanadi. Uskunaga qarab ijro etiladi.

12. *I pozitsiyada gavdani uskunaga qarab bukishlar. Musiqiy o'lcham 3/4. (vals)*

4 taktida – gavdani oldinga egish va uni to'g'ri holatga qaytarish; 4 taktida – orqaga egilish va to'g'ri holatga qaytish; 4 taktida o'ng tomonga va 4 taktida chap tomonga bukish. Mashq to'rt marta qaytariladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQ (EKZERSIS)

1. *Demi-plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I, II, III va V pozitsiyalarda ikkitadan demi-plié, har biri ikki taktdan.²

2. *I pozitsiyadan battements tendus. 4/4 o'lchamdagi 16 takt.*

Oldinga, yonga, orqaga va yonga to'rtadan battements tendus, har biri 4/4 lik.

3. *V pozitsiyadan battements tendus. 4/4 o'lchamdagi 8 takt.*

Oldinga, yonga, orqaga va yonga ikkitadan battements tendus, har biri 4/4lik.

4. *V pozitsiyadan demi-plié bilan battements tendus. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

4/4da - battements tendus, 4/4da - demi-plié; oldinga, yonga, orqaga va yonga ikki martadan.

5. *Qo'llar uchun mashq. Musiqiy o'lcham 2/4 yoki 3/4.*

Barcha pozitsiyalarda qo'llarni sekin ko'tarish va tushirish. I-II pozitsiyalar, I-III-II pozitsiyalar, so'ngra qo'l harakatlarining kombinatsiyasi; o'ng qo'l I pozitsiyada, chap qo'l II pozitsiyada; chap qo'l I pozitsiyada, o'ng qo'l II pozitsiyada; o'ng qo'l I pozitsiyada, chap qo'l III pozitsiyada; chap qo'l I pozitsiyada, o'ng qo'l III pozitsiyada va sh.k.³

² III va V pozitsiyalarda demi-plié o'ng va chap oyoq bilan en face holatida ijro etiladi.
³ Oyoqlar I pozitsiyada joylashadi.

SABOQNING UCHINCHI MISOLI
USKUNA OLDDIDAGI MASHQ (EKZERSIS) ⁴

1. *Demi-plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I, II, III va V pozitsiyalarda demi-plié, har biri 2 taktdan.

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 2/4 o'lchamdagi 16 takt.*

Oldinga, yonga, orqaga va yonga to'rttadan battements tendus, har biri 2/4 o'lchamda.

3. *V pozitsiyadan battements tendus doubles (tovonni II pozitsiyaga tushirish). 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi chorakda harakatdagi oyoq uchi yon tomonga polga tiraladi, ikkinchi chorakda oyoq II pozitsiyaga tovon bilan tushiriladi, uchinchi chorakda ko'tarilish va oyoq barmoqlari cho'ziladi, to'rtinchi chorakda oyoq polda yig'iladi. Harakat sakkiz marta qaytariladi.

4. *V pozitsiyadan battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Qo'shib (birgalikda) ijro etiladi: birinchi chorakda – oyoq 45⁰ga tashlanadi, ikkinchi chorakda – oyoq dastlabki V pozitsiyaga qaytadi.

To'rttadan battements tendus oldinga, yonga va orqaga 2/4 o'lchamda qilinadi; to'rt taktda relevé lent II pozitsiya tomon 45⁰ga bajariladi.

5. *Rond de jambe par terre. Musiqiy o'lcham 4/4.*

En dehors: birinchi chorakda harakatdagi oyoq I pozitsiyadan oldinga uzatiladi va o'sha nuqtani belgilaydi; ikkinchi chorakda yonga uzatiladi, ayni paytda nuqtani belgilaydi; uchinchi chorakda orqaga olib boriladi, nuqtani belgilaydi; to'rtinchi chorakda I pozitsiyaga qo'yiladi.

Harakat to'rt marta qaytariladi, keyin har biri ayni shu musiqiy o'lchamda - 4/4 da ijro etiladi, ammo shoshmasdan, to'xtalishlarsiz – oldinga, yonga va orqaga. Ayni shu taxlitda en dedans takrorlanadi. Mashq oxirida ikki taktda, 4/4 o'lchamda oddiygina port de bras ijro etiladi.

6. *V pozitsiyaga battements soutenus. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Barcha yo'nalishlarda ikki martadan bajariladi. Birinchi va ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq uchi battements tendus qoidalariga binoan berilgan yo'nalish bo'yicha polga uzatiladi; ayni paytda tayanch oyoqda demi-pliéga tushiriladi. Uchinchi va to'rtinchi chorakda harakatdagi oyoq V pozitsiyaga qaytadi, tayanch oyoq esa yoziladi.

7. *Barcha yo'nalishlardagi battements frappés. Musiqiy o'lcham 4/4.*

⁴ 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10-mashqlar uskunani bir qo'l bilan ushlagan holda bajariladi.

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq uchi polda yon tomonga uzatilgan. Birinchi chorakda oyoq tizzaga bukiladi va oldinlama sur le cou-de-piedda tayanch oyoqqa uriladi; ikkinchi chorakda oyoq uchi oldinga, polga uzatiladi, uchinchi va to'rtinchi chorakda ushbu holat saqlanadi. So'ngra ayni shu narsa yonga, orqaga va yonga bajariladi. Kombinatsiya sakkizdan o'n oltigacha qaytariladi.

8. *Battements doubles frappés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq yon tomonga uzatilgan, oyoq uchi polda. Birinchi chorakda oyoq tizzaga bukiladi, oldindan sur le cou-de-piedda tayanch oyoqqa uriladi; ikkinchi chorakda yoziladi va orqadan sur le cou-de-piedga o'tkaziladi; uchinchi chorakda yon tomonga uzatiladi, oyoq uchi polda; to'rtinchi chorakda holat saqlanadi. Navbatdagi double frappé orqalama sur le cou-de-piedning zarbi hamda harakatdagi oyoqning oldinlama sur le cou-de-piedga o'tkazilishi bilan ijro etiladi. Harakat sakkiz marta qaytariladi.

9. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikki boshlang'ich akkordda harakatdagi oyoq yonga uzatiladi, oyoq uchi polda, ayni paytda qo'l tayyorgarlik holatidan I pozitsiyaga ko'tariladi. Navbatdagi ikki akkordda oyoq bukiladi va oldinga sur le cou-de-piedga qo'yiladi, ayni paytda qo'l II pozitsiyaga yoziladi. Birinchi takt: oyoq II pozitsiya tomonga yoziladi va orqalama sur le cou-de-piedda bukiladi; ikkinchi takt: oyoq II pozitsiya tomon yoziladi va oldinlama sur le cou-de-piedga bukiladi. Harakat sakkiz marta qaytariladi.

10. *I, II, III va V pozitsiyalarda grand plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Ko'rsatib o'tilgan barcha pozitsiyalarda ikkitad n grand plié ijro etiladi, har biri ikki taktdan.

11. *Ronds de jambe en l'airga tayyorgarlik. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab bajariladi. Dastlabki holat – harakatdagi oyoq yonga 45^oda yozilgan. Birinchi takt: oyoq tizzada bukiladi va uchi bilan tayanch oyoq boldirining o'rtasiga olib boriladi; ikkinchi takt: oyoq yon tomonga 45^oga uzatiladi. Harakat to'rt dan sakkiz martaga qadar takrorlanadi. Biroz keyinroq ushbu mashq bir taktda 4/4 o'lchamda o'rganiladi.

12. *II pozitsiya tomon battements relevés lents. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Uskunaga qarab ijro etiladi. Birinchi takt: harakatdagi oyoq I yoki V pozitsiyadan yonga 90^oda ko'tariladi; ikkinchi takt: o'sha holat saqlanadi; uchinchi takt: oyoq I yoki V pozitsiyaning dastlabki holatiga tushiriladi; to'rtinchi takt – pozitsiyada to'xtash. Harakat ikki marta takrorlanadi.

13. *I, II va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlarda relevé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab bajariladi. Birinchi takt: birinchi chorakda demi-plié; ikkinchi chorakda yarimbarmoqlarda ko'tariladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda – holat saqlanadi. Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda demi-pliéga tushiriladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda tizzaga keladi. Mashq har bir pozitsiyada to'rt martadan takrorlanadi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQ (EKZERSIS)

1. *Demi-plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I, II, III va V pozitsiyalarda ikkitadan demi-plié, har biri 2 taktdan.

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Oldinga, yonga, orqaga va yonga to'rttadan oldinga battements tendus, har biri 4/4 o'lchamda.

3. *I pozitsiyadan yon tomonga battements tendus jetés. Musiqiy o'lcham 2/4.*

Har biri 2/4 o'lchamli sakkizta battements tendus jetés.

4. *Demi-rond de jambe par terre. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

En dehors: Birinchi takt: birinchi chorakda harakatdagi oyoq oldinga uzatiladi; ikkinchi chorakda yon tomonga olib boriladi; uchinchi chorakda I pozitsiyada yig'iladi, to'rtinchida holat saqlanadi. Ikkinchi takt: rond de jambe par terre en dehorsning ikkinchi qismi ijro etiladi. Harakat to'rt marta takrorlanadi, so'ngra en dedansda bajariladi.

5. *V pozitsiyada épaulement croisé va effacéni o'rganish.*

6. *Croisé va effacé pozalari oldinga va keyinga. Musiqiy o'lcham 3/4. (vals)*

Croisé pozasi oldinga.

Epaulement croiséning V pozitsiyasi, o'ng oyoq oldinda. Birinchi va ikkinchi taktlar: qo'llar I pozitsiyaga ko'tariladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: chap qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi, o'ng qo'l II pozitsiyaga yoziladi, bosh o'ngga qayriladi. Beshinchi va oltinchi taktlar: o'ng qo'l croisé pozasida oldinga cho'ziladi, oyoq uchi polda. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: holat saqlanadi. Keyingi to'rt taktda poza saqlab turiladi. O'n uchinchi va o'n to'rtinchi taktlar: chap qo'l II pozitsiyada yoziladi. O'n beshinchi va o'n oltinchi taktlar: qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi, ayni paytda oyoq V pozitsiyaga yig'iladi.

Orqalama croisé hamda oldinlama va orqalama effacé pozalari ham xuddi shu tarzda o'rganiladi.

7. *Il port de bras. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Dastlabki holat - épaulement croiséning V pozitsiyasi, o'ng oyoq oldinda, qo'llar tayyorgarlik holatida.

Birinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda qo'llar I pozitsiyaga ko'tariladi, uchinchi va to'rtinchi chorakda – III pozitsiyada.

Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda qo'llar II pozitsiyaga yoziladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda tayyorgarlik holatiga tushiriladi.

8. *Il port de bras. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Dastlabki holat - épaulement croiséning V pozitsiyasi, o'ng oyoq oldinda, chap qo'l III pozitsiyada, o'ng qo'l II pozitsiyada.⁵

Birinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda qo'l II pozitsiyaga yoziladi, uchinchi va to'rtinchi chorakda chap qo'l tayyorgarlik holatiga tushiriladi, o'ng qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi.

Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda qo'llar I pozitsiyada birlashadi; uchinchi va to'rtinchi chorakda dastlabki holatga qayta yoziladi.

Harakat to'rt marta takrorlanadi.

Qayd etish lozimki, kelgusida kombinatsiyalardagi misollarda, katta va kichik pozalarda garchi qo'llarning holatidagi variantlar va pozalarda boshning qayrilishlari mavjud bo'lsa-da, qo'llarning holati batafsil ko'rsatilmaydi. Ular pedagogning topshirig'iga muvofiq qo'llanadi.

Barcha katta pozalarda qo'llar quyidagicha joylashishi mumkin: biri III pozitsiyada, ikkinchisi II pozitsiyada, biri I pozitsiyada, boshqasi III pozitsiyada yoki ikkala qo'l ham III pozitsiyada bo'lishi mumkin.

Kichik pozalarda qo'llar holati I va II pozitsiyalarda o'zgarishi mumkin.

90° va 45° li arabesque pozalarida – ya'ni yarim arabesklarda – qo'llarning turli xil holatlari bo'lishi mumkin, biroq barcha pozalarda qo'l holatlarining variantlari gavda holatidagi o'zgarishlarga, ya'ni tananing egilishi va kichik bukilishlariga bog'liq bo'ladi. Pozalarning katta va kichikka ajratilishi, 45° va 90°ga ijro etiladigan katta va kichik qadam (pu)lardagi o'zaro mosligi raqsga o'ziga xos badiiy shakl beradi.

⁵ Dastlabki holat to'rt boshlang'ich akkordda qabul qilinadi.

SABOQNING TO'RTINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQ (EKZERSIS)

O'quvchilar uskunani bir qo'lda ushlab mashq bajaradilar.

1. *I, II, IV va V pozitsiyalarda demi-plié va grand plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I pozitsiyada 2 taktli bitta demi-plié, 1 taktli ikkita demi-plié, har biri 2 taktli ikkita grand plié. Ayni shu narsa II, IV va V pozitsiyalarda ham ijro etiladi.

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamdagi to'rtta battements tendus; har biri 2 taktli ikkita doubles battements tendus yonga; har biri 2/4 o'lchamdagi to'rtta battements tendus orqaga va har biri 2 taktli ikkita doubles yonga.

3. *V pozitsiyadan battements tendus jetés piqués. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Birinci va ikkinchi nimchorakda – harakatdagi oyoq 45^oda oldinga tashlanadi; uchinchi nimchorakda – qisqa piqué; to'rtinchi nimchorakda oyoq 45^o balandlikda ushlab turiladi; beshinchi nimchorakda - piqué; oltinchi nimchorakda 45^o balandlikda ushlab turiladi; yettinchi va sakkizinchi nimchorakda V pozitsiyada yig'iladi. Harakat takrorlanadi, so'ngra yonga, orqaga va yonga ikki martadan bajariladi.

Oxirida 4 taktli 4/4 o'lchamdagi oldinlama croisé pozasi oyoq uchida ijro etiladi.

4. *Ronds de jambe par terre. Musiqiy o'lcham 4/4.*

En dehors: birinchi chorakda harakatdagi oyoq I pozitsiyadan oldinga tashlanadi va ushlanib qolmasdan yonga olib boriladi, ikkinchi chorakda II pozitsiyaga yetkaziladi; oyoq ushlanib qolmasdan uchinchi chorakda orqaga va to'rtinchi chorakda I pozitsiyaga qo'yiladi, ohista, to'xtalishlarsiz doira bo'ylab harakatni davom ettiradi. To'rt marta ijro etiladi, keyin en dedans takrorlanadi.

Yakunida tanani bukkani holda 2 taktli 4/4 o'lchamdagi III port de bras ijro etiladi.

5. *Battements fondus⁶. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki holat: harakatdagi oyoq yonga uzatilgan, oyoq uchi polda. Birinchi va ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq oldinlama sur le cou-de-

⁶ Saboqlarning uchinchi va to'rtinchi misollari orasida battements fondus tayoqchaga qarab o'rganiladi.

piédga bukiladi,⁷ ayni paytda tayanch oyoq demi-pliéga tushiriladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda harakatdagi oyoq cho'ziladi va oyoq uchi polga qo'yiladi, ayni paytda tayanch oyoq demi-pliéga cho'ziladi. Harakat ikki martadan oldinga, yonga, orqaga va yonga qarab ijro etiladi.

6. *Barcha yo'nalishlarda battements frappés. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Caboqning uchinchi misolidagi kabi bajariladi. Oxirida 4/4 o'lchamda 4 taktli orqalama croise pozasi oyoq uchi polga tekkizilgan holda ijro etiladi.

7. *Barcha yo'nalishlarda battements doubles frappés. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq uchi polda, yon tomonga uzatilgan. Birinchi chorakda oyoq tizzaga bukiladi va orqaga sur le cou-de-piedda tayanch oyoqqa zarba beradi; ikkinchi chorakda oyoq yoziladi va oldinlama sur le cou-de-piedga o'tkaziladi; uchinchi chorakda oyoq uchi oldinga uzatiladi; to'rtinchi chorakda holat saqlanadi. Ayni shu narsa yonga, orqaga, yonga qarab bajariladi va yana bir marta qaytariladi.

8. *Rond de jambe en l'air en dehors et en dedans. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab ijro etiladi. Dastlabki holat – harakatdagi oyoq yon tomonga 45° ga yozilgan.

En dehors: birinchi va ikkinchi chorakda oyoq tizzaga bukiladi, shartli doiraning birinchi yarmini ijro etib, oyoq uchi bilan tayanch oyoq holdirining o'rtasiga tekkiziladi. Uchinchi va to'rtinchi chorakda shartli doiraning ikkinchi yarmini tugatib, dastlabki holatga uzaytiriladi. Harakat to'rt marta takrorlanadi, so'ngra oyoq V pozitsiyaga tushiriladi va en dedans mashqlarini takrorlash uchun yon tomonga 45° ga yoziladi.

9. *Petits battements sur le cou-de-pied.*

Saboqning uchinchi misolida ko'rsatilgan tarzda ijro etiladi. Oxirida bir qo'l bilan uskunani ushlagan holda 2 taktli 4/4 o'lchamdagi mashqlar yarimbarmoqlarni V pozitsiyaga ko'targan holda bajariladi.

10. *Yonga va orqaga 90°dagi battements relevés lents. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab bajariladi. Birinchi takt: harakatdagi oyoq V pozitsiyadan 90° ga ko'tariladi. Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda holat saqlanadi; uchinchi va to'rtinchi chorakda oyoq dastlabki holatga tushiriladi. Harakat ikki marta yonga va ikki marta orqaga bajariladi.

11. *90° oldinga battements relevés lents.*

⁷ Oldinlama sur le cou-de-pied shartli qo'llanadi.

Xuddi 10-mashqdagidek bajariladi, ammo o'quvchilar bir qo'li bilan uskunani ushlab turadilar.

12. *Grands battements jetés. Musiqiy o'lcham 4/4.*

O'quvchilar uskunaga qarab yonlama va orqalama grands battements jetésni bajaradilar, oldinga qarab bir qo'lda uskunani ushlab turadilar.⁸

Harakatdagi oyoq uchi I yoki V pozitsiyadan birinchi chorakda berilgan yo'nalish bo'yicha cho'ziladi; ikkinchi chorakda – 90°ga tashlanadi; uchinchi chorakda oyoq uchi polga tushiriladi; to'rtinchi chorakda I yoki V pozitsiyaga qo'yiladi. To'rt marta yon tomonga va alohida to'rt marta orqaga bajariladi.

13. *I, II va V pozitsiyalarda relevé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab bajariladi. Birinchi chorakda – demi-plié; ikkinchi chorakda yarimbarmoqlarda ko'tariladi; uchinchisida yana demi-pliéga tushiriladi; to'rtinchisida tizzaga uzaytiriladi. Mashq har bir pozitsiyada to'rt martadan takrorlanadi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *Demi-plié. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

2 taktli bitta demi-plié, I, II, IV va V pozitsiyalarda har biri 1 taktdan ikkita demi-pliés. IV, va V pozitsiyada épaulement croisé bajariladi.

2. *V pozitsiyadan battements tendus⁹. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamda to'rttadan battements tendus yonga, orqaga va yonga bajariladi.

3. *V pozitsiyadan battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamda to'rttadan battements tendus jetés yonga, orqaga va yonga bajariladi.

Keyin 4 taktda chap oyoq bilan oldinga croisé pozasi bajariladi. Birinchi takt: harakatdagi oyoq uchi polda oldinga uzatiladi, ayni paytda qo'llar I pozitsiyaga ko'tariladi. Ikkinchi takt: qo'llar yoziladi – o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l II pozitsiyaga. Uchinchi takt: o'ng qo'l II pozitsiyaga tushiriladi. To'rtinchi takt: oyoq V pozitsiyaga yig'iladi, ayni paytda qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi. Xuddi shu tarzda o'ng oyoq bilan orqaga croisé pozasi bajariladi.

⁸ Bir necha saboqlardan keyin o'quvchilar grands battements jetésni barcha yo'nalishlarda bir qo'lida uskunani ushlab turgan holda to'rt martadan bajaradilar.

⁹ Ushbu saboqdan boshlab zal o'rtasidagi mashqda mashqlar oldidan V pozitsiyaga épaulement croiseni qo'yish tavsiya etiladi. I va II pozitsiyada qo'llarni yozib, en faceda qayriladi. Mashqlarni V pozitsiyada ham épaulement croiséda tugatish zarur.

4. *Ronds de jambe par terre. Musiqiy o'lcham 4/4.*

En dehors: harakatdagi oyoq birinchi chorakda oldinga uzatiladi va nuqtani aniqlaydi; ikkinchi chorakda yon tomonga uzatiladi va nuqtani aniqlaydi; uchinchi chorakda orqaga uzatiladi va nuqta aniqlanadi; to'rtinchi chorakda I pozitsiyaga qo'yiladi. Harakat to'rt marta bajariladi, keyin en dedans takrorlanadi.

5. *Qo'shib ijro etiladigan croisé va efface pozalari. Musiqiy o'lcham 3/4. (vals)*

Oldinlama croisé pozasi. Epaulement croisening V pozitsiyasi, o'ng oyoq oldinda. Birinchi va ikkinchi taktlar: qo'llar I pozitsiyaga ko'tariladi, o'ng oyoq ayni paytda oldinga croisega cho'ziladi, oyoq uchi polda. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: chap qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi, o'ng qo'l II pozitsiyaga yoziladi, bosh o'ngga qayriladi. Beshinchi va oltinchi taktlar: chap qo'l II pozitsiyaga yoziladi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi, ayni paytda o'ng qo'l V pozitsiyada yig'iladi.

Poza ikkidan to'rtga qadar oldinga va orqaga qaytariladi, keyin effacée pozalari bajariladi.

6. *Orqalama va oldinlama écartée pozalarini o'rganish. Musiqiy o'lcham 4/4 yoki 3/4 (vals).*

Orqalama écartée pozasi.

Epaulement effacening V pozitsiyasi, o'ng oyoq oldinda. Birinchi va ikkinchi taktlar: qo'llar I pozitsiyaga ko'tariladi, ayni paytda o'ng oyoq uchi polga tekkizilib, yonga 4-nuqta yo'nalishi bo'yicha uzatiladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi, chap qo'l II pozitsiyaga yoziladi, bosh chapga qayriladi. Beshinchi va oltinchi taktlar: o'ng qo'l II pozitsiyaga yoziladi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi, ayni paytda o'ng qo'l V pozitsiyaga yig'iladi.

Poza ikkidan to'rtga qadar takrorlanadi.

Xuddi shu tarzda oldinga écartée pozasi ham o'rganiladi.

7. *I va II arabesques (dastlabki o'rganish). Musiqiy o'lcham 3/4 (vals).*

I yoki V pozitsiyalarga chiqmagan holda 3-nuqtaga qarab bajariladi.

Birinchi va ikkinchi taktlar: qo'llar I pozitsiyaga ko'tariladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: qo'llar - o'ng qo'l oldinga, chap qo'l yonga, arabesquega xos holatni qabul qilgandek olib boriladi. Beshinchi va oltinchi

taktlar: chap oyoq orqaga uzatiladi, oyoq uchi polda. Yettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi, o'n birinchi, o'n ikkinchi taktlar: holat saqlanadi. O'n uchinchi, o'n to'rtinchi, o'n beshinchi, o'n oltinchi taktlar: qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi, ayni paytda chap oyoq I yoki V pozitsiyaga yig'iladi. Poza ikkidana to'rtga qadar takrorlanadi, so'ngra ayni shu tarzda II arabesque o'rganiladi.

8. *Il port de bras.*

Saboqning uchinchi misolidagi kabi ijro etiladi.

9. *I va II pozitsiyalarda temps levé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab ijro etiladi.

a) birinchi va ikkinchi chorakda - demi-plié, ikkinchi va uchinchi chorak orasida - uchinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan sakrash; to'rtinchi chorakda tizzalar uzaytiriladi. Mashq I va II pozitsiyalarda to'rt marta takrorlanadi.

b) birinchi chorakda - demi-plié, birinchi va ikkinchi chorak orasida - ikkinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan sakrash; uchinchi va to'rtinchi chorakda tizzalar uzaytiriladi.¹⁰

10. I pozitsiyaga chiqmagan holda gavgani oldinga, orqa va yon tomonlarga egilish bilan bajariladigan port de bras.¹¹

SABOQNING BESHINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *I, II, IV va V pozitsiyalarda demi-plié va grand plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I pozitsiyada: har biri 4/4 o'lchamda ikkita demi-plié, bitta 2 taktli grand plié. Ayni shu narsa II, IV va V pozitsiyalarda ijro etiladi.

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamdagi to'rtta battements tendus, har biri 2 taktli yonlama demi-pliéda ikkita battements tendus; harakatni quyidagicha taqsimlash lozim: birinchi chorakda harakatdagi oyoq yonga uzatiladi, ikkinchi chorakda demi-pliéda V pozitsiyaga yig'iladi. Keyingi taktning birinchi choragida demi-plié chuqurlashadi, ikkinchi chorakda tizzalar cho'ziladi. Har biri 2/4 o'lchamdagi to'rtta battements tendus orqaga va har biri 2 taktli ikkita battements tendus yonga demi-pliéda bajariladi.

¹⁰Bir necha saboqdan keyin temps levé V pozitsiyada ijro etiladi. I va II pozitsiyalarda uskunada bajargandan keyin zal o'rtasida ham takrorlanadi.

¹¹Keyingi barcha saboqlar tanani bukkana holda port de bras bilan tugallanadi.

3. *V pozitsiyadan battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamdagi to'rtta battements tendus oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi.

Oxirida 4 taktda orqaga écartée va 4 taktda oldinga écartée bajariladi.

4. *Rond de jambe par terre uchun préparation. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

En dehors: Birinchi takt: birinchi chorakda – I pozitsiyada demi-plié; ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq I pozitsiyaga ko'tariladi; uchinchi va to'rtinchi choraklarda o'sha oyoq II pozitsiyaga yoziladi, ayni paytda qo'l II pozitsiyaga yoziladi, tayanch oyoq tizzasi esa cho'ziladi. Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda holat saqlanadi; uchinchi va to'rtinchi chorakda oyoq I pozitsiyaga qo'yiladi, ayni paytda qo'l tayyorgarlik holatiga tushiriladi. Harakat to'rt marta takrorlanadi, so'ngra ayni shu tarzda en dedans bajariladi.

5. *Rond de jambe par terre.*

Caboqning to'rtinchi misolida ko'rsatilganidek bajariladi. Oxirida 4/4 o'lchamdagi 2 taktili plié (rond de jambe par terre)da aylanib o'tish bajariladi.

En dehors: birinchi takt: birinchi chorakda demi-plié va pozitsiyada, ikkinchi chorakda harakatlanayotgan oyoq oldinga uzatiladi, oyoch uchi polda, ayni paytda qo'l I pozitsiyaga ko'tariladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda oyoq qo'l bilan bir vaqtda II pozitsiyaga boradi. Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda oyoq orqaga olib boriladi: uchinchi va to'rtinchi chorakda oyoq I pozitsiyaga qo'yiladi, ayni paytda tayanch oyoq cho'ziladi, qo'l esa tayyorgarlik holatiga tushiriladi. Keyin ayni shu tarzda pliédagi aylanishda en dedans bajariladi.

6. *Battements fondus.*

Xuddi saboqning to'rtinchi misolida ko'rsatilganidek bajariladi. Oxirida 4/4 o'lchamdagi 2 taktili mashqlar oyoq uchi polda II arabesques pozasida bajariladi.

7, 8, 9, 10. *Battements frappés, doubles frappés, ronds de jambe en l'air, petits battements sur le cou-de-pied.*

Caboqning to'rtinchi misolida ko'rsatilganidek bajariladi.

11. *V pozitsiyadan 90° li battements relevés lents. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2 taktili 90°li relevés bir qo'lda uskunani ushlagan holda oldinga, orqaga va yonga bajariladi.

11. *V pozitsiyadan grands battements jetés. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamdagi ikkita grands battements jetés oldinga, yonga, orqaga va yonga ijro etiladi; harakat quyidagicha taqsimlanadi: birinchi chorakda – harakatdagi oyoq 90⁰ga tashlanadi, ikkinchi chorakda oyoq V pozitsiyaga tushiriladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda V pozitsiyada to'xtatiladi.

12. *I, II va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlardagi relevé.*

Caboqning to'rtinchi misolida ko'rsatilganidek bajariladi.

13. *Oyoqlarni en dehors en dedansga almashtirgan holda pas de bourrée. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab bajariladi. V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda.

En dehors: taktdan so'ng - o'ng oyoqda demi-plié qilinadi, chap oyoq orqalama sur le cou-de-piyedga bukiladi. Birinchi chorakda o'ng oyoqni oldindan sur le cou-de-piedga bukiib, yarim barmoqlarda chap oyoqda turiladi; ikkinchi chorakda – chap oyoq oldinlama sur le cou-de-piedda, o'ng oyoq yarimbarmoqlarida yon tomonga qadam tashlanadi; uchinchi chorakda – o'ng oyoqda demi-plié qilinadi, o'ng oyoq orqalama sur le cou-de-piedda; to'rtinchi chorakda holat saqlanadi. Harakat qatorasiga o'ng va chap oyoqlarda to'rtidan sakkizga qadar takrorlanadi. Ayni shu tarzda pas de bourrée en dedans bajariladi.¹²

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *I, II, IV va V pozitsiyalarda demi-plié va grand plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I pozitsiyada: har biri 4/4 o'lchamdagi ikkita demi-plié; 2 taktli bir grand plié. Bu ham II pozitsiyada ijro etiladi. IV va V pozitsiyalarda har biri 4/4 o'lchamdagi ikkita demi-plié bajariladi.¹³

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamda sakkizta battements tendus oldinga, yonga va orqaga bajariladi. Oxirida 4 taktda chap oyoq bilan orqaga écartée pozasini, 4 taktda o'ng oyoq bilan oldinga écartée pozasini bajarish kerak.

3. *V pozitsiyadan battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamda battements tendus jetés oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi. Oxirida 4 taktda chap oyoq bilan I arabesque pozasi va 4 taktda II arabesque pozasi ijro etiladi.

¹²Bir necha saboqlardan keyin bu pas de bourrée 2/4 va 2/4 ga o'zgaradi.

¹³Demi-plié IV pozitsiyada épaulement croiséda ijro etiladi.

4. *Ronds de jambe par terre. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamda to'rtta ronds de jambe par terre en dehors va to'rtta en dedans ohista, to'xtalishlarsiz ijro etiladi. V pozitsiyada épaulement croiséda tugatiladi va ikki marta har biri 2 taktli II port de bras ijro etiladi.

5. *V pozitsiyadan battements soutenus. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Saboqning uchinchi misolidagi kabi uskuna oldida bajariladigan mashqlarning 6-punktida ko'rsatilgan tarzda bajariladi.

6. *III arabesque. Musiqiy o'lcham 4/4(vals)¹⁴*

Saboqning to'rtinchi misolida ko'rsatilgan tarzda (I va II arabesque) ketma-ketlikda o'rganiladi.

7. *III port de bras. Musiqiy o'lcham 4/4¹⁵*

Birinchi takt; birinchi va ikkinchi chorakda gavda oldinga egiladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda gavda rostlanadi. Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda tana orqaga egiladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda rostlanadi.

8. *I, II va V pozitsiyalarda temps levé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Saboqning to'rtinchi misolida ko'rsatilgan tarzda o'rganiladi.

9. *Changements de pieds. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab ijro etiladi, o'zlashtirishga qarab zal o'rtasida ham bo'lishi mumkin.

a) birinchi va ikkinchi chorakda - demi-plié; uchinchi va to'rtinchi chorak o'rtasida uchinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan sakrash; to'rtinchi chorakda tizzalar cho'ziladi.

b) birinchi chorakda - demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak o'rtasida ikkinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan sakrash; uchinchi va to'rtinchi chorakda tizzalar bukiladi.

Harakat sakkiz marta takrorlanadi,

¹⁴I, II va III arabesque pozalarini o'zlashtirish natijasida qo'llar arabesque holatida yig'iladi va shu bilan birga oyoq orqaga, oyoq uchida uzatiladi.

¹⁵Port de bras 3/4(vals)da ham bajarilishi mumkin. Bunday holatda to'rt hissali yoki ikki hissali o'lchovning har bir choragi valsning bitta taktiga mos keladi.

IKKINCHI YARIM YILLIK

SABOQNING OLTINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *I, II, IV va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlarda demi-plié, grand plié va relevé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I pozitsiyada: har biri 4/4 o'lchamda ikkita demi-plié; har biri 2 taktli ikkita grand plié; har biri 4/4 o'lchamda yarimbarmoqlarda ikkita relevé. Ayni shu narsa II, IV va V pozitsiyalarda ham ijro etiladi.

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamda ikkita battements tendus oldinga, orqaga va yonga. Barchasi teskari tartibda takrorlanadi va 2 taktida uskunaga yarim qayrilgan holatda tovonda bajariladi.

3. *V pozitsiyadan battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamda to'rtta battements tendus jetés oldinga, yonga, orqaga va yonga. Yakunida 4 taktida uskunaga yarim qayrilgan holatda tovonda bajariladi.

4. *Ronds de jambe par terre. Musiqiy o'lcham 2/4.*

En dehors: dastlabki to'rt akkordda – préparation en dehors, keyin har biri 2/4 o'lchamda sakkizta ronds de jambe par terre.¹⁶ 4 taktida plié en dehorsda aylanish va 4 taktida plié en dedansda aylanish. Yakunida ikki marta gavgani engashtirgan holda har biri 4 taktli III port de bras ijro etiladi.

5. *V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda ko'tarilib battements soutenus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Barcha yo'nalishlarda oldinga, orqaga va yonga ikki martadan bajariladi. Birinchi va ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq uchida polga uzatiladi, ayni paytda tayanch oyoq demi-pliéga tushiriladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda harakatdagi oyoq tayanch oyoq tomon ko'tarilib, V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda tizzaga bukiladi.

6. *45° da yonlama battements frappés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq yon tomonga 45°ga uzatilgan. Taktdan so'ng harakatdagi oyoq oldinlama sur le cou-de-piedda tayanch

¹⁶Ronds de jambe par terre ni 2/4 o'lchamda ijro etishda passé I pozitsiya bo'yicha ikkinchi chorakka to'g'ri keladi. Kelgusida, 1/4 da ijro etishda passé I pozitsiya bo'yicha (har birining yakuni rond de jambe) to'rtinchi chorakka to'g'ri keladi.

oyoqqa uriladi; birinchi chorakda 450da yon tomonga tezlikda uzatiladi; ikkinchi chorakda holat saqlanadi. Harakat sakkiz marta takrorlanadi.¹⁷

7. *Yonlama battements doubles frappés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq oyoq uchida yonga uzatiladi.

Birinchi chorakda harakatdagi oyoq tayanch oyoqqa oldinlama sur le cou-de-piedda zarba beradi; ikkinchi nimchorakda orqalama sur le cou-de-piedga o'tkaziladi; ikkinchi chorakda tezgina yon tomonga uzatiladi, to'rtinchi nimchorakda holat saqlanadi. Harakat to'rt marta oyoq uchida va to'rt marta 45⁰ga bajariladi.

8. *Ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq yon tomonga 45⁰ga yozilgan.

Birinchi va ikkinchi chorakda ronds de jambe ijro etiladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda dastlabki holat saqlanadi. Harakat to'rt marta en dehors va to'rt marta en dedansda bajariladi.

9. *Petits battements sur le cou-de-pied. Musiqiy o'lcham 2/4.*

Taktdan so'ng harakatdagi oyoq oldinga sur le cou-de-pied holatidan yonga yoziladi, birinchi chorakda orqaga sur le cou-de-piedda bukiladi; ikkinchi nimchorakda yon tomonga yoziladi va ikkinchi chorakda oldinlama sur le cou-de-piedda bukiladi. Harakat sakkizdan o'n oltiga qadar takrorlanadi.

10. *V pozitsiyadan yonlama va orqalama battements développés. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab ijro etiladi.¹⁸ Birinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq sur le cou-de-piedga uzatiladi va o'sha holat belgilanadi.¹⁹ Uchinchi va to'rtinchi chorakda oyoq tayanch oyoq tizzasiga (oldindan yoki orqadan) uzatiladi hamda o'sha holatni belgilaydi. Ikkinchi takt: oyoq berilgan yo'nalishda 90⁰ga uzatiladi. Uchinchi takt: holat saqlanadi. To'rtinchi takt: oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. Harakat ikkidan to'rtga qadar takrorlanadi.

11. *Grands battements jetés pointés. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi chorakda harakatdagi oyoq 90⁰ga tashlanadi; ikkinchi chorakda oyoq uchiga tushiriladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda holat saqlanadi. Barcha yo'nalishlarda to'rt martadan ijro etiladi.

¹⁷45⁰ga battements frappésni harakatning birinchi yarmini oyoq uchi bilan, ikkinchi yarmini 450ga oyoq uchi bilan birlashtirish foydali bo'ladi.

¹⁸Développés o'zlashtirilishiga qarab bir qo'l bilan uskunani ushlagan holda oldinga, yonga va orqaga biquiriladi.

¹⁹Sur le cou-de-pied oldinga shartli, orqadan esa o'quv-mashq tarzida qo'llanadi.

12. I, II va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlardagi relevés. Oldingi saboqlardagi kabi ijro etiladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQ (EKZERSIS)

1. I, II, IV va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlarda *demi-plié, grand plié* ga relevé.

Uskuna oldida bajariladigan mashqlar kabi ijro etiladi.²⁰

2. V pozitsiyadan *battements tendus*. 2/4 o'lchamda 32 takt.

Har biri 2/4 o'lchamdagi sakkiztadan *battements tendus* oldinga, yonga va orqaga. Yakunida 4 taktda chap oyoq bilan oldinlama *croisé* pozasi ijro etiladi: o'ng oyoq bilan III arabesque bajariladi.

3. V pozitsiyadan *battements tendus jetés*. 2/4 o'lchamda 16 takt.

Har biri 2/4 o'lchamdagi to'rttadan *battements tendus jetés* oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi.

4. *Ronds de jambe par terre*. Musiqiy o'lcham 2/4.

En dehor: dastlabki to'rt akkordda *préparation* ijro etiladi, so'ngra har biri 2/4 o'lchamdagi sakkizta *ronds de jambe* bajariladi. 4 taktda *plié* en dehorsda aylanish ijro etilib, u V pozitsiyada tugallanadi; 4 taktda – III port de bras bajariladi. Kombinatsiya boshqa oyoq bilan takrorlanadi va en dedansda alohida ijro etiladi.

5. Oyoq uchi polda *battements fondus*. 4/4 o'lchamda 8 takt.

Har biri 4/4 o'lchamda ikkitadan *battements fondus* oldinga, yonga, orqaga va yonga.

6. *Ён томонга battements frappés*.

Uskuna oldida bajariladigan mashqlardagidek, ammo oyoq uchi polda ijro etiladi.²¹

7. Oyoqlarni en dedans va en dehors ga almashtirgan holda *pas de bourée*.

Caboqning uchinchi misolida uskuna oldida bajariladigan mashqlar kabi bajariladi.

8. V pozitsiyada yarimbarmoqlardagi qayrilishlar (*pas de bourée suivi*).

²⁰IV dagi *demi-plié* va *grand plié épaulement effacé* yoki *croisé*da ijro etiladi.

²¹Bundan keyingi saboqlarda sur le cou-de-pied holatini zal o'rtasida o'rganish tavsiya etiladi.

ALLEGRO

1. *I, II va V pozitsiyalarda temps levé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Har biri 4/4 o'lchamda, barcha pozitsiyalarda to'rt martadan ijro etiladi.

2. *Changements de pieds. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamda sakkiz martadan ijro etiladi.

3. *Pas échappé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab ijro etiladi, o'zlashtirishga qarab zal o'rtasida bajariladi.

a) Birinchi takt: birinchi chorakda – V pozitsiyada demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida ikkinchi chorakda II pozitsiyada demi-pliéda tugallanadigan sakrash; uchinchi va to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi. Ikkinchi takt: birinchi chorakda – II pozitsiyada demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida ikkinchi chorakda V pozitsiyada demi-pliéga tugallanadigan sakrash; uchinchi va to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi.

b) Birinchi chorakda - birinchi va ikkinchi chorak orasida ikkinchi chorakda II pozitsiyada demi-pliéga tugallanadigan sakrash; ikkinchi va uchinchi chorak orasida - uchinchi chorakda V pozitsiyada demi-pliéga tugallanadigan sakrash; to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi.

Harakat to'rtidan sakkizga qadar takrorlanadi.

4. *Pas assemblé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab ijro etiladi, o'zlashtirishga qarab zal o'rtasida bajariladi.

Birinchi chorakda - demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida ikkinchi chorakda demi-pliéga tugallanadigan sakrash; uchinchi va to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi. Harakat to'rtidan sakkizga qadar takrorlanadi.

BARMOQLARDAGI MASHQLAR

1. *I, II va V pozitsiyalarda relevé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab ijro etiladi, o'zlashtirishga qarab (olti-sakkiz saboq) zal o'rtasida bajariladi.

Birinchi chorakda – demi-plié; ikkinchi chorakda barmoqlarda ko'tariladi; uchinchi chorakda demi-pliéga tushiriladi; to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi. Harakat har bir pozitsiyada sakkiz martadan takrorlanadi.

SABOQNING YETTINCHI MISOLI

USKUNA BILAN MASHQ (EKZERSIS)

1. *I, II, IV va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlarda demi-plié, grand plié va relevé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Saboqning oltinchi misolidagi kabi bajariladi.

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamdagi sakkiztadan battements tendus oldinga, yonga va orqaga. Yakunida 2 taktda uskunaga qayrilish va 2 taktda V pozitsiyada yarimbarmoqlarda relevé ijro etiladi.

3. *V va I pozitsiyalardan battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamdagi sakkiztadan battements tendus jetés oldinga, yonga va orqaga. I pozitsiyadan to'rtta battements tendus jetés va har biri 2/4 o'lchamdagi to'rtta piqués yonga.

4. *Rond de jambe par terre.*

Saboqning oltinchi misolidagi tarzda bajariladi.

5. *45^oga battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq 450ga yonga.

Har biri 2/4 o'lchamdagi sakkiztadan battements fondus oldinga, orqaga va yonga.

6. *45^oga battements frappés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq 450ga yonga.

Har biri 2/4 o'lchamdagi to'rttadan battements frappés yonga, orqaga va yonga.

7. *45^oga battements doubles frappés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq 450ga yonga.

Har biri 2/4 o'lchamdagi sakkiztadan battements doubles frappés oldinga, orqaga va yonga. Harakatlar kombinatsiyasi to'rt marta qaytariladi.

8. *Ronds de jambe en l'air. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

En dehors: Har biri 2/4 o'lchamdagi uchta ronds de jambe en l'air, keyingi 2/4 o'lchamda harakatdagi oyoq 450ga holatni saqlaydi.

Har biri 2/4 o'lchamdagi ikkita ronds de jambe en l'air, keyin 2/4 o'lchamda oyoq uchi polga tushiriladi va 2/4 o'lchamda 450ga ko'tariladi. Mazkur holatdagi harakatlar en dedansda takrorlanadi.

9. *Petits battements sur le cou-de-pied.*

Saboqning oltinchi misolidagi tarzda bajariladi.

10. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: birinchi chorakda harakatdagi oyoq sur le cou-de-piedda uzatiladi va o'sha holatni belgilaydi; ikkinchi chorakda tayanch oyoqning tizzasiga ko'tariladi va o'sha holatni belgilaydi; uchinchi va to'rtinchi chorakda berilgan yo'nalishda 90⁰ga uzatiladi. Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda holat saqlanadi; uchinchi va to'rtinchi chorakda oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. Harakat oldinga, yonga, orqaga va yonga ikki martadan ijro etiladi.

11. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Taktdan so'ng – harakatdagi oyoqning 90⁰da tashlanishi; birinchi chorakda oyoq V pozitsiyaga tushiriladi; ikkinchi chorakda holat saqlanadi. Barcha yo'nalishlarda to'rt martadan ijro etiladi.

12. *I, II va V pozitsiyalarda relevé.*

Oldingi saboqlarda bajarilgani kabi ijro etiladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQ (EKZERSIS)

1. *I, II, IV va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlarda demi-plié, grand plié ga relevé.*

Uskuna bilan bajariladigan mashqlar kabi ijro etiladi.

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamdagi to'rtadan battements tendus oldinga, yonga, VII orqaga va yonga.

3. *V pozitsiyadan battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamdagi to'rtadan battements tendus jetés oldinga, yonga, orqaga va yonga.

4. *Oyoq uchi polda va 45⁰ ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamda oyoq uchi polda oldinga ikkita battements fondus; har biri 4/4 o'lchamda oyoq uchi polda yonga ikkita battements fondus. Oyoqni 45⁰ ga yoygan holda oldinga va yonga иккита battements fondus.

Barchasi teskari holatda alohida bajariladi.²²

5. *Oyoq uchi polda va 45⁰ da battements frappés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

²²Muzkur saboqda istisno tariqasida ronds de jambe par terre o'rganilmaydi, chunki yangi, murakkab (pux (qudam)lar ishlab chiqiladi.

Har biri $2/4$ o'lchamda oyoq uchi polda oldinga, yonga, orqaga va yonga ikkita battements frappés; har biri $2/4$ o'lchamda, o'sha yo'nalishlarda ikkita battements frappés.

6. 45^0 ga oyoq uchi polda battements doubles frappés. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

Har biri $2/4$ o'lchamda oyoq uchi polda yon tomonga sakkizta battements doubles frappés, har biri $2/4$ o'lchamda va 45^0 ga sakkizta yon tomonga.

7. *Petits battements sur le cou-de-pied.*

Uskuna bilan bajariladigan mashqlar kabi ijro etiladi.

8. 90^0 ga yon tomonga battements relevés tents. Musiqiy o'lcham $4/4$.

Birinchi takt: harakatdagi oyoq 900 ga ko'tariladi. Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda holat saqlanadi; uchinchi va to'rtinchi chorakda oyoq V pozitsiyaga tushiriladi.²³ Harakat to'rt marta takrorlanadi.

9. *Temps lié par terre oldinga va orqaga.* Musiqiy o'lcham $4/4$.

Har bir temps lié 2 taktida, to'rt marta oldinga va to'rt marta keyinga bajariladi.²⁴

ALLEGRO

1. *I, II va V pozitsiyalarda temps levé.* Musiqiy o'lcham $4/4$.

Ipozitsiyada: birinchi chorakda - demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida ikkinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan sakrash; uchinchi va to'rtinchi chorakda tizzalar bukiladi. Yana bir marta takrorlanadi, keyin uchinchi marta sakraladi, bunda oyoqlar uchinchi chorakda uzatiladi; to'rtinchi chorakda demi-plié va qatorasiga har biri choraklik (uch chorakda) uchta sakrash, to'rtinchi chorakda tizzalar tortib olinadi. Barcha kombinatsiyalar to'rt takti egallaydi. Ayni shu narsalar II va V pozitsiyalarda ham ijro etiladi.

2. *Changements de pieds.*

Temps levé singari ijro etiladi.

3. *Pas assemblé.*

Saboqning oltinchi misolida ko'rsatilgani kabi ijro etiladi: har biri $4/4$ o'lchamda sakkiz marta oldinga harakat, sakkiz marta orqaga harakat.

4. *Pas échappé.* Musiqiy o'lcham $4/4$.

²³Bir necha saboqlardan keyin battements relevés tents oldinga, yonga va orqaga bajariladi.

²⁴Temps lieni musiqiy bo'laklarga taqsimlash haqidagi batafsil ma'lumotni mening "Metodika slitnix dvijeniye" (M., 1961) nomli risolamdan olish mumkin.

Birinchi chorakda - demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida ikkinchi chorakda demi-pliéda II pozitsiyada tugallanadigan sakrash; uchinchi va to'rtinchi chorakda – uchinchi chorakda V pozitsiyada demi-pliéda tugallanadigan sakrash; to'rtinchi chorakda tizzalar bukiladi.²⁵

5. *Pas balancé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Sakkizdan o'n olti martaga qadar ijro etiladi.

6. *Pas de basque (sahna shakli). Musiqiy o'lcham 4/4(vals).*

Sakkizdan o'n olti martaga qadar ijro etiladi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING BIRINCHI MISOLI

1. *I, II va V pozitsiyalarda relevés.*

Saboqning oltinchi misolidagi singari ijro etiladi.

2. *II pozitsiyada pas échappé. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Uskunaga qarab bajariladi, o'zlashtirishga qarab zal o'rtasida ham bo'ladi. Birinchi chorakda - demi-plié; ikkinchi chorakda II pozitsiyada barmoqlarga ko'tariladi; uchinchi chorakda V pozitsiyaga demi-pliéga tushiriladi; to'rtinchi chorakda tizzalar bukiladi. Harakat sakkiz marta bajariladi.²⁶

3. *V pozitsiyadagi pas de bourré suivi. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab bajariladi, o'zlashtirishga qarab zal o'rtasida ham bo'ladi. Dastlabki ikki akkordda demi-plié bajariladi va V pozitsiyada barmoqlarda turiladi. Har bir chorakda oyoq uchlari navbati bilan poldan olinadi va barmoqlarda V pozitsiyaga qo'yiladi. Harakat o'n oltidan o'ttiz ikkiga qadar takrorlanadi. Vaqti bilan temp (sur'at) o'zgaradi va har bir harakat bir nimchorakda bajariladi.

O'quv yilining oxiriga borib pas de bourré suivi to'g'ri chiziq va diagonal bo'yicha kichik siljishlar bilan bajariladi.

SABOQNING SAKKIZINCHI MISOLI

USKUNA BILAN MASHQ (EKZERSIS)

1. *Yarimbarmoqlarda demi-plié, grand plié, relevé, 450 ga battements tendus, battements tendus jetés, rond de jambe par terre, battements fondus va battements frappés.*

Saboqning yettinchi misolidagi singari ijro etiladi.

²⁵ Mouvements de pied, assemblé va échappé harakatlari épaulementsiz ijro etiladi. O'zlashtirishga qarab o'quv yilining oxirgi choragida V pozitsiyadan bajariladigan sakrashlar épaulement bilan ijro etiladi.

²⁶ Pas échappé harakati en faceda o'rganiladi, yil oxirida V pozitsiyadagi épaulement kiritiladi.

2. *Rond de jambe en l'air. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

En dehors: har biri 2/4 o'lchamda yettita rond de jambe en l'air bajariladi; 4/4da harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. 4 taktda oldinlama éffacé pozasi va 4 taktda orqalama écarté pozasi bajariladi. Keyin rond de jambe en l'air harakati en dedansda bajariladi va 4 taktda orqalama éffacé pozasi, 4 taktda oldinlama écarté pozasi bajariladi.

3. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Taktdan so'ng harakatdagi oyoq yoziladi va orqalama sur le cou-de-piedga o'tkaziladi, yana yoziladi va birinchi chorakda oldinlama sur le cou-de-piedga o'tkaziladi. Shunday qilib, har bir petits battement bitta chorakda tugallanadi va ijro etiladi. Harakat o'n olti marta qaytariladi.

4. *90⁰ga battements développés va battements relevé lents. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Bitta 2 takтли relevé lent oldinga; bitta 2 takтли développé oldinga. Xuddi shu tarzda yonga, orqaga va yonga bajariladi.

5. *Grands battements jetés.*

Saboqning yettinchi misolidagi singari ijro etiladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *Temps lié par terre oldinga va orqaga.*

2. *Battements tendus, battements tendus jetés, ronds de jambe par terre.*

Saboqning yettinchi misolidagi singari ijro etiladi.

3. *45⁰ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamda battements fondus oldinga, yonga, orqaga va yonga.

4. *Battements frappés va doubles frappés yonga. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamda 45⁰ da sakkizta battements frappés. Har biri 4/4 o'lchamda 450ga to'rtta doubles frappés. Keyingi 4 taktda harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi va arabesquening III pozasi ijro etiladi.

5. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri bir choraklik o'n oltita petits battements bajariladi. Yakunida 8 taktda I va II arabesque pozalari bajariladi.

6. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2 takтли développés oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi.

7. *Grands battements jetés.*

Uskuna bilan bajariladigan mashqlar singari ijro etiladi.

ALLEGRO

1. *I, Iva Vpozitsiyalarida tempslevée.*

Saboqning yettinchi misolidagi singari ijro etiladi.

2. *Pas assemblé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Har biri 4/4 o'lchamda o'ng va chap oyoqlarni almashtirgan holda uchta assemblé. Uchinchi assemblédan keyin uchinchi chorakda tizzalar uzatiladi, to'rtinchi chorakda yana demi-plié va keyingi taktda har biri 1/4 o'lchamda qatorasiga ikkita assemblé bajariladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi, Kombinatsiya yana bir marta takrorlanadi va teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. *Pas échappé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Taktdan so'ng - demi-plié va sakrash; birinchi va ikkinchi chorak orasida ikkinchi chorakda V pozitsiyada demi-pliéda tugallanadigan sakrash; uchinchi va to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi; to'rtinchi chorakda keyingi sakrash uchun demi-plié va h.k. Harakat to'rtidan sakkizga qadar takrorlanadi.

4. *Pas jeté. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab bajariladi, o'zlashtirishga qarab – zal o'rtasida ijro etiladi. Birinchi chorakda - demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida bir oyoqda ikkinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan sakrash; boshqa oyoq sur le cou-de-piedga bukilgan; to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi. Harakat oldinga va orqaga siljigan holda to'rtidan sakkizga qadar qaytariladi.²⁷

5. *Changements de pieds. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Taktdan so'ng - demi-plié va birinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan sakrash. Ushbu demi-plié bilan birga ikkinchi chorakda tugallanadigan ikkinchi sakrash bajariladi; uchinchi chorakda tizzalar uzatiladi; to'rtinchi chorakda navbatdagi ikki sakrashni bajarish uchun demi-plié. Shunday qilib, har bir changements de pieds bir chorakda bajariladi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING IKKINCHI MISOLI

1. *I, II va V pozitsiyalarda relevés.*

Avvalgi saboqlardagi singari bajariladi.

²⁷ L'un jeté birinchi sinfda épaulementsiz ijro etiladi.

2. *Pas échappé.*

Saboqning yettinchi misolidagi singari ijro etiladi.

3. *Assemblée soutenu. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Birinchi chorakda – harakatdagi oyoqni yonga yozish bilan bir paytda demi-plié qilinadi, oyoq uchi polda; ikkinchi chorakda oyoqlar V pozitsiyada barmoqlarda birlashtiriladi; uchinchi chorakda - demi-plié; to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi. Harakat oldinga va orqaga siljish bilan to'rtadan sakkizga qadar bajariladi.

4. *V pozitsiyada pas de bourrée suivi.*

Saboqning yettinchi misolidagi singari ijro etiladi.

5. *I pozitsiyada pas couru oldinga va orqaga. Musiqiy o'lcham 2/4.*

Har bir kichik qadam oldinga va orqaga siljishlar bilan bir chorakda bajariladi, keyin bir nimchorakda va o'quv yili oxirida 1/16 da bajariladi.

SABOQNING TO'QQIZINCHI MISOLI

USKUNA OLDIRAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *I, II, IV va V pozitsiyalarda grands pliés. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Har biri 4/4 o'lchamda barcha pozitsiyalarda ikkitadan grands pliés.²⁸

2. *V pozitsiyadan battements tendus. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 1/4 o'lchamda sakkiztadan battements tendus oldinga, yonga va orqaga.²⁹ Har biri 1/4 o'lchamda to'rtta battements tendus yonga va 4/4 o'lchamda to'vonda uskunaga qarab yarim qayrilish.

3. *V pozitsiyadan battements tendus jetés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 1/4 o'lchamda olti battements tendus oldinga, yettinchi battements har biri 2/4 o'lchamdagi demi-pliéga tugallanish bilan bajariladi. Ayni shu tarzda yonga va orqaga ham bajariladi. Har biri 1/4 o'lchamda battements tendus jetés yonga, 4/4 o'lchamda to'vonda uskunadan yarim qayrilish.

4. *Rond de jambe par terre. Musiqiy o'lcham 4/4.*

En dehors: dastlabki to'rtta akkordda preparation bajariladi, keyin har biri 1/4 o'lchamda sakkizta rond de jambe par terre ijro etiladi. Ayni shu narsa en dedansda takrorlanadi. 4 taktda plié en dedansda aylanib o'tish va 4 taktda plié en dehorsda aylanib o'tish bajarilib, V pozitsiyada tugallanadi. Keyingi 8 taktda ikki marta III port de bras bajariladi.

²⁸Birinchi sinfda o'quv yili oxirida grand pliéni sekin 4/4 taktda ijro etish kerak.

²⁹Battements tendus va battements tendus jetésni ¼ taktda ijro etishda harakatdagi oyoq aylanishi ¼ taktdan so'ng ijro etiladi; oyoqni yig'ish V yoki I pozitsiyada - chorakda.

5. *45⁰ga battements fondus va frappés. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Har biri 1/4 o'lchamda ikkitadan battements fondus oldinga, yonga, orqaga va yonga. Har biri 1/4 o'lchamda uchta battements frappés yonga; to'rtinchi chorak pauza. Yana ikki marta takrorlanadi va oxirgi taktida harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushirilgan holda yarimbarmoqlarda ko'tariladi.³⁰

6. *Battements doubles frappés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 1/4 o'lchamda sakkiz doubles frappés oldinga, yonga, orqaga va yonga oyoq uchi polda bajariladi, har biri 1/4 o'lchamda sakkiz doubles frappés 450 ga yonga qilinadi.

7. *Rond de jambe en l'air. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamda sakkizta rond de jambe en l'air en dehors va sakkiz en dedans.

8. *Petits battements sur le cou-de-pied.*

Saboqning sakkizinchi misolidagi kabi ijro etiladi.

9. *90⁰ ga battements développés relevés lents. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2 taktli relevé lent bittadan oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi. Har biri 2 taktli développé bittadan oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi.

10. *Grands battements jetés pointés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2 taktli grands battements jetés to'rttadan oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *I, II, IV va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlarda demi-plié, grand plié, relevé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I pozitsiyada: har biri 4/4 o'lchamda ikkita grands pliés; 4/4 o'lchamda bitta demi-plié; 4/4 o'lchamda relevé bajariladi. Ayni shu narsa II, IV va V pozitsiyalarda ham bajariladi.

2. *V pozitsiyadan battements tendus va tendus jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 1/4 o'lchamda to'rtta battements tendus oldinga, yonga, orqaga va yonga va har biri 1/4 o'lchamda to'rttadan battements tendus jetés oldinga, yonga, orqaga va yonga qilinadi.

3. *Rond de jambe par terre.*

³⁰1/4 o'lchamda battements frappésni ijro etishda sur le cou-de-pied zarbasi 1/8 dan keyin qilinadi; harakatdagi oyoq uzatilishi – to'rtinchi chorakda.

Uskuna oldida bajariladigan mashqlar singari ijro etiladi.

4. *45° ga battements fondus va frappés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 1/4 o'lchamda ikkita battements fondus oldinga, ikkita yonga; har biri 1/4 o'lchamda sakkizta battements frappés yonga; va ikki taktda harakatdagi oyoqni V pozitsiyaga tushirib, chap oyoqda oldinlama croisé pozasi bajariladi. Kombinatsiya teskari tartibda alohida takrorlanadi va orqalama croisé pozasida tugallanadi. Battements frappés doublela bajariladi.

5. *Rond de jambeen l'air. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 1/4 o'lchamda to'rtta rond de jambe en l'air en dehors va to'rtta en dedans bajariladi. Yakunida 8 taktda I va II arabesque pozasi ijro etiladi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 1/4 o'lchamda o'n oltita petits battements.

7. *90° ga battements développés relevés.*

Uskuna oldida bajariladigan mashqlar singari ijro etiladi.

8. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamda ikkita grands battements jetés oldinga, yonga, orqaga va yonga.

ALLEGRO

1. *I va II pozitsiyalarda temps levé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Taktdan so'ng – demi-plié va birinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan sakrash; birdaniga ikkinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan ikkinchi sakrash; uchinchi chorakda tizzalar uzatiladi; to'rtinchi chorakda – keyingi ikki sakrashni takrorlash uchun demi-plié va h.k. I va II pozitsiyalarda to'rt martadan takrorlanadi.

2. *Pas échappé.*

Caboqning sakkizinchi misolidagi singari bajariladi.

3. *Pas assemblé. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Taktdan so'ng – demi-plié va birinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan sakrash; birdaniga ikkinchi chorakda demi-pliéda tugallanadigan ikkinchi sakrash; uchinchi chorakda tizzalar uzatiladi; to'rtinchi chorakda -- keyingi ikki sakrashni takrorlash uchun demi-plié. O'ng va chap oyoqni navbati bilan oldinga qo'yib to'rt marta takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

4. *Pas jeté.*

Caboqning sakkizinchi misolidagi singari bajariladi.

5. *Sissone simple. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Uskunaga qarab bajariladi, o'zlashtirishga qarab zal o'rta-sida ijro etiladi. Birinchi chorakda - demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida - ikkinchi chorakda bir oyoqda demi-pliéda tugallanadigan sakrash, ikkinchi oyoq sur le cou-de-piedda oldinga va orqaga; uchinchi chorakda oyoq sur le cou-de-pied holatidan V pozitsiyaga demi-pliéga qo'yiladi; to'rtinchi chorakda tizzalar uzatiladi. Harakat to'rt marta oldinga va orqaga sur le cou-de-pied bilan takrorlanadi.

6. *Changements de pieds. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 1/4 o'lchamda oltita changements de pieds; 1/4da tizzalar bukiladi, 1/4da demi-plié qilinadi va sakrashlar yana bir marta takrorlanadi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING UCHINCHI MISOLI

1. *I va II pozitsiyalarda relevé. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Taktdan so'ng - demi-plié; birinchi chorakda barmoqlarda ko'tariladi; ikkinchi chorakda demi-pliéga tushiriladi; uchinchi chorakda - barmoqlarda ko'tariladi; to'rtinchisida demi-plié va h.k. Harakatni sakkiz marta I pozitsiyada va sakkiz marta II pozitsiyada takrorlash kerak.

2. *Pas échappé. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Taktdan so'ng - demi-plié; birinchi chorakda barmoqlarda II pozitsiyaga ko'tariladi; ikkinchi chorakda - V pozitsiyada demi-pliéga tushiriladi. Échappéni yana ikki marta takrorlash kerak, keyin tizzalar bukiladi, demi-pliéga tushiriladi va yana bir marta har biri 2/4 o'lchamda échappé ijro etiladi.

3. *Assemblé soutenu. Musiqiy o'lcham 2/4.*

Birinchi chorakda - demi-plié; ayni paytda harakatdagi oyoq yonga uzatiladi, oyoq uchi polda; ikkinchi chorakda oyoqlar V pozitsiyada barmoqlarda birlashadi. Ushbu holatdan keyingi assemblé soutenu bajariladi. Oldinga va orqaga siljishlar bilan to'rtidan sakkizga qadar takrorlanadi.

4. *Оёқларни en dehors va en dedansga almashtirgan holda pas de bourré. Musiqiy o'lcham 2/4 va 3/4.*

Yarimbarmoqlarda bajariladigan mashqlar singari ijro etiladi.

5. *V pozitsiyada tomonga kichik siljishlar bilan pas de bourrée suivi.*

6. *I pozitsiyada tez sur'atlar bilan oldinga va orqaga pas couru.*

IKKINCHI SINIF

BIRINCHI YARIM YILLIK

O'rganilgan mashqlarni ko'p martalab takrorlash. Yarimbarmoq va barmoqlarda mashqlarni o'rganish yo'li bilan oyoq va tovon kuchini rivojlantirish.

Ikkinchi sinfdan boshlab uskuna oldida bajariladigan mashqlarda qo'llar II pozitsiyaga dastlabki ikki akkordda yoziladi – *préparation*. Qo'llar mashqlar tugashi bilan bir paytda tayyorgarlik holatiga tushiriladi. *Battements fondus*, *battements soutenus* va *battements développés*da qo'llar II pozitsiyaga yoki mashqlarni boshlash bilan bir paytda berilgan pozaga yoziladi.

SABOQNING BIRINCHI MISOLI

USKUNA OLDDIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *Demi-plié va grand plié. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I, II, IV va V pozitsiyalarda har biri $2/4$ lik ikkitadan *demi-plié* va ikkitadan *grands pliés*.

2. *Battements tendus va battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Har biri $1/4$ lik sakkizta *battements tendus* oldinga, yonga, orqaga va yonga hamda har biri $1/4$ lik sakkizta *battements tendus jetés* ayni shu yo'nalishlarda bajariladi.

3. *Ronds de jambe par terre va ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda – *préparation en dehors*. Har biri $1/4$ lik sakkizta *ronds de jambe par terre* va sakkizta *ronds de jambe en l'air*. Hammasi en dedansda takrorlanadi. 2 taktda – *plié en dedans - en dehors*da aylanish va 2 taktda *pliéga cho'zilish* va *gavdani egish* bilan III port de bras bajariladi.

4. *45^oda battements fondus, battements frappés va doubles frappés.*³¹ $2/4$ o'lchamda 16 takt.

Har biri $2/4$ lik ikkita *battements fondus* oldinga, yonga, orqaga va yonga; har biri $1/4$ lik yettita *battements frappés* yonga, oxirgi chorakda pauza qilinadi; har biri $1/4$ lik yettita *doubles frappés* bajariladi, oxirgi chorakda pauza qilinadi.

³¹Ikkinchi sinfdan *battements fondus* bevosita V pozitsiyadan boshlanadi.

5. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 16 takt.*
Sakkizta 1/4lik retits battements to'xtalish bilan oldinga, sakkiztasi to'xtalish bilan orqaga bajariladi. Yana bir marta qaytariladi.
6. *90°ga battements relevés lents. 4/4 o'lchamda 16 takt.*
Har biri 2 taktli ikkita relevés lents oldinlama effacée pozasida ikki marta yonga, orqalama effacée pozasida ikki marta yonga bajariladi.
7. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*
Har biri 1/4 o'lchamda to'rttadan oldinga, orqaga va yonga.
Oldinga va orqaga croisée, effacée va écartée kichik pozalarini o'rganish oyoq uchi polda, uzatilgan tayanch oyoqda, pliéda.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *Demi-pliés va grands pliés.*
Uskuna oldida bajariladigan mashqlar singari ijro etiladi.
2. *Battements tendus va battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*
O'ng oyoq bilan oldinlama croiséening kichik pozasida sakkizta battements tendus; chap oyoq bilan orqalama croiséening kichik pozasida sakkizta battements tendus; har biri 1/4 o'lchamda o'ng oyoq bilan sakkizta yonga va har biri 1/4 o'lchamda sakkizta battements tendus jetés yonga bajariladi.
3. *Ronds de jambe par terre. 4/4 o'lchamda 8 takt.*
Dastlabki ikki akkordda – préparation en dehors. Har biri 1/4 o'lchamda sakkizta ronds de jambe par terre en dehors va sakkizta en dedans bajariladi. Rliéda aylanib o'tish va port de bras xuddi uskuna oldida bajariladigan mashqlardagi kabi ijro etiladi.
4. *45°ga battements fondus va battements frappés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*
Har biri 2/4 o'lchamda ikkitadan battements fondus oldinga, yonga, orqaga va yonga. Har biri 2/4 o'lchamda sakkizta frappés yonga va 4 taktida oldinga croiséening kichik pozasida oyoq uchi polda, pliéda bajariladi.
5. *Battements doubles frappés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*
Har biri 2/4 o'lchamda, oyoq uchi polda o'n ikkita doubles frappés; oldinga, yonga, orqaga va orqalama croiséening kichik pozasi oyoq uchi polda, pliéda bajariladi.
6. *90°ga battements relevés lents va développés. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoq bilan har biri 2 taktli relevés lents oldinga effacée pozasida; chap oyoq bilan har biri 2 taktli ikkita orqaga effacée pozasida bajariladi. O'ng oyoq bilan har biri 2 taktli to'rtta battements développés yonga bajariladi.

Ikkinchi sinfda battement développé musiqiy bo'laklarga quyidagicha taqsimlanadi. Birinchi takt: birinchi chorakda harakatdagi oyoq uchi bilan tizzagacha ko'tariladi; ikkinchi chorakda berilgan yo'nalish bo'yicha uzaytiriladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda holat saqlanadi. Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda holat saqlanadi, uchinchi va to'rtinchi chorakda oyoq dastlabki holatga tushiriladi.

7. *Grands battements jetés.*

Uskuna oldida bajariladigan mashqlar singari ijro etiladi.³²

ALLEGRO

1. *Pas assemblé. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 2/4 o'lcham (ikkinchi chorakda pliédà to'xtalish)da oyoqni oldinga almashtirgan holda yonga ikkita battements; har biri 1/4 o'lchamda ikkita assemblé; 1/4da tizzalar tortiladi; 1/4da – demi-plié qilinadi. Yana bir marta takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

2. *II va IV pozitsiyalarda petits échappés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

2/4 o'lchamda croiséning IV pozitsiyasida échappé, 2/4 o'lchamda oyoqlarni almashtirgan holda II pozitsiyada échappé qilinadi. To'rt marta takrorlanadi.

3. *Pas jeté. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Taktdan so'ng – demi-plié va oyoqni yonga tashlagan holda bir oyoqda tugallanadigan, boshqasi sur le cou-de-piedda bo'ladigan sakrash bajariladi; birinchi chorakda demi-pliéga tushiriladi; ikkinchi chorakda oyoq sur le cou-de-pied holatidan V pozitsiyada demi-pliéga qo'yiladi; uchinchi chorakda tizzalar tortiladi; to'rtinchi chorakda keyingi sakrash uchun demi-plié qilinadi.

Harakat orqaga sur le cou-de-pied bilan sakkiz marta va oldinga sur le cou-de-pied bilan sakkiz marta o'ng va chap oyoqlarda navbati bilan bajariladi.

4. *I va II pozitsiyalarda temps levé. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

³²Sinfda zal o'rtasida bajariladigan mashqlarda ba'zan petits battements sur le cou-de-pied, rond de jambe en l'air va grands battements jetés kabilarni tushurib qoldirish mumkin. Mazkur mashqlardan faqat bittasini qoldirish mumkin, ammo keyingi saboqning mashqi (ekzersis)ga u albatta qo'shilishi lozim.

Har biri 1/4 o'lchamda I pozitsiyada sakkiz temps levé va II pozitsiyada sakkiz temps levé qilinadi.³³

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING BIRINCHI MISOLI³⁴

1. *I, II va IV pozitsiyalarda relevé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

I va II pozitsiyalarda o'n oltitadan relevé qilinadi. IV pozitsiyada har biri 2/4 o'lchamda (o'ng va chap oyoqlarda) sakkizta croisée bajariladi.

2. *I va IV pozitsiyalarda pas échappé. 2/4 o'lchamda 4 takt.*

Croiséening IV pozitsiyasiga uchta échappé, har biri 2/4 o'lchamda oyoqlar almashishi bilan bittasi II pozitsiyaga. To'rt marta takrorlanadi.

3. *Double échappé. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamda (tovonlarni II pozitsiyaga tushirgan holda) sakkizta doubles échappés.

4. *Croiséeni kichik pozalarda tugatish bilan assemblé soutenus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 2/4 o'lchamda sakkizta oldinga va sakkizta orqaga qilinadi.

5. *Diagonal bo'yicha siljishlar bilan pas de bourrée suivi. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Chorak o'lchamlarda ijro etiladi.

6. *Diagonal bo'yicha oldinga va orqaga pas couru. Musiqiy o'lcham 2/4.*

1/16 da ijro etiladi.

SABOQNING IKKINCHI MISOLI

USKUNA BILAN MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *Grands pliés. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Ikkitadan grands pliés va ikkitadan yarimbarmoqlardagi relevé bilan demi-pliés barcha pozitsiyalarda bajariladi, har biri 4/4 o'lchamda.

2. *Battements tendus va battements tendus jetés. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Har biri 4/4 o'lchamda oldinga effacéning katta pozasida sakkizta battements tendus, orqaga écarténing katta pozasida sakkizta, orqaga effacéning katta pozasida sakkizta va oldinga écarténing katta pozasida sakkizta bajariladi. Battements tendus jetés – sakkiztadan oldinga, yonga,

³³Barcha mashqlarni I pozitsiyada gavdani bukkani holda port de brasda yoki IV va V port de brasda tugatish tavsiya qilinadi.

³⁴Ikkinchi sinfda, xuddi yuqori sinflarda bo'lgani kabi, barmoqlardagi mashqlarni haftada ikki marta allegro o'rniiga bajarish tavsiya etiladi.

orqaga va to'rttadan yonga, har biri $1/4$ o'lchamda; $4/4$ da yarimbarmoqlarda uskunaga qarab V pozitsiyada yarim qayrilish.

3. *Ronds de jambe par terre. $4/4$ o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda – *préparation en dehors*. Sakkizta ronds de jambe par terre, har biri $1/4$ o'lchamda; sakkizinchida to'xtalish (oyoq oldinda, uchi polda). 2 taktda - 45^0 ga oldinlama relevé demi-ronds de jambe en dehors, oyoq uchi polda yon tomonda to'xtatiladi. Ushbu holatdan ronds de jambe par terre en dedans va demi-ronds de jambe en dedans bilan 45^0 ga orqalama relevé qilinadi. 4 taktda - plié va port de brasda aylanib o'tish. Saboqning birinchi misolida ko'rsatilgan tarzda ijro etiladi.

4. *45^0 ga battements fondus. $2/4$ o'lchamda 16 takt.*

$2/4$ o'lchamda fondus oldinga, $2/4$ o'lchamda plié-relevé. Yana bir marta takrorlanadi va ayni shu narsa yonga, orqaga va yonga bajariladi. Yakunida 2 taktda V pozitsiyada uskunadan yarimbarmoqlarda yarim qayrilish bajariladi.

5. *45^0 ga yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan battements frappés. $2/4$ o'lchamda 16 takt.*

Dastlabki holat – harakatdagi oyoq yon tomonga 45^0 ga yozilgan. Oltita battements frappés, har biri $1/4$ o'lchamda; $2/4$ da yarimbarmoqlarda ko'tariladi. Oltita battements frappés, har biri $1/4$ o'lchamda, yarimbarmoqlarda; $2/4$ da tovonga tushiriladi. Mashq qaytariladi.

6. *45^0 ga yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan battements doubles frappés.*

Oddiy frappéslar singari ijro etiladi.

7. *Rond de jambe en l'air. Musiqiy o'lcham $2/4$.*

Dastlabki to'rt akkordda – butun tovonda *préparation temps relevé en dehors*. Sakkizta rond de jambe en l'air, har biri $1/4$ va 2 taktda - orqalama écarténing kichik pozasi, oyoq uchi polda pliéda. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

8. *Petits battements sur le cou-de-pied. $4/4$ o'lchamda 8 takt.*

Sakkizta petits battements, har biri $1/4$ va 2 taktda oldinga éffaséning kichik pozasi, oyoq uchi polda pliéda. Petits battements takrorlanadi va orqaga éffaséning kichik pozasi, oyoq uchi polda pliéda ijro etiladi.

9. *Battements développés. $4/4$ o'lchamda 16 takt.*

Oldinga éffaséning katta pozasida ikkita développés, ikkita yon tomonga, orqalama yeffaséning katta pozasida ikkita va yonga ikkita, har biri 2 taktili.

10. *Grands battements jetés pointés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Uchta grands battements jetés points va bitta V pozitsiyada oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/4.

11. *Yarimbarmoqlarda tombé va coupé. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Préparation - o'ng oyoq 45⁰ga yonga yoziladi. Birinchi chorakda V pozitsiyada demi-pliéda o'ng oyoqqa tombé -yiqilish, chap oyoq orqalama yoki oldinlama sur le cou-de-piedga ko'tariladi; ikkinchi chorakda chap oyoqda yarimbarmoqlarda turiladi (coupé), ayni paytda o'ng oyoq 45⁰ga yonga yoziladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda holat saqlanadi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *Yarimbarmoqlarda relevé bilan grand plié demi-plié.*

Uskuna oldida bajariladigan mashqlar singari ijro etiladi.

2. *Battements tendusva battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Croiséening kichik pozasida o'ng oyoqda oldinga siljish bilan uchta sus-sous qilinadi, har biri 2/4lik. Uchta sus-sous o'ng oyoqda demi-pliéda tugallanadi, chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedga bukiladi. Yen dehorsda oyoqlarni almashtirish bilan uchta pas de bourree qilinadi, har biri 2/4lik, V pozitsiyada tugallanadi. Ikkita glissade croisée oldinga, har biri 2/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu holat teskari yo'nalishda bajariladi.

4. *Sissone simple. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Taktdan so'ng —demi-plié. Oyoqlarni orqaga almashtirgan holda: o'ng, chap va o'ng oyoq bilan uchta sissones simples bajariladi, har biri 2/4lik; 2/4da tizzalar uzatiladi va navbatdagi sissones uchun demi-plié qilinadi. To'rt marta takrorlanadi. Ayni shu holat teskari yo'nalishda bajariladi.

5. *3/4 o'lchamda 16 takt (mayin vals).*

8 taktda: diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga pas de bourrée suivi qilinadi, oxirgi taktda — V pozitsiyada demi-plié bajariladi. Oltita balancés (sekingina orqaga siljib) qilinadi, har biri 1 taktili. 1 takt - V pozitsiyada demi-plié, 1 takt — barmoqlarda V pozitsiya, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi.

SABOQNING YETTINCHI MISOLI **USKUNA BILAN MASHQLAR (EKZERSIS)**

1. *4/4 o'lchamda 16 takt*

I, II, IV va V pozitsiyalarda ikkita demi-pliés, har biri 4/4lik.

2. *Battements tendus va battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Ikkita oldinlama battements tendus bajariladi, har biri 1/4lik; 2/4da - bitta demi-plié. Yana bir marta takrorlanadi. Ayni shu holat yonga, orqaga va yonga bajariladi. Battements tendus jetés: ikkita oldinga, har biri 1/8lik, 2/8da - bittasi demi-pliéda. yana bir marta takrorlanadi va yonga, orqaga va yonga bajariladi. Yonlama battements tendus jetés qilinadi, I pozitsiyaga; yettita - har biri 1/8lik (1/8da - pauza), yana bir marta takrorlanadi. 4 taktda

– gavda bukilgan holda yonga, uskunaga qarab port de bras qilinadi. Gavdani egish paytida qoʻl II pozitsiyadan III pozitsiyaga koʻtariladi va rostlangan gavda bilan II pozitsiyaga yoziladi.

3. *Rond de jambe par terre. 2/4 oʻlchamda 24 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. Sakkizta rond de jambe par terre, har biri 1/4 lik, oxirgisi oyoq uchi polda oldinga tugallanadi. I pozitsiya boʻyicha tezkor passé 450ga orqaga (tendu jeté) va I pozitsiya boʻyicha tezkor passé 450ga oldinga (tendu jeté), har biri 1/4lik. Sakkiz marta bajariladi. Barchasi en dedansda takrorlanadi, 4 taktida - plié en dedans - en dehorsda aylanish; 4 taktida – pliédga choʻzish va gavdani egish bilan port de bras qilinadi.

4. *45^oga battements fondus va frappés. 4/4 oʻlchamda 16 takt.*

Oʻng oyoqda ikkita oldinlama fondus qilinadi, har biri 2/4lik; chap oyoqda ikkita orqalama fondus qilinadi, har biri 2/4lik; toʻrtta yonlama fondus oʻng oyoqda, har biri 2/4lik. Teskari yoʻnalishda fondus takrorlanadi, oʻng oyoq bilan orqaga boshlash kerak.

Frappés: toʻrtta yonga, har biri 1/4lik; 2/4da harakatdagi oyoq V pozitsiyada oldinga demi-pliéga qoʻyiladi; 2/4da - harakatdagi oyoqni yonga 450 ga yozib yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. Toʻrtta frappés takrorlanadi va demi-pliéda harakatdagi oyoq 450ga orqadan V pozitsiyaga qoʻyiladi, yakunida oyoq 450ga yonga yoziladi.

Doubles frappés: sakkizta yonga, har biri 1/4lik va 2 taktida - développé attitude effacée.

5. *Rond de jambe en l'air. 2/4 oʻlchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors. Sakkizta rond de jambe en l'air qilinadi, har biri 1/4lik; 4 taktida - développé attitude croisée bajariladi. Ayni shu narsa yakunida croiséening yangi pozasi bilan en dedansda ijro etiladi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 oʻlchamda 16 takt.*

Toʻrtta petits battements aksent bilan oldinga, har biri 1/4lik; 2/4da - croiséening kichik pozasi oldinga oyoq uchi polda pliédga; 2/4da yarimbarmoqlarga koʻtariladi va harakatdagi oyoq oldinlama sur le cou-de-piedga bukiladi.

Toʻrtta orqalama petits battements aksent bilan, har biri 1/4lik; 2/4da - croiséening kichik pozasi orqaga oyoq uchi polda pliédga; 2/4da yarimbarmoqlarga koʻtariladi va harakatdagi oyoq orqalama sur le cou-de-piedga bukiladi.

O'n oltita oldinlama petits battements (aksentsiz), har biri 1/4lik.

7. *Battements développés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: oldinlama développé qilinadi. Ikkinchi takt: harakatdagi oyoq yonga uzatiladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: oyoq orqaga uzatiladi. Beshinchi takt: 900ga passé. Oltinchi takt: orqalama développé écartée bajariladi. Yettinchi taktda holat saqlanadi. Sakkizinchi takt: harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga tushiriladi. Ayni shu narsa écartée pozasi bilan oldinga en dedansda takrorlanadi.

8. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Uchta grands battements pointés va bittasi V pozitsiyada effacée pozasida orqaga bajariladi; uchta pointés va bittasi V pozitsiyada écartée pozasida orqaga; uchta pointés va bittasi V pozitsiyada II arabesque pozasida; uchta pointés va bittasi V pozitsiyada, yonga qilinadi, har biri 1/4lik.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

2 taktda: Croiséening V pozitsiyasida ikkita grands pliés qilinadi. 2 taktda: o'ng oyoqda oldinlama développé va II pozitsiyaga qadar demi-rond en dehors. 2 taktda: 900ga passé va attitude croisée, V pozitsiyada tugallanadi. 2 taktda: orqalama développé qilinadi va II pozitsiyaga qadar demi-rond en dedans bajariladi. 2 taktda: 900ga passé (2/4da) va croisée pozasida 900ga oldinga, V pozitsiyada tugallanadi. 2 taktda: chap oyoqda développé III arabesque, oyoqlarni tushirmasdan IV arabesque pozasi qabul qilinadi. 1 taktda holat saqlanadi, 1 takt: birinchi va ikkinchi chorakda oyoq V pozitsiyaga tushiriladi, qo'llar esa tayyorgarlik holatida bo'ladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda qo'llar II pozitsiyaga yoziladi. 2 taktda: tanani egish bilan III port de bras bajariladi.

2. *Battements tendus va battements tendus jetés. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

O'ng oyoqda – Croiséening katta pozasida sakkizta battements tendus, har biri 1/4lik; chap oyoqda - III arabesque pozasida sakkizta battements tendus, har biri 1/4lik; o'ng oyoqda – écarténing katta pozasida o'n oltita battements tendus, har biri 1/4lik. Battements tendus jetés: chap oyoqda - croiséening kichik pozasida uchta oldinga, har biri 1/8lik (to'rtinchi nimchorakda pauza). Yana bir marta takrorlanadi. Chap oyoqda croiséening kichik pozasida uchta orqaga qilinadi, har biri 1/8lik. Yana bir marta

takrorlanadi. Chap oyoqda écarténing kichik pozasida uchta orqaga qilinadi, har biri 1/8lik. Yana bir marta takrorlanadi. 4/4da o'ng oyoq bilan oldinga oyoq uchi polda pliédà bajariladi.

3. *Rond de jambe par terre. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors qilinadi. Oltita rond de jambe par terre, har biri 1/4lik; 2/4da - préparation en dehors. Oltita rond de jambe par terre en dedans, har biri 1/4lik; va 2/4da - préparation en dedans. 2 taktda - plié en dedans - en dehorsda aylanish. 2 taktda - pliégà cho'zish va gavdani egish bilan port de bras bajariladi.

4. *45ga battements fondus va frappés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqda ikkita oldinlama fondus qilinadi, har biri 2/4lik; chap oyoqda ikkita orqalama fondus qilinadi, har biri 2/4lik; to'rtta fondus o'ng oyoqda yonga, har biri 2/4lik.

Frappés: sakkizta yonga, har biri 1/4lik; to'rtta doubles frappés, har biri 2/4lik; 2/4da - harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga tushiriladi; 2/4da - croiséning kichik pozasi orqaga oyoq uchi polda pliédà bajariladi.

5. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Oldinga aksent bilan to'rtta petits battements oldinga, aksent bilan to'rtta orqaga bajariladi, har biri 1/4lik; yettita petits battements oldinga (aksentsiz), har biri 1/4lik; 1/4da - V pozitsiyaga harakatdagi oyoqqa tayanib oyoq oldida tombé, chap oyoq 45^oga yonga yoziladi (dégagé); yondan yonga oyoqlarni almashtirmasdan yonga oltita pas de bourrée qilinadi, har biri 2/4lik; 2/4da - V pozitsiyaga yarimbarmoqlarga soutenu qilinadi (chap oyoq oldinda); 2/4da - I arabesque pozasi diagonal bo'yicha 2-nuqtaga oyoq uchi polda pliédà bajariladi.

6. *Grands battements jetés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Croisée pozasida o'ng oyoqda sakkizta grands battements qilinadi; chap oyoqda sakkizta III arabesque pozasida, o'ng oyoqda écarté pozasida orqaga bajariladi, har biri 1/4lik. 2 taktda: chap oyoqda - I arabesquédà 900 ga relevé lent bajariladi.

7. *Adagio. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: V pozitsiyada grand plié. Ikkinchi takt: yarimbarmoqlarga relevé. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoqda - oldinlama développé effacée qilinadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: chap oyoqda - attitude effacée. Yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi taktlar: chap oyoqda - grand rond de jambe développé en dehors. O'ninchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq V pozitsiyaga demi-pliédà

tushiriladi, o'ng oyoq oldinlama sur le cou-de-piedga ko'tariladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda - en dedansda oyoqlar almashinuvi bilan pas de bourrée qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi. O'n birinchi va o'n ikkinchi taktlar: o'ng oyoqda - I arabesqueda développé bajariladi; oyoqni tushirmasdan II arabesque pozasi qabul qilinadi. O'n uchinchi takt: holat saqlanadi. O'n to'rtinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq V pozitsiyaga oldinga demi-pliéda tushiriladi, chap oyoq esa orqalama sur le cou-de-piedga ko'tariladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda - en dehorsda oyoqlar almashinuvi bilan pas de bourrée bajarilib, V pozitsiyada tugallanadi. O'n beshinchi va o'n oltinchi taktlar: chap oyoqda croiséning katta pozasida orqaga oyoq uchi polda qadam tashlanadi va keng harakat bilan qo'llar, gavda va bosh oyoq uchi polda IV arabesque pozasiga o'tkaziladi.

ALLEGRO

1. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoq va chap oyoq bilan double assemblé, har biri 2/4lik; oyoqlarni oldinga almashtirgan holda to'rtta yonlama assemblé, har biri 1/4lik. Kombinatsiya yana bir marta takrorlanadi. Ayni shu tarzda teskari yo'nalishda bajariladi.

2. *4/4 o'lchamda 4 takt.*

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Oyoqlarni almashtirgan holda yonlama to'rtta glissades qilinadi (o'ng oyoqdan boshlanadi), har biri 1/4lik; oyoqlarni almashtirib va almashtirmasdan II pozitsiyaga ikkita échappés qilinadi, har biri 2/4lik. Kombinatsiya boshqa oyoqda qaytariladi. Ayni shu tarzda teskari ijro etiladi, orqadan V pozitsiyada joylashgan oyoqdan glissade boshlanadi.

3. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. 1/4da - oyoqlarni almashtirmasdan, o'ng oyoqda glissade yonga; 1/4da - o'ng oyoqda jeté, yakunida chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedga; 2/4da - V pozitsiyada oyoqlar almashinuvi bilan tugallanadigan pas de bourrée. Kombinatsiya yana bir marta takrorlanadi va ikki marta chap oyoqda teskari yo'nalishda bajariladi.

4. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoq va chap oyoqda sissone ouverte bajariladi (assembléda tugallanadi), har biri 2/4lik; oyoqlarni almashtirgan holda ikkita yonlama sissones fermées qilinadi, har biri 1/4lik; 1/4da tizzalar uzatiladi; 1/4 da

kombinatsiyani yana bir marta qaytarish uchun demi-plié qilinadi. Ayni shu tarzda teskari yo'nalishda ijro etiladi.

5. $2/4$ o'lchamda 8 takt.

Ikkita oldinlama pas de basque, har biri $2/4$ lik; ikkita petits changements de pieds, har biri $1/4$ lik; $1/4$ da tizzalar uzatiladi; $1/4$ da kombinatsiyani yana bir marta qaytarish uchun demi-plié. Ayni shu tarzda orqalama pas de basque bajariladi.

6. $4/4$ o'lchamda 4 takt yoki $3/4$ o'lchamda 16 takt(vals)

Oyoqlarni almashtirgan holda II pozitsiyaga uchta grands échappés, har biri $2/4$ lik; $1/4$ da tizzalar uzatiladi; uchta échappésni qaytarish uchun demi-plié qilinadi.

7. *1 arabesqueda sahnaviy sissone va pas de chat (sahnaviy shakl).*
 $1/4$ o'lchamda 16 takt(vals)

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga; 8 taktda to'rt marta 1 arabesqueda sahnaviy sissone va pas de chat ijro etiladi; 4 taktda – (orqaga yengilgina siljib) to'rtta balancés bajariladi; 1 taktda orqalama effacée pozasida o'ng oyoq uchida turiladi; keyingi 3 taktda holat saqlanadi. Ayni shu narsa diagonal bo'yicha 4-nuqtadan 8-nuqtaga qaytariladi.

8. $2/4$ o'lchamda 8 takt.

O'n oltita petits changements de pieds qilinadi, har biri $1/4$ lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING YETTINCHI MISOLI

1. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

I pozitsiyada sakkizta, II pozitsiyada sakkizta relevés bajariladi, har biri $2/4$ lik.

2. $4/4$ o'lchamda 8 takt.

II pozitsiyaga uchta doubles échappés, har biri $4/4$ lik; oyoqlarni almashtirgan holda II pozitsiyaga ikkita échappés, har biri $2/4$ lik. Yana bir marta takrorlanadi.

3. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

Croiséening kichik pozasida ilgariga siljish bilan yettita sus-sous qilinadi, har biri $2/4$ lik. $2/4$ da – oyoqlarni almashtirgan holda II pozitsiyaga échappé. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda bajariladi.

4. $2/4$ o'lchamda 8 takt.

Yondan yonga oyoqlarni almashtirmasdan yetti marta pas de bourrée qilinadi, har biri 2/4lik. Oxirgi pas de bourrée V pozitsiyaga tugallanadi. 2/4da – V pozitsiyaga barmoqlarda oldinga qadam tashlanadi, qo'llar croiséening katta pozasiga ko'tariladi.

5. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Oyoqlarni orqaga almashtirgan holda uchta sissones simples qilinadi, har biri 2/4lik, 2/4da – V pozitsiyada relevé bajariladi. To'rt marta qaytariladi. Ayni shu narsa oyoqlarni oldinga almashtirgan holda bajariladi.

6. *6/8 o'lchamda 16 takt.*

8 taktda – diagonal bo'yicha oldinga pas couru va orqaga pas couru qilinadi.

SABOQNING SAKKIZINCHI MISOLI USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *4/4 o'lchamda 12 takt.*

I, II, IV va V pozitsiyalarda ikkitadan grands pliés, har biri 4/4lik; gavdani egish bilan ikkita ports de bras, har biri 2 taktda.

2. *Battements tendus va battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Demi-pliéda bittadan battements tendus – oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 2/4lik (1/4da - battements tendus, ikkinchi chorak - demi-pliéning davomi).

Bittadan battements tendus – oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 2/4lik. Barcha kombinatsiya teskari tartibda bajariladi. Battements tendus jetés: to'rtta oldinga, har biri 1/4lik; yettita yonga, har biri 1/8lik (1/8 pauza); to'rtta orqaga, har biri 1/4lik; yettita yonga, har biri 1/8lik (1/8 pauza).

3. *Rond de jambe par terre. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. Sakkizta rond de jambe par terre, har biri 1/4lik; oxirgisi oyoq uchi polda pliéda tugallanadi, 4 taktda – gavdani egish bilan ports de bras bajariladi. Sakkizta rond de jambe par terre en dedans, har biri 1/4lik; oxirgisi orqada oyoq uchi polda pliéda tugallanadi, 4 taktda - gavdani egish bilan ports de bras bajariladi.

4. *45^oga battementssoutenus, battements fondus va frappés. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

Bittadan battements soutenus oyoq uchi polda oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi, har biri 2/4lik; o'sha yo'nalishlarda bittadan fondus qilinadi, har biri 2/4lik. battements soutenus va fondus teskari tartibda

qaytariladi. Frappés: ikkitadan oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/4lik. Doubles frappés: sakkizta yonga, har biri 1/4lik.

5. *Rond de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda harakatdagi oyoqni yonga 450ga ko'tarib, yarimbarmoqlarda ko'tariladi – préparation. Oltita rond de jambe en l'air en dehors qilinadi, har biri 1/4lik; 2/4 da - plié-relevé bajariladi. Oltita rond de jambe en l'air en dedans qilinadi, har biri 1/4lik; 2/4 da - plié-relevé bajariladi. To'rtta rond de jambe en l'air en dehors va to'rtta en dedans qilinadi, har biri 1/4lik; 2 taktida - développé II arabesque bajariladi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Uchta petits battements oldinga qilinadi, har biri 1/4lik; 1/4 da – pauza qilinadi. Yana bir marta takrorlanadi. Yettita petits battements oldinga, har biri 1/4da, yettinchisida – tayanch oyoqda demi-plié qilinadi, 1/4da – pauza. Ayni shu tarzda orqaga takrorlanadi.

8. *Battements développé. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

9. Birinchi takt: développé oldinga bajariladi. Ikkinchi takt: harakatdagi oyoq yonga uzatiladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: I pozitsiya bo'yicha sekingina orqaga o'tiladi va II arabesque pozasida 90⁰ga relevé bajariladi. Beshinchi taktida holat saqlanadi. Oltinchi takt: 90⁰ga passé. Yettinchi takt: yon tomonga développé qilinadi. Sakkizinchi takt: harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga tushiriladi. To'qqizinchi takt: développé orqaga. O'ninchi takt: harakatdagi oyoq yonga uzatiladi. O'n birinchi va o'n ikkinchi taktlar: I pozitsiya bo'yicha sekingina oldinga o'tiladi va effacée pozasida oldinga 90⁰ga relevé qilinadi. O'n uchinchi takt: holat saqlanadi. O'n to'rtinchi takt: 90⁰ga passé. O'n beshinchi takt: yonga développé qilinadi. O'n oltinchi takt: harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi.

10. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Bitta oldinlama grands battements, bitta battements tendus qilinadi, har biri 1/4lik. Yana bir marta takrorlanadi. Ayni shu tarzda yonga, orqaga va yonga bajariladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR (EKZERSIS)

1. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: I pozitsiyada grand plié qilinadi. Ikkinchi takt: yarimbarmoqlarga demi-plié va relevé. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoqda oldinlama développé croisée, 90⁰ga o'tilib, yon tomonga développé

qilinadi. Beshinchi takt: II pozitsiyaga grand plié qilinadi. Oltinchi takt: yarimbarmoqlarga demi-plié va relevé. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: o'ng oyoqda développé attitude croisée qilinadi, 90⁰ga passé va yonga développé bajariladi.

2. *Battements tendus sa battements tendus jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkitadan battements tendus va demi-plié oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 2/4lik (1/4da - battements tendu, 1/4da - demi-pliéning davomi). To'rtta yonlama doubles battements tendus qilinadi, uchta yonlama battements tendus jetés qilinadi, har biri 1/8lik (to'rtinchi nimchorakda pauza). To'rt marta takrorlanadi.

3. *Rond de jambe par terre. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. Sakkizta ronds de jambe par terre, har biri 1/4lik, oxirgisi oldinga effacéda, oyoq uchi polda pliédá tugallanadi, gavda sekingina orqaga tashlanadi; 2/4da - orqalama écartée pozasiga qadar oyoq uchi polda demi-rond en dehors bajariladi, o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l esa II pozitsiyaga ko'tariladi; 2/4da - orqalama effacéening kichik pozasida 4-nuqtaga cho'zilgan o'ng oyoqqa o'tkaziladi, oyoq uchi polda; 4/4da - cho'zilgan o'ng tayanch oyoqda qolinadi (chap oyôq uchi polda) va 8-nuqtaga (en dehors) oldinlama effacéening katta pozasiga oyoq uchi polda qayriladi.

Alohida tarzda ronds de jambe par terre en dedans bajariladi, oxirgisi orqalama effacéda tugallanadi, oyoq uchi polda pliédá; oldinlama écartée pozasiga qadar demi-rond en dedans bajariladi; 2-nuqtaga cho'zilgan o'ng oyoqda o'tib, oldinga effacéening kichik pozasida qayriladi, oyoq uchi polda, 6-nuqtaga va cho'zilgan o'ng oyoqda qolib, 2-nuqtaga effacéening katta pozasida oyoq uchi polda qayrilish kerak (en dedans).

4. *Battements fondus sa frappés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita oldinlama fondus o'ng oyoqda, ikkita orqalama fondus chap oyoqda, to'rtta yonlama fondus o'ng oyoqda qilinadi, har biri 2/4lik. Frappés: oltita yonga, har biri 2/4lik; 2/4da - harakatdagi oyoq V pozitsiyaga orqadan tushiriladi va 4 taktda III port de bras ijro etiladi.

5. *Rond de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors qilinadi. Sakkizta rond de jambe en l'air bajariladi, har biri 1/4lik va 2 taktda - grand rond de jambe développé en dehors bajariladi. Yen dedansda alohida bajariladi.

6. *Adagio. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Birinchi takt: V pozitsiyada grand plié qilinadi (o'ng oyoq oldinda), yakunida chap oyoq III pozitsiyaga, o'ng oyoq II pozitsiyaga ko'tariladi. Ikkinchi takt: II port de bras bajariladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoqda oldinlama développé effacé qilinadi, 90⁰ga passé qilinadi (uchinchi taktning to'rtinchi choragida) va développé attitude croisée bajariladi; V pozitsiyada tugallanadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: o'ng oyoqda yonlama développé qilinadi, 90⁰ga passé va IV arabesque bajariladi; V pozitsiyada tugallanadi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: chap oyoqda attitude effacé qilinadi, 90⁰ga passé va oldinlama développé croisée bajariladi; V pozitsiyada tugallanadi. To'qqizinchi va o'ninchi taktlar: I arabesqueda o'ng oyoqda diagonal bo'yicha 8-nuqtaga développé qilinadi; V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda. O'n birinchi takt: o'ng oyoqda - oldinlama pas de basque va V pozitsiyada yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. O'n ikkinchi takt: chap oyoqda - plié en dehorsda aylanish (ronds de jambe par terre); orqalama croisée oyoq uchi polda III pozitsiyaga qo'llarni ko'targan holda tugallanadi.

ALLEGRO

1. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

To'rtta assemblés oyoqlarni oldinga almashtirgan holda yonga, har biri 1/4lik; 2/4da - oyoqlarni almashtirgan holda II pozitsiyaga échappé qilinadi; croiséening kichik pozasida ikkita oldinlama assembles bajariladi, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

2. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Uchta oldinlama glissades croisée, oyoqlarni almashtirgan holda bitta yonga, har biri 1/4lik; croiséening IV pozitsiyasiga ikkita échappés, har biri 2/4da. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

3. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Sissone ouverte croisée oldinga va yonga, assembléda tugallanadi, har biri 2/4lik; II pozitsiyaga bir oyoqda tugallanadigan échappé qilinadi (sur le-cou-de-pied) va 2/4da en dehorsda oyoqlarni almashtirgan holda pas de bourrée bajariladi. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu tarzda teskari yo'nalishda bajariladi.

4. *4/4 o'lchamda 4 takt.*

Oyoqlarni almashtirmagan holda ikkita yonlama *sissones fermées* bajariladi, har biri 1/4lik; 1/4da tizzalar uzatiladi, 1/4da keyingi sakrashlar uchun *demi-plié* qilinadi. To'rt marta takrorlanadi.

5. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Croiséening IV pozitsiyasiga *grands échappés* va oyoqlar almashgan holda II pozitsiyaga *grand échappé* qilinadi, har biri 2/4lik; to'rtta *grands changements de pieds* bajariladi, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda qaytariladi.

6. *3/4 o'lchamda 16 takt (vals).*

O'ng oyoqda to'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga; 6 taktda - I arabesqueda uch marta sahnaviy *sissones* va *pas de chat*ning sahnaviy ko'rinishi ijro etiladi; 2 taktda I arabesqueda o'ng oyoq uchi polda 3-nuqtaga turiladi. Ayni shu tarzda chap oyoqda 3-nuqtadan 7-nuqtaga takrorlanadi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING SAKKIZINCHI MISOLI

1. *3/4 o'lchamda 32 takt (vals).*

To'rtta *temps lié* oldinga, to'rtta orqaga, har biri 4 taktda.

2. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

Croiséening IV pozitsiyasiga ikkita *doubles échappés*, bitta *double échappé* II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirgan holda qilinadi, har biri 4/4lik. Croiséening kichik pozasida oldinga siljish bilan ikkita *sus-sous* qilinadi, har biri 2/4lik. Boshqa oyoqda qaytariladi va *teskari yo'nalishda* bajariladi.

3. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

Bir oyoqda tugallanishi bilan o'ng oyoq va chap oyoqda II pozitsiyaga *échappé* qilinadi (*sur le cou-de-pied*), har biri 2/4lik; oyoqlarni orqaga almashtirgan holda to'rtta *sissones simples* bajariladi, har biri 2/4lik. Yana bir marta takrorlanadi. Ayni shu tarzda *teskari yo'nalishda* bajariladi.

4. *3/4 o'lchamda 16 takt (vals).*

8 taktda: o'ng oyoqda - Croiséeda oldinlama *pas de bourrée suivi* qilinadi, oxirgi taktda *demi-pliéga* tushiriladi. 8 taktda: o'ng oyoqda qadam tashlanadi, qo'llar III arabesque holatiga ko'tariladi va o'ng tomonga, *pas de bourrée suivi en tournant* qilinadi, to'rtta qayrilish.

UCHINCHI SINF

Uchinchi sinfda yarimbarmoqlarda zal o'rtasidagi mashqlarni, en tournantdagi nisbatan yengil mashqlarni va tur (aylanish)ni o'rganish boshlanadi.

BIRINCHI YARIM YILLIK

SABOQNING BIRINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDA BAJARILADIGAN MASHQLAR

1. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

I, II, IV va V pozitsiyalarda bitta demi-plié, ikkita grands pliés, bitta relevé yarimbarmoqlarda bajariladi, har biri $4\frac{1}{4}$ o'lchamda.

2. Battements tendus. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 24 takt.

Demi-pliéda ikkitadan battements tendus oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi, har biri $\frac{1}{4}$ o'lchamda; to'rtta yon tomonga (pliésiz), har biri $\frac{1}{4}$ o'lchamda; beshinchi battement $\frac{1}{4}$ o'lchamda uskunaga yarim qayrilgan holda oyoqni almashtirib ijro etiladi, yakunida chap oyoq uchi polda yonga yoziladi; $\frac{1}{4}$ o'lchamda holat saqlanadi; $\frac{1}{4}$ o'lchamda oyoqni almashtirgan holda uskunaga qarab yarim qayrilish, yakunida o'ng oyoq uchi polda yonga yoziladi; $\frac{1}{4}$ o'lchamda harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga yig'iladi. Teskari tartibda uskunadan yarim qayrilgan holatda battements tendus qaytariladi. Battements tendus jetés: oldinga uch marta bajariladi, har biri $1\frac{1}{8}$ lik. Yana bir marta takrorlanadi. Yon tomonga yettita qilinadi, har biri $1\frac{1}{8}$ lik; uchta orqaga qilinadi. Yana bir marta takrorlanadi. Yetti marta yonga bajariladi, har biri $1\frac{1}{8}$ lik.

3. Ronds de jambe par terre. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 12 takt.

Dastlabki ikki akkordda – préparation en dehors bajariladi. To'rtta ronds de jambe par terre qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik, to'rtinchisi oldinga demi-pliéda tugatiladi; $4\frac{1}{4}$ da en dehors-en dedansda aylanish. Ayni shu narsa en dedansda takrorlanadi, keyin esa yana bir marta en dehors va en dedansda qaytariladi. 2 taktida pliége cho'zish va gavdani egish bilan ikkita port de bras bajariladi.

4. 45^0 ga battements fondus frappé. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 24 takt.

$4\frac{1}{4}$ da – effacéning kichik pozasida oldinga bitta fondu qilinadi, $2\frac{1}{4}$ da – orqalama écartéda demi-rond bilan plié va relevé qilinadi. Yana bir marta takrorlanadi. Ikkita fondus yonga bajariladi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; to'rtta frappée, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. Teskari tartibda fondus va frappée bajariladi.

Frapées: effacée pozasida to'rtta oldinga, écartée pozasida to'rtta orqaga, effacée pozasida to'rtta orqaga va écartée pozasida to'rtta oldinga qilinadi, har biri 1\4 lik.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors qilinadi. Yettita ronds de jambe en l'air bajariladi, har biri 1\4lik, yettinchi rond de jambe esa oldinlama effacéening kichik pozasiga pliéda oyoq uchi polda tugallanadi va 1\4da harakatdagi oyoq V pozitsiyaga yig'iladi, gavda en faceda qayriladi. 4\4da yonga 90⁰ga relevé lent qilinadi; 2\4da harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga tushiriladi va 2\4da préparation temps relevé en dedans bajariladi. Yettita ronds de jambe en dedans qilinadi, har biri 1\4lik, yettinchisi effacéening kichik pozasida pliéda oyoq uchi polda tugallanadi; 1\4da harakatdagi oyoq V pozitsiyaga qo'yiladi. 4\4da 90⁰ga yonga relevé lent qilinadi; 4\4da yarimbarmoqlarda ko'tarilib, harakatdagi oyoq V pozitsiyaga qo'yiladi.

6. *Doubles frappés sa petits battements sur le cou-de-pied. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

(Zarba va harakatdagi oyoqni ko'chirish vaqtida yarimbarmoqlarda sur le cou-de-piedda ko'tarilish hamda har bir frappé yakunida tayanch oyoqni tovonga tushirish bilan) yo'nalishlar bo'yicha: oldinga, yonga, orqaga, yonga sakkizta doubles frappés qilinadi, har biri 1\4lik. Petits battements: ikkita aksent bilan oldinga, har biri 1\4lik; uchta aksentsiz, har biri 1\8 lik; pauza qilinadi; 1\8da aksent bilan ikkita petits battements qilinadi, har biri 1\4lik; ikkitasi aksentsiz, har biri 1\8lik; 1\4da butun tovonga tushiriladi va harakatdagi oyoq uchi polda yonga yoziladi. Doubles frappés va petits battements teskari tartibda qaytariladi.

7. *Battements développés. 4\4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: pliéda effacéening kichik pozasi oyoq uchi polda bajariladi va 90⁰ga effacéening katta pozasida relevé qilinadi. Ikkinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda - yarimbarmoqlarda relevé qilinadi, uchinchi va to'rtinchi chorakda - harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. Uchinchi takt: pliéda oyoq uchi polda orqalama écarténing kichik pozasi qilinadi va 90⁰ga écarténing katta pozasida orqalama relevé bajariladi. To'rtinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda - yarimbarmoqlarda relevé qilinadi, uchinchi va to'rtinchi choraklarda esa harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. Beshinchi va oltinchi taktlar: grand rond de jambe développé en dedans qilinadi, oxirgi ikki chorakda - yarimbarmoqlarda

relevé qilinadi. Yettinchi takt: harakatdagi oyoq V pozitsiyaga demi-pliéda tushiriladi va uskunaga qarab yarimbarmoqlarda to'liq burilish amalga oshiriladi, qayrilish demi-pliéda tugallanadi. Sakkizinchi takt: birinchi va ikkinchi taktda développé II arabesque bajariladi, to'rtinchi taktda yarimbarmoqlarda relevé qilinadi, to'rtinchi chorakda V pozitsiyada harakat tugallanadi. Ayni shu narsa teskari tartibda qaytariladi, yakunida oldinlama croisée pozasida yarimbarmoqlarda ko'tarilib développé ijro etiladi.

8. *Grands battements jetés pointés.* 2\4 o'lchamda 8 takt.

Ikkita oldinlama grands battements pointés bajariladi, har biri 1\4lik; uchta battement ijro etiladi va harakatdagi oyoq 90°ga 3\8 davomida havoda ushlab turiladi va 1\4da V pozitsiyaga tushiriladi. Ayni shu narsa yonga, orqaga va yonga takrorlanadi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kичик адажио са battements tendus.*⁴⁸ 4\4 o'lchamda 16 takt.

Birinchi va ikkinchi taktlar: I pozitsiyaga ikkita grands pliés. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoqda – yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan oldinga développé qilinadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: o'ng oyoq bilan – II pozitsiyada ikkita grands pliés qilinadi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: o'ng oyoqda – yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan oldinlama développé qilinadi. To'qqizinchi va o'ninchi taktlar: o'ng oyoqda – yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan yonlama développé qilinadi. O'n birinchi va o'n ikkinchi taktlar: chap oyoqda - grand rond de jambe développé en dehors bajariladi. O'n uchinchi takt: chap oyoqda - plié (rond de jambe par terre) en dedansda nylanish. O'n to'rtinchi takt: V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda soutenue qilinadi, qo'llar ko'tariladi – o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap esa II pozitsiyaga olib boriladi (ko'z qiri o'ng qo'lga qaratiladi); oxirgi chorakda har ikki tovonga tushiriladi. O'n beshinchi takt: V port de bras bajariladi. O'n oltinchi takt: chap oyoq bilan - oyoq uchi polda pliéda to'g'ri chiziq bo'ylab 7-nuqtadan 3-nuqtaga qarab, gavdani ozgina bukkan holda I arabesque bajariladi. O'ng qo'l arabesque holatida III pozitsiya balandligida, bosh chappga qayrilgan bo'ladi. Battements tendus – 4\4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoq bilan – o'n oltita battements tendus yonga

⁴⁸ Uchinchi sinfda birinchi adajio shartli tarzda "kichik adajio" deb nomlanishi mumkin. U o'z mazmuniga ko'ra zal o'rtasidagi mashqlarning yakunida ijro etiladigan "katta adajio"dan farqlanadi. Battements tendus esa birinchi adajio bilan birikishi, ammo alohida kombinatsiyada ijro etilishi mumkin.

bajariladi, har biri 1\4lik. Battements tendus jetés: uchtdan yonga, har biri 1\8lik, sakkiz marta ijro etiladi.

2. *Yarimbarmoqlarda ko'tarilib va butun tovonda 45⁰ga battements fondus. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

2\4da – croiséning kichik pozasida fondu qilinadi, 2\4da - plié-relevé bajariladi, gavda en faceda qayriladi, harakatdagi oyoq oldinda qoladi. 2\4da – effacéning kichik pozasida oldinga fondu qilinadi; 2\4da - II pozitsiyaga qadar demi-rond bilan plié-relevé qilinadi (bor tovonda bajariladi). Yarimbarmoqlarda ko'tarilib yonga uchta fondu qilinadi, har biri 2\4lik; 2\4da V pozitsiyaga tushiriladi. 2\4da – croiséning kichik pozasida orqalama fondu qilinadi; 2\4da - plié-relevé bajariladi, gavda en faceda qayriladi, harakatdagi oyoq orqada qoladi. 2\4da – effacéning kichik pozasida fondu bajariladi; 2\4da – II pozitsiyaga qadar demi-rond bilan birga plié-relevé bajariladi (butun tovonda bajariladi). Yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan uchta yonlama fondu qilinadi, har biri 2\4lik. Uchinchi fondudan keyin ikki chorak davomida yarimbarmoqlarda qolinadi.

3. *Yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan battements frappés. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

Olti frappés yonga bajariladi (45⁰), har biri 1\4lik; 2\4da yarimbarmoqlarda ko'tariladi. Yarimbarmoqlarda oltita frappés, har biri 1\4lik va 2\4da mashq V pozitsiyada tugatiladi.

4. *Grands battements jetés. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

Croisée pozasida ikkita oldinlama grands battements qilinadi, en faceda ikkita oldinga bajariladi, ikkita effacée pozasida oldinga, ikkita yonga qilinadi; écartée pozasida ikkita orqaga, effacée pozasida ikkita orqaga, en faceda ikkita orqaga va sroisée pozasida ikkita orqaga qilinadi, har biri 1\4lik.

5. *Katta adajio. 4\4 o'lchamda 16 takt yoki 3\4 o'lchamda 48 takt (mayin vals).*

Birinci va ikkinchi taktlar: o'ng oyoqdan boshlab yetti qadam tashlanadi (har biri o'z joyigacha boradi)va V pozitsiyada turadilar, o'ng oyoq oldinda, qo'llar II pozitsiyaga yozilgan. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: V pozitsiyada grand plié va yarimbarmoqlarda relevé qilinadi, o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l I pozitsiyaga ko'tariladi (gavda yengilgina chapga egiladi, bosh esa o'ng qo'lga qayriladi). Beshinchi takt: o'ng oyoq bilan yonlama développé qilinadi. Oltinchi takt: I arabesqueda yengilgina qayrilish bajariladi. Yettinchi takt: o'ng oyoq V pozitsiyaga oldindan demi-

pliéga tushiriladi va yarimbarmoqlarda (chapga) to'liq qayriladi. Sakkizinchi va to'qqizinchi taktlar: chap oyoq bilan – yonlama développé qilinadi va effacée pozasida oldinga sekin qayriladi. O'ninchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda - effacée pozasida plié qilinadi, uchinchi va to'rtinchi chorakda - en dedansda oyoqlarni almashtirgan holda pas de bourrée bajariladi. O'n birinchi va o'n ikkinchi taktlar: chap oyoq bilan - attitude effacée pozasida développé qilinadi va attitude sroiséega sekin qayriladi; o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap esa I pozitsiyaga o'tkaziladi. (adajio boshlanishida yarimbarmoqlardagi relevé pozasiga o'xshash poza). O'n uchinchi takt: 90^oga passé va orqalama développé écartée qilinadi. O'n to'rtinchi takt: oyoq orqadan demi-pliéda V pozitsiyaga tushiriladi va yarimbarmoqlarda (chapga) to'liq qayriladi, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi. O'n beshinchi va o'n oltinchi taktlar: I arabesquda chap oyoqqa sahnaviy sissone qilinadi, 6-, 7- va 8-nuqtalarga yuguriladi, chap oyoqda II arabesque pozasida oyoq uchi polda turiladi.

ALLEGRO

1. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Oyoqlarni oldinga almashtirgan holda sakkizta assemblés yonga qilinadi, har biri 1\4lik; 1\8da – coupé qilinadi va oyoqlarni orqaga almashtirgan holda sakkizta yonlama assemblés qilinadi.

2. 2\4 o'lchamda 8 takt.

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. 2\4da sissone simple qilinadi, yakunida chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedni bajaradi, assemblé qilinadi. Sissone va assemblé yana bir marta takrorlanadi. 2\4da sissone simple, temps levé bajariladi va 2\4da en dehorsda oyoqlar almashinuvi bilan pas de bourrée qilinadi. Barchasi chap oyoq bilan takrorlanadi. Ayni shu tarzda teskari yo'nalishda ham ijro etiladi.

3. 4\4 o'lchamda 8 takt.

Yon tomonga jeté, orqaga esa temps levés va assemblé croisée qilinadi. Har bir sakrash 1\4da ijro etiladi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi va teskari yo'nalishda ijro etiladi.

4. 2\4 o'lchamda 16 takt.

Assembléni tugallab, ikkita oldinlama sissones ouvertes bajariladi, har biri 2\4lik; orqalama croiséyening kichik pozasida oldinga siljigan holda ikkita sissones fermées qilinadi, har biri 1\4lik; 2\4da II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirgan holda petit échappé qilinadi, II pozitsiyaga temps

levé esa $1\frac{1}{8}$ da bajariladi.⁴⁹ Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

5. *Sissone tombée croisée oldinga, orqaga va yonga. Musiqiy o'lcham $2\frac{1}{4}$.*

Croisée oldinga bajariladi: taktdan so'ng demi-plié va sakrash amalga oshiriladi; birinchi chorakda IV pozitsiyaga sakrashni croiséening kichik pozasida tugatish kerak; ikkinchi chorakda oldinga siljish bilan sirpanuvchan sakrash qilinadi, Demi-pliéda V pozitsiyaga oyoqlar birlashtiriladi. To'rt marta oldinga qaytariladi, keyin esa to'rt marta orqaga qilinadi. (Keyingi saboqlarda yonlama sissone tombée o'rganiladi va effacéning kichik pozalarida oldinga va orqaga bajariladi). Sissone tombéni vals tempida ijro etish mumkin, har biri 2 taktdan.

6. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirgan holda ikkita grands échappés qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; $4\frac{1}{4}$ da bitta grand échappé II pozitsiyaga temps levé bilan bajariladi. To'rt marta takrorlanadi.

7. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

Ikkita petits changements de pieds qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik; uchasi $1\frac{1}{8}$ lik, $1\frac{1}{8}$ da pauza qilinadi. To'rt marta takrorlanadi.⁵⁰

BARMOQLARDA BAJARILADIGAN MASHQLARNING BIRINCHI MISOLI⁵¹

1. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

I pozitsiyaga to'rtta relevés qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; sakkizta relevés qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. Ayni shu tarzda II pozitsiyada ijro etiladi.

2. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirish bilan to'rtta échappés qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; $4\frac{1}{4}$ da bitta double échappé va oyoqlarni almashtirish bilan to'rtta échappés bajariladi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. To'rt marta takrorlanadi.

3. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

O'ng, chap va o'ng oyoqlarda uchta sissones simples qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; chap va o'ng oyoqlarda ikkita sissones simples qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. To'rt marta takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

⁴⁹II pozitsiyaga temps levé qisqa, trampoline xarakterida bo'lish kerak.

⁵⁰Har bir saboq gavdani egish bilan port de brasda tugallanadi.

⁵¹Uchinchi sinfda saboqni haftada ikki marta (allegro o'rniga) uskuna oldida o'tkazish tavsiya qilinadi.

4. *2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqda oldinga siljish bilan croiséening kichik pozasida to'rtta jetés qilinadi, har biri 2\4lik. 4 taktda —o'ng oyoq bilan — to'g'ri chiziq bo'yicha o'ngga pas de bourrée suivi qilinadi, oldinda V pozitsiyaga chap oyoqni almashtirish bilan tugallanadi. Boshqa oyoqda takrorlanadi.

5. *Musiqiy o'lcham 2\4 (polka).*

Dastlabki ikki akkordda V pozitsiyaga barmoqlarda turiladi. Oldinga qimirlab polkaning sakkizta qadami (pas) va orqaga sakkizta qadami (pas) tashlanadi.

Pedagogning ixtiyoriga ko'ra, polkaning oldinlama qadamlari (pas) kichik doirada o'ng yoki chap yonga ijro etilishi mumkin.

SABOQNING IKKINCHI MISOLI

USKUNA BILAN MASHQLAR

1. *4\4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita grands pliés qilinadi, har biri 4\4lik; 4\4da yarimbarmoqlarda relevé bajariladi; ikkita relevés qilinadi, har biri 2\4lik. I, II, IV va V pozitsiyalarda ijro etiladi.

2. *Battements tendus. 2\4 o'lchamda 32 takt.*

Oltita battements tendus oldinga qilinadi, har biri 1\4lik; yettinchi battement 1\4da oyoqni almashtirib uskunaga yarim qayrilgan holda bajariladi, yakunida chap oyoq oldinga yoziladi, oyoq uchi polda bo'ladi; 1\4da chap oyoq V pozitsiyaga yig'iladi. Ayni shu narsa chap oyoqda takrorlanadi. O'ng oyoqda to'rtta yonlama doubles battements tendus bajariladi, har biri 2\4lik. Battements tendus jetés: uchta yonga, uchta oldinga, uchta yonga va uchta orqaga qilinadi, har biri 1\8lik (1\8da pauza qilinadi). Barcha kombinatsiyalar teskari tartibda bajariladi, o'ng oyoqni orqaga tashlashdan boshlash kerak.

3. *Rond de jambe par terre. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors qilinadi. To'rtta ronds de jambe par terre bajariladi, har biri 1\4lik; to'rtinchisi oldinda oyoq uchi polda tugallanadi. I pozitsiya bo'yicha oldinga, orqaga, orqaga 450ga ildamlash bilan tezkor passé (tendu jeté), har biri 1\8lik (1\8da pauza); oldinga, orqaga, oldinga — har biri 1\8lik. Ronds de jambe par terre en dedans davom ettiriladi, keyin yana bir bor en dehors va en dedansda takrorlanadi. 2 taktda plié en dedans-en dehorsda aylanish; 2 taktda pliéga cho'zilgan holda va gavdani egib port de bras qilinadi.

4. *Battements fondus tombés. 2¼ o'lchamda 32 takt.*

2¼da fondu oldinga bajariladi; 2¼da harakatdagi o'ng oyoq pliêga oldinlama tombé-yiqilish qilinadi (chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedga ko'tariladi) va fondu chap oyoqda orqaga bajariladi; 2¼da pliêda chap oyoqda orqalama tombé qilinadi (o'ng oyoq oldinlama sur le cou-de-piedga ko'tariladi) va fondu o'ng oyoq bilan oldinga bajariladi; 2¼da holat saqlanadi. O'ng oyoqda to'rtta yonlama fondus qilinadi, har biri 2¼lik. Barchasi teskari yo'nalishda qaytariladi, orqaga o'ng oyoqda boshlanadi. Frappés yonga: to'rtta har biri 1¼ lik; uchta va yana uchta har biri 1⅛lik (1⅛da pauza qilinadi). Frappés kombinatsiyasi to'rt marta takrorlanadi.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4¼ o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors qilinadi. To'rtta ronds de jambe en l'air bajariladi, har biri 1¼ lik. 1¼da harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga pliêda qo'yiladi, 1¼da - uskunaga qaragan holda yarimbarmoqlarda to'liq qayrilish va 2¼da - préparation temps relevé en dehors. Barchasi yana bir bora takrorlanadi va ikki marta ayni shu narsa en dedansda ijro etiladi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2¼ o'lchamda 16 takt.*

O'n oltita petits battements qilinadi, har biri 1¼lik. 4 taktda harakatdagi oyoq 45⁰ga yonga yoziladi, u V pozitsiyaga orqadan qo'yiladi va attitude effacéda yarimbarmoqlarda ko'tarilgan holda développé qilinadi; 4 taktda - attitude croiséda yarimbarmoqlarda ko'tarilgan holda développé qilinadi.

7. *90⁰ga battements soutenus. 4¼ o'lchamda 8 takt.*

Birinchi chorakda yarimbarmoqlarda ko'tariladi, ayni paytda harakatdagi oyoq uchi tayanch oyoq tizzasiga qadar olib boriladi; ikkinchi chorakda - tayanch oyoqda demi-plié qilinadi, harakatdagi oyoq 90⁰ga belgilangan yo'nalish bo'yicha cho'ziladi; uchinchi chorakda harakatdagi oyoqni tushirish kerak va to'rtinchi chorakda V pozitsiyaga tayanch oyoqqa uzatib, ayni paytda har ikki oyoqda yarimbarmoqlarda ko'tariladi. Oldinga, yonga, orqaga va yonga ikki martadan bajariladi.

8. *Grands battements jetés. 2¼ o'lchamda 8 takt.*

Oldinlama grands battements pozasiga to'rtta, orqalama écartée pozasiga to'rtta qilinadi; to'rtta orqaga va oldinlama écartée pozasiga to'rtta qilinadi; har biri 1¼lik.

9. *En dehors va en dedansda V pozitsiyadan tours uchun préparation.*

(O'g'il bolalar sinfi uchun V va II pozitsiyadan) Har biri 4\4 lik 1 taktida o'rganiladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adajio va battements tendus.* 4\4 o'lchamda 8 takt.

Birinchi va ikkinchi taktlar: yarimbarmoqlarda effacée va relevéning IV pozitsiyasida grand plié qilinadi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoqda – oldinlama développé qilinadi, oldinlama effacée pozasiga qayrilib, yarimbarmoqlarda ko'tariladi. Harakatdagi oyoqni orqadan V pozitsiyaga tushirib tugallanadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: o'ng oyoqda – orqalama développé qilinadi, attitude effacéda qayrilib, yarimbarmoqlarda ko'tariladi, oldinda V pozitsiyada tugallanadi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: chap oyoqda - développé orqaga, demi-rond en dedans yonga qilinadi, oldinlama écartée pozasiga buriladi. Battements tendus: 4\4 da 8 takt. To'rtta croisée pozasida oldinga qilinadi, har biri 1\4lik; battements tendus jetés oldinga croiséening kichik pozasida – uchta va yana uchta qilinadi, har biri 1\8lik. Ayni shu narsa yonga, croiséening kichik pozasida orqaga va yonga qilinadi.

2. *Ronds de jambe par terre.* 2\4 o'lchamda 24 takt.

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors qilinadi. Sakkizta ronds de jambe par terre bajariladi, har biri 1\4lik, sakkizinchisi oldinda oyoq uchi polda tugallanadi; 2\4da – 90⁰ga relevé qilinadi; 2\4da – yonlama demi-rond en dehors qilinadi; 2\4da yarimbarmoqlarda ko'tariladi; 2\4da harakatdagi oyoq uchi polda II pozitsiyaga tushiriladi. Shu holatlarning barchasi en dedansda qaytariladi. 4 taktda - plié en dedans- en dehorsda aylanish, 4 taktda – pliége cho'zib, oyoqqa o'tgan holda, orqalama croiséeda joylashib, oyoq uchi polda va gavgani egib port de bras qilinadi.

3. 45⁰ ga yarimbarmoqlarda battements fondus.⁵² 2\4 o'lchamda 8 takt.

Ikkitadan fondu oldinga, yonga, orqaga va yonga qilinadi, har biri 2\4lik.

4. *Pas de bourrée dessus-dessous.* ⁵³ Musiqiy o'lcham 2\4 va 3\4.

5. *Yarimbarmoqlarga ko'tarilish bilan ronds de jambe en l'air.* 2\4 o'lchamda 8 takt.

⁵²Ushbu saboqdan boshlab battements fondus va frappés zal o'rtasida to'liq yarimbarmoqlarda bajariladi.

⁵³Dastlab pas de bourrée dessus-dessous oyoq uchi polda, so'ngra oyoqni 45⁰ga yozib o'rganiladi.

Butun tovonda oltita ronds de jambe en l'air en dehors qilinadi, har biri 1/4lik; 2/4da yarimbarmoqlarda ko'tariladi. Yarimbarmoqlarda oltita ronds de jambe en l'air en dehors qilinadi, 2/4da V pozitsiyaga tushiriladi. En dedansda alohida ijro etiladi.

6. *Yarimbarmoqlarga ko'tarilish bilan petits battements sur le cou-de-pied.*

Butun tovonda oltita petits battements qilinadi, har biri 1/4lik; 2/4da yarimbarmoqlarga ko'tariladi. Yarimbarmoqlarda oltita petits battements qilinadi, 2/4da harakatdagi oyoq yonga 45⁰ga yoziladi va V pozitsiyaga tushiriladi.

7. *II pozitsiyadan tours sur le cou-de-pied en dehors va en dedans uchun préparation. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Har bir préparation 2 taktida bajariladi. Birinchi takt: birinchi chorakda – V pozitsiyaga demi-plié qilinadi; ikkinchi chorakda yarimbarmoqlarda V pozitsiyaga iring'ib turiladi; uchinchi chorakda tayanch oyoq yarimbarmoqlarida qolib, boshqa oyoq yonga 45⁰ga yoziladi, to'rtinchi chorakda holat saqlanadi. Ikkinchi takt: birinchi chorakda – II pozitsiyaga demi-plié qilinadi; ikkinchi chorakda yarimbarmoqlarda tayanch oyoqqa sakraladi, boshqasi sur le cou-de-piedga bukiladi; uchinchi chorakda holat saqlanadi; to'rtinchi chorakda V pozitsiyaga demi-pliéda tushiriladi.

8. *Katta adajio.⁵⁴ 4/4 bo'yicha 8 takt yoki 3/4 bo'yicha 32 takt (mayin vals).*

Vpozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Birinchi takt: oyoqlarni almashtirgan holda ikkita yonlama glissade va yarimbarmoqlarda relevé qilinadi. Ikkinchi takt: V pozitsiyada grand plié qilinadi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoq bilan - oldinlama développé croisée qilinadi, o'ng qo'l III pozitsiyaga, chapi esa II pozitsiyaga ko'tariladi va oldinlama écartéda demi-rond qilinib, V pozitsiyaga tugallanadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: chap oyoqda – orqaga développé écartée va III arabesqueda demi-rond qilinadi. Yettinchi takt: III arabesquedan oyoqlarni tushirmasdan IV arabesque pozasiga o'tiladi. Sakkizinchi takt: harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi va oldinlama pas de basque qilinadi.

⁵⁴Zal o'rtasidagi ushbu mashqning davomiyligini hisobga olib katta adajioni keyingi saboqqa ko'chirish mumkin va allegro kombinatsiyasi II pozitsiyadan toursga préparationondan keyin ijro etiladi.

ALLEGRO

1. 4/4 o'lchamda 8 takt.

Oyoqlarni oldinga almashtirib yonlama assemblé va uchta oldinlama assemblés qilinadi, har biri 1\4lik. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta qaytariladi va teskari yo'nalishda ijro etiladi.

2. 2/4 o'lchamda 8 takt.

Yonlama jeté qilinadi, o'ng va chap oyoqlarda navbati bilan temps levé qilinadi. Har bir sakrash 1\4da ijro etiladi. To'rt marta takrorlanadi, o'ngra 1\8da coupé qilinib, hammasi teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. Oldinga, orqaga va yonga croiséda siljishlar bilan jeté. Musiqiy o'lcham 4\4.

Oldinlama sroisé qilinadi. Birinchi chorakda - demi-plié bajariladi; birinchi va ikkinchi chorak orasida - o'ng oyoqni oldinga siljitish bilan sakrash; ikkinchi chorakda - demi-pliéda sakrash to'xtatiladi, chap oyoq orqadan sur le cou-de-piedga boradi; uchinchi chorakda - assemblé qilinadi; to'rtinchi chorakda tizzalar cho'ziladi. To'rt marta takrorlanadi. Orqalama va yonlama sroisé ham shu tarzda bajariladi.

4. 2/4 o'lchamda 8 takt.

Oldinga ikkita pas de basque ijro etiladi, har biri 2\4lik; oldinga siljigan holda sroiséning kichik pozasida uchta sissones fermés qilinadi, bittasi yonga, har biri 1\4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

5. 2/4 bo'yicha 16 takt yoki 3/4 bo'yicha 32 takt (mayin vals).

Oldinlama va yonlama sissone tombé sroisé qilinadi, 1 taktda har biri 2\4lik yoki 2 takt vals. (Temps lié saute) oldinga va orqaga to'rt martadan ijro etiladi.

6. Qimirlamasdan yonga balonné. Musiqiy o'lcham 4\4.

Birinchi chorakda - demi-plié qilinadi; birinchi va ikkinchi chorak orasida - sakrash; ikkinchi chorakda sakrash demi-pliéda tugaydi; uchinchi chorak - assemblé qilinadi; to'rtinchi chorakda tizzalar cho'ziladi. To'rt marta sakkizga qadar qaytariladi.⁵⁵

7. 4/4 o'lchamda 4 takt.

Ikkita grands changements de pieds bajariladi, har biri 1\4lik; uchta petits changements de pieds bajariladi. Har biri 1\8lik. To'rt marta takrorlanadi.

⁵⁵Hafta davomida balonné uskunaga qarab o'rganiladi, keyin zal o'rtasida yonga, sroiséda oldinga va orqaga bajariladi. O'zlashishiga qarab har biri 1\4da ijro etiladi.

8. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Sakkizta yonlama grands battements o'ng va chap oyoqlarda navbati bilan qilinadi, har safar harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga qo'yiladi (ya'ni orqaga harakatlanadi). Sakkizta yonlama grands battements qilinadi, harakatdagi oyoq oldindan V pozitsiyaga qo'yiladi (ya'ni oldinga harakatlanadi), har biri 1\4lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING IKKINCHI MISOLI

1. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

I pozitsiyaga sakkizta, II pozitsiyaga sakkizta relevés qilinadi, har biri 1\4lik.

2. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda oldinga siljigan holda ikkita sus-sous qilinadi, har biri 2\4lik; to'rtta sus-sous qilinadi, har biri 1\4lik. Birinchi sus-sousda qo'llar I pozitsiyaga, ikkinchisida – o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l II pozitsiyaga olib boriladi. Keyingi sus-souslarda qo'llar muntazam yozilib, tayyorgarlik holatiga tushiriladi. Orqaga siljish bilan ikkita sus-sous qilinadi, har biri 2\4lik; to'rtta bajariladi, har biri 1\4lik. Qo'llarning holati oldinlama sus-sousni bajargandagi holatga o'xshash bo'ladi, biroq chap qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi. O'ng tomonga siljish bilan o'ng oyoqda to'rtta jetés qilinadi, har biri 2\4lik. V pozitsiyaga ikkita relevés qilinadi, har biri 2\4lik. Birinchi relevéda o'ng qo'l II pozitsiyaga, chapi esa I pozitsiyaga yoziladi; ikkinchi relevéda esa chap qo'l II pozitsiyaga, o'ngi esa I pozitsiyaga yoziladi. 2\4da - V pozitsiyaga barmoqlarda oldinga qadam tashlanadi, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi; 2\4da demi-pliéda III arabesque pozasiga tushiriladi, orqadan chap oyoq uchi polda bo'ladi.

3. *Oyoq uchi polda pas de bourrée dessus-dessous. Musiqiy o'lcham 2\4 va 3\4.*

O'ng va chap oyoqlarda sakkiz martadan ijro etiladi.

4. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

Bir oyoqda tugallanishi bilan II pozitsiyaga ikkita échappés qilinadi, boshqasi esa o'ng va chap oyoqlarda orqadan sur le cou-de-piedni bajaradi, har biri 4\4lik. 2 taktda – bir oyoqda tugallanadigan o'ng oyoqda bitta échappé, chap oyoqda qo'shimcha relevé va V pozitsiyaga relevé qilinadi. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

5. *2/4 o'lchamda 16 takt yoki 3/4 o'lchamda 32 takt (vals).*

O'ng oyoqda sissone simple, chap oyoqda oldinga (oyoqlarni almashtirmasdan) sur le cou-de-pied qilinadi. O'ng oyoqda sissone simple, chap oyoqda orqadan (oyoqlarni almashtirmasdan) qilinadi, har biri 2\4lik. To'rt marta takrorlanadi. 8 taktda - croisée yo'nalishida o'ng oyoqda oldinlama pas couru qilinadi, qo'llar muntazam tarzda III pozitsiyaga ko'tariladi hamda tayyorgarlik holatiga tushiriladi.

SABOQNING UCHINCHI MISOLI USKUNA OLDIRDAGI MASHQLAR

1. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita demi-pliés qilinadi, har biri 2\4lik; ikkita grands pliés qilinadi, har biri 4\4lik va 4\4da - I, II, IV va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlarda relevé qilinadi.

2. *Battements tendus. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

O'ng oyoqda oldinlama to'rtta battements tendus qilinadi, qo'llar doimiy tarzda III pozitsiyaga ko'tarilib boradi; chap oyoqda to'rtta battements tendus qilinadi, qo'llar III pozitsiyaga arabesque pozasiga tushiriladi; o'ng oyoqda yonga sakkizta battements tendus bajariladi, har biri 1\4lik. Orqaga o'ng oyoqda boshlab, teskari tartibda takrorlanadi. Battements tendus jetés: oltita oldinga qilinadi, har biri 1\8lik, yettinchisi demi-pliéda 1\4da bajariladi, ayni shu tarzda yonga, orqaga va yonga jetés qilinadi.

3. *Ronds de jambe par terre. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors qilinadi. Sakkizta ronds de jambe par terre bajariladi, har biri 1\4lik; ikkita 1\4lik, uchta 1\8lik (1\8da pauza qilinadi); ikkita 1\4lik, uchta 1\8lik (1\8da pauza). Yen dedansda takrorlanadi. 4 taktda - pliédá cho'zilish bilan en dedans-en dehors qilinadi; 4 taktda-pliéga cho'zilish bilan va gavdani egish bilan port de bras bajariladi.

4. *45^oga battements doubles fondus. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi chorakda - demi-plié qilinadi, harakatdagi oyoq sur le cou-de-pied holatida; ikkinchi chorakda - tayanch oyoqqa yarimbarmoqlarda relevé qilinadi; harakatdagi oyoq sur le cou-de-piedda qoladi: uchinchi chorakda - tayanch oyoqda demi-plié bajariladi, harakatdagi oyoq belgilangan yo'nalishga yig'ila boshlaydi; to'rtinchi chorakda tayanch oyoqda

yarimbarmoqlarga ko'tariladi, ayni paytda harakatdagi oyoq cho'ziladi.⁵⁶ Ikki martadan oldinga, yonga, orqaga va yonga ijro etiladi. Yon tomonga frappé: ikkita 1\4lik; uchta 1\8lik (1\8da pauza). To'rt marta takrorlanadi. Doubles frappés: oldinlama effacée, orqalama effacée, oldinlama effacée, orqalama effacée va to'rtta yonga, har biri 1\4lik; 4\4da harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga tushiriladi, uskunadan yarimbarmoqlarda yarimqayrilish qilinadi va chap oyoqda effacéening kichik pozasida pliéda oyoq uchi polda bo'ladi: 4\4da – 900ga attitude effacéeda relevé qilinadi.

5. *Ronds de jambe en l'air.* 4/4 o'lchamda 8 takt.

4\4da - V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation qilinadi, to'rtinchi chorakda harakatdagi oyoq yonga 450ga yoziladi; o'n bitta ronds de jambe en l'air en dehors qilinadi, har biri 1\4lik va 1\4da harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga qo'yiladi. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied.* 2/4 o'lchamda 16 takt.

Oltita oldinlama petits battements qilinadi, har biri 1\4lik. Oltinchisida qo'l II pozitsiyadan tayyorgarlik holatiga tushiriladi. 1\4 da – harakatdagi oyoqqa demi-pliéda V pozitsiyaga tombé (yiqilish), chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedni bajaradi. 1\4da – o'ng oyoqda uskunaga qarab yarimbarmoqlarda yarimqayrilish, chap oyoq oldinlama sur le cou-de-pied qiladi. Ayni shu narsa chap oyoq bilan takrorlanadi; keyin o'ng va chap oyoqlar bilan uskunadan yarim qayrilgan holda orqalama petits battements va tombé bajariladi. (Tombé oldidan qo'l II pozitsiya holatini saqlaydi).

7. *Battements développés.* 4/4 o'lchamda 16 takt.

Birinchi takt: oldinlama développé va yonlama demi-rond en dehors qilinadi. Ikkinchi takt: oldinlama demi-rond en dedans va yarimbarmoqlarda relevé qilinadi (uchinchi va to'rtinchi chorakda). Uchinchi takt: I pozitsiya bo'yicha orqaga passé va 90⁰ga II arabesque pozasiga demi-pliéda relevé qilinadi. To'rtinchi takt: orqalama écartée pozasida demi-rond en dedans qilinadi (tayanch oyoq tizzaga tortiladi), V pozitsiyada tugallanadi. Beshinchi takt: orqalama développé va yonlama demi-rond en dedans qilinadi. Oltinchi takt: orqalama demi-rond en dehors va yarimbarmoqlarda relevé qilinadi (uchinchi va to'rtinchi chorak). Yettinchi takt: I pozitsiya bo'yicha oldinlama demi-pliéda 90⁰ga oldinga passé qilinadi. Sakkizinchi takt: écartée pozasiga oldinlama demi-rond en

⁵⁶Doubles fondusni o'rganish boshlanganda har biri 4\4 da ijro etiladi. O'zlashishiga qarab (bir-ikki hafta) 2\4da bajariladi.

dehors qilinadi (tayanch oyoq tizzaga tortiladi\uzatiladi). Hammasi boshdan boshlanadi.

8. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Oltita oldinlama grands battements qilinadi, har biri 1/4lik, oltinchi battement V pozitsiyaga demi-pliéda tugallanadi; 2/4da – V pozitsiyaga uskunaga qaragan holda yarimbarmoqlarda to'liq qayrilib, ikkala tovonga tushirish. Oltita orqalama grands battements qilinadi, har biri 1/4lik, oltinchisi V pozitsiyaga demi-pliéda tugallanadi; 2/4da-V pozitsiyaga uskunaga teskari qaragan holda yarimbarmoqlarda to'liq qayrilib, ikkala tovonga tushirish. Sakkizta yonlama grands battements, har biri 1/4lik va 4 taktida – gavdani egib III port de bras bajariladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adajio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi va ikkinchi taktlar: V pozitsiyada grand plié qilinadi (o'ng qo'l oldinda) va yarimbarmoqlarda relevé bajariladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: grand rond de jambe développé en dehors qilinadi, yakunida yarimbarmoqlarda ko'tarilib, V pozitsiyada tugallanadi. Beshinchi takt: chap oyoqda (uni bevosita petit battement sur le cou-de-piedga o'tkazib) - développé attitude croisée qilinadi, o'ng qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi, keyin qo'llar almashadi: o'ng qo'l II pozitsiyaga yoziladi, chap qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi. Oltinchi va yettinchi taktlar: chap oyoq croiséda orqaga tortiladi va grand rond de jambe développé en dedans qilinadi, yakunida barmoqlarda ko'tarilib, V pozitsiyada tugallanadi. Sakkizinchi takt: chap oyoqda - I arabesque oyoq uchi polda gavda egilgan holda pliéd qilinadi.

Battements tendus – 4/4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda katta pozada oldinlama effacée qilinadi; ikkita demi-plié, ikkitasi cho'zilgan oyoqda, har biri 1/4lik. Chap oyoqda katta pozada orqalama effacée qilinadi, ikkitasi demi-pliéda, ikkitasi cho'zilgan oyoqda, har biri 1/4lik; o'ng oyoqda yonga sakkizta qilinadi, har biri 1/4lik. Battements tendus jetés: yonga, I pozitsiyaga yettita, yana yetti marta, har biri 1/8lik. Oxirgisi oldinga V pozitsiyada tugallanadi va 2 taktida – II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation qilinadi.

2. *Battements soutenus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Ikkita oldinlama soutenus oyoq uchi polda qilinadi, har biri 2\4lik, bitta soutenus 90⁰ga 4\4da. Ayni shu narsa yonga, orqaga va yonga bajariladi.

3. *Battements frappés. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Dastlabki ikki akkordda yarimbarmoqlarda ko'tariladi va harakatdagi oyoq 45⁰ga yonga yoziladi. Yettita frappés qilinadi, har biri 1\4lik, 1\4da harakatdagi oyoq oldinda V pozitsiyaga yig'iladi va 2 taktida II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dedans uchun préparation qilinadi.

4. *Ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors qilinadi. Sakkizta ronds de jambe en l'air bajariladi, har biri 1\4lik, sakkizinchisida demi-plié qilinadi; 2 taktida - ikkita pas de bourrée dessous-dessus qilinadi: ronds de jambe en l'air en dedans pas de bourrée dan keyin dessous-dessus ijro etiladi.

5. *Tours sur le cou-de-pied en dehors-en dedans uchun V pozitsiyadan préparation. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Har bir préparation 1 taktida ijro etiladi. Birinchi chorakda - demi-plié qilinadi; ikkinchi chorakda tayanch oyoqda yarimbarmoqlarga dik etib turiladi, boshqasi esa sur le cou-de-piedga bukiladi; uchinchi chorakda holat saqlanadi; to'rtinchi chorakda V pozitsiyaga demi-pliéga tushiriladi.

6. *Grands battements jetés pointés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Ikkita grands battements ijro etiladi, har biri 1\4lik. O'ng oyoqda - oltita grands battements jetés points va bitta V pozitsiyaga oldinlama effacée pozasida; 1\4da qo'llar I pozitsiyada birlashtiriladi. Chap oyoqda - oltita grands battements jetés pointés va bitta V pozitsiyaga I arabesque pozasida 2-nuqtaga qilinadi, oxirgi battementda qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi va 1\4da ular II pozitsiyaga ochiladi. O'ng oyoqda - yonga V pozitsiyaga sakkizta grands battements jetés qilinadi. 1 taktida chap oyoqda - 900ga I arabesqueda relevé qilinadi va 1 taktida II arabesque holatini qabul qilib demi-pliéga tushiriladi.

7. *Kamma adajio. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

O'ng oyoq oldinda. Birinchi va ikkinchi taktlar: yarimbarmoqlarda effacée va relevéni bajarib, IV pozitsiyaga grand plié qilinadi. Uchinchi takt: o'ng oyoqda - oldinlama effacéeda développé qilinadi va orqalama écartée pozasiga demi-rond en dehors bajariladi. To'rtinchi takt: attitude effacéeda qayrilinadi. Beshinchi takt: 2\4da - attitudeda plié qilinadi, 2\4da en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi. Oltinchi takt:

chap oyoqda - développé attitude effacée qilinadi va oyoqlarni qo'yib yubormasdan 2-nuqtaga I arabesque pozasi qabul qilinadi. Yettinchi takt: arabesquedda yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi. Sakkizinchi takt: o'ng oyoqda yonlama développé qilinadi, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi. To'qqizinchi takt: II arabesquega qayrilish. O'ninchi takt: 900ga oldinlama croisée pozasiga passé qilinadi. O'n birinchi takt: yarimbarmoqlarda ko'tarilib, harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. O'n ikkinchi takt: V pozitsiyada yarimbarmoqlarda chap tomonga qayrilish va pliédá oldinlama croiséening kichik pozasi qilinadi, chap oyoq uchi polda bo'ladi.

ALLEGRO

1. 2/4 o'lchamda 16 takt.

O'ng va chap oyoqda ikkita doubles assemblés qilinadi, har biri 2\4lik; 2\4da - II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib échappée qilinadi va 2\4da - oldinlama sissone tombé croisée bajariladi. Boshqa oyoqda qaytariladi va barchasi teskari yo'nalishda ijro etiladi.

2. 4/4 o'lchamda 4 takt.

Yonlama jeté qilinadi, orqaga ikkita temps levé, assemblé croisée bajariladi. Boshqa oyoqda takrorlanadi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rtta jetés qilinadi (har bir sakrash 1\4da ijro etiladi) va en dehorsda oyoqlar almashinuvi bilan ikkita pas de bourrée bajariladi, har biri 2\4lik. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. 2/4 o'lchamda 16 takt.

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. O'ng oyoqda - yonga siljish bilan (oyoqlarni almashtirmasdan) jeté qilinadi, oldinlama assemblé croisée qilib tugallanadi. Chap oyoqda - croisée oldinga siljish bilan jeté qilinadi, assemblé croisée tugallanadi. Har bir sakrash 1\4da ijro etiladi. To'rt marta takrorlanadi. To'rt marta boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu holat teskari yo'nalishda ham bajariladi.

4. 2/4 o'lchamda 8 takt.

Yonga uchta ballonés qilinadi, birinchi balloné oldinlama sur le cou-de-piedda tugallanadi, ikkinchisi - orqaga, uchinchisi - oldinga, har biri 1\4lik; 1\4da yonlama assemblé qilinib, orqadan V pozitsiyaga tugullanadi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.

5. 2/4 o'lchamda 8 takt.

Oldinga uchta ballonés croisée qilinadi, har biri 1\4lik: 1\4da – yonga assemblé qilinib, orqadan V pozitsiyaga tugatiladi. O'ng va chap oyoqlarda navbatī bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu holat teskari yo'nalishda ham bajariladi.

6. *Orqaga oyoqlarni tashlash bilan pas de chat. Musiqiy o'lcham 4.4.*

a) V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Birinchi chorakda - demi-plié qilinadi, ayni paytda yarim bukilgan o'ng oyoq 450ga orqalama croisée'ga tashlanadi; birinchi va ikkinchi chorak orasida – oldinga sakrash, yarim bukilgan chap oyoq 450ga orqalama effacée'ga tashlanadi; ikkinchi chorakda demi-plié'da V pozitsiyaga sakrab tugallanadi; uchinchi va to'rtinchi choraklarda tizzalar tortiladi. To'rt marta takrorlanadi.

b) birinchi chorakda - V pozitsiyada demi-plié qilinadi, birinchi va ikkinchi chorak orasida – ikkinchi chorakda tugallanadigan sakrash; uchinchi va to'rtinchi choraklarda tizzalar tortiladi. To'rt dan sakkizga qadar takrorlanadi.⁵⁷

7. *Musiqiy o'lcham 3\4 (vals).*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga, keyin 4-nuqtadan 8-nuqtaga cho'zilgan barmoqlar bilan tezkor sahnaviy yugurish.⁵⁸

8. *2\4 o'lchamda 8 takt.*

Croiséening IV pozitsiyasiga grand échappé qilinadi, oyoqlarni almashtirgan holda II pozitsiyaga grand échappé qilinadi, har biri 2\4lik; to'rtta grands changements de pieds bajariladi, har biri 1\4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi.

9. *2\4 o'lchamda 8 takt.*

I pozitsiyaga katta trampinli yettita temps levé qilinadi, har biri 1\8lik, 1\8da demi-plié'da pauza. To'rt marta takrorlanadi.⁵⁹

10. *4\4 o'lchamda 4 takt.*

Ikkita petits changements de pieds qilinadi, har biri 1\4lik; uchta har biri 1\8lik. To'rt marta takrorlanadi.

⁵⁷Orqaga pas de chat o'zlashishiga qarab 2\4da ijro etiladi; taktdan so'ng - demi-plié va sakrash, birinchi chorakda - demi-plié'da tugallanadigan sakrash, ikkinchi chorakda - demi-plié holati saqlanadi. Yarim yillik oxirida pas de chat 1\4da ijro etiladi.

⁵⁸Yugurish paytida gavda salgina orqaga olinadi, go'yo oyoqlardan "orqada" qoladi. Gavdani oldinga egish yoki yugurish paytida sakrashga yo'l qo'yilmaydi. Tovonlar poldan ozgina uzilgan holda oyoq uchidan barmoqlarga qo'yiladi. Qo'llar holati esa, pedagog topshirig'iga ko'ra, turlicha bo'lishi mumkin.

⁵⁹Tez sur'atda bajariladi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING UCHINCHI MISOLI

1. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

I pozitsiyaga o'n oltita, II pozitsiyaga o'n oltita relevés qilinadi, har biri 1\4lik.

2. $2/4$ o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoq oldinda. II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib sakkizta échappés qilinadi. Sakkiz échappés: birinchisi en tournantda, o'ng tomonga 1\4 qayrilish bo'yicha 3-nuqtaga; ikkinchisi en faceda 3-nuqtaga qilinadi. Keyingi échappéslar: birinchisi en tournantda, ikkinchisi en faceda 5-nuqtaga, 7-nuqtaga va 1-nuqtaga qilinadi, har biri 2\4lik.

3. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

O'ng va chap oyoqlarda oyoqlarni orqalama almashtirib to'rtta sissones simples qilinadi; to'rtta sissones simples chap oyoqda bajariladi, o'ng oyoq birinchi marta orqaga, ikkinchi marta oldinga o'tadi, har biri 2\4lik. Mazkur to'rtta sissonesda gavda yengilgina o'ngga egiladi, o'ng qo'l I pozitsiyaga, chap qo'l II pozitsiyaga boradi. Yana bir marta takrorlanadi.

4. *Diagonal bo'yicha oldinga va orqaga jeté fondu (yengil qadamlar).* Musiqiy o'lcham 2\4.

6-nuqtadan 2-nuqtaga har biri 1 taktli sakkizta jetés fondus qilinadi. 4-nuqtadan 8-nuqtaga chap oyoqda takrorlanadi. Ayni shu holat teskari yo'nalishda ijro etiladi.

5. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib ikkita échappés qilinadi, har biri 2 taktli; oldinga ikkita pas de basque qilinadi, har biri 2 taktda. Yana bir marta takrorlanadi. Ayni shu narsa pas de basque bilan orqaga bajariladi.

SABOQNING TO'RTINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR⁶⁰

1. $4/4$ o'lchamda 8 takt.

I, II, IV va V pozitsiyalarda ikkitadan grands pliés qilinadi, har biri 4\4lik.

2. *Battelements tendus.* $2/4$ o'lchamda 32 takt.

⁶⁰O'tgan misollardan ko'rinish turibdiki, ushbu sinfdagi bir qator harakatlar nafaqat chorakda, balki nimchorak musiqiy o'lchovlarda ijro etiladi. Saboqlarning dastlabki uch misolida uchta harakatning har biri 1\8da ijro etildi, ko'rsatilganidek, 1\8da pauza qilinadi; har biri 1\8lik yetti harakat va 1\8da pauza. Kelgusida bunday batafsil izohlarga hojat qolmaydi, chunki sakkizlik va o'n oltitalik musiqiy o'lchovlardagi harakatlar soni doimo puzalar bilan bo'ladi.

Oldinga o'n oltita battements tendus qilinadi, har biri 1\4lik, oltinchisida demi-plié qilinadi; 1\4da – V pozitsiyada uskunaga qarab yarimbarmoqlarda yarimqayrilish, 1\4da uskunaga qarab yana yarimqayrilish. To'rtta yonlama battements tendus doubles qilinadi, har biri 2\4lik. O'ng oyoqda uskunadan yarimqayrilishlar bilan boshlab teskari tartibda orqaga takrorlanadi. Battements tendus jetés: uchta oldinga, har biri 1\8lik, uchinchisida demi-plié qilinadi. Yana bir marta takrorlanadi. Yonga yettita qilinadi, har biri 1\8lik, yettinchisida demi-plié. Ayni shu narsa orqaga va yonga bajariladi. I pozitsiyadan yonlama o'n oltita tendus jetés bajariladi, har biri 1\8lik.

3. *Ronds de jambe par terre. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors qilinadi. Ikkita ronds de jambe par terre qilinadi, har biri 1\4lik, uchasi 1\8da. To'rt marta en dehorsda va to'rt marta en dedansda bajariladi. 4 taktda - en dedans- en dehors pliéd aylanish; 4 taktda pliég cho'zilish va gadvani egish bilan port de bras qilinadi. Yakunida port de bras bajariladi, oxirgi 2\4da V pozitsiyada demi-plié va uskunadan yarimbarmoqlarda yarimqayrilish qilinadi.

4. *Battements soutenus. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Oldinga 90⁰ga soutenus qilinadi: bittasi 4\4da, ikkitasi 2\4da. Ayni shu narsa yonga, orqaga va yonga ijro etiladi. Frappés: to'rtta oldinga, har biri 1\4lik; yonga uchta, yana uchta, har biri 1\8lik; to'rtta orqaga, har biri 1\4lik, yonga uchta va yana uch marta qilinadi, har biri 1\8lik.

5. *Ronds de jambe en l'air. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors qilinadi. Yettita ronds de jambe en l'air bajariladi, har biri 1\4lik, yettinchisi effacéning kichik pozasida oldinlama pliéd oyoq uchi polda tugallanadi, 1\4da harakatdagi oyoqni 45⁰ga yonga olib borib yarimbarmoqlarda ko'tariladi. Yana bir marta takrorlanadi va effacée pozasi bilan orqaga en dedansda ikki marta ijro etiladi.

6. *Petits battemens sur le cou-de-pied. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Oldinga o'n ikkita petits battemens qilinadi, har biri 1\4lik; 4\4da - V pozitsiyadan tour en dehors sur le cou-de-pied uchun préparation qilinadi. O'n ikkita orqalama petits battemens qilinadi, har biri 1\4lik va 4\4da - V pozitsiyadan tour en dedans uchun préparation qilinadi.

7. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 8 takt yoki 3\4 o'lchamda 32 takt (vals).*

Birinchi va ikkinchi taktlar: grand ronds de jambe développé en dehors qilinadi, yakunida yarimbarmoqlarda relevé bajariladi. Uchinchi takt: attitude croisée pozasiga développé qilinadi, to'rtinchi chorakda – 90⁰ ga passé va ayni paytda tayanch oyoqda yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. To'rtinchi takt: yarimbarmoqlardan tovonga tushiriladi, ayni paytda harakatdagi oyoq oldinlama écartée pozasiga yig'iladi. Beshinchi va oltinchi taktlar: grand ronds de jambe développé en dedans qilinadi, yakunida yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. Yettinchi takt: oldinlama croisée pozasiga développé qilinadi, to'rtinchi chorakda – 90⁰ga passé va yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. Sakkizinchi takt: butun tovonga tushiriladi va harakatdagi oyoq orqalama écartée pozasiga yoziladi.

8. *Grands battements jetés. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqda oldinga to'rtta grands battements qilinadi; chap oyoqda orqaga to'rtta grands battements qilinadi; o'ng oyoqda to'rtta yonlama grands battements bajariladi, har biri 1/4lik va 4/4da yonga (uskunaga) ogiladi, qo'l II pozitsiyadan III pozitsiyaga ko'tariladi. Teskari yo'nalishda qaytariladi, orqaga o'ng oyoqda boshlanadi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adajio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Birinchi va ikkinchi taktlar: V pozitsiyada grand plié qilinadi (o'ng oyoq oldinda), yarimbarmoqlarga demi-plié va relevé qilinadi, o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap esa II pozitsiyaga allongé holatiga ko'tariladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoqda - oldinlama développé croisée qilinadi, 90⁰ga I arabesqueda 8-nuqtaga passé qilinadi, yakunida – yarimbarmoqlarga relevé qilinib, V pozitsiyaga tugallanadi, o'ng oyoq oldinda bo'ladi. Beshinchi takt: o'ng oyoqda - développé III arabesque bajariladi; oyoqlarni tushirmasdan attitude croisée pozasiga o'tiladi. Oltinchi takt: demi-pliéda attitudenga tushiriladi, qo'l holatlari almashgan holda: o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l I pozitsiyaga borib, V pozitsiyada tugallanadi. Yettinchi takt: o'ng oyoqda – yonlama développé qilinadi. Sakkizinchi takt: yarimbarmoqlarga relevé qilinib, yakunida chap oyoq oldinga V pozitsiyaga tushiriladi. To'qqizinchi takt: o'ng qo'l III, chap esa II pozitsiyaga yoziladi. O'ninchi takt: V port de bras bajariladi. O'n birinchi va o'n ikkinchi taktlar: demi-pliéda gavadani ozgina egish bilan orqalama croisée pozasi qilinadi, orqadan o'ng oyoq uchi polda bo'ladi, o'ng qo'l III, chap qo'l II pozitsiyada - allongéda bo'ladi. Battements tendus – 4/4 o'lchamda 8 takt. Chap

oyoqda croiséening kichik pozasida oldinga to'rtta; o'ng oyoqda croiséening kichik pozasida orqaga to'rtta; o'ng oyoqda yonga to'rtta bajariladi, har biri 1\4lik. Tendus jetés: yonga yettita qilinadi, har biri 1\8lik. 2 taktda - II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dedans uchun préparation qilinadi.

2. *45⁰ga battements fondus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqda ikkita oldinlama fondu croisée qilinadi, har biri 2\4lik; oldinlama tombé va chap oyoqda ikkita orqalama fondus croisée, har biri 2\4lik; orqalama tombé va yonga o'ng oyoqda ikkita fondus, yonlama tombé va chap oyoqda yonga ikkita fondus, har biri 2\4lik. 1\16da coupé qilinadi, yarimbarmoqlarda chap oyoq o'ngi bilan, o'ng oyoq chapi bilan almashadi va o'ng oyoq bilan – yonlama frappés qilinadi: ikkitasi 1\4lik, uchtasi 1\8lik. Yana bir marta takrorlanadi va sakkizta yonlama doubles frappés qilinadi, har biri 1\4lik.

3. *Rond de jambe en l'air. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors qilinadi. Sakkizta rond de jambe en l'air bajariladi, har biri 1\4lik; 4\4da – oldinlama développé va yonlama demi-rond en dehors qilinadi; 4\4da – 900ga attitude croiséeda passé bajariladi, yakunida - yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. En dedans alohida ijro etiladi.

4. *1\2 tourda glissade en tournant. Musiqiy o'lcham 4\4.*

V pozitsiya, o'ng qo'l oldinda. Taktdan so'ng demi-plié qilinadi, birinchi chorakda – o'ng oyoq bilan yarimbarmoqlarda yonga, yarimqayrilish bilan o'ngga glissade qilinadi. Yakunida – glissade qilinib, o'ng oyoq oldinda qoladi, chap qo'l I pozitsiyaga, o'ng qo'l II pozitsiyaga boradi. Ikkinchi chorakda demi-pliéga tushiriladi. Uchinchi chorakda – chap oyoqda yarimbarmoqlarda yonga, yarim qayrilish bilan dastlabki 1-nuqtaga glissade qilinadi. Yakunida – glissade, o'ng oyoq oldinda qoladi, o'ng qo'l I pozitsiyada, chapi esa II pozitsiyada bo'ladi. To'rtinchi chorakda demi-pliéga tushiriladi. Harakat to'g'ri chiziqli bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga qarab sakkiz marta ijro etiladi.

5. *VI port de bras (grand port de bras)*

2 taktda o'rganiladi, har biri 4\4lik; yil oxirida 1 taktda.

6. *Katta adajio. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Dastlabki ikki akkordda qo'llar II pozitsiyaga ochiladi, chap oyoq orqalama sur le cou-de-pied holatiga yaqin joyda bukiladi, oyoq uchi polda. Birinchi takt: o'ng tizzaga tushiriladi, o'ng

qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l I pozitsiyaga yig'iladi, gavda chapga ozgina egiladi; to'rtinchi chorakda o'ng oyoqqa I arabesqueda 2-nuqtaga tezda qo'yiladi. Ikkinchi takt: arabesque pozasida plié qilinadi, chap oyoqda orqaga qadam tashlanadi, o'ng oyoqda I pozitsiya bo'yicha passé va attitude croiséeda relevé qilinadi. Uchinchi takt: attitude-demi-rond en dedans pozasidan orqalama écartée pozasiga o'tiladi. To'rtinchi takt: harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi va chap oyoqda oldinlama effacée pozasida développé ijro etiladi. Beshinchi takt: effacée-demi-rond en dehors pozasidan orqalama écartée pozasiga o'tiladi. Oltinchi takt: écartéedan 2-nuqtaga I arabesquega o'giriladi. Yettinchi takt: oldinlama croisée pozasiga 90^oga passé qilinadi. Sakkizinchi takt: croisée- demi-rond en dehors pozasidan oldinlama écartée pozasiga o'tiladi. To'qqizinchi takt: I pozitsiya bo'yicha demi-pliédga passé qilinadi va croisée pozasiga chap oyoqda turiladi, o'ng oyoq uchi orqadan polda bo'ladi. O'ninchi takt: IV arabesqueda 90^oga relevé qilinadi. O'n birinchi takt: harakatdagi oyoq V pozitsiyaga demi-pliédga tushiriladi va yarimbarmoqlarda (o'ng tomonga) o'giriladi. O'n ikkinchi takt: o'ng oyoqda – oldinlama sissone tombée qilinadi, orqalama effacée pozasida o'ng oyoq uchi polda turiladi, qo'llar II va III pozitsiyalarga cho'ziladi.

ALLEGRO

1. 1\4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda – oyoqlarni almashtirib ikkita yonlama glissades qilinadi, har biri 1\4lik; oyoqlarni almashtirib uchta yonlama glissades qilinadi, har biri 1\8lik. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.

2. 4\4 o'lchamda 4 takt.

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Oyoqlarni almashtirmasdan o'ng oyoqda glissade qilinadi, yonlama assemblé qilinib, o'ng oyoq oldinda tugallanadi, oldinlama sissone ouverte croisée qilinadi, assemblé bajariladi. Har bir sakrash 1\4da ijro etiladi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu holat teskari yo'nalishda ham bajariladi.

3. 4\4 o'lchamda 4 takt.

O'ng oyoqda – yon tomonga siljish bilan jeté bajariladi, chap oyoqda oldinlama temps levé, orqalama assemblé croisée qilinadi. To'rt marta

takrorlanadi. Har bir sakrash 1\4da bajariladi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda bajariladi.

4. 4\4 o'lchamda 8 takt.

Oldinlama uchta ballonnées croisée qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da – yonlama assemblé qilinadi; II pozitsiyaga ikkita grands échappés qilinadi, har biri 2\4lik. Boshqa oyoqda qaytariladi va teskari yo'nalishda ijro etiladi.

5. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Uchta orqalama pas de chat qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da - en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée bajariladi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan uch marta takrorlanadi. Oldinga ikkita pas de chat qilinadi, har biri 1\4lik va 2\4da pauza qilinadi.

6. *Changements de pieds en tournant. Musiqiy o'lcham 2\4.*

a) 1\8da qayrilish. V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Birinchi sakrash 2-nuqtaga qayrilish bilan, ikkinchisi – 3-nuqtaga qayrilish bilan va h.k.: 4, 5, 6, 7, 8 va 1-nuqtalarga, har biri 1\4lik.

b) 1\4 da qayrilish. Birinchi sakrash 3-nuqtaga qayrilish bilan, ikkinchisi – 5-nuqtaga qayrilish bilan va h.k.: 7-va 1-nuqtalarga.⁶¹

7. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Sakkizta grands changements de pieds qilinadi, har biri 1\4lik; yettita va yana yettita petits changements de pieds bajariladi, har biri 1\8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING TO'RTINCHI MISOLI

1. 2\4 o'lchamda 16 takt.

I pozitsiyada to'rtta relevés qilinadi, har biri 2\4lik; sakkizta - 1\4lik. Ayni shu narsa II pozitsiyada takrorlanadi.

2. 4\4 o'lchamda 8 takt.

Croiséening IV pozitsiyasiga ikkita échappés qilinadi, har biri 2\4lik; oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga 4\4da double échappé qilinadi. To'rt marta takrorlanadi.

3. 1\2 qayrilish bo'yicha glissade en tournant.

Yarimbarmoqlardagi kabi o'rganiladi.

4. 3\4 o'lchamda 16 takt (vals).

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Diagonal bo'yicha harakat 6-nuqtadan 2-nuqtaga. Yettita oldinlama jetés fondus qilinadi (o'ng oyoqdan

⁶¹En tournantda sakrashni yaxshi o'zlashtirish uchun uni qayrilishsiz sakrash bilan almashtirish mumkin.

boshlanadi), har biri 1 taktda. Yettinchi marta 1 taktda – chap oyoqda oldinga tombé (yiqilish), o'ng oyoq uchi polda 2-nuqtaga oldinga yoziladi, gavda o'ng yelkada 2-nuqtaga qayriladi va yengilgina oyoq uchiga egiladi. 8 taktda: diagonal bo'yicha yuqoriga 6-nuqtaga pas de bourrée suivi qilinadi, gavda o'ng yelkada 2-nuqtaga, chap -6-nuqtaga, o'ng qo'l I pozitsiyaga, chapi esa II pozitsiyaga yo'nalgan bo'ladi.

5. *2\4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan oyoqlarni almashtirib sakkizta orqalama sissones simples qilinadi; oyoqlarni oldinga almashtirib sakkizta bajariladi, har biri 1\4lik.

6. *Tours sur le cou-de-pied uchun V pozitsiyadan préparation.*

En dehors. V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Taktdan so'ng - demi-plié qilinadi. Birinchi chorakda, chap oyoq barmoqlarida sakraladi, o'ng oyoqda oldinlama sur le cou-de-pied qilinadi, o'ng qo'l I pozitsiyaga, chapi esa II pozitsiyaga olib boriladi; ikkinchi chorakda, qo'llarning holati saqlanib, demi-pliéda V pozitsiyaga tushiriladi; uchinchi chorakda chap oyoq barmoqlarida sakraladi, o'ng oyoq oldinlama sur le cou-de-piedda bo'ladi, qo'llar I pozitsiyada birlashtiriladi; to'rtinchi chorakda demi-pliéda V pozitsiyaga tushiriladi, o'ng oyoq orqaga qo'yiladi.

En dedans. V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Taktdan so'ng - demi-plié qilinadi. Birinchi chorakda o'ng oyoqda barmoqlarda sakraladi, chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedda bo'ladi, o'ng qo'l I pozitsiyaga, chap qo'l esa II pozitsiyaga boradi; ikkinchi chorakda - demi-pliéda V pozitsiyaga tushiriladi; uchinchi chorakda o'ng oyoq barmoqlarida sakraladi, chap oyoq oldinlama sur le cou-de-piedda bo'ladi, qo'llar I pozitsiyada birlashadi; to'rtinchi chorakda demi-pliéda V pozitsiyaga tushiriladi, chap oyoq oldinga qo'yiladi.

IKKINCHI YARIM YILLIK

SABOQNING BESHINCHI MISOLI USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. 4\4 o'lchamda 12 takt.

I, II, IV va V pozitsiyalarda ikkitadan grands pliés qilinadi, har biri 2\4lik; gavdani egish bilan ikkita ports de bras bajariladi, har biri 2 taktda.

2. Battements tendus. 2\4 o'lchamda 32 takt.

To'rtta oldinlama battements tendus qilinadi, to'rtinchisida - demi-plié. Ayni shu narsa yonga, orqaga va yonga takrorlanadi. O'ng oyoqda oldinga ikkita, chap oyoqda orqaga ikkita, o'ng oyoqda to'rtta yonlama battements tendus qilinadi. O'ng oyoqda orqaga ikkita, chap oyoqda oldinga ikkita, o'ng oyoqda to'rtta yonlama battements tendus qilinadi, har biri 1\4lik. Battements tendus jetés: oldinga yettita bajariladi, har biri 1\8lik, yettinchisida - demi-plié. Ayni shu tarzda yonga, orqaga va yonga ijro etiladi. I pozitsiyaga yettita battements tendus jetés qilinadi, har biri 1\8lik, to'rt marta takrorlanadi.

3. Rond de jambe par terre. 2\4 o'lchamda 16 takt.

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors qilinadi. To'rtta rond de jambe par terre qilinadi, har biri 1\4lik, oldinga 45⁰ga tugallanadi; 2\4da harakatdagi oyoq yonga, orqaga olib boriladi, I pozitsiya bo'yicha oldinga 450ga va 2\4da yana bir marta takrorlanadi. Ayni shu narsa en dedansda ham ijro etiladi. 2 taktda - plié en dedans-en dehorsga aylanish; 2 taktda - pliéga cho'zilib va gavdani egib, port de bras qilinadi, V pozitsiyaga demi-plié qilinib tugallanadi va oxirgi chorakda - uskunadan yarimbarmoqlarda yarim qayrilish.

4. Battements fondus. 2\4 o'lchamda 32 takt.

Oldinga ikkita doubles fondus, ikkita oddiy fondus qilinadi, har biri 2\4lik. Ayni shu narsa yonga, orqaga va yonga takrorlanadi. Frappés: uchta oldinga, har biri 1\4lik, 1\4da - coupé qilinadi, chap oyoq orqaga yoziladi. Chap oyoqda orqaga uchta frappés, har biri 1\4lik, coupé qilinadi, o'ng oyoq orqaga yoziladi; uchta frappés va yonga yana uchta frappés qilinadi, har biri 1\8lik, va to'rtta doubles frappés bajariladi, har biri 1\4lik. Orqaga o'ng oyoqda boshlab teskari yo'nalishda frappés takrorlanadi.

5. Ronds de jambe en l'air. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors qilinadi. Ikkita ronds de jambe en l'air bajariladi, har biri 1\4lik, uchitasi 1\8lik. Yana bir marta takrorlanadi va en dedansda ijro etiladi.

6. *Petits battements sur le -cou-de-pied.* 2\4 o'lchamda 8 takt.

Sakkizta petits battements qilinadi, har biri 1\4lik; o'n oltita 1\8lik.

7. *Battements développés.* 4\4 o'lchamda 16 takt.

Birinchi takt: yonga 90⁰ga relevé lent qilinadi. Ikkinchi takt: oldinga demi-rond en dedans bajariladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: 90⁰ga passé, yonlama développé va yarimbarmoqlarda oldinlama demi-rond qilinadi, V pozitsiyaga tugallanadi. Beshinchi takt: 90⁰ga effacée pozasiga oldinlama relevé lent qilinadi. Oltinchi takt: écartée pozasiga orqalama demi-rond bajariladi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: effacée pozasiga yarimbarmoqlarda oldinga 90⁰ga passé va écartéda orqaga demi-rond qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi. To'qqizinchi takt: yonga 90⁰ga relevé lent bajariladi. O'ninchi takt: orqaga demi-rond en dehors qilinadi. O'n birinchi va o'n ikkinchi taktlar: 90⁰ga passé, yarimbarmoqlarda yonlama développé va orqalama demi-rond qilinadi. O'n uchinchi takt: 90⁰ga effacée pozasiga orqalama relevé lent qilinadi. O'n to'rtinchi takt: écartéda oldinlama demi-rond bajariladi. O'n beshinchi va o'n oltinchi taktlar: effacée pozasiga yarimbarmoqlarda orqaga 90⁰ga passé va écartéda oldinlama demi-rond bajariladi.

8. *Grands battements jetés pointés.* 4\4 o'lchamda 4 takt.

Ucha grands battements pointés qilinadi va bitta V pozitsiyaga, effacée pozasida oldinga, écartée pozasida orqaga, effacée pozasida orqaga va écartée pozasida oldinga bajariladi, har biri 1\4lik.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kучук адажио.* 4\4 o'lchamda 8 takt.

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda, chap qo'l III pozitsiyada, o'ng qo'l II pozitsiyada. Birinchi takt: II port de bras bilan grand plié qilinadi. Ikkinchi takt: IV port de bras bajariladi. Uchinchi takt: chap oyoqda - yonlama développé va croisée pozasiga oldinlama demi-rond qilinadi. To'rtinchi takt: croisée pozasida plié va chap oyoqda oldinlama attitude croisée pozasiga qadam tashlanadi. Beshinchi takt: attitudeda plié va en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée bajariladi. Oltinchi va yettinchi taktlar: o'ng oyoqda - grand ronds de jambe développé en dehors qilinadi, yakunida

– yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. Sakkizinchi takt: chap oyoqda 90^oga I arabesqueda yarimbarmoqlarda relevé qilinadi.

2. *Battements tendus en tournant. Musiqiy o'lcham 2\4.*

En dehors. V pozitsiya, o'ng qo'l oldinda. Birinchi battement 2-nuqtaga qayrilish bilan yonga, ikkinchi battement qayrilishsiz yonga, shuningdek, 2-nuqtaga. Uchinchi battement 3-nuqtaga qayrilish bilan, to'rtinchi battement 3-nuqtaga qayrilishsiz, keyinchalik 4, 5, 6, 7, 8 va 1-nuqtalarga qilinadi, har bir battement 1\4lik. En dedansda bajarganda o'ng oyoq taxminan orqadan V pozitsiyada joylashadi, qayrilishlar 8, 7, 6, 5 va sh.k. nuqtalarga qilinadi.

3. *En dehors va en dedansda II pozitsiyadan tours sur le cou-de-pied. Musiqiy o'lcham 2\4.*

Birinchi yarim yillikda harakatlar musiqiy bo'laklarga xuddi toursga préparationdagi kabi taqsimlanadi. Barcha demi-pliéslar birinchi choraklarda ijro etiladi. Yil oxiriga borib barcha demi-pliéslar taktdan so'ng, ya'ni birinchi chorakliklar oldida 1\8da bajariladi. Tours ikkinchi taktning ikkinchi va uchinchi choraklarida qilinadi.

4. *En dehors va en dedansda V pozitsiyadan préparation va tours sur le cou-de-pied. Musiqiy o'lcham 4\4.*

5. *Ronds de jambe par terre va ronds de jambe en l'air. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation yen dehors qilinadi. Sakkizta ronds de jambe par terre bajariladi, har biri 1\4lik. Oxirgi ronds de jambe tayanch oyoqda yarimbarmoqlarga ko'tarilib tugallanadi, harakatdagi oyoq 45^oga yonga yoziladi. Sakkizta ronds de jambe en l'air yen dehors qilinadi, har biri 1\4lik. Barchasi en dedansda takrorlanadi. 2 taktda - en dedans-yen dehors va demi-rond en dedansda pliéga qayrilish, oxirgi chorakda tayanch oyoq tizzasi tortiladi. 1 takt - I pozitsiya bo'yicha oldinga passé qilinadi, oyoq uchi polda, ayni paytda en dedansda 6-nuqtaga qayriladi, tayyorgarlik va I pozitsiya orqali III pozitsiyaga ko'tariladi, 1 takt – tayanch oyoqda III arabesque pozasiga oyoq uchi polda yen dedansda oynaga qayriladi.

6. *Battements soutenus. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

Croiséning kichik pozasida oldinga oyoq uchi polda ikkita soutenus qilinadi, croiséning katta pozasida 90^oga oldinga ikkita soutenus qilinadi, har biri 2\4lik. Ayni shu narsa yonga, croisée orqaga va yonga bajariladi.

7. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

O'n to'rtta petits battements qilinadi, har biri 1\8lik; 1\4da harakatdagi o'ng oyoq V pozitsiyaga oldinga qo'yiladi va demi-pliéda tushiriladi; o'ng tomonga 1\2da qayrilish bo'yicha to'rtta glissades en tournant qilinadi, har biri 2\4lik.

8. *Kamma adajio. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda o'ng oyoqda orqalama croiséning katta pozasida oyoq uchi polda turiladi. Birinchi va ikkinchi taktlar: VI port de bras (grand port de bras). Uchinchi takt: chap oyoqda - III arabesque pozasiga 900ga relevé qilinadi. To'rtinchi takt: yarimbarmoqlarga relevé qilinib, V pozitsiyada tugallanadi. Beshinchi takt: o'ng oyoqda - yonlama développé qilinadi va oyoqlarni tushirmasdan orqalama écarté pozasi qabul qilinadi. Oltinchi takt: écartée pozasida plié va en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée bajariladi. Yettinchi takt: chap oyoqda-yanlama développé qilinadi, oyoqlarni tushirmasdan oldinlama écarté pozasi qabul qilinadi. Sakkizinchi takt: oldinlama écartée pozasida plié va en dedansda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi. To'qqizinchi va o'ninchi taktlar: o'ng oyoqda – oldinlama développé effacée va yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, V pozitsiyaga tugallanadi. O'n birinchi va o'n ikkinchi taktlar: chap oyoqda - développé attitude effacée va yarimbarmoqlarga relevé qilinadi.

ALLEGRO

1. *4\4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda – oldinga, yonga assemblé croisée, orqaga va yonga croisée qilinadi, har biri 1\4lik; croiséning IV pozitsiyasiga échappé qilinadi, II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib échappé qilinadi, har biri 2\4lik. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.

2. *4\4 o'lchamda 4 takt.*

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. O'ng oyoqda – oyoqlarni almashtirmasdan yonlama glissade qilinadi; o'ng oyoqda yonlama jeté qilinadi, tugashi bilan chap oyoq orqadan sur le cou-de-piedga, o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l II pozitsiyaga boradi; o'ng qo'l II pozitsiyaga yozilib, temps levé ijro etiladi; orqaga assemblé croisée ijro etiladi. Har bir sakrash 1\4da ijro etiladi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta qaytariladi.

3. *Musiqiy o'lcham 2\4.*

a) 1\4da – yonga siljish bilan ballonné bajariladi, 1\4da – assemblé qilinadi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta qaytariladi.

b) Ayni shu narsa effacéning oldinga va orqaga pozalarida qaytariladi.

4. 2\4 o'lchamda 8 takt yoki 3\4 o'lchamda 16 takt (vals).

O'ng oyoqda – oldinlama sissone tombé effacée qilinib, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda; chap oyoqda - oldinlama sissone tombé effacée qilinib, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda; har biri 2\4lik. 2\4da – o'ng oyoqda oldinlama pas de basque qilinadi. Demi-rond en dehorsni ijro etishda o'ng qo'l III pozitsiyada, chapi esa II pozitsiyada bo'ladi; pas de basqueda o'ng qo'l II pozitsiyaga yoziladi, chapi esa tayyorgarlik holatiga tushiriladi va I pozitsiya orqali sakrash yakunida III pozitsiyaga ko'tariladi. 2\4da – qo'llar tayyorgarlik holatiga tushirilib, ikkita petits changements de pieds bajariladi. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

5. *Echappé battus. Musiqiy o'lcham 2\4.*

Birinci chorakda - demi-plié qilinadi; birinci va ikkinchi chorak orasida-sakrash; ikkinchi chorakda II pozitsiyaga demi-pliéda sakrash; ikkinchi va uchinchi chorak orasida battus bilan sakrash; uchinchi chorakda V pozitsiyaga demi-pliéda sakrash bilan tugallanadi; to'rtinchi chorakda tizzalar tortiladi. Sakkiz marta qaytariladi. Uskunaga qarab o'rganiladi, o'zlashish darajasiga qarab zal o'rtasida olib boriladi.

6. 2\4 o'lchamda 8 takt.

2\4da – oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga grand échappé qilinadi; ikkita grand changements de pieds bajariladi, har biri 1\4lik. To'rt marta takrorlanadi.

7. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Ikkita petits changements de pieds bajariladi, har biri 1\4lik. to'rt marta takrorlanadi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING BESHINCHI MISOLI

1. 2\4 o'lchamda 16 takt.

I pozitsiyaga oltita relevé qilinadi, har biri 2\4lik; ayni shu narsa II pozitsiyada ham takrorlanadi.

2. 4\4 o'lchamda 8 takt.

II pozitsiyaga ikkita doubles échappés qilinadi, har biri 4\4lik, II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib to'rtta échappés bajariladi, har biri 2\4lik.

II pozitsiyaga ikkita doubles échappés, II pozitsiyaga $1\frac{1}{4}$ qayrilishda en tournantda to'rtta échappés qilinadi.

3. $3\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt (vals).

Oldinga ikkita temps lié qilinadi, o'ng oyoqdan boshlanadi, har biri 4 takt; o'ng oyoqda orqalama effacéning kichik pozasida diagonal bo'yicha 2-nuqtaga uchta oldinlama jetés bajariladi; har biri 2 takt. Uchinchi jetéda — o'ng oyoqqa pliédá tushiriladi, chap oyoq orqaga kichik II arabesquening pozasida 45^0 ga yoziladi va 2 takt — en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda bajariladi.

4. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 32 takt.

$1\frac{1}{4}$ qayrilish bo'yicha to'rtta glissades en tournant bajariladi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; oyoqlarni orqaga almashtirgan holda ikkita sissones simples, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; uchta sissones simples, har biri $1\frac{1}{4}$ lik va $1\frac{1}{4}$ da — demi-pliédá pauza qilinadi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.

5. $6\frac{1}{8}$ o'lchamda 8 takt.

2 takt — o'ng oyoqda to'g'ri chiziqli bo'yicha o'ngga pas de bourrée suivi qilinadi, demi-pliédá tugallanadi, chap oyoq oyoq uchi polda oldinlama croiséeni bajaradi. 2 takt — chap oyoqda chap tomonga ayni shu narsa ijro etiladi va 2 takt o'ng oyoqda o'ng tomonga bajariladi, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. 2 takt chap oyoq bilan croiséeda oldinga pas de bourrée suivi, V pozitsiyaga pliédá va orqaga pas de chat qilinadi. (Pas de bourrée suivi tezkor sur'atda ijro etiladi)

SABOQNING OLTINCHI MISOLI USKUNA OLDIRAGI MASHQLAR

1. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

I, II, IV va V pozitsiyalarda ikkita demi-pliés, ikkita grands pliés qilinadi, har biri $4\frac{1}{4}$ lik.

2. *Battements tendus*. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 24 takt.

Oldinga, yonga, orqaga va yonga ikkitadan battements tendus qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik; uchta battements tendus doubles bajariladi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik, uchinchisida — demi-pliédá qilinadi va $2\frac{1}{4}$ da — uskunaga qarab yarimbarmoqlarda to'liq qayrilish. Uskunadan to'liq qayrilish bilan orqaga o'ng oyoqda boshlab teskari yo'nalishda qaytariladi.

Battements tendus jetés: uchtdan oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri $1\frac{1}{8}$ lik. Yana bir marta jetés takrorlanadi.

3. *Ronds de jambe par terre va ronds de jambe en l'air.* 4\4 o'lchamda 12 takt.

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. To'rtta ronds de jambe par terre, har biri 1\4lik; uchta va yana uchta qilinadi, har biri 1\8lik; to'rtta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1\4lik, uchta va yana uchta qilinadi, har biri 1\8lik. Barchasi en dedansda qaytariladi. 2 taktda - en dehors-en dedansda pliëda aylanish; 2 taktda - gavdani egish bilan port de bras qilinib, V pozitsiyaga demi-pliëda tugallanadi va oxirgi chorakda - uskunaga qarab yarimbarmoqlarda yarim qayrilish.

4. *45⁰ga battements fondus.* 4\4 o'lchamda 8 takt.

2\4da - oldinga fondus qilinadi; 2\4da - yonga demi-rond bilan plië-relevé qilinadi. Yana ikki marta takrorlanadi. 4\4 da - en dehorsda V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied qilinadi. Tour en dedans bilan teskari yo'nalishda fondus takrorlanadi.

5. *Battements frappés.* 2\4 o'lchamda 16 takt.

Yonga: uch marta uchtdan frappés, har biri 1\8lik; 1\4da - uskunaga qarab oyoqlarni almashtirib yarimbarmoqlarda o'ng oyoqda yarimqayrilish, yakunida chap oyoq yonga 450ga yoziladi, 1\4da holat saqlanadi. Ayni shu narsa chap oyoqda takrorlanadi, keyin o'ng va chap oyoqlarda uskunadan yarim qayrilishlar bilan frappés ijro etiladi.⁶²

6. *Petits battements sur le cou-de-pied.* 2\4 o'lchamda 6 takt.

O'n ikkita petits battements bajariladi, har biri 1\8lik; 1\4da - effacéning kichik pozasi pliëda oyoq uchi polda bajariladi; 1\4da tayanch oyoqda yarimbarmoqlarga ko'tariladi, harakatdagi oyoq yonga 450ga yoziladi. Petits battements teskari yo'nalishda qaytariladi va effacéning kichik pozasi pliëda oyoq uchi polda tugallanadi.

7. *Battements développés.* 4\4 o'lchamda 16 takt.

Birinchi takt: yonlama développé qilinadi. Ikkinchi takt: plië, tayanch oyoq tizzasi tortiladi, harakatdagi oyoq 90⁰ga holatni saqlaydi. Uchinchi takt: oldinga demi-rond qilinadi. To'rtinchi takt: yarimbarmoqlarga relevé qilinib, V pozitsiyada tugallanadi. Beshinchi takt: croisée pozasiga oldinlama développé qilinadi. Oltinchi takt: plië, croisée pozasi saqlangan holda tayanch oyoq tizzasi tortiladi. Yettinchi takt: yonlama demi-rond qilinadi. Sakkizinchi takt: yarimbarmoqlarga relevé qilinib, V pozitsiyada tugallanadi. To'qqizinchi va o'ninchi taktlar: yonlama développé, plië,

⁶²Yarimbarmoqlarda oyoqni almashtirish bilan bajariladigan yarim qayrilishlar avval-alohida, keyin battements frappés, ronds de jambe en l'air va sh.k. bilan birikkan holda o'rganiladi.

tayanch oyoq tizzasi tortiladi. O'n birinchi va o'n ikkinchi taktlar: orqalama demi-rond va yarimbarmoqlarda relevé, V pozitsiyada tugallanadi. O'n uchinchi va o'n to'rtinchi taktlar: développé attitude croisée plié, tayanch oyoq tizzasi tortiladi. O'n beshinchi va o'n oltinchi taktlar: yonlama demi-rond va yarimbarmoqlarga relevé qilinadi.

8. *Grands battements jetés.* 2¼ o'lchamda 16 takt.

Oldinga, yonga, orqaga va yonga to'rtta grands battements qilinadi, har biri 1¼lik. Ikkita grands battements oldinga, har biri 1¼lik; uchinchi battementda harakatdagi oyoq havoda 90°ga ¾ oralig'idā ushlab turiladi va 1¼da harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. Ayni shu tarzda yonga, orqaga va yonga bajariladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adajio va battements tendus.* ¼ o'lchamda 8 takt.

Birinchi takt: II pozitsiyada grand plié, tugallanishi bilan o'ng qo'l III pozitsiyada, chap qo'l II pozitsiyada. Ikkinchi takt: qayrilib olinadi va o'ng oyoqda II arabesque pozasiga turiladi, orqadan chap oyoq uchi polda. Uchinchi takt: II arabesque pozasida 90°ga relevé qilinadi. To'rtinchi va beshinchi taktlar: harakatdagi chap oyoq 90°ga yonga olib boriladi, yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, V pozitsiyada oldinga tugallanadi. Oltinchi takt: o'ng oyoqda - yonlama développé va orqalama demi-rond qilinadi. Yettinchi takt: effacée pozasiga oldinga 90°ga passé va yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. Sakkizinchi takt: harakatdagi oyoq épaulement effacéeni saqlagan holda oldinga V pozitsiyaga tushiriladi va o'ng oyoqda pliédā orqaga effacée pozasini qabul qiladi, orqadan chap oyoq uchi polda bo'ladi, chap qo'l III pozitsiyaga, o'ng qo'l II pozitsiyaga cho'ziladi.

Battements tendus: ¼ o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda - ikkita oldinga, chap oyoqda ikkita orqaga; o'ng oyoqda en tournant en dehorsda to'rtta yonga qilinadi, har biri 1⅛ qayrilishda. O'ng oyoqda - ikkita oldinga, chap oyoqda ikkita orqaga (uskunaga qaragan holda), o'ng oyoqda - en tournant en dehorsda 1⅛ qayrilishda yonga to'rtta bajariladi, har biri 1¼lik. Battements tendus jetés: uchtdan oldinga, yonga, orqaga va yonga qilinadi, yana bir marta takrorlanadi, har biri 1⅛lik. 2 taktda - tour sur le cou-de-pied en dedans uchun II pozitsiyadan préparation; 2 taktda - en dedans II pozitsiyadan tour qilinadi.

2. *Ronds de jambe par terre en tournant.* ¼ o'lchamda 12 takt.

Dastlabki ikki akkordda - *préparation en dehors* bajariladi. Sakkizta ronds de jambe par terre en face, 2-nuqtaga birinchi ronds de jambeda qayrilib, sakkizta en tournant en dehors qilinadi, ikkinchisida – 3-nuqtaga va shu tarzda 4, 5, 6, 7, 8 va 1-nuqtalarga qilinadi, har biri 1\4lik. Ayni shu narsa en dedansda takrorlanadi. 2 taktda - en dedans-en dehorsda pliédá aylanish, croiséening katta pozasida orqaga tugallanadi, oyoq uchi polda, uzatilgan tayanch oyoqda; 2 taktda - grand port de bras (VI).

3. *45⁰ga battements fondus. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

Effacéening kichik pozasida oldinga uchta fondus qilinadi, har biri 2\4lik, 2\4da - I arabesque pozasiga 45⁰ga oldinlama tombé va en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu tarzda teskari tartibda bajariladi.

4. *Battements frappés. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda - effacéening kichik pozasida oldinga yettita frappés qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da – effacéeda chap oyoqni orqaga 45⁰ga yozib coupé qilinadi; effacéening kichik pozasida chap oyoqda orqaga yettita frappés qilinadi, har biri 1\4lik, 1\4da – o'ng oyoqni yonga 45⁰ga yozib coupé qilinadi; o'ng oyoqda yonga to'rtta frappés, har biri 1\4lik, uchta va yana uch marta, har biri 1\8lik; 4\4 da - V pozitsiyadan o'ng tomonga tour sur le cou-de-pied en dedans bajariladi; 4\4 da – chap oyoqda V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda oldinga qadam tashlanadi, chap qo'l I pozitsiyaga, o'ng qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi. Qo'llarning holati arabesquedagi holatga o'xshash.

5. *Tours glissade en tournant. Musiqiy o'lcham 2\4.*

a) To'g'ri chiziq bo'ylab ijro etiladi, o'ng oyoqda – 7-nuqtadan 3-nuqtaga, chap oyoqda – 3-nuqtadan 7-nuqtaga.

b) To'g'ri chiziq bo'ylab 5-nuqtadan 1-nuqtaga, o'ng va chap oyoqlarda, har biri 2\4 tourda ijro etiladi.

6. *En dehors va en dedansda IV pozitsiyadan tours uchun préparation. Musiqiy o'lcham 4\4.*

a) En dehors. Dastlabki ikki akkordda V pozitsiyadan croiséening IV pozitsiyasiga préparation en dehorsda ko'tariladi, chap oyoq oldinda. Birinchi chorakda - demi-plié qilinadi; ikkinchi chorakda chap oyoqqa yarimbarmoqlarga sakraladi, o'ng oyoq oldinlama sur le cou-de-piedda bo'ladi; uchinchi chorakda holat saqlanadi, to'rtinchi chorakda V pozitsiyaga demi-pliédá o'ng oyoq orqadan tushiriladi.

b) Birinchi chorakda - V pozitsiyaga demi-plié qilinadi; ikkinchi chorakda o'ng oyoqqa yarimbarmoqlarga sakraladi, o'ng oyoq oldinlama sur le cou-de-piedda, ayni paytda 2-nuqtaga o'giriladi; uchinchi chorakda holat saqlanadi, to'rtinchi chorakda croiséening IV pozitsiyasiga tushiriladi, chap oyoqda demi-plié qilinadi, o'ng oyoq tizzaga tortiladi va orqadan butun tovonga qo'yiladi. Keyingi 4\4da - ikki oyoqda, xuddi "a" bandida ko'rsatilganidek, plié va préparation qilinadi. Préparation en dedans musiqa bilan ayni shu tarzda ijro etiladi.⁶³

7. Katta adajio. 4\4 o'lchamda 12 takt,

Birinchi takt: o'ng oyoqda - oldinlama glissade croisée, chap oyoqda - orqalama croisée va yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. Ikkinchi takt: o'ng oyoqda - oldinlama développé va yonlama demi-rond bajariladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: I arabesqueda qayrilish, yana yonga qayrilish va yarimbarmoqlarga relevé, V pozitsiyaga tugatiladi. Beshinchi va oltinchi taktlar: chap oyoqda - écartée pozasiga orqalama développé va III arabesqueda demi-rond qilinadi. Yettinchi takt: III arabesquedan IV arabesque pozasiga o'tiladi va pliédaga tushiriladi. Sakkizinchi takt: harakatdagi oyoq V pozitsiyaga qo'yiladi va o'ng oyoqda yonlama développé qilinadi. To'qqizinchi takt: orqaga demi-rond va yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi. O'ninchi takt: chap oyoqda - croiséening katta pozasiga oldinga, oyoq uchi polda qadam tashlanadi, chap qo'l III pozitsiyada, o'ng qo'l II pozitsiyada bo'ladi, keyin chap qo'l II pozitsiyaga, o'ng/qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi. O'n birinchi va o'n ikkinchi taktlar: grand port de bras bajariladi.

ALLEGRO

1. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Oldinga siljish bilan to'rtta doubles assemblés, orqaga siljish bilan to'rtta doubles assemblés bajariladi, har biri 2\4lik.

2. 2\4 o'lchamda 8 takt.

1\4 da - sur le cou-de-piedda tugallanadigan yonlama jeté qilinadi; ikkita temps levé bajariladi, har biri 1\8lik. To'rt marta takrorlanadi, coupé qilinadi va teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. 4\4 o'lchamda 4 takt.

O'ng oyoqda - effacée pozasida oldinga ikkita ballonnés qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da - effacéga siljish bilan oldinga jeté qilinadi (jeté yakunida

⁶³O'quv yili oxirida barcha demi-pliélar taktdan so'ng qilinadi. Natijada yarimbarmoqlarda ushlab turish cho'ziqligi birinchi, ikkinchi va uchinchi choraklarda ko'payadi.

chap oyoq orqadan 45⁰ga uzatiladi) va 1\4da - en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi: o'ng oyoqda – ikkita orqalama sissones tombés croisée bajariladi, har biri 2\4lik. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ham ijro etiladi.

2\4 o'lchamda 8 takt yoki 3\4 o'lchamda 16 takt (vals).

1\4da – олдинга pas de chat, 1\4da - en dehorsda оёқларни алмаштириб pas de bourrée қилинади. Саккиз марта ижро этилади. Дастлабки тўрт pas de chat расни ижро этишда қўллар – (педагог топшириғига кўра) кичик позада бўлади, кейинги pas de chatларни ижро этишда қўллар ҳар сафар III позицияга кўтарилади ва pas de bourréeда тайёргарлик ҳолатига туширилади.

4. 1\2 қайрилиш бўйича *changements de pieds en tournant*. *Муסיкий ўлчам 4\4*

Birinchi chorakda - demi-plié qilinadi; birinchi va ikkinchi chorak orasida havoda qayrilish bilan sakrash; ikkinchi chorakda demi-pliéda sakrash tugallanadi; uchinchi va to'rtinchi choraklarda tizzalar tortiladi. O'ng tomonga to'rt marta, chap tomonga to'rt marta qayrilishlar bilan qaytariladi.

5. O'g'il bolalar sinfi uchun havoda tour (*tour en l'air*). *Musiqiy o'lcham 4\4.*

V pozitsiya, o'ng qo'l oldinda. Taktdan so'ng - demi-plié; birinchi chorakda - yarimbarmoqlarga relevé V pozitsiyaga (*préparation*); ikkinchi chorakda - demi-plié; ikkinchi va uchinchi chorak orasida – o'ng tomonga *tour en l'air* qilinadi; uchinchi chorakda demi-pliéda sakrash tugallanadi, to'rtinchi chorakda tizzalar tortiladi. Keyingi takt: o'ng tomonga *tour*ni qaytarish uchun *battement tendu* yo'li bilan oyoqlar almashadi.

6. *Echappé battu*.

Saboqning beshinchi misolidagi kabi ijro etiladi, har biri 4\4lik, o'zlashishiga qarab 2\4da.

7. *Royale*. *Musiqiy o'lcham 4\4.*

Yuzni uskunaga qaratib o'rganiladi. Birinchi chorakda - demi-plié qilinadi; birinchi va ikkinchi chorak orasida – sakrash va joyiga qo'yish; ikkinchi chorakda - V pozitsiyaga demi-pliéda sakrashni tugatish; uchinchi va to'rtinchi choraklarda tizzalar tortiladi. Sakkiz marta qaytariladi.⁶⁴

⁶⁴Royal va *entrechat* quatreni o'rganishdan oldin zanoskaga tayyorgarlikni mashq qilish tavsiya etiladi: havoda oyoqlarni yonga kichkina va tez ochish bilan V pozitsiyadan sakrash va demi-pliéda havoda oyoqlarni V pozitsiyada yonga tezda yoyish.

8. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 4 takt.

Sakkizta petits changements de pieds qilinadi, har biri $1\frac{1}{8}$ lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING OLTINCHI MISOLI

1. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

V pozitsiyaga uchta relevés qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; $2\frac{1}{4}$ da – oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga échappé qilinadi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.

2. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

Croiséening kichik pozasida oldinga siljish bilan to'rtta sus-sous qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; $4\frac{1}{4}$ da - II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirmasdan double échappé qilinadi; $1\frac{1}{4}$ qayrilish bo'yicha en tournantda oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga ikkita échappés qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik. Orqaga siljish bilan, 1-nuqtaga orqa bilan, croiséening kichik pozasida sus-sous qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; $4\frac{1}{4}$ da – II pozitsiyaga double échappé va en tournantda II pozitsiyaga $1\frac{1}{4}$ qayrilishda ikkita échappés, har biri $2\frac{1}{4}$ lik.

3. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

Oyoqlarni orqaga almashtirgan holda to'rtta sissones simples, har biri $2\frac{1}{4}$ lik, to'rttasi – $1\frac{1}{4}$ lik; $4\frac{1}{4}$ da - oldinga I pozitsiyaga pas couru. Barchasi takrorlanadi.

4. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

Sissones simples en tournant qilinadi, $1\frac{1}{4}$ qayrilishda, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; o'ng oyoqda o'ng tomonga va chap oyoqda chap tomonga sakkizta sissones bajariladi.

5. *En dedans va en dehorsda V pozitsiyadan préparation va tour.*
Musiqiy o'lcham $4\frac{1}{4}$.

Taktdan so'ng - demi-plié. Birinchi chorakda tayanch oyoqqa barmoqlarda dik etib turiladi, boshqasi oldinlama sur le cou-de-piedda, qo'llar I va II pozitsiyalarga préparation; ikkinchi chorakda - V pozitsiyaga demi-plié; uchinchi chorakda – tour, to'rtinchisida V pozitsiyada demi-pliéda tour tugallanadi. Har bir oyoqda to'rt marta yen dehorsda, to'rt marta en dedansda qaytariladi.

SABOQNING YETTINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

I, II, IV va Vpozitsiyalarda yarimbarmoqlarga ikkita grands pliés, ikkita relevés qilinadi, har biri $4\frac{1}{4}$ lik.

2. *Battements tendus. 2\4 o'lchamda 24 takt.*

Oldinga, yonga, orqaga va yonga sakiztadan battements tendus qilinadi, har biri 1\4lik. Battements tendus jetés: oldinga to'rtta, har biri 1\8lik, to'rtinchi jetéda harakatdagi oyoq havoda 45⁰ga 1\8 oraliqda ushlab turiladi. Keyingi to'rtta jetés 45⁰ dan boshlanadi. Ayni shu narsa yonga va yonga qaytariladi.

3. *Ronds de jambe par terre. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. Oltita ronds de jambe par terre, biri 1\4lik; 2\4da - préparation en dehors; ikkita ronds de jambe par terre, har biri 1\4lik, uchitasi 1\8lik, ikkitasi 1\4lik, uchitasi 1\8lik. Ayni shu narsa en dedansda takrorlanadi. 2 taktda - en dedans- en dehorsda pliéda aylanish; 2 taktda - pliéga cho'zilib va gavdani egib port de bras qilinadi, demi-pliéning V pozitsiyasiga tugallanadi va oxirgi chorakda - uskunadan yarimbarmoqlarga yarimqayrilish.

4. *90⁰ga battements soutenus. 2\4 o'lchamda 24 takt.*

90⁰ga effacée pozasida ikkita oldinga, écartée pozasida ikkita orqaga, effacée pozasida ikkita orqaga va ikkita yonga soutenus qilinadi, har biri 2\4lik; oxirgi soutenusda harakatdagi oyoq 90⁰dan 45⁰ga tushiriladi, ayni paytda tayanch oyoqda yarimbarmoqlarga ko'tariladi. Frappés: ikkita oldinga, har biri 1\4lik, uchitasi 1\8lik. Ayni shu narsa yonga, orqaga va yonga takrorlanadi. Doubles frappés: sakkizta yonga, har biri 1\4lik. 4 taktda: harakatdagi oyoq oldinga V pozitsiyaga tushiriladi va gavdani egish bilan port de bras qilinadi.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors. Ikkita ronds de jambe en l'air, har biri 1\4lik, uchitasi 1\8lik. Yana bir marta takrorlanadi. 4\4da - V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors, yakunida harakatdagi oyoq 45⁰ga yonga yoziladi. Uchta ronds de jambe en dehors, har biri 1\4lik, uchinchi ronds de jambe effacéning kichik pozasida pliéda oyoq uchi polda tugallanadi va 1\4da yarimbarmoqlarga ko'tariladi, harakatdagi oyoq 45⁰ ga yonga yoziladi. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'n ikkita petits battements qilinadi, har biri 1\8lik, 2\4da - pliéda croiséning kichik pozasi oyoq uchi polda bajariladi. O'n ikkita petits battements qaytariladi va 2\4da pliéda effacéning kichik pozasi oyoq uchi polda ijro etiladi. Sroisée va effacéning kichik pozalari bilan orqaga petits battements takrorlanadi.

7. *Battements développés. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Birinci va ikkinchi taktlar: oldinga développé qilinadi, yarimbarmoqlarga ko'tariladi, yonlama demi-rond va oldinlama demi-rond qilinadi, V pozitsiyaga tugatiladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: yonga développé, yarimbarmoqlarga ko'tariladi, demi-rond oldinga va demi-rond yonga, V pozitsiyaga tugallanadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: orqalama développé qilinadi, yarimbarmoqlarga ko'tariladi, yonlama demi-rond va orqalama demi-rond qilinadi, V pozitsiyaga tugallanadi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: yonlama développé qilinadi, yarimbarmoqlarga ko'tariladi, yonlama demi-rond va orqalama demi-rond qilinadi.

8. *Grands battements jetés. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

Yonga, orqaga va yonga to'rttadan grands battements qilinadi, har biri 1\4lik.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adajio battements tendus. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Birinci va ikkinchi taktlar: I pozitsiyaga ikkita grands plies qilinadi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoqda - yonlama développé qilinadi, 90⁰ga oldinga passé, yarimbarmoqlarga relevé qilinib, V pozitsiyada tugallanadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: o'ng oyoqda - yonlama développé, 90⁰ga orqaga passé, yarimbarmoqlarga relevé, V pozitsiyada tugallanadi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: chap oyoqda - grand rond de jambe développé en dehors, yakunida yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. Battements tendus: 4\4 bo'yicha 8 takt. O'ng oyoqda - ikkitadan battements tendus harakati demi-pliéda oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi, har biri 1\4lik; chap oyoqda - 1\8 qayrilishda sakkizta en tournant en dedans, har biri 1\4lik. Battements tendus jetés: croiséning kichik pozasida oldinga, yonga, croiséda orqaga va yonga qilinadi, har biri 1\8lik; o'n oltita I pozitsiyaga, har biri 1\8lik. 2 taktida - II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation; 2 taktida - en dehorsda II pozitsiyadan tour qilinadi.

2. *45⁰ga battements fondus. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

2\4da - effacéning kichik pozasida oldinga fondus qilinadi, 2\4da - plié-relevé. Yana bir marta takrorlanadi. Ayni shu narsa écartée va effacée pozalarida orqaga ijro etiladi. 2\4da - yonga bitta fondus; ikkita frappés, har biri 1\4lik, uchta va yana uchta, har biri 1\8lik.

3. *Rond de jambe en l'air. 4\4 o'lchamda 4 takt.*

4\4da - V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors, yakunida harakatdagi oyoq yonga 45^oga yoziladi. To'rtta rond de jambe en l'air en dehors, har biri 1\4lik, uchta va yana uchta, har biri 1\8lik. Oxirgi rond de jambeni pliêda tugatish kerak va 4\4da pas de bourrée dessous-dessus qilinadi. Ayni shu narsa en dedansda ijro etiladi, yakunida pas de bourrée dessous-dessus ijro etiladi.

4. *Petits battements sur le cou-de-pied.* 2\4 o'lchamda 8 takt.

O'n ikkita petits battements qilinadi, har biri 1\8lik; 2\4da – croiséening kichik pozasi pliêda, oyoq uchi polda. O'n ikkita petits battements qaytariladi; 1\4da effacée pozasi orqalama pliêda ijro etiladi va 1\4da en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi.

5. *En dehors va en dedansda IV pozitsiyadan tours uchun préparation.*

Saboqning oltinchi misolidagi singari ijro etiladi.

6. *Grands battements jetés pointés.* 2\4 o'lchamda 8 takt.

Croisée pozasida uchta oldinlama grands battements pointés qilinadi, to'rtinchi battement V pozitsiyaga, har biri 1\4lik. Ayni shu narsa III va IV arabesque pozalarida yonga takrorlanadi.

7. *Tours glissades en tournant.*⁶⁵ 2\4 o'lchamda 8 takt.

To'g'ri chiziq bo'yicha 5-nuqtadan 1-nuqtaga sakkizta tours ijro etiladi, o'ng oyoqdan boshlanadi, har biri 2\4da. Oxirgi tour V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. Chap oyoqda takrorlanadi.

ALLEGRO

1. 2\4 o'lchamda 16 takt.

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. O'ng oyoqda – oyoqlarni almashtirib, yonga uchta glissades qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da – yonlama assemblé (o'ng oyoq oldinga almashadi); croiséening IV pozitsiyasiga échappé qilinadi va II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib échappé bajariladi, har biri 2\4lik. Hammasi o'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta qaytariladi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi. O'ng tomonga glissadesni orqadan V pozitsiyadagi dastlabki holatda o'ng oyoqdan boshlash kerak.

2. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Écarténing kichik pozasida orqaga sissone ouverte qilinadi, assemblé bajarilib, V pozitsiyaga orqadan oyoq yig'iladi; oldinga siljish bilan ikkita

⁶⁵Mazkur saboqda istisno tariqasida katta adajio o'rniga tours glissades en tournant ijro etiladi.

sañones fermée bajariladi, croiséening kichik pozasida orqaga qilinadi. Har bir sakrash 1\4da ijro etiladi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta qaytariladi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Sroiséening kichik pozasida oldinga siljish bilan uchta jetés qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da – orqalama assembles croisée. Ikkinchi va uchinchi jeté oldidan qichqacha coupé qilinadi. Oyoqlarni almashtirmasdan II pozitsiyaga échappé va oyoqlarni almashtirib échappé battu bajariladi, har biri 2\4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

4. 4\4 o'lchamda 8 takt.

Uchta yonlama ballonnés qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da – yonlama assemblé; ikkita grands échappés oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga, har biri 2\4lik. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta qaytariladi.

5. 4\4 o'lchamda 8 takt.

Uchta échappé battu, har biri 2\4lik; 1\4da tizzalar cho'ziladi; 1\4da keyingi échappéslar uchun demi-pliés. To'rt marta takrorlanadi.

6. *Zal o'rtasida royale. Musiqiy o'lcham 4\4.*

Saboqning oltinchi micolidagi kabi ijro etiladi.

7. *Entrechat-quatre.*

Uskunaga qarab o'rganiladi, o'zlashishiga qarab – zal o'rtasida bajariladi, har biri 4\4lik.

8. *O'g'il bolalar sinfi uchun havoda tour.*

Saboqning oltinchi micolidagi kabi ijro etiladi.

9. 3\4 o'lchamda 16 takt (vals).

O'ng oyoq bilan uchta pas de chat, har biri 1 taktili; 1 taktda - en dehorsda oyoqlarni almashtirish bilan pas de bourrée. Chap oyoqda takrorlanadi. II arabesquening kichik pozasida to'rtta balancés, har biri 1 taktili; 4 taktda: sissone I arabesqueda o'ng oyoqda sahnaviy sissone va oldinga 2-nuqtaga sahnaviy yugurish.

10. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Yettita petits changements de pieds qilinadi, har biri 1\8lik. to'rt marta takrorlanadi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING YETTINCHI MISOLI

1. 2\4 o'lchamda 8 takt.

I pozitsiya bo'yicha sakkizta relevés qilinadi, har biri 2\4lik; sakkizinchi relevéda demi-pliéga pasaymasdan barmoqlarda qolinadi. Ayni shu narsa II pozitsiyada takrorlanadi.

2. 2\4 o'lchamda 16 takt.

En dehorsda oyoqlar almashinuvi bilan ikkita pas de bourrée, croiséda to'rtta pas de bourrée balottés qilinadi, V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda qadam tashlanadi, V pozitsiyaga plié-relevé va yonlama dégagé qilinadi; to'rtta pas de bourrée dessus-dessous bajarilib, V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda qadam tashalanadi, V pozitsiyaga plié-relevé qilinib, oldinlama coupé bajariladi va en dedansda oyoqlarni almashtirib ikkita pas de bourrée qilinadi. Har bir pas de bourrée, shuningdek, relevé harakati dégagé bilan va coupé bilan 2\4da ijro etiladi.

3. 4\4 o'lchamda 8 takt.

O'ng va chap oyoqlarda II pozitsiyaga bir oyoqda tugallanadigan (sur le cou-de-pied orqadan) ikkita échappés qilinadi, har biri 4\4lik. To'rtta sissonnes simples en tournant, o'ng tomonga 1\4 qayrilishda, har biri 2\4lik. II pozitsiyaga bir oyoqda tugallanadigan (sur le cou-de-pied oldinga) ikkita échappés qilinadi, har biri 4\4lik; o'ng tomonga 1\4da qayrilish bilan to'rtta sissonnes simples en tournant bajariladi.

4. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Harakat diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga. 2 taktda: 450ga o'ng oyoqda dégagé va pas de bourrée suivi, o'ng oyoq oldinda, écartée holatida oldinga, o'ng yelka bilan 2-nuqtaga, chap yelka bilan 6-nuqtaga. Qo'llar tayyorgarlik holatidan doimiy tarzda ko'tariladi – o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l II pozitsiyaga cho'ziladi. 2 taktda: o'ng oyoqda to'rtta sissonnes simples bajariladi, o'ng yelka bilan 2-nuqtaga, oldinlama écartée holatidan o'ng oyoqni V pozitsiyaga almashtirib, orqaga-oldinga-orqaga-oldinga bajariladi, har biri 1\4lik. Barchasi takrorlanadi. Kombinatsiya tez sur'atda ijro etiladi.

5. *Changements de pieds. Musiqiy o'lcham 2\4.*

Dastlabki ikki akkordda demi-plié qilinadi va barmoqlarda dik etib turiladi. To'rtta changements de pieds qilinadi, har biri 1\4lik. To'rtinchi shangements de piedda barmoqlardan demi-pliéda ikkala tovonga tushiladi. Yana bir marta takrorlanadi.⁶⁶

⁶⁶Changements de piedsni ўрганишда мунтазам ёндашув талаб қилинади: дастлаб қаторасига тўрттадан кам бўлмаган сакраш, ўзлашиш даражасига қараб йил охирида саккизта бўлиши мумкин.

SABOQNING SAKKIZINCHI MISOLI

USKUNA BILAN MASHQLAR

1. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

Ikkita demi-pliés qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; ikkita grands pliés, har biri $4\frac{1}{4}$ lik; $4\frac{1}{4}$ da - I, II, IV va V pozitsiyalarga bitta relevé qilinadi.

2. *Battements tendus*. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 24 takt.

To'rtta oldinlama battements tendus qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik; beshinchi battement tenduni $1\frac{1}{4}$ da oyoqlarni almashtirib uskunaga qarab yarimqayrilish bilan bajarish lozim, yakunida chap oyoq oldinga oyoq uchi polda yoziladi, $1\frac{1}{4}$ da holat saqlanadi; $1\frac{1}{4}$ da - oyoqni almashtirib uskunaga qarab yarimqayrilish, yakunida o'ng oyoq uchi polda yoziladi; $1\frac{1}{4}$ da holat saqlanadi. Yonga sakkizta battements tendus qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. O'ng oyoqda orqaga boshlab, uskunadan yarimqayrilishlar bilan teskari tartibda takrorlanadi. Battements tendus jetés: yonga yettita qilinadi, har biri $1\frac{1}{8}$ lik, yettinchisida - demi-plié, to'rt marta takrorlanadi.

3. *Ronds de jambe par terre*. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 12 takt.

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. Oltita ronds de jambe par terre, har biri $1\frac{1}{4}$ lik; uchta har biri $1\frac{1}{8}$ lik, oldinda oyoq uchi polda tugatiladi; $4\frac{1}{4}$ da - 90^0 ga yarimbarmoqlarga relevé lent qilinadi; $4\frac{1}{4}$ da - yonlama demi-rond va harakatdagi oyoq uchi polda II pozitsiyaga tushiriladi. Ayni shu narsa 90^0 ga relevé bilan en dedansda takrorlanadi va yonlama demi-rond qilinadi. 2 taktida - en dehors-en dedansda plié aylanish, V pozitsiyaga tugatiladi, tizzalar tortiladi; 2 taktida - gavdani egish bilan port de bras qilinadi.

4. 45^0 ga battements fondus. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 12 takt.

Oldinlama double fondu, oldinlama double fondu harakati demi-rond bilan yonga qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; yana bir marta takrorlanadi. Orqalama double fondu, orqalama demi-rond bilan double fondu yonga, har biri $2\frac{1}{4}$ lik. Yana bir marta takrorlanadi. Frappés: yonga ikkita, har biri $1\frac{1}{4}$ lik; uchta - har biri $1\frac{1}{8}$ lik; ikkita - har biri $1\frac{1}{4}$ lik va $2\frac{1}{4}$ da - effacéning kichik pozasi pliéd oyoq uchi polda. frappés takrorlanadi va effacéning kichik pozasi orqalama pliéd oyoq uchi polda ijro etiladi. To'rtta doubles frappés yonga, har biri $1\frac{1}{4}$ lik; $1\frac{1}{4}$ da - oyoqni almashtirib uskunaga qarab yarimbarmoqlarda yarimqayrilish qilinadi, yakunida chap oyoq yonga 45^0 ga yoziladi; $1\frac{1}{4}$ da holat saqlanadi; $2\frac{1}{4}$ da chap oyoq orqadan V pozitsiyaga tushiriladi; $4\frac{1}{4}$ da - chap oyoqda 90^0 ga II arabesque pozasiga

relevé qilinadi; 4\4da - arabesque pozasiga yarimbarmoqlarda relevé qilinadi.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4\4 o'lchamda 4 takt.*

Dastlabki ikki akkordda – préparation temps relevé en dehors. Oltita ronds de jambe en l'air qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da - V pozitsiyaga demi-plié, harakatdagi oyoq orqadan qo'yiladi; 1\4da tayanch oyoqda yarimbarmoqlarda ko'tariladi, harakatdagi oyoq 45⁰ga yoziladi. Yen dedansda takrorlanadi. Harakatdagi oyoq V pozitsiyada oldinga demi-pliéda qo'yiladi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'n ikkita petits battements qilinadi, har biri 1\8lik; 1\4da – harakatdagi o'ng oyoqda V pozitsiyaga oldinda pliége tombé (yiqilish), chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedni bajaradi; 1\4da – uskunaga qarab yarimbarmoqlarda yarimqayrilish, chap oyoq oldinlama sur le cou-de-piedga o'tkaziladi. Chap oyoqda uskunaga qarab yarimqayrilish bilan petits battements va tombé; keyin esa ayni shu holat uskunadan yarimqayrilish bilan o'ng va chap oyoqlarda takrorlanadi (ushbu kombinatsiya avval o'ng oyoqda, keyin chap oyoqda to'xtalishlarsiz ijro etiladi).

7. *Battements développés. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi va ikkinchi taktlar: grand rond de jambe développé en dehors. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: effacée pozasiga yarimbarmoqlarda 90⁰ga passé va 90⁰ga attitude effacéda passé. Beshinchi va oltinchi taktlar: barchasi en dedansda takrorlanadi.

8. *Grands battements jetés. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

Oldinlama effacée pozalarida to'rttadan grands battements, orqaga écartée, oldinga II arabesque va écartée qilinadi, har biri 1\4lik.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adajio va battements tendus. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi va ikkinchi taktlar: V pozitsiyaga grand plié qilinadi (o'ng oyoq oldinda), tugatishda o'ng qo'l II pozitsiyaga, chap qo'l III pozitsiyaga boradi; IV port de bras qilinadi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoqda - grand rond de jambe développé en dehors va 90⁰ga yarimbarmoqlarda passé. Beshinchi takt: oldinga bor tovonda développé écartée, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda. Oltinchi va yettinchi taktlar: grand rond de jambe développé en dedans va 90⁰ga yarimbarmoqlarda passé. Sakkizinchi

takt: orqaga bor tovonda développé écartée. Battements tendus: 4\4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda – oldinlama croisée pozasida oltita, o'ng qo'l III, chap qo'l I pozitsiyada, har biri 1\4lik; oltinchisida - demi-plié va 2\4da – V pozitsiyaga chap tomonga yarimbarmoqlarda to'liq qayrilish: o'ng oyoqda croisée pozasida oltita orqalama battements tendus, o'ng qo'l I, chap qo'l III pozitsiyaga boradi, har biri 1\4lik va 2\4da – o'ng tomonga yarimbarmoqlarda to'liq qayrilish; sakkizta yonga, har biri 1\4lik. Battements tendus jetés: o'n beshta yonga, har biri 1\8lik; 1\8da - V pozitsiyada pauza. 2 taktda: II pozitsiyadan o'ng tomonga tour sur le cou-de-pied en dehors; 2 taktda: II pozitsiyadan chap tomonga sur le cou-de-pied en dedans qilinadi.

2. *Ronds de jambe par terre. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda – préparation en dehors. Sakkizta ronds de jambe par terre en face, sakkizta en tournant en dehors qilinadi, har biri 1\4lik. Yen dedansda takrorlanadi. 2 taktda - plié en dedans- en dehorsda aylanish, croiséening katta pozasida orqaga oyoq uchi polda cho'zilgan tayanch oyoqda tugallanadi. 2 taktda - ikkita grands ports de bras, har biri 1 taktili.

3. *90⁰ga battements soutenus. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda - 90⁰ga effacée pozasida oldinga ikkita soutenus, ikkita - effacée pozasida chap oyoqda orqaga, ikkita – o'ng oyoqdan écartée pozasida orqaga va ikkita - III arabesque pozasida, har biri 2\4lik. V pozitsiyada yarimbarmoqlarda tugallanadi va harakatdagi oyoq yonga 45⁰ga yoziladi. Frappés: uchta yonga, har biri 1\8lik, to'rt marta ijro etiladi; to'rtta doubles frappés, har biri 1\4lik va 4\4da – V pozitsiyadan o'ng tomonga tour sur le cou-de-pied en dehors bajariladi.

4. *Grands battements jetés. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda - effacée pozasida oldinga to'rtta grands battements, to'rtta chap oyoqda effacée pozasida orqaga, to'rtta – o'ng oyoqda écartée pozasida orqaga va to'rtta III arabesque pozasida o'ng tomonga qilinadi.

5. *Katta adajio. 4\4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: croiséening IV pozitsiyasida grand plié. Ikkinchi takt: chap oyoqda - I arabesqueda 2-nuqtaga développé qilinadi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: arabesquedan attitude effacée pozasiga o'tiladi, yarimbarmoqlarga relevé qilinadi va V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. Beshinchi va oltinchi taktlar: o'ng oyoqda - yonlama développé qilinadi, qo'llar III pozitsiyada va I pozitsiya bo'yicha orqaga III arabesque

pozasiga pliêda o'tiladi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: orqaga qadam tashlanadi, écartée pozasida chap oyoqda orqalama développé qilinadi va IV arabesqueda demi-rond bajariladi. To'qqizinchi takt: IV arabesqueda pliê qilinadi va en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée bajariladi. O'ninchi va o'n birinchi taktlar: o'ng oyoqda - écartée pozasida oldinlama développé va attitude effacéda demi-rond qilinadi. O'n ikkinchi va o'n uchinchi taktlar: attitude pozasidan - yonlama demi-rond, pliê va pas de bourrée dessus qilinadi. O'n to'rtinchi takt: V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation. O'n beshinchi takt: V pozitsiyadan chap tomonga tour sur le cou-de-pied en dehors qilinadi. O'n oltinchi takt: o'ng oyoqda - yonga oyoqlarni almashtirib ikkita glissades va o'ng oyoqda oldinga V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda qadam tashlanadi, qo'llar III arabesque holatida bo'ladi.

ALLEGRO

1. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

Yonga oyoqlarni almashtirib oldinga oltita assemblés, yonga ikkita jetés qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. Qisqacha coupé bajariladi. Barchasi teskari yo'nalishda qaytariladi.

2. $3\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

Effacéning kichik pozasida o'ng va chap oyoqda oldinlama sissone ouverte qilinadi (assembléda tugatiladi); II pozitsiyada bir oyoqda tugallanadigan échappé (orqadan sur le cou-de-pied), orqalama temps levé, assemblé croisée qilinadi. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Har bir sakrash $1\frac{1}{4}$ da ijro etiladi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

Croiséening kichik pozasida oldinga siljish bilan ikkita orqalama sissones fermées qilinadi; croiséening kichik pozasida orqaga siljish bilan ikkita oldinlama sissones fermées qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. $2\frac{1}{4}$ da - oldinga pas de basque va orqaga ikkita pas de chat bajariladi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda bajariladi.

4. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

Taktdan so'ng - chap oyoq bilan orqadan coupé va o'ng oyoqda - uchta oldinlama ballonés effacée qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik; $1\frac{1}{4}$ da - yonga assemblé, tugatishda o'ng oyoq orqadan. Chap oyoqda - II arabesquening kichik pozasida 8-nuqtaga ikkita sissones fermées qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik.

Birinchi sissone V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan, ikkinchisida – o'ng oyoq oldinda. 2\4da – V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda chap tomonga qayrilish, demi-plié chap oyoqda tugatiladi, o'ng oyoq orqalama sur le cou-de-piedda bo'ladi. Soupé qilinadi va kombinatsiya boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda bajariladi.

5. 4\4 o'lchamda 4 takt.

Ikkita royale qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da tizzalar tortiladi, 1\4da – keyingi sakrash uchun demi-plié. To'rt marta takrorlanadi.

6. *Entechat-quatre.*

Royale kabi o'ng va chap oyoqlarda to'rt martadan ijro etiladi.

7. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Sakkizta grands changements de pieds qilinadi, har biri 1\4lik; o'n oltita petits changements de pieds qilinadi, har biri 1\4lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING SAKKIZINCHI MISOLI

1. 3\4 o'lchamda 32 takt (*vals*).

Croiséening kichik pozasida uchta oldinlama glissades qilinadi, bittasi oyoqlarni almashtirib yonga, har biri 2 taktda. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda bajariladi.

2. 4\4 o'lchamda 8 takt.

Oyoqlar almashinuvi bilan II pozitsiyaga to'rtta échappés, har biri 2\4lik; 4\4da – bir oyoqda tugallanadigan double échappé (orqalama sur le cou-de-pied) va 4\4da - en dehorsda oyoqlar almashinuvi bilan ikkita pas de bourrée. 4\4da – bir oyoqda tugallanadigan double échappé (oldinlama sur le cou-de-pied) va 4\4da - en dedansda oyoqlar almashinuvi bilan ikkita pas de bourrée. Yen tournantda II pozitsiya bo'yicha o'ng tomonga 1\4 qayrilishda to'rtta échappés qilinadi, har biri 2\4lik.

3. 2\4 o'lchamda 16 takt.

Orqaga oyoqlarni almashtirish bilan to'rtta sissones simples bajariladi, har biri 2\4lik. sakkizta – 1\4lik. Teskari yo'nalishda qaytariladi.

4. 3\4 o'lchamda 32 takt (*vals*).

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Harakat diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga. Yetti jetés oldinga, o'ng oyoqdan boshlanadi, har biri 1 taktili. Yettinchi fondus jeté chap oyoqda tombé balancéda tugallanadi (sakkizinchi takt). O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan oldinga siljib yonga

oltita balancés qilinadi, har biri 1 taktli; 1 taktda – yonga o'ng oyoqda dégagé va 1 taktda - assemble soutenus qilinadi, tugashida o'ng oyoq oldinda bo'ladi. Kombinatsiya boshqa oyoqda 8-nuqta yo'nalishi bo'ylab davom ettiriladi.

5. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

Oyoqlarni orqaga almashtirib ikkita sissones simples qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik; $2\frac{1}{4}$ da – V pozitsiyadan V pozitsiyaga tour sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation en dehors bajariladi; $2\frac{1}{4}$ da - en dehorsning V pozitsiyasidan tour. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda tour en dedans bilan bajariladi.

6. $3\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt (mayin vals).

14 takt: o'ng oyoqda – oldinga sekingina pas de bourrée suivi croisée qilinadi, o'ng qo'l III, chap qo'l II pozitsiyada. 2 taktda: barmoqlardan I arabesque pozasiga 90^0 ga 2-nuqtaga liéga tushiriladi. O'ng qo'l yuqoridan III pozitsiyadan I pozitsiyaga tushiriladi va arabesquega uzatiladi.

TO'RTINCHI SINIF

Turli qayrilishlar, yarimbarmoq va barmoqlardagi mashqlarda bardoshlilikni (aplomb)ni mustahkamlash. Qo'l va gavdaning plastikligini rivojlantirish.

BIRINCHI YARIM YILLIK SABOQNING BIRINCHI MISOLI USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

Birmuncha murakkab mashqlar. Bir oyoqda yarim qayrilishlar.

1. *4\4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita grands pliés qilinadi, har biri 4\4lik; 4\4da – bitta relevé, ikkitasi 2\4lik, I, II, IV va V pozitsiyalarda.

2. *Battements tendus. 2\4 o'lchamda 24 takt.*

O'ng oyoqda oldinga to'rtta battements tendus, chap oyoqda to'rtta orqaga, o'ng oyoqda sakkizta yonga, har biri 1\4lik. Orqaga o'ng oyoqda boshlab, teskari tartibda qaytariladi. Battements tendus jetés: uchta yonga, har biri 1\8lik, 2\4da - flic-flac en dehors en face, yonga uchta battements tendus jetés va flic-flac en dedans en face. Tendus jetés va flic-flac yana ikki marta qaytariladi.⁶⁷

3. *Ronds de jambe par terre. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. Ikkita ronds de jambe par terre qilinadi, har biri 1\4lik; 2\4da - préparation en dehors. Barchasi takrorlanadi. Yettita ronds de jambe par terre va yana yettita, har biri 1\8lik. Yen dedansda takrorlanadi. 2 taktda - plié en dehorsda aylanish, II arabesque pozasida oyoq uchi polda tugallanadi; uskunadan yarimqayrilish bilan harakatdagi oyoq uchida V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda o'tiladi; 2 taktda – gavdani egish bilan yarimbarmoqlarda port de bras qilinadi.

4. *45⁰ga battements fondus. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

Oldinga, yonga va oldinga fondus qilinadi, har biri 2\4lik; 2\4da – uskunaga qarab yarim qayrilishlar bilan plié va relevé qilinadi. Qayrilish yakunida harakatdagi oyoq orqadan joylashadi. Barchasi chap oyoqda takrorlanadi. Keyin chap oyoqda pliéga o'tiladi, ayni paytda o'ng oyoq bilan orqalama petit battement qilinib, orqaga, yonga va orqaga fondus ijro etiladi, uskunadan yarim qayrilish bilan plié va relevé ijro etiladi. Qayrilish yakunida harakatdagi oyoq oldinda joylashadi. Chap oyoqda takrorlanadi. Fondusning bu kombinatsiyasi birato'la o'ng va chap oyoqlarda ijro etiladi.

⁶⁷Flic-flac avval alohida, uskuna oldida, mashqning oxirida esa battements tendus jetés va boshqa mashqlar bilan birgalikda o'rganiladi.

5. *Battements frappés. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

Yettita yonlama frappés bajariladi, har biri 1\8lik; oldinga, yonga, orqaga va yonga to'rtta doubles frappés qilinadi, har biri 1\4lik. Takrorlanadi.

6. *Ronds de jambe en l'air. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

To'rtta ronds de jambe en l'air en dehors qilinadi, har biri 1\4lik; uchinchi va to'rtinchi rond de jambe esa plié-relevé bilan tayanch oyoqda ijro etiladi. Takrorlanadi. O'nta petits battements sur le cou-de-pied qilinadi, har biri 1\8lik; 1\4da – V pozitsiyada demi-plié, 2\4da - tour sur le cou-de-pied en dehors qilinadi. Tugashi bilan harakatdagi oyoq yonga 45⁰ga yoziladi. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

7. *Plié-relevé bilan battements développés. 4\4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: oldinlama développé qilinadi. Ikkinchi takt: birinchi chorakda –plié, ikkinchi chorakda - yarimbarmoqlarga relevé qilinadi; uchinchi va to'rtinchi choraklarda harakatdagi oyoq dastlabki holatga tushiriladi. Takrorlanadi. Ayni shu tarzda yonga, orqaga va yonga ijro etiladi.

8. *Yarimbarmoqlarda ko'tarilib grands battements jetés. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

Oldinga, yonga, orqaga va yonga ikkitadan grands battements qilinadi, har biri 1\4lik. Ayni shu yo'nalishlarda yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan ikkitadan grands battements, har biri 1\4lik.⁶⁸

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kучук adajio va battements tendus. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: croiséning IV pozitsiyasida grand plié qilinadi. Ikkinchi takt: IV port de bras. Uchinchi takt: o'ng oyoqda - oldinlama développé qilinadi. To'rtinchi takt: birinchi chorakda – plié, ikkinchi chorakda – yarimbarmoqlarga relevé qilinadi; uchinchi va to'rtinchi taktlarda harakatdagi oyoq dastlabki holatga tushiriladi. Beshinchi va oltinchi taktlar: chap oyoqda orqalama développé plié relevé qilinadi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: o'ng oyoqda yonlama développé plié relevé bajariladi. Battements tendus va tours - 4\4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda: birinchi battement tendu - en tournant en dehorsda 1\4 qayrilishda, 3-nuqtaga qarab, ikkinchisi - en faceda 3-nuqtaga qarab bajariladi. Yen tournant en faceda sakkizta tendus ijro etiladi, har biri 1\4lik. Battements

⁶⁸Yarimbarmoqlarga ko'tarilish harakatdagi oyoqni tashlash paytida amalga tayanch oyoqda oshiriladi. Yakunida grand battement har ikki tovonga tushiriladi.

tendus jetés: o'ng oyoqda – 1\8 qayrilishda en tournant en dehors bajariladi, har biri 1\4lik; yettita – chap oyoqda yonga en faceda va yana yettita, har biri 1\8lik. 1 takt: o'ng oyoqda – V pozitsiyadan IV pozitsiyaga préparation; 1 takt: tour sur le cou-de-pied en dehors.

2. *Ronds de jambe par terre. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. Birinchi ronds de jambe par terre en tournant 1\4 qayrilishda, ikkinchisi - en faceda va h.k. Shu usulda sakkizta ronds de jambe ijro etiladi, har biri 1\4lik. Ayni shu narsa en dedansda takrorlanadi. 2 takt - plié en dedans-en dehorsda aylanish, croiséening katta pozasida tortilgan tayanch oyoq uchi polda orqaga tugallanadi. 2 takt - ikkita grands ports de bras, ikkinchi ports de bras IV pozitsiyaga tour en dehors uchun grand préparationda tugallanadi. 2 takt attitude croisée pozasida tours uchun ikkita préparation. 2 takt – chap oyoqda - yarimbarmoqlarga grand ronds de jambe développé en dehors qilinadi.

3. *45ga battements fondus. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

2\4da - yen dehorsning V pozitsiyasidan tour sur le cou-de-pied, 2\4da - oldinlama fondu qilinadi; tour takrorlanadi va yonlama fondu bajariladi. Oldinlama va yonlama double fondu qilinadi, har biri 2\4lik; yettita yonlama frappés qilinadi, har biri 1\8lik. Barchasi tour en dedans bilan teskari yo'nalishda takrorlanadi. Yakunida to'rtta doubles frappés bajariladi, har biri 1\4lik.

4. *Rond de jambe en l'air. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

To'rtta rond de jambe en l'air en dehors qilinadi, har biri 1\4lik, uchta va yana uchta, har biri 1\8lik. 1 takt: yonlama développé qilinadi; 2 takt: 90⁰ga passé bilan lent en dehors qayrilishi; 1 takt: qayrilish yakunida – yarimbarmoqlarda oldinlama développé croisée. En dedans alohida ijro etiladi, lent en dedans qayrilishi attitude croiséeda yarimbarmoqlarda tugatiladi.

5. *Effacée, en tournantda pas de bourrée balotté. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda préparation, chap oyoq uchi orqalama croiséega cho'zilgan. Taktdan so'ng 2\8da – o'ng oyoqda plié, chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedga bukilgan. 2\4da - pas de bourrée balotté oldinga 4-nuqtaga qayrilish bilan effacéeda; 2\4da - effacée pas de bourrée balotté orqalama effacéeda, 4-nuqtaga qaragan holda. keyingi pas de bourrée balottélar xuddi shu tarzda 6-, 8- va 2-nuqtalarga qilinadi.

6. *Tours lents à la seconde. Yarimqayrilish bo'yicha dastlabki o'rganish. Musiqiy o'lcham 2\4.*

Birinchi takt: o'ng oyoqda – yonlama développé qilinadi. Ikkinchi va uchinchi taktlar: har bir chorakda 2-B 3-B 4- va 5-nuqtalarga qayrilib tour lent à la seconde en dehors ijro etiladi.⁶⁹ To'rtinchi takt: harakatdagi oyoq dastlabki holatga tushiriladi. Beshinchi takt: yonlama développé qilinadi. Oltinchi va yettinchi taktlar: har bir chorakda 6-, 7-, 8- va 1-nuqtalarga qayrilib tour lent en dehors à la seconde ijro etiladi. Sakkizinchi takt: harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga tushiriladi.⁷⁰

7. *II pozitsiyadan tour à la seconde uchun préparation. Musiqiy o'lcham 4\4.*

En dehors. V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Taktdan so'ng - demi-plié. Birinchi takt: birinchi chorakda V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda chiqiladi, qo'llar I pozitsiyada; ikkinchi chorakda holat saqlanadi; uchinchi chorakda - o'ng oyoqda yonlama grand battement qilinadi, qo'llar II pozitsiyaga yoziladi; to'rtinchi chorakda holat saqlanadi. Ikkinchi takt: nimchorakda – II pozitsiyada demi-plié. O'ng qo'l I pozitsiyaga bukiladi, chapi esa II pozitsiyada qoladi; birinchi chorakda chap oyoqda barmoqlarga chiqiladi, o'ng oyoq grand battement usulida ko'tariladi, qo'llar II pozitsiyada; ikkinchi va uchinchi chorakda holat saqlanadi; to'rtinchi chorakda V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu tarzda en dedansda ijro etiladi.

ALLEGRO

1. *2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqdan boshlab, oyoqlarni almashtirib yonga to'rtta glissades; o'ng oyoqda oldinga bitta glissades croisée; chap oyoqda orqaga bitta glissades croisée, har biri 1\4lik; 2\4da – oyoqlarni almashtirib échappée battu qilinadi. O'ng va chap oyoqlarda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.

2. *2\4 o'lchamda 8 takt.*

Oyoqlarni oldinga almashtirib to'rtta yonlama assemblé qilinadi, har biri 1\4lik; 1\4da – oldinga qisqa coupé va 1\4da – yonga siljish bilan, oyoqni

⁶⁹à la seconde termini "ikkinchiga", "ikkinchi bo'yicha" ma'nolarini ifodalaydi, u tours lents va II pozitsiyadan 90°ga tourslarda, erkakcha piruetlarda, ya'ni harakatdagi oyoq yonga 90°ga ko'tarilganda qo'llanadi. à la seconde termini battements développés, yonga grands battements jetéslarda deyarli qo'llanmaydi.

⁷⁰Attitude croisée pozasida tours lents en dehors va oldinlama croisée pozasida en dedans xuddi shu tarzda o'rganiladi. O'zlashishiga qarab to'liq qayrilishlar qilinadi, dastlab 4\4 bo'yicha 2 taktda yoki 4\4 bo'yicha 8 taktda, keyin 4\4 bo'yicha 1 taktda. Qolgan pozalarda tours lents biroz kechroq o'rganiladi.

oldinga tashlab assemblé qilinadi; 1\4da tizzalar tortiladi; 1\4da – boshqa oyoqda qaytarish uchun demi-plié qilinadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. 2\4 o'lchamda 8 takt.

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. 1\4da –o'ng oyoqda yonga siljish bilan jeté, yakunida chap oyoq oldinlama sur le cou-de-pied; 1\4da - temps levé qilinadi; oldinlama croiséda siljish bilan jeté qilinadi, oldinlama coupé-jeté, coupé-jeté, coupé-jeté croisée - orqalama assemblé croisée, har bir sakrash 1\4 da; 1\4da – royale, boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

4. 2\4 o'lchamda 16 takt.

Oyoqlarni almashtirib uchta échappés battus qilinadi, har biri 2\4lik: ikkita entrechat-quatre, har biri 1\4lik. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.

5. *Murakkab échappé battu.*⁷¹ Musiqiy o'lcham 4\4.

Birinci va ikkinchi chorakda murakkab échappé battu bajariladi, uchinchi chorakda tizzalar tortiladi, to'rtinchi chorakda – keyingi sakrash uchun demi-plié qilinadi. To'rtidan sakkizga qadar takrorlanadi. O'zlashishiga qarab har bir échappé 2\4da to'xtalishsiz ijro etiladi.

6. 4\4 o'lchamda 4 takt.

To'rtta grands changements de pieds, har biri 1\4lik; uchta petits changements de pieds, har biri 1\8lik. to'rt marta takrorlanadi.⁷²

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING BIRINCHI MISOLI

1. 2\4 o'lchamda 16 takt.

Oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga sakkizta échappée qilinadi, har biri 2\4lik; orqaga siljish bilan II pozitsiyaga sakkizta échappée qilinadi. Orqaga siljish II pozitsiyaga barmoqlarda sakrash paytida amalga oshadi, yakunida V pozitsiyaga demi-pliéda échappée siljimasdan qilinadi. Sakkiz échappées bir joyda va sakkiztasi oldinga siljish bilan qaytariladi.

2. 2\4 o'lchamda 8 takt.

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. 2\4da - croisée pozasida oldinga siljish bilan bitta sus-sous, ikkita sus-sous qilinadi, har biri 1\4lik. 2\4da – croisée pozasida orqaga siljish bilan bitta sus-sous qilinadi, har biri 1\4lik.

⁷¹Murakkab échappé battuda birinchi sakrashda (qadam) tashlash V pozitsiyadan II pozitsiyaga va ikkinchi sakrashda II pozitsiyadan V pozitsiyaga bo'ladi.

⁷²Har bir saboq gavdani egish bilan port de brasda tugallanadi.

Yeffacéening IV pozitsiyasiga $1\frac{1}{4}$ qayrilishda to'rtta échappés en tournant qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik. Birinchi qayrilish o'n tomonga 4-nuqtaga, ikkinchisi 6-nuqtaga, keyingilari 8-va 2-nuqtalarga. Oxirgi échappé V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan.

3. *II pozitsiyaga coupé ballonné. $3\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt (mayin vals).*

O'ng oyoqda preparation, chap oyoq orqalama croiséega cho'ziladi, oyoq uchi polda. Taktdan so'ng - demi-plié, chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedga bukiladi. Birinchi takt: coupé qilinadi va chap oyoqda barmoqlarga turiladi, cho'zilgan o'ng oyoq yonga 45^0 ga yoziladi. Ikkinchi takt: chap oyoqda plié, o'ng oyoq orqalama sur le cou-de-piedga bukiladi. O'ng oyoqda coupé va chap oyoqda ballonné qaytariladi. Shu tarzda sakkizta ballonnés ijro etiladi. Ballonnés teskari yo'nalishda takrorlanadi, bunga qadar préparation croiséeda oldingga turiladi.

4. *Effacéeda pas de bourrée balotté, en tournant.*

Zal o'rtasidagi mashqlarning beshinchi misolidagi tarzda ijro etiladi.

5. *$2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.*

4 taktda: to'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga pas de bourrée suivi (o'ng oyoqdan boshlanadi), V pozitsiyaga demi-pliéda tugallanadi, chap oyoq oldinda. 2 taktda: to'rtta changements de pieds, har biri $1\frac{1}{4}$ lik, oxirgi changements de piedsda barmoqlardan har ikki tovonga tushiladi. 2 taktda: croiséening kichik pozasida oldinga siljish bilan chap oyoqda ikkita jetés qilinadi. 8 taktda: kombinatsiya chap oyoqda takrorlanadi.

SABOQNING IKKINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. *$4\frac{1}{4}$ o'lchamda 12 takt.*

I, II, IV va V pozitsiyalarga ikkitadan grands pliés qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. Gavdani egish bilan ikkita port de bras, har biri $4\frac{1}{4}$ lik. V pozitsiyaga yarimbarmoqlarga to'rtta relevés qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik.

2. *Battements tendus. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 32 takt.*

Oldinga, yonga, orqaga va yonga to'rttadan demi-pliéda battements tendus qilinadi, to'rttadan demi-pliésiz barcha yo'nalishlarda bajariladi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. Battements tendus jetés: uchta oldinga, har biri $1\frac{1}{8}$ lik, $2\frac{1}{4}$ da – to'xtalishlarsiz orqaga flic-flac en dedans en face; orqaga uchta battements tendus jetés va to'xtalishlarsiz oldinga flic-flac en dehors en face; yonga uchta flic-flac en dehors; yonga uchta flic-flac en dedans qilinadi. I pozitsiyaga o'ttiz ikkita battements tendus jetés qilinadi, har biri $1\frac{1}{8}$ lik.

3. *Ronds de jambe par terre* va *ronds de jambe en l'air*. 4\4 o'lchamda 12 takt.

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. To'rtta ronds de jambe par terre qilinadi, har biri 1\4lik; yettita - har biri 1\8lik; to'rtta ronds de jambe en l'air, har biri 1\4lik, yettita - 1\8lik. Oxirgi ronds de jambe en l'airni effacéening kichik pozasida oyoq uchi polda oldinga pliédá tugatish lozim. Barchasi en dedansda takrorlanadi. 2 taktda - plié en dedans-en dehorsda aylanish, yakunida - yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, harakatdagi oyoq 450ga orqaga ko'tariladi; 1 taktda-uskunadan tayanch oyoqda yarim qayrilish, harakatdagi oyoq oldinga yarimqayrilish yakunida va yarimqayrilish teskari bo'ladi, oyoq yakuniga orqadan; 1 taktda-V pozitsiyaga plié va uskunadan yarimbarmoqlarga yarimqayrilish.

4. *Oyoq uchi polda battements soutenus*. 2\4 o'lchamda 16 takt.

Oldinga soutenus, en tournant en dehorsda yonlama soutenus va ikkita yonga, har biri 2\4lik. Soutenus teskari tartibda takrorlanadi. Frappés: uchta oldinga, uchta yonga, har biri 1\8lik; 2\4da - V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors va 2\4da - yonlama fondu qilinadi. Frappés va tour teskari tartibda takrorlanadi.

5. *Petits battements sur le cou-de-pied*. 4\4 o'lchamda 8 takt.

To'rtta oldinlama petits battements qilinadi, har biri 1\4lik, har bir battement yakunida tayanch oyoqda plié qilinadi (battement paytida yarimbarmoqlarga ko'tariladi). Yettita petits battements, har biri 1\8lik; oxirgi battement tayanch oyoqda pliédá. Barchasi takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

6. *Développé balotté*. 4\4 o'lchamda 4 takt.

Birinchi takt: o'ng oyoqda - oldinlama développé balotté qilinadi. Ikkinchi takt: chap oyoqda - orqalama développé balotté bajariladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlarda kombinatsiya takrorlanadi. Teskari yo'nalishda: o'ng oyoq orqaga, chap oyoq oldinga bajariladi.⁷³

7. *Yarimbarmoqlarga grands battements jetés*. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Dastlabki ikki akkordda V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda turiladi. To'rttadan grands battements oldinga, yonga, orqaga va yonga qilinadi, har biri 1\4lik, oxirgi battementda yarimbarmoqlardan ikkala tovonga tushiladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Кучук адажо va battements tendus*. 4\4 o'lchamda 8 takt.

⁷³O'zlashishiga qarab développé balotté yaxlit ijro etiladi, 2\4da - oldinga, 2\4da - orqaga.

Birinchi takt: V pozitsiyada grand plié qilinadi (o'ng oyoq oldinda). Ikkinchi takt: o'ng oyoqda - yonlama développé va 90⁰ga attitude croisée pozasiga passé (o'tish). Uchinchi va to'rtinchi taktlar: attitude croisée tour lent en dehors qilinadi. Beshinchi takt: attitude croisée yarimbarmoqlarga relevé qilinib, V pozitsiyada tugallanadi va chap oyoqda oldinlama effacée pozasiga développé qilinadi. Oltinchi takt: effacée pozasidan - 90⁰ga passé bilan lent en dehorsda qayrilish. yettinchi takt: chap oyoq orqalama écartée pozasiga yoziladi va yarimbarmoqlarda relevé qilinadi. Sakkizinchi takt: V pozitsiyada plié va chap tomonga yarimbarmoqlarda to'liq qayrilish.

Battements tendus – 4/4 bo'yicha 8 takt. O'ng oyoqda – o'n oltita yonga, har biri 1/4lik; to'rtinchi, sakkizinchi, o'n ikkinchi va o'n oltinchida battement tendu-demi-plié. Battements tendus jetés: chap oyoqda – croisée pozasida oldinga yettita, o'ng oyoqda - croisée pozasida orqaga yettita va yana o'ng oyoqda yettita va yonga yana yettita, har biri 1/8lik. 4 taktda – chap oyoqda tour sur le cou-de-pied en dehors va II pozitsiyadan tour en dedans bajariladi.

2. *Ronds de jambe par terre. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. To'rtta ronds de jambe par terre en face, 1/4 qayrilishda to'rtta en tournant qilinadi, har biri 1/4lik. Yen dedansda takrorlanadi. 2 taktda - développé attitude croisée, yarimbarmoqlarga relevé qilinib, IV pozitsiyaga tushiriladi va attitude croisée pozasida tour en dehors uchun préparation qilinadi. 2 taktda – chap oyoqda plié en dehorsda aylanish, IV arabesque pozasida oyoq uchi polda tugallanadi va 900ga IV arabesque pozasida relevé qilinadi.

3. *45⁰ga battements fondus. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

2/4da – oldinlama fondus effacée qilinadi, 2/4da - orqalama effacée tour en dehors bilan plié-relevé qilinadi, ikkita yonlama fondus bajariladi, har biri 2/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanib ijro etiladi. Ayni shu narsa teskari tartibda takrorlanadi.

4. *Petits battements sur le cou-de-pied. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Qo'llarni II pozitsiyadan III pozitsiyaga doimiy tarzda ko'targan holda o'n oltita petits battements ijro etiladi; qo'lar II pozitsiyaga yozilib va ularni tayyorgarlik holatiga tushirib o'n to'rtta petits battements ijro etiladi, har biri 1/8lik; 1/4da IV pozitsiyada tours en dehors uchun préparation; 4/4da – o'ng tomonga tour sur le cou-de-pied en dehors qilinadi, IV pozitsiyada tugallanadi; 4/4da tour takrorlanadi va V pozitsiyada tugallanadi; 4/4da – chap oyoqda V pozitsiyadan IV pozitsiyaga tours en dedans uchun

preparation qilinadi; 4\4da – o'ng tomonga tour sur le cou-de-pied en dedans bajariladi.

5. *En dehors va en dedans en tournantda oyoqlar almashinuvi bilan pas de bourrée. Musiqiy o'lcham 2\4.*

En tournantda oyoqlar almashinuvi bilan pas de bourrée ni o'rganishda butun pas de bourrée en faceni bajarish tavsiya qilinadi, boshqasi - en tournantda va sh.k.da bo'ladi, sakkizdan kam bo'lmagan pas de bourrée en dehors va sakkizta en dedans qilinadi. Har biri 2\4da ijro etiladi.

6. *Katta adajio. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: V pozitsiyaga grand plié qilinadi (o'ng oyoq oldinda), oxirgi nimchorakda – yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. Ikkinchi takt: o'ng oyoqda dégagé oldinga effacée, oyoq uchi polda pliéd, gavda o'ng oyoq uchiga egiladi, qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi va effacée pozasiga 90°ga oldinlama relevé qilinadi. Uchinchi takt: effacée pozasidan - en dedansda I arabesqueda 6-nuqtaga qayrilish. To'rtinchi takt: arabesqueda yarimbarmoqlarga relevé qilinib, harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi va chap oyoqda 6-nuqtaga oldinlama effacée pozasiga développé qilinadi. Beshinchi takt: effacée pozasidan - I arabesqueda 2-nuqtaga en dedansda qayrilish. Oltinchi takt: arabesqueda yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, harakatdagi oyoq V pozitsiyaga oldinga tushiriladi va o'ng oyoqda – chap tomonga soutenu en tournant en dedans qilinadi. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: chap oyoqda - II pozitsiyadan tour en dedans uchun préparation à la seconde bajariladi.

ALLEGRO

1. *2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng va chap oyoqda doubles assemblés bajariladi, har biri 2\4lik, oyoqlarni almashtirib ikkita échappés battus qilinadi, har biri 2\4lik. Barchasi takrorlanadi va teskari yo'nalishda ijro etiladi.

2. *4\4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng va chap oyoqda yonga ikkita sissones fermées bajariladi, har biri 1\4lik; o'ng, chap va o'ng oyoqda uchta yonlama sissones fermées qilinadi, har biri 1\8lik. (V pozitsiyada joylashgan oyoq oldinda, har gal orqaga o'tadi). Chap oyoqda - en tournantda oldinga 1\4 qayrilishda 7-nuqtaga pas de basque qilinadi; en tournantda oldinga 1\4 qayrilishda 1-nuqtaga pas de basque qilinadi. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. *2\4 o'lchamda 8 takt.*

Oldinga ikkita ballonnés effacée qilinadi, har biri 1\4lik; ikkita – 1\8lik; 1\4da - yonlama assemblé qilinadi. O'ng va chap oyoqda yonga siljib oldinga qisqacha coupé va assemblé qilinadi, har biri 2\4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

4. *Pas amboité. Musiqiy o'lcham 2\4.*

Bir joyda turib sakrash bilan sakkizta orqalama amboité qilinadi. Bir necha saboqdan keyin sakkizta amboité bir joyda turib va sakkizta to'g'ri chiziqli bo'yicha siljish bilan oldinga bajariladi. Ayni shu tarzda orqaga ham o'rganiladi.

5. *Yonga grande sissone ouverte. Musiqiy o'lcham 4\4.*

a) Birinchi chorakda - demi-plié, birinchi va ikkinchi chorak orasida - sissone ouverte; ikkinchi chorakda – tayanch oyoqda demi-pliéda sakrashning tugallanishi, harakatdagi oyoq yonga 90^oga yoziladi; uchinchi va to'rtinchi chorakda harakatdagi oyoq V pozitsiyaning dastlabki holatiga qo'yiladi, ayni paytda tayanch oyoq tizzaga tortiladi. To'rtidan sakkizga qadar qaytariladi.

b) Birinchi chorakda - demi-plié, birinchi va ikkinchi chorak orasida – sakrash; ikkinchi chorakda – tayanch oyoqda demi-pliéda sakrashning tugallanishi, harakatdagi oyoq yonga 90^oga, ikkinchi va uchinchi chorak orasida assemblé sakrashi; uchinchi chorakda V pozitsiyaga assemblé sakrashning demi-pliéda tugallanishi; to'rtinchi chorakda tizzalar tortiladi.⁷⁴

6. *4\4 o'lchamda 8 takt.*

To'rtta échappés battus, to'rtta murakkab échappés battus qilinadi. o'g'il bolalar sinfida hammasi takrorlanadi.

7. *O'g'il bolalar sinfi uchun tours en l'air. 4\4 o'lchamda 4 takt.*

Taktdan so'ng – V pozitsiyaga yarimbarmoqlarga demi-plié va relevé qilinadi; birinchi chorakda - demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida - tour en l'air; ikkinchi chorak demi-pliédagidagi tourda tugallanadi; uchinchi va to'rtinchi choraklarda - uchta petits changements de piyeds qilinadi, har biri 1\8lik. to'rt marta takrorlanadi.

8. *2\4 o'lchamda 8 takt.*

Uchta petits changements de piyeds va yana uchta en face, yettita en tournant qilinadi, har biri 1\8lik. Takrorlanadi. Shangements de piyeds en

⁷⁴Attitude croisée va oldinga croisée pozalariga grande sissone ouverte qilish shu tarzda o'rganiladi. Birmuncha keyinroq esa – qolgan barcha pozalarda ham shunday o'rganiladi. Yarim yillik oxiriga borib grande sissone ouverte 1\4da va yakunlovchi assemblé ham 1\4da qilinadi.

tournant paytida qo'llar tayyorgarlik holatidan III pozitsiyaga ko'tariladi, doimiy tarzda yozilib, dastlabki holatga tushiriladi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING IKKINCHI MISOLI

1. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Sakkiz relevés I pozitsiyaga, sakkizta II pozitsiyaga qilinadi, har biri 1\4lik.

2. 4\4 o'lchamda 8 takt.

2\4da – oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga échappé; oyoqlarni almashtirib ikkita échappés, har biri 1\4lik. Takrorlanadi. Oyoqlarni almashtirib orqalama sissone simple qilinadi, 2\4da oyoqlarni almashtirib ikkita orqalama sissones simples, har biri 1\4lik. Sissones yana bir marta takrorlanadi. Ayni shu tarzda teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. 2\4 o'lchamda 8 takt.

II pozitsiyaga to'rtta coupés-ballonnés qilinadi, orqalama sur le cou-de-piedda tugallanadi, har biri 2\4lik; en dehorsda oyoqlarni almashtirib uchta pas de bourrée qilinadi: en face, en tournant va en face, har biri 2\4lik; 2\4da – V pozitsiyaga relevé qilinadi, coupé va 4 taktda kombinatsiya boshqa oyoqda qaytariladi. Ayni shu tarzda teskari yo'nalishda ijro etiladi.

4. 2\4 o'lchamda 16 takt.

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga siljish bilan o'ng oyoqda to'rtta jetés qilinadi (jeté qadar⁷⁵ yonga qilinadi, gavda o'ng yelka bilan 2-nuqtaga, chapi 6-nuqtaga), har biri 2\4lik; 4 taktda – kichik doira bo'yicha o'ngga pas de bourré suivi bajariladi. Diagonal bo'yicha 2-nuqtadan 6-nuqtaga siljish bilan chap oyoqda to'rtta jetés qilinadi, har biri 2\4lik; 4 taktda – kichik doira bo'yicha chapga pas de bourré suivi qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi va oxirgi chorakda chap oyoqda barmoqlarga chiqiladi, o'ng oyoq orqalama sur le cou-de-piedda, croiséning kichik pozasiga.

5. 45⁰ga sissone ouverte. Musiqiy o'lchov 4\4.

Yonga: birinchi chorakda - demi-plié; ikkinchi chorakda bir oyoqda barmoqlarga dik etib turish, boshqasi yonga 45⁰ga yoziladi; uchinchi chorakda V pozitsiyaga demi-pliédá tushiriladi; to'rtinchi chorakda tizzalar tortiladi. O'ng va chap oyoqda navbati bilan sakkiz marta takrorlanadi. Ayni shu tarzda teskari yo'nalishda ijro etiladi.⁷⁵

⁷⁵Sissones ouvertes dastlab uskunaga qarab yonga o'rganiladi (ikki, uch saboq), keyin zal o'rtasida yonga, croisée, effacée va écarténing kichik pozalarida oldinga va orqaga o'rgatiladi. O'zlashishiga qarab har biri 2\4da ijro etiladi.

6. *Katta pozalarda jetés. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 4 takt yoki $3\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt (sokin vals).*

Taktdan so'ng – chap oyoqda plié va o'ng oyoqda dégagé, oldinga 45^0 ga croisée qilinadi. Birinchi chorakda yuqoridan (katta qadam bilan) attitude croisée o'ng oyoqqa turiladi; ikkinchi chorakda poza saqlanib o'ng oyoqda pliéda tushiriladi: uchinchi va to'rtinchi choraklarda - en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi. o'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.⁷⁶

SABOQNING UCHINCHI MISOLI USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. *$4\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.*

I, II, IV va V pozitsiyalarda ikkita dan grands pliés qilinadi, har biri $4\frac{1}{4}$ lik.

2. *Battements tendus. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 24 takt.*

O'ng oyoqda oldinga ikkita battements tendus, chap oyoqda ikkita orqaga, har biri $1\frac{1}{4}$ lik. Barchasi takrorlanadi. O'ng oyoqda to'rtta battements tendus doubles qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik. Orqaga o'ng oyoqda boshlanib teskari tartibda takrorlanadi. Battements tendus jetés: yettitadan oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri $1\frac{1}{8}$ lik.

3. *Ronds de jambe par terre. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. To'rtta ronds de jambe par terre, har biri $1\frac{1}{4}$ lik; yettita – $1\frac{1}{8}$ lik, oldinga oyoq uchi polda tugallanadi. Oldinga to'rtta piqués qilinadi, har biri $1\frac{1}{6}$ lik; $1\frac{1}{4}$ da harakatdagi oyoq uchi polda yonga o'tkaziladi; to'rtta yonlama piqués qilinadi, har biri $1\frac{1}{6}$ lik, $1\frac{1}{4}$ da oyoq uchi polda orqaga o'tkaziladi; yettita ronds de jambe par terre en dehors qilinadi, har biri $1\frac{1}{8}$ lik. Barchasi en dedansda takrorlanadi. 2 taktda - en dedans-en dehors pliéda aylanish; 2 taktda – gavdani egib va pliéga cho'zilib port de bras bajariladi.

4. *Battements fondus. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.*

Bitta fondus 45^0 ga, bittasi 90^0 ga – oldinga, yonga, orqaga va yonga bajariladi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik. Frappés: uchta yonga qilinadi, har biri $1\frac{1}{8}$ lik, to'rt marta takrorlanadi, sakkizta doubles frappés qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik.

5. *Ronds de jambe en l'air. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.*

⁷⁶III arabesquening katta pozasida jetés shu tarzda ijro etiladi. I, II arabesque va attitude effacée dégagé dagi jetéslar yeffacéda qilinadi. Oldingisining o'zlashtirishiga qarab jetéslar croisée va oldinlama effacéning katta pozalarida o'rganiladi.

Dastlabki ikki akkordda - préparation temps relevé en dehors. Sakkizta ronds de jambe en l'air, har biri $1\frac{1}{4}$ lik, yettita - $1\frac{1}{8}$ lik; $2\frac{1}{4}$ da - 45^0 ga oldinga demi-rond; $1\frac{1}{4}$ da - uskunaga qarab yarimbarmoqlarga tayanch chap oyoqda yarimqayrilish, qayrilish yakunida harakatdagi oyoq orqadan; $1\frac{1}{4}$ da - 45^0 ga yonga chap oyoqni yozib coupé qilinadi. kombinatsiya chap oyoqda takrorlanadi, keyin to'xtab turmasdan o'ng va chap oyoqda en dedans ijro etiladi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied.* $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

O'n oltita oldinlama petits battements, o'n ikkita orqaga qilinadi, har biri $1\frac{1}{8}$ lik; $1\frac{1}{4}$ da - attitude effacée pozasiga tezkor développé qilinadi; $1\frac{1}{4}$ da holat saqlanadi.

7. *Battements développés.* $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

Birinchi takt: yonlama développé va oldinlama demi-rond en dedans qilinadi. ikkinchi takt: uskunaga qarab bor tovonda sekin yarimqayrilish. Qayrilish yakunida harakatdagi oyoq orqadan 90^0 ga. Uchinchi takt: yarimbarmoqlarga relevé, V pozitsiyaga plié va uskunaga qarab yarimbarmoqlarda yarimqayrilish. To'rtinchi takt: écartée pozasiga orqaga yarimbarmoqlarda développé qilinib, V pozitsiyaga tugallanadi, harakatdagi oyoq orqadan. Beshinchi takt: yonlama développé va orqalama demi-rond en dehors. Oltinchi takt: uskunadan butun tovonda sekin yarimqayrilish. Qayrilish yakunida harakatdagi oyoq oldinga 90^0 ga. Yettinchi takt: yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, V pozitsiyaga plié va uskunadan yarimbarmoqlarga yarimqayrilish. Sakkizinchi takt: oldinga écartée pozasiga yarimbarmoqlarda développé qilinadi.

8. *Yumshoq grands battementslar.* $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

$1\frac{1}{4}$ da - yumshoq grand battement qilinadi, $1\frac{1}{4}$ da - V pozitsiyada pauza. Ikki martadan oldinga, yonga, orqaga va yonga ijro etiladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adajjo va battements tendus.* $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

Birinchi takt: I pozitsiyada grand plié qilinadi. Ikkinchi takt: chap oyoqda - yonlama développé va oldinlama croisée pozasiga demi-rond en dedans qilinadi. Uchinchi takt: oldinlama croisée pozasida tour lent en dedans bajariladi. To'rtinchi takt: oldinlama croisée pozasida yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, yakunida harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi va o'ng oyoqda yonlama développé qilinadi. Beshinchi takt: tour lent en dedans á la seconde bajariladi. Oltinchi takt: tayanch oyoqda plié, harakatdagi oyoq 90^0 ga holatni saqlaydi va pas de bourrée dessus en

tournant qilinadi. yettinchi va sakkizinchi taktlar: plié en dehorsda aylanish (rond de jambe par terre), IV arabesque pozasi bilan oyoq uchi polda pliédá tugallanadi va yarimbarmoqlarga ko'tarilish bilan 900ga relevé qilinadi.

Battelements tendus va tours – 4\4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda - sakkizta battements tendus en tournant en dehors 1\4 qayrilishda oldinlama effacéening katta pozasida qilinadi. Birinchi battement 4-nuqtaga qayrilish bilan, ikkinchisi - 4-nuqtaga en faceda bajariladi. Keyingi ikki battements tendusni ham 6-nuqtaga, keyin 8- va 2-nuqtalarga qarab qilish kerak, har biri 1\4lik. Chap oyoqda ham orqalama effacéening katta pozasida 4-, 6-, 8- va 2-nuqtalarga qayrilish bilan battements tendus en tournant en dedans bajariladi. Oxirgi battement V pozitsiyaga, chap oyoq oldinda tugallanadi. Battements tendus jetés: o'ng oyoqda – o'n beshta yonga qilinadi, har biri 1\8lik. 2 taktda - II pozitsiyadan tours sur le cou-de-pied en dehors bajariladi.

2. *Battelements soutenus.* 2\4 o'lchamda 8 takt yoki 3\4 o'lchamda 16 takt (vals).

O'ng oyoqda – croiséening kichik pozasida oyoq uchi polda oldinlama soutenus qilinadi, chap oyoqda – croiséening kichik pozasida orqalama soutenus qilinadi, o'ng oyoqda - en tournant en dehorsda yonlama soutenus, chap oyoqda - en tournant en dedansda yonga; o'ng oyoqda – oldinlama croiséening katta pozasida 90⁰ga soutenus qilinadi, chap oyoqda - III arabesque pozasida; o'ng oyoqda - yonga 90⁰ga ikkita soutenus qilinadi, hari 2\4lik.

3. *Ronds de jambe en l'air.* 4\4 o'lchamda 8 takt.

4\4da - V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors qilinadi, yakunida harakatdagi oyoq 45⁰ga yonga yoziladi. Ikkita ronds de jambe en l'air en dehors qilinadi, har biri 1\4lik, uchta – 1\8lik. Yana ikki marta takrorlanadi. II pozitsiyadan tour á la seconde en dehors uchun o'ng va chap oyoqda préparation qilinadi, har biri 2 taktda.

4. *Pas couru va petits battements sur le cou-de-pied.* 4\4 o'lchamda 4 takt.

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Taktdan so'ng 4\16da – diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga qarab to'rtta pas couru qilinadi, o'ng oyoqdan boshlanadi. Effacéening kichik pozasida pliédá chap oyoqda tugallanadi, o'ng oyoq uchi polda; ikkinchi chorakda – o'ng oyoqda yarimbarmoqlarda qadam tashlanadi, chap oyoqda petit battement qilinib, oldinlama croiséening kichik pozasida pliéga tushiriladi, chap oyoq uchi

polda. (yarimbarmoqlarga qadam nimchorakda qilinadi, pliéga croiséening pozasi ikkinchi nimchorakda qilinadi). So'ngra ayni shunday qadam chap oyoqda petit battement bilan qilinadi va oldinlama effacéning kichik pozasida pliéga tushiriladi. Qadam tashlashdan chap oyoqda yarimbarmoqlarga o'tiladi va o'ng oyoqda o'n to'rtta petits battements bajariladi, har biri 1\8lik; 1\4da o'ng oyoq orqaga IV pozitsiyaga qo'yiladi - en dehors uchun préparation - 4\4da - tour sur le cou-de-pied en dehors, IV pozitsiyada yakunlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda takrorlanadi.

5. *Grands battements jetés. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqda croisée pozasida oldinga oltita grands battements qilinadi, har biri 1\4lik; oltinchisida-demi-plié va 2\4da-V pozitsiyada yarimbarmoqlarda to'liq qayrilish. O'ng oyoqda IV arabesque pozasida oltita grands battements, demi-plié va yarimbarmoqlarda to'liq qayrilish; to'rtta yonlama grands battements o'ng oyoqda va to'rtta chap oyoqda. To'g'ri chiziq bo'yicha o'ngga - uch marta tour glissade en tournant, har biri 2\4lik; 2\4da - o'ng oyoqda qadam tashlanib, attitude effacée pozasida turiladi, qo'llar allongé holatiga boradi.

6. *Kamma adajio. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Birinchi takt: V pozitsiyaga grand plié qilinadi (o'ng oyoq oldinda). Ikkinchi takt: chap oyoqda yonga 90^oga relevé qilinadi (qo'llar - III pozitsiyada) va I arabesqueda qayrilish. uchinchi va to'rtinchi taktlar: I arabesque pozasida tour lent en dedans. Beshinchi va oltinchi taktlar: arabesqueda plié en dehors, en face va en tournantda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi, IV pozitsiyaga tugallanadi - tour en dedans uchun grand préparation. O'ng oyoq oldinda. Yettinchi takt: I arabesqueda préparation, yakunida - I pozitsiya bo'yicha oldinga IV pozitsiyaga passé - tour en dedans uchun préparation, chap oyoq oldinda. Sakkizinchi takt: attitude effacéda préparation, oxirgi chorakda - attitude pozasida plié qilinadi. To'qqizinchi takt: en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi va o'ng oyoqda orqalama croiséening katta pozasiga oyoq uchi polda oldinga qadam tashlanadi. O'ninchi takt: grand port de bras bajariladi. O'n birinchi takt: IV pozitsiyaga tugallanishi bilan tour en dedans uchun préparationga o'tiladi. O'n ikkinchi takt: préparation à la seconde en dedans qilinadi.

ALLEGRO

1. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

Uchta yonlama assemblés, o'ng, chap va o'ng oyoqlarda entrechat-
quatre. To'rt marta takrorlanadi va teskari yo'nalishda ijro etiladi. Har bir
sakrash $1\frac{1}{4}$ da ijro etiladi.

2. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda – effacéning kichik pozasida oldinlama sissone ouverte
qilinadi, temps levé, demi-rond bilan yonga bajariladi, assemblé qilinadi.
chap oyoqda takrorlanadi. O'ng oyoqda – yonga sissone ouverte qilinadi,
temps levé pas de bourrée dessous en tournant, échappé II pozitsiyaga
oyoqlarni almashtirib bajariladi va V pozitsiyaga oldinga sijish bilan ikkita
sautés qilinadi. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Har bir sakrash $1\frac{1}{4}$ da qilinadi,
pas de bourrée va échappé $2\frac{1}{4}$ da bajariladi. Ayni shu narsa teskari
yo'nalishda ijro etiladi.

3. Pas chassée. $4\frac{1}{4}$ o'lchamda 4 takt yoki $3\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt (vals).

O'ng oyoqda – oldinga sissone tombé croisée qilinadi, o'ng qo'l II
pozitsiyada, chap qo'l III pozitsiyada; oldinga siljish bilan katta
sakrashlarda ikkita chassées va o'sha yo'nalishda oyoq uchi poldan
ajralmasdan sirpanuvchan sakrash qilinadi, har $1\frac{1}{4}$ lik yoki har biri 1 takt
valsda. Chap oyoqda – orqalama sissone tombé croisée, ikkita chassée va
orqaga siljish bilan sirpanuvchan sakrash qilinadi. Ayni shu narsa oldinlama
effacéning katta pozasida o'ng oyoqda 2-nuqtaga qarab va chap oyoqda
orqalama effacéning katta pozasida 6-nuqtaga qilinadi.

4. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Diagonal bo'yicha 2-nuqtaga oldinga
siljish bilan yettita emboités qilinadi, har biri $1\frac{1}{4}$ lik, $1\frac{1}{4}$ da – oldinlama
assemblé qilinadi. Diagonal bo'yicha 6-nuqtaga orqaga siljish bilan yettita
emboités qilinadi, orqalama assemblé bajariladi.

5. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 8 takt.

$1\frac{1}{4}$ da – oldinlama croisée pozasida grande sissone ouverte qilinadi,
 $1\frac{1}{4}$ da - assemblé, $1\frac{1}{4}$ da – yonlama grande sissone ouverte, $1\frac{1}{4}$ da –
assemblé; II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib ikkita grands échappés
qilinadi, har biri $2\frac{1}{4}$ lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari
yo'nalishda ijro etiladi.

6. $2\frac{1}{4}$ o'lchamda 16 takt.

Bir oyoqda tugallanadigan échappé battu bajariladi, boshqasi orqalama sur le cou-de-piedda bo'ladi; temps levé va orqalama assemblée croisée qilinadi. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta va teskari yo'nalishda to'rt marta takrorlanadi. Har bir sakrash 1\4da ijro etiladi.

7. *O'g'il bolalar sinfi uchun tours en l'air. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

I pozitsiyada katta trampolin sakrashlar bilan yettita temps levé, II pozitsiyada yettita temps levé qilinadi, har biri 1\8lik, oxirgi temps levé V pozitsiyaga tugallanadi; yettita va yana yettita petit changements de pieds qilinadi, har biri 1\8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING UCHINCHI MISOLI

1. *2\4 o'lchamda 16 takt.*

II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib uchta échappés qilinadi, har biri 2\4lik, 2\4da – V pozitsiyaga relevé. Boshqa oyoqda takrorlanadi. II pozitsiyaga to'rtta échappés qilinadi, har biri 2\4lik, sakkizta – 1\4lik.

2. *4\4 o'lchamda 8 takt.*

Bir oyoqda tugallanadigan uchta échappés qilinadi, boshqasi orqalama sur le cou-de-piedda, har biri 4\4lik, uchinchi échappé bir oyoqda pliéd tugallanadi; en dehors en face va en tournantda oyoqlar almashib pas de bourrée qilinadi, har biri 2\4lik. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. *2\4 o'lchamda 16 takt.*

Oldinlama croiséening kichik pozasida 450ga uchta sissone ouverte qilinadi, bitta yonga, hari 2\4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Oldinlama croiséening kichik pozasida bitta sissone ouverte, bitta yonga va oyoqlarni orqaga almashtirib ikkita sissones simples qilinadi, har biri 2\4lik. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

4. *3\4 o'lchamda 16 takt (sokin vals).*

Taktdan so'ng – chap oyoqda plié va o'ng oyoqda dégagé, oldinga 450ga effacéda. Birinchi takt: attitude effacéening katta pozasiga o'ng oyoqda jeté qilinadi. ikkinchi takt: poza saqlanib, o'ng oyoqda pliéga tushiriladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi. Beshinchi, oltinchi, yettinchi va sakkizinchi taktlar: chap oyoq bilan attitude effacée pozasiga jeté takrorlanadi. Keyingi sakkiz takt ham o'ng va chap oyoqda I arabesque pozasiga jetés qilinadi.

5. *Grande sissone ouverte. Musiqiy o'lcham 4\4.*

Yonga: birinchi chorakda - demi-plié; ikkinchi chorakda – yonlama grande sissone ouverte (900da) qilinadi; uchinchi chorakda V pozitsiyaga

demi-pliéga tushiriladi; to'rtinchi chorakda tizzalar cho'ziladi. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta, harakatdagi oyoqni orqaga almashtirib va oyoqni oldinga almashtirib teskari yo'nalishda to'rt marta takrorlanadi.⁷⁷

6. *2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqda to'g'ri chiziqli bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga – to'rtta tours glissades en tournant qilinadi, har biri 2\4lik; oyoqlarni orqaga almashtirib to'rtta sissones simples, har biri 1\4lik; 2\4 da – V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va 2\4da - tour sur le cou-de-pied en dehors. Ayni shu narsa boshqa oyoqda takrorlanadi.

7. *2\4 o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga – barmoqlarda uchta va yana uchta changements de pieds qilinadi, har biri 1\8lik. Oxirgisida ikkala tovonga tushiladi. O'ng tomonga qayrilib yen tournantda barmoqlarda yettita changements de pieds. Boshqa oyoq bilan 8-nuqta yo'nalishiga davom ettiriladi; changements de pieds en tournant chap tomonga ijro etiladi.

SABOQNING TO'RTINCHI MISOLI USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. *4\4 ўlchamda 16 такт.*

Ikkita demi-plié qilinadi, har biri 2\4lik; 4\4 da - bitta grand plié va yarimbarmoqlarda ikkita relevés, I, II, IV va V pozitsiyalarda.

2. *Battements tendus. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'n oltita yonlama battements tendus qilinadi, har biri 1\4lik, shundan ikki martasida harakatdagi oyoq oldinga V pozitsiyaga qo'yiladi, ikki marta orqaga va h.k. O'ttiz ikkita yonlama battements tendus jetés, har biri 1\8lik, bunda V pozitsiyadagi oyoqlar almashinuvi tartibiga amal qilinadi.

3. *Ronds de jambe par terre. 2\4 o'lchamda 24 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. Ikkita ronds de jambe par terre qilinadi, har biri 1\4lik, uchta – 1\8lik. Hammasi qaytariladi va oldinga oyoq uchi polda tugatiladi. 4 taktda: 90⁰ga oldinlama relevé, I pozitsiya bo'yicha oyoq uchida oldinlama grand ronds de jambe en dehors va passé. Ayni shu narsa en dedansda takrorlanadi va orqaga oyoq uchi polda tugallanadi. 4 taktda – pliédaga cho'zilib va gavgani egish bilan port de

⁷⁷Keyingi saboqda ayni shu tarzda oldinlama croisée, attitude croisée, attitude effacée, I va III arabesquening katta pozalarida grandes sissonnes va oldinlama effacée pozasi o'rganiladi. O'zlashishiga qarab grandes sissonnes 2\4 da ijro etiladi.

bras qilinadi. 4 taktda – II arabesque pozasiga 900ga relevé lent va yarimbarmoqlarda plié-relevé qilinadi.

4. *45⁰ga battements fondus. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

2\4da – oldinlama fondu qilinadi; 2\4da – uskunaga qarab yarimqayrilish bilan plié-relevé; 2\4da – uskunaga qarab yana yarimqayrilish bilan plié-relevé; 2\4da – demi-rond bilan yonlama plié-relevé qilinadi. Frappés: yonga beshta, har biri 1\8lik, 3\4da -flic-flac en dehors en face; to'rtta doubles frappés, har biri 1\4lik. O'ng oyoqdan orqaga boshlanib hammasi teskari tartibda takrorlanadi.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

2\4da – V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors, 1\4da pliéda effacéning kichik pozasiga oldinga oyoq uchida tushiriladi, 1\4da – tayanch oyoqda yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, harakatdagi oyoq yonga 450ga yoziladi. To'rtta ronds de jambe en l'air en dehors qilinadi, har biri 1\4lik, uchta va yana uchta 1\8lik, uchinchi ronds de jambe esa oldinlama effacée pozasiga oyoq uchi polda pliéda tugallanadi. 4\4da – oldinlama effacée pozasiga 900ga relevé qilinadi, yakunida harakatdagi oyoq orqadan V pozitsiyaga tushiriladi. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'n to'rtta oldinlama petits battements qilinadi, har biri 1\8lik; oxirgisida demi-plié tayanch oyoqda ijro etiladi va chorak davomida ushbu holatda qolinadi. O'n to'rtta orqalama petits battements va demi-pliéda – gavgani o'zina orqaga egish. O'n to'rttadan petits battements oldinga va orqaga takrorlanadi.

7. *Battements développés. 4\4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: oldinlama développé qilinadi. Ikkinchi takt: demi-rond bilan yarimbarmoqlarga plié-relevé qilinadi; V pozitsiyada tugallanadi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: yonlama développé va oldinlama demi-rond bilan plié-relevé qilinadi; V pozitsiyada tugallanadi. Beshinchi, oltinchi, yettinchi va sakkizinchi taktlar: yarimbarmoqlarda grand ronds de jambe développé en dehors, 900ga passé va yana bir marta grand ronds de jambe en dehors qilinadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda takrorlanadi.

8. *Grands battements jetés. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Oldinga, yonga va orqaga sakkiztadan grands battements qilinadi, har biri 1\4lik; 2 taktda – gavgani egish bilan port de bras bajariladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Кичик адажио. 4\4 ўлчамда 16 такт.*

Birinchi va ikkinchi taktlar: temps lié 90⁰ga oldinga. Uchinchi takt: harakatdagi oyoqni tushirmasdan - tour lent á la seconde en dedans qilinadi. to'rtinchi takt: croisée pozasiga oldinlama demi-rond en dedans, yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, yakunida harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda tour lent á la seconde en dehors bilan va attitude croisée pozasiga demi-rond en dehorsda ijro etiladi.

2. *Battements tendus.* 4\4 o'lchamda 12 takt.

Yonga sakkizta battements tendus qilinadi (o'ng va chap oyoqda navbati bilan bittadan battement), har safar orqaga oyoqlarni almashtirib V pozitsiyaga qilinadi; oyoqlarni almashtirib oldinga sakkizta V pozitsiyaga, ya'ni orqaga va oldingga siljish bilan har biri 1\4lik. Orqaga siljiganda qo'llar tayyorgarlik holatidan II pozitsiyaga ko'tariladi va III pozitsiyada birlashadi, oldinga siljiganda doimiy tarzda II pozitsiyaga yoziladi. Battements tendus jetés: o'ng oyoqda yonga yettita va yana yettita qilinadi, har biri 1\8lik. Ayni shu narsa chap oyoqda takrorlanadi. 2 taktda: o'ng oyoqda – II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors, 2 taktda: chap oyoqda II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors qilinadi.

3. *Ballotté.*⁷⁸ 4\4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda – oldinlama effacéening katta pozasida balotté qilinadi, chap oyoqda orqalama effacéening katta pozasida allongé, har biri 4\4lik. Yana bir marta takrorlanadi. 90⁰ga o'ng va chap oyoqda navbati bilan yonga to'rtta soutenus, har biri 2\4lik, 2 taktda: o'ng oyoqda tour á la seconde en dehors uchun préparation qilinadi.

4. *1\2 tour bo'yicha yonga siljish bilan jetés en tournant. Musiqiy o'lcham 4\4.*

To'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga harakat.

a) Birinchi chorakda – o'ng oyoqda en dedansda yarimqayrilish bilan jeté en tournant bajariladi; ikkinchi chorakda – o'ng oyoqda demi-plié, chap oyoq yonga oyoq uchi polda cho'zilgan; uchinchi chorakda - jeté en tournant chap oyoqda yarimqayrilish bilan en dehorsda oynaga qarab; to'rtinchi chorakda – chap oyoqda demi-plié, o'ng oyoq uchi polda yonga cho'ziladi. Yen dedans. en dehorsda yarimqayrilishlar bilan sakkizta jetés en tournant, ayni shu yo'nalishda en dehors en dehorsdagi qayrilishlar bilan sakkizta ijro etiladi.

⁷⁸Mazkur saboqda balotté 90⁰ga battements fondus kombinatsiyasini almashtiradi. O'zlashishiga qarab har biri 2\4da ijro etiladi.

b) Har biri 2\4lik jetés en tournant ijro etiladi, ammo har bir jeté yakunida 45⁰ga yonga oyoq yoziladi.⁷⁹

5. *Katta adajio. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: II pozitsiyaga II port de bras bilan grand plié qilinadi, yakunida o'ng oyoqda II arabesque pozasiga 90⁰ga turiladi. Ikkinchi takt: gavda ozgina egilib va orqalama écartée pozasiga buriladi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: écartée pozasidan pliédaga chap oyoqda 6-nuqtaga II arabesque pozasiga tombé, oldinlama effacée pozasiga 2-nuqtaga buriladi (tayanch oyoq tizzaga bukiladi), o'ng qo'l III pozitsiyada, chap qo'l I pozitsiyada arabesque holatida bo'ladi; yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. Beshinchi va oltinchi taktlar: chap oyoqda – oldinlama croisée pozasida développé, yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, chap oyoqda pliédaga tombé (o'ng oyoq uchi orqadan polda) va pliégaga cho'zilish bilan va gavadani egib port de bras qilinadi, IV pozitsiyaga tugallanadi - tour en dedans uchun grand préparation bajariladi. Yettinchi takt: oldinlama croisée pozasida tour uchun préparation, oxirgi chorakda IV pozitsiyaga tushiriladi - grand préparation en dehors. Sakkizinchi takt: oldinlama effacée pozasidagi tour uchun préparation qilinadi.

ALLEGRO

1. *4\4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng va chap oyoqda oldinga oyoqlarni almashtirib yonlama assemblé qilinadi, har biri 1\4lik; 2\4da – orqadan V pozitsiyada joylashgan o'ng oyoqda oldinlama sissonne tombée croisée qilinadi (sakrash vaqtida bu oyoq oldinga o'tkaziladi). To'rt marta takrorlanadi va teskari yo'nalishda ijro etiladi.

2. *Assemblé battu (dastlabki o'rganish). Musiqiy o'lcham 4\4.*

Har bir assemblé 1 taktda ijro etiladi.

3. *2\4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng va chap oyoqda yonlama jeté qilinadi, har biri 1\4lik; 2\4da - en tournant en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi; boshqa oyoqda takrorlanadi. 1\4da - yonlama jeté, to'rt marta o'ng va chap

⁷⁹O'zlashishiga qarab jetés en tournant 1\4da qilinadi. 1\2 dagi tour qayrilish taktdan so'ng, tayanch oyoqda demi-pliédaga to'xtalish bo'ladi (harakatdagi oyoq yonga cho'zilgan), ya'ni har bir jeténing tugallanishi – chorakda.

oyoqlarda navbati bilan ikkita temps levé qilinadi, har biri 1\8lik; qisqacha coupé qilinadi va barcha kombinatsiya teskari yo'nalishda ijro etiladi.

4. 4\4 o'lchamda 8 takt.

Bir oyoqda tugallanadigan échappé battu qilinadi, boshqasi - orqalama sur le cou-de-piedda. temps levé, oldinlama croiséda siljish bilan qisqacha coupé va assemblé bajariladi. Ikkita ballonnés croisée oldinga, assemblé yonga, royale. Har bir sakrash 1\4da ijro etiladi. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda ijro etiladi.

5. 2\4 o'lchamda 8 takt.

Attitude croisée pozasida grande sissonne ouverte qilinadi, assembléda tugallanadi; attitude effacéda grande sissonne ouverte qilinadi, oldinga V pozitsiyaga assembléda tugallanadi; to'rtta grands changements de pieds bajariladi. Barcha sakrashlar 1\4da ijro etiladi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

6. 2\4 yilchamda 8 takt.

I arabesqueda 2-nuqtaga grande sissonne ouverte qilinadi, V pozitsiyaga oldinlama assembléda tugallanadi; III arabesqueda grande sissonne ouverte, assembléda tugallanadi; croiséning IV pozitsiyasiga ikkita grands échappés. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Barcha sakrashlar 1\4da ijro etiladi, grand échappé, har biri 2\4lik.

7. O'g'il bolalar uchun tours en l'air.

O'quvchilarning imkoniyatiga qarab bitta yoki ikkita tours qilinadi.

8. 4\4 o'lchamda 4 takt.

Uchta entrechat-quatre, bitta royale qilinadi, har biri 1\4lik. to'rt marta takrorlanadi.

9. 2\4 o'lchamda 4 takt.

O'n oltita petits changements de pieds qilinadi, har biri 1\8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING TO'RTINCHI MISOLI

1. 2\4 o'lchamda 16 takt.

Oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga ikkita échappés, har biri 2\4lik; 4\4da – II pozitsiyaga bitta double échappé. Uch marta ijro etiladi. 1\2 qayrilishda 5-nuqtaga échappé en tournant va 5-nuqtaga échappé en face; échappé en tournant 1\2 qayrilishda 1-nuqtaga va 1-nuqtaga échappé en face, har biri 2\4lik.

2. 4\4 o'lchamda 8 takt.

Bir oyoqda tugallanadigan échappés II pozitsiyaga orqalama sur le cou-de-pied bilan, har biri 4\4lik; ikkinchi échappé yakunida oyoq cou-de-pied bilan 450ga yonga yoziladi. 4\4da pas de bourrée dessus-dessous en face va pas de bourrée dessus-dessous en tournant qilinadi, V pozitsiyaga tugallanadi. Sroiséening kichik pozasida plié-relevé bilan oldinlama jeté qilinadi, har biri 4\4lik, uch marta ijro etiladi. Uchinchi jeténi tugatayotib, oyoq cou-de-pied bilan 450ga yonga yoziladi va 4\4da pas de bourrée dessus-dessous en tournant qilinadi.

3. 4\4 o'lchamda 8 takt.

450ga effacéening kichik pozalariga, o'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rtta sissonnes ouvertes qilinadi, barcha sissonneslar orqaga V pozitsiyaga tugallanadi, har biri 2\4lik. O'ng va chap oyoqda ikkita sissonnes ouvertes yonga, har biri 2\4lik; 4\4da – V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va tour sur le cou-de-pied en dehors qilinadi. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda ijro etiladi.

4. 2\4 o'lchamda 8 takt.

O'ng va chap oyoqlarda yonlama grandes sissonnes ouvertes; attitude croisée va attitude effacéeda o'ng oyoqda grande sissonne ouverte, har biri 2\4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda ijro etiladi.

5. 4\4 o'lchamda 4 takt.

4\4da - V pozitsiyadan IV pozitsiyaga préparation va tour sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation qilinib, V pozitsiyaga tugallanadi. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta ijro etiladi. Ayni shu narsa tour sur le cou-de-pied en dehors bilan takrorlanadi.

6. 3\4 o'lchamda 32 takt (sokin vals).

8 takt: o'ng oyoqda to'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga sekingina pas de bourrée suivi qilinadi, o'ng qo'l III pozitsiyada, chap qo'l II pozitsiyada; oxirgi taktda chap oyoq oldinga V pozitsiyaga barmoqlarga qo'yiladi. 8 taktda: barmoqlarda qolib, IV port de bras ijro etiladi. 8 taktda: chap oyoqda – oldinlama pas de bourrée suivi croisée qilinadi, o'ng qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l II pozitsiyaga cho'ziladi. 8 taktda: orqalama pas de bourrée suivi croisée qilinib, qo'llar asta-sekin tayyorgarlik holatiga tushiriladi.

IKKINCHI YARIM YILLIK

SABOQNING BESHINCHI MISOLI USKUNA OLDDIDAGI MASHQLAR

1. *4\4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita demi-plié, har biri 2\4lik; ikkita grands plies, har biri 4\4lik; 4\4da - I, II, IV va V pozitsiyalarga relevé qilinadi.

2. *Battements tendus. 2\4 o'lchamda 48 takt.*

Oltita oldinlama battements tendus, har biri 1\4lik va 2\4da - V pozitsiyaga uskunaga qarab yarimbarmoqlarda to'liq qayrilish. To'rtta battements tendus orqaga va uskunadan to'liq qayrilish. To'rtta doubles tendus yonga, har biri 2\4 lik. 4 taktda: harakatdagi oyoq yonga oyoq uchi polda yoziladi va uskunaga egiladi, qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi, orqadan V pozitsiyaga tugallanadi. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi. Battements tendus jetés: I pozitsiyaga yettita, yettita va yana yettita, har biri 1\8lik; piqué - beshta va beshta, har biri 1\16lik. Tendus jetés va piqué takrorlanadi.

3. *Ronds de jambe par terre. 2\4 o'lchamda 24 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. To'rtta ronds de jambe par terre, har biri 1\4lik, yettita - 1\8lik, oldinlama effacée oyoq uchi polda tugallanadi. 2 taktda: effacée pozasiga 90⁰ga relevé lent qilinadi. 2 taktda: yarimbarmoqlarga plié-relevé qilinadi va harakatdagi oyoq uchi polga tushiriladi. En dedansda takrorlanadi. 90⁰ga relevé lent va yarimbarmoqlarga attitude effacée pozasida ijro etiladi. 4 taktda: plié-relevé plié en dehors-en dedansda aylanish, yarimbarmoqlarda V pozitsiyaga tugallanadi. 4 taktda: gavdani egib yarimbarmoqlarda port de bras qilinadi.

4. *45⁰ga battements fondus. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Oldinga va yonga double fondu qilinadi, har biri 2\4lik; 2\4da - fondu oldinga va 2\4da - to'liq rond en dehors bilan plié-relevé qilinadi (orqaga). 1\8da - petit battement, 2\4da-oldinga fondu qilinadi; uskunaga yarimqayrilish bilan plié-relevé qilinadi, plié-relevé yana uskunaga yarimqayrilish bilan bajariladi, demi-rond bilan plié-relevé qilinadi. Frappés: yonga uchta, har biri 1\8lik, 2\4da V pozitsiyaga demi-pliéda tushiriladi, harakatdagi oyoq orqadan va yarimbarmoqlarga ko'tariladi, harakatdagi oyoq yonga 45⁰ga yoziladi; frappés takrorlanadi, V pozitsiyada

demi-pliêda harakatdagi oyoq oldinga qo'yiladi; yonga sakkizta doubles frappés qilinadi, har biri 1\4lik.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

4\4da - tour sur le cou-de-pied temps relevé en dehors uchun préparation, yakunida harakatdagi oyoq yonga 45⁰ga yoziladi. To'rtta ronds de jambe en l'air, har biri 1\4lik, yettita va yana yettita, har biri 1\8lik. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2\4 o'lchamda 16 takt.*

Oldinga yettita petits battements qilinadi, har biri 1\8lik, yettinchisi demi-pliêda tugallanadi; yettita orqalama petits battements qilinadi, har biri 1\8lik; oltita oldinlama petits battements qilinadi, har biri 1\8lik, 1\4da harakatdagi oyoq oldinga 45⁰ga yoziladi; 1\4da -tayanch oyoqda yarimbarmoqlarda uskunaga qarab yarimqayrilish, 1\4da-uskunaga qarab teskari yarimqayrilish va 2\4da yonlama demi-rond bajariladi. Barchasi teskari tartibda qaytariladi.

7. *Battements développés. 4\4 o'lchamda 16 takt.*

Birinci va ikkinchi taktlar: butun tovonda grand ronds de jambe développé en dehors, oxirgi ikki chorakda - 90⁰ga passé va ayni paytda tayanch oyoqda pliê qilinadi. uchinchi va to'rtinchi taktlar: pliêda grand ronds de jambe développé en dehors, oxirgi ikki chorakda - 90⁰ga passé va ayni paytda tayanch oyoqda yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: yarimbarmoqlarda grand ronds de jambe développé en dehors va 90⁰ga passé. Yettinchi va sakkizinchi taktlar: orqaga écartée pozasiga développé, attitude effacée pozasiga 90⁰ga passé. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

8. *Grands battements jetés. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

Oldinlama effacée, orqalama écartée, orqalama effacée va oldinlama écartée pozalariga to'rttadan grands battements qilinadi, har biri 1\4lik.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adajio va battements tendus. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Birinci takt: I pozitsiyada grand pliê qilinadi. ikkinchi takt: o'ng oyoqda -yonlama développé. Uchinchi takt: birinchi chorakda liolat saqlanib yarimbarmoqlarga ko'tariladi, ikkinchi chorakda oldinlama effacée pozasi qabul qilinadi va butun tovonga tushirildai; uchinchi chorakda yana yarimbarmoqlarda ko'tariladi, to'rtinchi chorakda harakatdagi oyoq yonga olib boriladi va tovonga tushiriladi. To'rtinchi takt: o'tgan holatda pliê-

relevé (harakatdagi oyoq yonga 90⁰ga), oxirida II pozitsiyaga tushiriladi. Beshinchi takt: II pozitsiyaga grand plié. Oltinchi takt: chap oyoqda - yonlama développé. Yettinchi takt: yarimbarmoqlarga ko'tariladi, attitude effacéda qayrilish va butun tovonga tushirish; attitudeda yarimbarmoqlarga ko'tariladi va harakatdagi oyoq yonga olib borilib butun tovonga tushiriladi. Sakkizinchi takt: o'tgan holatda plié-relevé qilinadi, V pozitsiyaga tugallanadi, chap oyoq oldinda. 4 taktda battements tendus qilinadi. Chap oyoqda – ikkita oldinlama battements tendus, har biri 1\4lik, uchta battements tendus jetés, har biri 1\8lik. Yonga, orqaga va yonga takrorlanadi. 2 taktda: II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors; 2 taktda: II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dedans.

2. *Ronds de jambe par terre. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda - préparation en dehors. Uchta ronds de jambe par terre en face, to'rtinchisi - en tournantda 1\4 qayrilishda. To'rt marta ijro etiladi. Yen dedansda takrorlanadi. Har bir ronds de jambe 1\4da qilinadi. 2 taktda - plié en dedans-en dehorsda aylanish, croiséening IV pozitsiyasiga tugallanadi, tour en dehors uchun grande préparation; 2 taktda - attitude croisée pozasida tours uchun ikkita préparation qilinadi.

3. *1/2 tour bo'yicha yonga siljish bilan jetés en tournant. 4\4 o'lchamda 8 takt.*

Oltita jetés en tournant, har biri 1\4lik, 1\8da yarimbarmoqlarga ko'tarilib, uchta frappés ijro etiladi, har biri 1\8lik; yettita frappés, har biri 1\8lik va 4\4da - V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors. Boshqa oyoqda davom ettiriladi. Ayni shu narsa teskari tartibda ijro etiladi.

4. *Grands battements jetés. 2\4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda - oldinlama croisée pozasida to'rtta grands battements; chap oyoqda - III arabesque pozasida to'rtta, IV arabesque pozasida to'rtta; o'ng oyoqda – to'rtta yonga, har biri 1\4lik.

5. *Kamma adajio. 4\4 o'lchamda 12 takt.*

Birinchi takt: o'ng oyoqda -grand port de bras. Ikkinchi takt: chap oyoqda - III arabesque pozasiga 90⁰ga relevé lent qilinadi. Uchinchi takt: III arabesqueda tour lent en dehors. To'rtinchi takt: arabesqueda yarimbarmoqlarga relevé qilinib, V pozitsiyada tugallanadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: o'ng oyoqda - orqalama écartée pozasiga développé, 90⁰ga passé bilan lent en dehors qayrilishi. Yettinchi takt: IV arabesque pozasiga demi-rond en dehors, yakunida – tayanch oyoqda plié. Sakkizinchi takt: o'ng oyoqda orqaga qadam tashlanadi, I pozitsiya bo'yicha passé va I

arabesqueda 2-nuqtaga 90⁰ga relevé. To'qqizinchi takt: I arabesqueda tour lent en dedans. O'ninchi takt: arabesqueda yarimbarmoqlarga relevé va I pozitsiya bo'yicha passé oldinga IV pozitsiyaga - grand préparation en dehors. O'n birinchi takt: III arabesqueda tour uchun préparation qilinib, V pozitsiyaga tugallanadi. O'n ikkinchi takt: chap oyoqda - oyoqlarni almashtirib, chap oyoqda 7-nuqtaga pliédà ikkita yonlama glissades qilinadi, o'ng oyoq uchi orqadan polda, o'ng qo'l III pozitsiyada, chap qo'l II pozitsiyada, orqaga egiladi. (Butun tana to'g'ri chiziqda -7-nuqta -3-nuqta, chap yelka orqaga olinadi, o'ng qo'l III pozitsiyada, tirsak oldinga, bosh o'ngga qayrilgan).

ALLEGRO

1. 2\4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda - yonlama assemblé, entrechat-quatre, chap oyoqda - yonlama assemblé, royale; chap oyoqda - yonlama assemblé, entrechat-quatre, o'ng oyoqda - assemblé royale qilinadi. Qaytariladi. Har bir sakrash 1\4da qilinadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

2. 2\4 o'lchamda 8 takt.

O'ng va chap oyoqda écarténing kichik pozasida ikkita orqalama sissonnes fermés, har biri 1\4lik; o'ng, chap va o'ng oyoqda uchta yonlama sissonnes fermés, har biri 1\8lik; croiséning kichik pozasida oldinga siljish bilan ikkita sissonnes fermés, har biri 1\4lik va uchta-har biri 1\8lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. 4\4 o'lchamda 4 takt yoki 3\4 o'lchamda 16 takt (vals).

Taktdan so'ng o'ng oyoqda - croisée pozasida yarimbarmoqlarda oldinlama développé; birinchi chorakda - tombé va navbatdagi uch chorakda - oldinlama pas chassé (saboqning uchinchi misolida ko'rsatilganidek). Oxirgi nimchorakda (taktdan so'ng) chap oyoqda - attitude croisée pozasida yarimbarmoqlarda développé, orqalama tombé va chassé. Keyin: o'ng oyoqda - oldinlama effacée pozasida yarimbarmoqlarga développé va oldinlama chassé; chap oyoqda - attitude effacéeda développé va orqalama chassé qilinadi.

4. 2\4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda - yonlama grande sissonne ouverte, assemblé qilinadi, V pozitsiyaga tugallanadi, o'ng oyoq oldinda; o'ng oyoqda - orqalama écartée pozasida grande sissonne ouverte, assemblé, V pozitsiyaga tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. Chap oyoqda takrorlanadi. Oyoqlar

almashinuvi bilan II pozitsiyaga ikkita grands échappés. Écartée pozasida orqalama grande sissonne ouverte va o'ng va chap oyoqda assemblé qilinadi. Har bir sakrash 1\4da ijro etiladi. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda qaytariladi.

5. *Entrechat-trois va entrechat-cinque. Musiqiy o'lcham 4\4.*

Birinchi chorakda - demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida - orqalama entrechat-trois sakrashi; ikkinchi chorakda -demi-pliéda sakrashning tugashi; uchinchi chorakda - assemblé, to'rtinchi chorakda tizzalar tortiladi. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi, keyin oldinga entrechat-trois ijro etiladi. Entrechat-cinque ham shu tarzda o'rganiladi.⁸⁰

6. *2\4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita murakkab échappés battus bajariladi, har biri 2\4lik, uchta entrechat-quatre, bitta royale, har biri 1\4lik. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta ijro etiladi.

7. *3\4 o'lchamda 32 takt (vals).*

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga. O'ng oyoqda - effacéning IV pozitsiyasiga sissonne tombé (bevosita IV pozitsiyadan) - croiséening IV pozitsiyasiga sissonne tombé qilinadi. Shu tariqa har biri 1 taktli oltita sissonnes tombés ijro etiladi. sissonnes tombésni effacéda ijro etishda o'ng qo'l II pozitsiyada, chap qo'l I pozitsiyada bo'ladi, sissonnes tombésni croiséda ijro etishda chap qo'l II pozitsiyada, o'ng qo'l I pozitsiyada bo'ladi. Yeffacéda gavda yengilgina o'ngga egiladi, croiséda yengilgina orqaga olinadi. 2 taktda: o'ng oyoqda turiladi, orqadan chap oyoq uchi polda, II arabesque pozasida. 6 taktda: diagonal bo'yicha yuqoriga 2-nuqtadan 6-nuqtaga siljib, chap oyoqda sahnaviy pas de basque en tournant ijro etiladi, o'ng qo'l III pozitsiyada, chapi esa II pozitsiyada bo'ladi va II arabesque pozasida o'ng oyoqda 2-nuqta yo'nalishida balanse qilinadi. uch marta ijro etiladi. 2 taktda: chap oyoqda yonga kichik qadam tashlanadi, o'ng oyoqda oldinlama croisée pozasiga katta qadam tashlanadi, chap oyoq uchi polda. 8 taktda: o'ng oyoqda orqaga uchta pas de chat va en dehorsda oyoqlar almashinuvi bilan pas de bourrée qilinadi. Chap oyoqda pas de chat takrorlanadi. 8 taktda: o'ng oyoqda -I arabesque pozasiga sahnaviy sissonne va 4-nuqtaga sahnaviy yugurish qilinadi.

8. *2\4 o'lchamda 8 takt.*

⁸⁰O'zlashishiga qarab yentrechat-trois va entrechat-cinque 1\4da bajariladi.

Yettita petits changements de pied qilinadi, har biri 1\8lik, to'rt marta takrorlanadi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING BESHINCHI MISOLI

1. 2\4 o'lchamda 16 takt.

O'n oltita relevés I pozitsiyaga, o'n oltita II pozitsiyaga qilinadi, har biri 1\4lik.

2. 2\4 o'lchamda 16 takt.

II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirgan holda to'rtta échappés qilinadi, har biri 1\4lik, ikkita doubles échappés, har biri 2\4lik. To'rt marta ijro etiladi.

3. 2\4 o'lchamda 16 takt.

Oyoqlarni orqaga almashtirgan holda to'rtta sissonnes simples, 1\2 qayrilishda ikkita sissonnes simples en tournant, har biri 2\4lik; oyoqlarni oldinga almashtirgan holda to'rtta sissonnes simples, har biri 1\4lik. Takrorlanadi.

4. 3\4 o'lchamda 32 takt (vals).

4 taktda: o'ng oyoqda I arabesqueda 90°ga 2-nuqtaga jeté; arabesqueda plié-relevé; V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. 4 taktda: chap oyoqda— oldinlama pas de bourrée suivi croisé, o'ng qo'l III, chap qo'l I pozitsiyada arabesque holatida. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi. (oldinlama effacéning katta pozasida plié-relevé bilan jeté qilinadi).

SABOQNING IKKINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

I pozitsiya: 4/4da—demi-plié; 4/4da—yarimbarmoqlarga ikkita relevés; ikkita grands pliés, har biri 4/4lik. II pozitsiya: 4/4da - demi-plié; 4/4da III pozitsiyada uskuna tomonga qo'l bilan qayrilish; ikkita grands pliés, har biri 4/4lik. IV pozitsiya: 4/4da— demi-plié; 4/4da— yarimbarmoqlarga ikkita relevés; ikkita grands pliés, har biri 4/4lik. V pozitsiya: 4/4da—demi-plié, 4/4da uskunadan yonga egilish, chap qo'l III pozitsiyada; ikkita grands pliés, har biri 4/4lik.

2. *Battements tendus. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

To'rtta battements tendus o'ng oyoqda oldinga, chap oyoqda to'rtta orqaga va o'ng oyoqda to'rtta yonga, har biri 1/4lik; II pozitsiyaga tovonni qo'shaloq qo'yish bilan ikkita doubles tendus, har biri 2/4lik. Orqaga o'ng oyoqda boshlanib, teskari yo'nalishda takrorlanadi. Battements tendus jetés: beshta oldinga, har biri 1/8 lik (beshinchisida—demi-plié), 3/8da— yarimbarmoqlarda uskunaga to'liq qayrilish, demi-pliéda tugallanadi. Battements tendus jetés uskunadan qayrilish bilan orqaga qaytariladi, uskunaga qarab va uskunadan yonga ikki marta to'liq qayrilish.

3. *Ronds de jambe par terre. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda — préparation en dehors. Uchta ronds de

jambe par terre en dehors, uchta en dedans, yettita en dehors; uchta en dedans, uchta en dehors, yettita en dedans, har biri 1/8lik. 2 taktda: plié en dehors—en dedansga aylanish va yarimbarmoqlarga 90°ga ko'tarilish bilan oldinga relevé. 2 taktda: yarimbarmoqlarda uskunaga qarab 90°ga oyoq bilan yarimqayrilish, qayrilish yakunida harakatdagi oyoq orqadan, to'g'ri chiziq bo'yicha attitudeda yarimbarmoqlarga plié va relevé, chap qo'l III pozitsiyada.

4. *90°ga battements soutenus. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

To'rttadan soutenus oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 2/4lik. Frappés: o'n beshta yonga, har biri 1/8lik, to'rtta doubles frappes yonga, har biri 1/4lik; 2/4da—V pozitsiyada plié uskunadan yarimbarmoqlarda yarimqayrilish; 2/4da chap oyoqda—II arabesquega yarimbarmoqlarda développé qilinadi.

5. *Ronds de jambe en l'air va petits battements sur le cou-de-pied. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

4/4da — oldinlama assemblé qilinadi, V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors, oldinlama effacéning kichik pozasiga oyoq uchi polda pliédá tugallanadi, yarimbarmoqlarga ko'tariladi va harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Ronds de jambe en l'air en dehors uchta va uchta, har biri 1/8lik; o'n to'rtta oldinlama petits battements, har biri 1/8lik; 1/4da V pozitsiyaga demi-pliédá tushiriladi, o'ng oyoq orqadan. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: yonlama développé va oldinlama demi-rond en dedans. Ikkinchi takt: uskunaga qarab yarimqayrilish bilan yarimbarmoqlarga plié-relevé qilinadi, oxirgi chorakda—V pozitsiyada tugallanadi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: ayni o'shalar chap oyoqda takrorlanadi. Keyingi 4 taktda barchasi teskari yo'nalishda qaytariladi: yonlama développé, orqalama demi-rond en dehors va uskunadan yarimqayrilish bilan plie-relevé qilinadi.

7. *Grands ronds de jambe jeté. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Sakkizta en dehors va sakkizta en dedans qilinadi, har biri 2/4lik.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: II pozitsiyaga grand plié; chuqur pliédan — chap oyoqda tour sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation. Ikkinchi takt:

II pozitsiyaga grand plié; chuqur pliédan—tour sur le cou-de-pied en dehors. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: o'ng oyoqda—oldinlama effacée pozasiga développé, tour lent en dehors va orqalama écartée pozasiga demi-rond. Beshinchi takt: écartée pozasidan 8-nuqtaga I arabesqueda qayrilish, pliéda tugallanadi. Oltinchi va yettinchi taktlar: yarimbarmoqlarda 90°ga croisé pozasiga oldinga passé, qo'llar II pozitsiyada; o'ng oyoqda pliéda keng tombé, chap oyoq orqadan oyoq uchi polda va gavadani egish bilan port de bras, IV pozitsiyada tugallanadi—tour en dedans grand préparation. Sakkizinchi takt: tour tirbouchon en dedans, qo'llar III pozitsiyada.

Battements tendus — 4 taktda 4/4 o'lchamda. O'ng oyoqda—uchta battements tendus yonga, bitta en tournant en dehors 5-nuqtaga 1/2 qayrilishda, uchta yonga 5-nuqtaga va bitta en tournant en dedans 1-nuqtaga, har biri 1/4lik. Battements tendus jetés: chap oyoqda—beshta oldinlama croiséning kichik pozasida, har biri 1/8lik, 3/8da — flic-flac en dedans en face, orqalama croiséning kichik pozasida tugallanadi; beshta battements tendus jetés croisé orqaga, har biri 1/8lik, 3/8da—flic-flac en dehors en fase, IV pozitsiyada oldinga tugallanadi—tour sur le cou-de-pied en dedans uchun préparation. 2 taktda: chap tomonga bitta va ikkita tours en dedans.

2. 45°ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.

2/4da — oldinlama effacéening kichik pozasida fondu qilinadi, 2/4da yarimbarmoqlarda qolib, effacéening kichik pozasiga orqaga to'liq rond qilinadi. Harakatdagi oyoq oldinlama sur le cou-de-pied holatiga petit battement yo'li bilan o'tkazilib takrorlanadi. Oldinlama yeffacéening kichik pozasida ikkita fondus bajariladi, har biri 2/4lik, 4/4da—keng tombé va tour sur le cou-de-pied en dedans, yakunida—chap oyoqda yarimbarmoqlarga qisqacha coupé, o'ng oyoq yonga 45°ga yoziladi.

Frappés: to'rt marta uchadan frappés yonga, har biri 1/8lik; sakkizta frappés en tournant en dedans, har biri 1/4lik. Ayni shu narsa teskari yo'nalishda frappés en tournant en dehorsda tombé bilan, tour en dehors bilan ijro etiladi.

3. Oldinga va orqaga grand fouetté effacée.

a) V pozitsiyadan 1 taktda (4/4) fouetté shakli butun tovonda oldinga va orqaga o'rganiladi.

b) o'ng oyoqda préparation, chap oyoq orqalama croiséga cho'zilgan, oyoq uchi polda. Taktdan so'ng—o'ng oyoqda plié va chap

oyoqda yarimbarmoqlarga coupé. Birinchi chorakda — chap oyoqda épaulement effacéda demi-plié; ikkinchi va uchinchi chorakda — yarimbarmoqlarda oldinlama grand fouetté effacée (en dehors), to'rtinchi chorakda attitude effacéda demi-pliéga fouetté tugallanadi. O'ng va chap oyoqda oldinga va orqaga to'rt martadan takrorlanadi — en dehors i en dedans.⁸⁶

4. *Katta adagio. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: I pozitsiyada grand plié, chuqur pliédan — chap oyoqda tour à la seconde en dehors uchun préparation. Ikkinchi takt: tour lent à la seconde en dehors. Uchinchi takt: attitude croiséda demi-rond; plié; to'rtinchi chorakda—oyoqlarni almashtirib en tournant en dehorsda pas de bourrée. To'rtinchi takt: chap oyoqda—yonlama développé va oldinlama croisé pozasiga demi-rond. Beshinchi takt: croisé pozasidan attitude croisé pozasiga en dedansda sekin qayrilish. Oltinchi takt: yonlama demi-rond en dedans, plié va en dedansda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée, IV pozitsiyada tugallanadi—tour en dehors uchun grand préparation. Yettinchi takt: tour en dehors attitude. Sakkizinchi takt: harakatdagi oyoq V pozitsiyaga demi-plieda tushiriladi va II arabesque pozasida 45°ga o'ng va chap oyoqda ikkita sissonnes fermées ijro etiladi.

ALLEGRO

1. *2/4o'lchamda 8 takt.*

O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rtta doubles assemblés battus, oyoqlarni oldinga almashtirib, to'rtta—oyoqlarni orqaga almashtirib, har biri 2/4lik.

2. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Sakkizta doubles assemblés (zanoskasiz) oyoqlarni oldinga almashtirib, sakkizta—oyoqlarni orqaga almashtirib, har biri 1/4 lik.⁸⁷

3. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Yonlama ballonnés battus, orqalama sur le cou-de-piedda tugallanadi va orqalama assemblé qilinadi, o'ng va chap oyoqda navbati bilan; o'ng oyoqda—uchta ballonnés siljish bilan yonga va assemblé yonga. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Har bir sakrash 1/4da bajariladi. Ballonnés

⁸⁶Kombinatiyalarning misollarida ushbu fouetté, saboqlarda qabul qilinganidek, effacée en dehors va effacée en dedans deb nomlanadi. Dasturlarda esa u oldinlama va orqalama fouetté deb nomlanadi.

⁸⁷Mazkur double assembléda haqiqiy assemblé 1/8 taktida bajariladi, ikkinchisi—bir chorakda, keyingi assembléslarning har biri 1/8da ijro etiladi.

battus sur le cou-de-pied oldinga tugallanib, kombinatsiya takrorlanadi.

4. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Uchta oldinlama jetés fermés croisé, har biri 2/4lik; 2/4da — orqalaman entrecat-trois, assemblé. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda ijro etiladi.

5. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Sissonne ouverte 45°ga yonga, temps levé, rond de jambe en l'air sauté en dehors, assemblé yonga qilinadi. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Har bir sakrash 1/4da bajariladi. Ayni shu narsa en dedansda ham bajariladi.

6. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda—I arabesqueda 2-nuqtaga siljish bilan ikkita grandes sissonnes ouvertes bajariladi; birinchisi assembléda tugallanadi, chap oyoq orqadan, ikkinchisi—chap oyoq oldinda. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Oltita grands changements de pieds va V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda qayrilish. Har bir sakrash 1/4 qayrilishda 2/4da yarimbarmoqlarda qayrilish.

7. *3/4 o'lchamda 32 takt (vals).*

To'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga harakat. O'ng oyoqda—to'rtta yonlama grandes sissonnes tombées, o'tkazib yuboriladigan pas de bourrésda tugallanadi, har biri 2 taktda; 8 taktda: sahnaviy sissonne I arabesqueda o'ng oyoqda, 4-nuqtaga sahnaviy yugurish va V pozitsiyaga turiladi, chap oyoq oldinda. Chap oyoqda—diagonal bo'yicha 4-nuqtadan 8-nuqtaga pas de bourrée bilan to'rtta grandes sissonnes tombées qilinadi, har biri 2 taktda. Kichik doira bo'yicha chap tomonga — oyoqlarni almashtirmasdan to'rt marta glissade va orqalama sur le cou-de-piedda tugaydigan jeté qilinadi, o'ng va chap oyoqda navbati bilan, har biri 2 taktda. Oxirgi glissade va jeté to'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga bajariladi.

8. *Orqalama va oldinlama ras failli. Musiqiy o'lcham 4/4.*

2/4da — orqalama pas failli, 2/4da—V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda qayrilish va keyingi sakrash uchun demi-plié. To'rt marta takrorlanadi va oldinlama pas failli ayni shunday ijro etiladi.⁸⁸

⁸⁸Mazkur holatda V pozitsiyada yarimbarmoqlardagi qayrilish pas faillini bir oyoqda qatorasiga bir necha marta qaytarishni dastlab o'rganishda qo'llanadi.

9. $2/4$ o'lchamda 4 takt.

O'n oltita petits changements de pieds, har biri $1/8$ lik.

10. O'g'il bolalar sinfi uchun tours en l'air. $4/4$ o'lchamda 4 takt.

Uchta petits changements de pieds, har biri $1/8$ lik, $1/4$ da

V pozitsiyada yarimbarmoqlarda relevé; $1/4$ da — tour en l'air. To'rt marta takrorlanadi. Ayni shu boshqa oyoqda bajariladi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING IKKINCHI MISOLI

1. $4/4$ o'lchamda 8 takt.

Oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga to'rtta échappés qilinadi, har biri $1/4$ lik; croiséning IV pozitsiyasiga double échappé va IV pozitsiyada efflucée, har biri $4/4$ lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi.

2. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

8 taktda: to'rtta sissonnes simples en tournant $1/4$ qayrilishda o'ng tomonga, 3, 5, 7 va 1-nuqtalarga. Birinchi sissonne — o'ng oyoqda, chapida — orqalama sur le cou-de-pied, chap qo'l III, o'ng qo'l II pozitsiyada, gavda o'ngga egilgan. Ikkinchi sissonne — chap oyoqda, o'ng oyoq — oldinlama sur le cou-de-piedda, o'ng qo'l III, chap qo'l II pozitsiyada, gavda chapga egilgan. Uchinchi va to'rtinchi sissonne birinchi va ikkinchiga o'xshash. II arabesquening kichik pozasida sissonne ouverte o'ng va chap oyoqda, har biri 2 taktda. 4 taktda: o'ng oyoqda — oldinlama efflucéning kichik pozasida sissonne ouverte, tombé va tour sur le cou-de-pied en dedans.

3. $2/4$ o'lchamda 8 takt.

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Sakkizta jetés en tournant yonga siljish bilan $1/2$ tourda diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga, har biri $1/4$ lik; $2/4$ da yuqoridan o'ng oyoqqa turiladi va tour sur le cou-de-pied en dedans bajariladi, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda; $2/4$ da — III arabesque pozasida grande sissonne ouverte; $2/4$ da — V pozitsiyadan IV pozitsiyaga tour sur le cou-de-pied en dedans uchun préparation; $2/4$ da — tour en dedans.

4. $4/4$ o'lchamda 8 takt.

Attitude croiséda oldinga siljish bilan uchta grandes sissonnes ouvertes, har biri $2/4$ lik; $2/4$ da — rond de jambe en l'air en dehors. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta ijro etiladi. Ayni shu teskari yo'nalishda ham takrorlanadi.

5. *4/4 o'Ichamda 4 takt.*

2/4da — V pozitsiyadan IV pozitsiyaga tour sur le cou- de-pied en dehors uchun préparation; 2/4da—tour en dehors. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu ikkita tours bilan bajariladi.

6. *2/4 o'Ichamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda—demi-plié qilinadi va V pozitsiyaga barmoqlarda turiladi. O'ng oyoqda—to'rtta grands battements jetés oldinga, to'rtta yonga, har biri 1/4lik. Chap oyoqda takrorlanadi. Ayri shu narsa teskari yo'nalishda alohida bajariladi.

SABOQNING UCHINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. *4/4 o'Ichamda 8 takt.*

I, II, IV va V pozitsiyalarda ikkitadan grands pliés, har biri 4/4 lik.

2. *Battements tendus. 2/4 o'Ichamda 24 takt.*

Sakkizta oldinlama battements tendus, yettita yonga, har biri 1/4lik, yettinchi battementda 1/4da — uskunaga qarab oyoq almashtirib yarimqayrilish, yakunida chap oyoq yonga oyoq uchi polda yoziladi; 1/4da— uskunaga qarab oyoq almashtirib yarimqayrilish, yakunida o'ng oyoq yonga oyoq uchi polda yoziladi. Taktdan so'ng—tezkor orqalama demi-rond par terre va yana teskari yo'nalishda battements tendus takrorlanadi. Battements tendus jetés: yettitadan oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/8lik, oxirgi battement tendu jetéda yarimbarmoqlarga ko'tariladi va harakatdagi oyoq yonga 45°ga ushlab turiladi.

3. *Ronds de jambe par terre va grands ronds de jambe jeté. 4/4 o'Ichamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda — préparation en dehors. To'rtta ronds de jambe par terre, har biri 1/4lik; ikkita grands ronds de jambe jetés, har biri 2/4lik. Qaytariladi. Ayni shu narsa en dedansda ijro etiladi. 2 taktda: plié en dedans — en dehorsda aylanish, V pozitsiyada tugallanadi. 2 taktda: attitude effacéda yarimbarmoqlarda développé, uskunadan yarimqayrilish bilan yarimbarmoqlarga plié-relevé qilinadi, qayrilish yakunida harakatdagi oyoq oldinda 90°ga.

4. *45°ga battements fondus. 4/4 o'Ichamda 12 takt.*

2/4da—oldinlama fondu; 2/4da—demi-rond bilan yonlama plié-relevé qilinadi; 4/4da — plie va 45°ga — tour sur le cou-de-pied en dehors,

yukunida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Boshidan takrorlanadi va teskari yoʻnalishda tour en dedans bilan bajariladi. Frappés: uchtadan, orqalama écartée, orqalama effacée va oldinlama écartée, har biri 1/8lik. Doubles frappés: toʻrtta effacéning kichik pozalariga oldinga va orqaga hamda toʻrtta yonga, har biri 1/4lik.

5. *Ronds de jambe en l'air. 2/4 oʻlchamda 8 takt.*

Uchta ronds de jambe en l'air en dehors, uchta en dedans, yettita en dehors, har biri 1/8lik. Teskari tartibda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 4/4 oʻlchamda 8 takt.*

Yigirma toʻrtta petits battements oldinga, har biri 1/8lik;

4/4da — yarimbarmoqlarda grand rond de jambe développé en dehors. Teskari yoʻnalishda takrorlanadi.

7. *Battements développés. 4/4 oʻlchamda 8 takt.*

Ikkitadan développés tombés oldinga, yonga, orqaga va yonga, sur le cou-de-piedda tugallanadi, har biri 1/4lik.

8. *Grands battements jetés. 4/4 oʻlchamda 4 takt.*

Toʻrttadan grands battements yarimbarmoqlarda effacée pozasida oldinga va yonga, effacée pozasida orqaga va yonga, har biri 1/4lik.

ZAL OʻRTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 oʻlchamda 8 takt.*

Birinchi takt: V pozitsiyada grand plié (oʻng oyoq oldinda), chuqur pliédan—oʻng oyoqda attitude effacée pozasida tour en dedans uchun préparation. Ikkinchi takt: yarimbarmoqlardan tovonga tushiladi va attitudeda tour lent en dedans. Uchinchi va toʻrtinchi taktlar: attitude pozasidan—oldinlama effacée pozasiga grand rond de jambe en dedans va yarimbarmoqlarga relevé. V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. Beshinchi va oltinchi taktlar: oʻng oyoqda—III arabesqueda développé qilinadi va en dehorsda 5-nuqtaga à la seconde holatiga, tour lent en dehorsda 1-nuqtaga yarimqayrilish, plié va oʻng oyoqda I arabesqueda 90°ga keng qadam tashlanadi. Yettinchi takt: croiséye pozasiga oldinga 90°ga passé qilinadi, yarimbarmoqlarga relevé qilinib, croiséning IV pozitsiyasiga tushiladi—tour en dehors uchun grand préparation. Sakkizinchi takt: tour en dehors v attitude croisé.

Battements tendus: 4/4 oʻlchamda 8 takt. Chap oyoqda—oldinlama croiséning kichik pozasida sakkizta battements tendus bajariladi. oʻng

oyoqda — sakkizta III arabesque pozasida va sakkizta yonga, har biri 1/4lik. Tendus jetés: o'ng oyoqda—en tournant en dedansda yonga yettita 5-nuqtaga qadar va yettita en tournant 1-nuqtaga qadar. har biri 1/8lik. 2 taktda: chap oyoqda— II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors. 2 taktda: II pozitsiyadan ikkita tours en dehors.

2. *45°ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda— oldinlama croisening kichik pozasida ikkita fondus, har biri 2/4lik; 4/4da — oldinlama keng tombé va tour sur le cou-de-pied en dehors; chap oyoqda— orqalama croisening kichik pozasida ikkita fondus bajariladi, har biri 2/4lik; 4/4da— orqalama keng tombé va tour sur le cou-de-pied en dedans; o'ng oyoqda—to'rtta yonlama fondus, har biri 2/4lik. Frappés, yonga uchta en tournant en dehors 3-nuqtaga qayrilish bilan, uchta 5-nuqtaga, uchta—7-nuqtaga va uchta — 1-nuqtaga, har biri 1/8lik. Kombinatsiya teskari yo'nalishda takrorlanadi.

3. *Ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

4/4da o'ng oyoqda—oldinlama assemblé croisé va V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors, yakunida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi; to'rtta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/4lik; yettita— har biri 1/8lik; 4/4da — yonlama keng tombé va tour sur le cou-de-pied en dedans, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. Kombinatsiya boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu en dedansda bajariladi, en dehorsda tombé usulidan yakunlovchi tour qilinadi.

4. *Grand fouettée effacée. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Taktdan so'ng — o'ng oyoqqa yarimbarmoqlarga 2-nuqtaga keng qadam tashlanadi, 4/4da chap oyoqda—grand fouettée effacée en dehors, 2/4da—en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi, 2/4da pauza. To'rt marta takrorlanadi.

Fouettée effacée en dedansni bajarish uchun 6-nuqtadan 2-nuqtaga siljish bilan V pozitsiyaga turiladi, o'ng oyoq oldinda va o'ng oyoqda 2-nuqtaga yarimbarmoqlarga qadam tashlanadi.

5. *45°ga fouettée. Musiqiy o'lcham 2/4.*

a) Taktdan so'ng — demi-plié qilinadi, harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Sakkizta fouettés en dehors en face bajariladi, har biri 2/4lik.

b) To'rtta tours fouettés, har biri 2/4lik.

c) En facening IV pozitsiyasi. Taktdan so'ng — tour sur le cou-de-

piéd en dehors, demi-pliéda birinchi chorakda tugaydi, harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi va uchta tours fouettés en dehors bajariladi, har biri 1/4lik, IV pozitsiyada épaulement croiséda tugallanadi.

6. *Battements divisés en quarts (choraklik battementslar). Musiqiy o'lcham 4/4.*

Oldinlama en dehors. Birinchi takt: birinchi chorakda o'ng oyoqda — oldinlama développé; ikkinchi chorakda—demi-plié; uchinchi chorakda — en dehorsda 3-nuqtaga yarimbarmoqlarga relevé bilan qayrilish, ayni paytda harakatdagi oyoq yonga o'tkaziladi, to'rtinchi chorakda tovonga tushiriladi, harakatdagi oyoq passé holatiga 90°ga bukiladi. Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi taktlarda 5, 7, va 1-nuqtalarga qayrilish bilan battements takrorlanadi. Oxirgi battement V pozitsiyada tugallanadi. Ayni shu en dehorsda orqaga takrorlanadi.

Battements divisés en quarts en dedans oldinga va orqaga keyingi saboqlarda bajariladi.⁸⁹

ALLEGRO

1. *2/4o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. To'rtta yonlama assemblés o'ng oyoqda, 1/4 qayrilishda o'ngga, har safar o'ng oyoq orqaga, oldinga va h.k tashlab almashtiriladi, har biri 1/4lik; 2/4da—oyoqlarni almashtirib échappé battu va chap va o'ng oyoqda oyoqlarni orqaga almashtirib ikkita yonlama sissonnes fermées, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi, sissonnes fermées oyoqlarni almashtirib oldinga ijro etiladi.

2. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Orqalama sur le cou-de-piedda tugallanadigan jeté battu, orqalama assemblé croisé. O'ng va chap oyoqda navbati bilan sakkiz marta takrorlanadi. Har bir sakrash 1/4da qilinadi. Ayni shu narsa teskari tartibda bajariladi.

3. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqda—rond de jambe en l'air sauté en dehors, yakunida—yonlama assemblé. Ayni shu narsa chap oyoqda takrorlanadi. O'ng oyoqda — sissonne ouverte yonga 45°ga, ikki marta rond de jambe en l'air sauté en

⁸⁹Qiz bolalarning beshinchi sinfida barmoqlardagi mashqda tugallanadigan battements divisés en quartsni darslar paytida bajarish tavsiya qilinadi. Mazkur battementslar asosan mushaklarning qizg'in ishlashini taqozo qiladi, allegro bilan bog'langanlari esa kutilmagan zo'riqishga sabab bo'ladi

dehors va assemblé yonga. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi va en dedansda bajariladi. Har bir sakrash 1/4da bajariladi.

4. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda—attitude croiséda ikkita grands sissonnes ouvertes, assembléda tugallanadi; Il pozitsiyaga en tournantda oyoqlarni almashtirib 1/2 qayrilishda o'ng tomonga ikkita grands échappés. Oldinlama sroisé pozasida ikkita grandes sissonnes ouvertes, assembléda tugallanadi. Ikkita grands changements de pieds en tournant 1/2 qayrilishda chap tomonga va pas failli orqaga. Har bir sakrash 1/4da ijro etiladi, pas failli —2/4da.

5. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Ikkita yonlama sissonnes fondus 90°ga o'ng va chap oyoqda, bitta sissonne fondu 90°ga III arabesque pozasida, har biri 2/4lik; entrechat-quatre, royale, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi Ayni shu teskari yo'nalishda ijro etiladi.

6. *4/4 o'lchamda 4 takt yoki 3/4 o'lchamda 16 takt (vals).*

To'rtta temps lié sauté 90°ga oldinga, har biri 4/4lik yoki valsning har biri 4 taktda. Ayni shu tarzda temps lié orqaga bajariladi.

7. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. 2/4da — o'ng oyoqda coupé (qadam) va yonlama grand assemblé, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda; 2/4da—o'ng tomonga yarimbarmoqlarda qayrilish. Uch marta bajariladi. O'ng oyoqda—ikkita yonlama grandes sissonnes tombées, pas de bourrée da tugallanadi, har biri 2/4lik.

8. *Brisée. Musiqiy o'lcham 4/4.*

a) 1 takt: birinchi chorakda—demi-plié; birinchi va ikkinchi chorak orasida—brisé sakrash oldinga; ikkinchi chorakda — demi-pliéda sakrash tugallanadi; uchinchi va to'rtinchi choraklarda tizzalar tortiladi. Oldinga sakkizta va orqaga sakkizta qaytariladi.

b) ikkita brisés oldinga, har biri 1/4lik; 1/4da tizzalar tortiladi; 1/4da—keyingi brisé uchun demi-plié. Oldinga to'rtta va orqaga to'rtta qaytariladi.

c) uchta brisés oldinga, har biri 1/4lik, 1/4da — royale. Oldinga to'rtta va orqaga to'rtta qaytariladi.

9. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Yettita va yettita changements de pieds en face, yettita en tournant chap tomonga, yettita o'ng tomonga, har biri 1/8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING UCHINCHI MISOLI

1. *3/4 o'lchamda 64 takt (vals).*

Gavdani orqaga va yonga egish bilan temps lié, to'rtta oldinga, to'rtta orqaga, har biri 8 taktda.

2. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Ikkita échappés oyoqlar almashinuvi bilan II pozitsiyaga, har biri 1/4lik; ikkita sissonnes simples oyoqlarni almashtirish bilan orqaga, har biri 1/4lik. Takrorlanadi. Ikkita échappés, har biri 1/4lik va uchta sissonnes simples, har biri 1/8lik. Takrorlanadi. Ayni shu oyoqlarni almashtirib sissonnes simplesda oldinga alohida bajariladi.

3. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqda oldinlama effacéening kichik pozasida 450ga sissonne ouverte, chap oyoqda - orqalama effacéening kichik pozasida, har biri 2/4lik; chap oyoqda pliéd qisqacha coupé va o'ng oyoqda oldinga siljish bilan to'rtta ballonnés effacée, har biri 2/4lik; oxirgisi V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. To'g'ri chiziq bo'yicha o'ngga – ikki marta tour glissade en tournant en dehors, har biri 2/4lik. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Teskari yo'nalishda alohida ijro etiladi.

4. *3/4 o'lchamda 32 takt (vals)*

8 taktda: o'ng oyoqda—attitudeda uchta grandes sissonne ouvertes, uchinchi sissonne esa plié-relevé bilan, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. 8 taktda: V pozitsiyadan IV pozitsiyaga tour sur le coup-de-pied en dehors uchun préparation va tour en dehors chap tomonga; V pozitsiyadan IV pozitsiyaga préparation va o'ng tomonga tour en dehors qilinadi. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi.

5. *Pas de bourrée suivi (katta doira). Musiqiy o'lcham 2/4, sekin temp.*

To'g'ri chiziq bo'yicha 8-nuqta atrofida V pozitsiyada turiladi, o'ng oyoq oldinda. O'ng oyoqda dégagé va aylana bo'yicha siljib o'ng tomonga yuzni devorga burib 8-nuqtaning boshlanishiga qadar pas de bourrée suivi qilinadi. o'ng qo'l III, chap qo'l II pozitsiyada bo'ladi. Ayni shu narsa chap tomonga 2-nuqtadan qaytariladi.

Doira imkon qadar kattaroq bo'lishi kerak, musiqiy jumlar miqdori

ma'lum bir topshiriq bilan chegaralanmaydi, balki raqs zalining hajmiga bog'liq bo'ladi.

6. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

2/4da – V pozitsiyadan V pozitsiyaga tour sur le coup-de-pied en dehors uchun préparation; uch marta tour en dehors, har biri 2/4lik. Birinchi va ikkinchi tour oldinda V pozitsiyada tugallanadi, uchinchisi – orqadan V pozitsiyaga. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta bajariladi. Ayni shu en dedansda takrorlanadi.

SABOQNING TO'RTINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita demi-pliés, har biri 4/4lik; 4/4da – bitta grand plié;

2/4da — bitta grand plié; 2/4da — I, II, IV va V pozitsiyalarda yarim barmoqlarga relevé qilinadi.

2. *Battements tendus. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Demi-pliéda to'rttadan battements tendus, tortilgan o'ng oyoqda to'rttadan oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 4/4lik. Battements tendus jetés: sakkiztadan oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/8lik. I pozitsiyaga battements tendus jetés: to'rt marta yettitadan, har biri 1/8lik; oxirgi battement tendu jeté tayanch oyoqda yarimbarmoqlarda ko'tariladi va harakatdagi oyoq yonga 45°ga ushlab turiladi.

3. *Ronds de jambe par terre va grands ronds de jambe jeté. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda — préparation en dehors. Ikkita ronds de jambe par terre, har biri 1/4lik, uchta—har biri 1/8lik. Takrorlanadi. To'rtta grands ronds de jambe jeté, har biri 2/4lik. Ayni shu en dedansda bajariladi. 2 taktda: plié en dehors—en dedansda aylanish, V pozitsiyaga yarimbarmoqlarga soutenu va chap oyoq orqadan sur le cou-de-piedda ko'tariladi. 2 taktda: gavdani egib o'ng oyoqda yarimbarmoqlarda port de bras.

4. *45°ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

2/4da — oldinlama fondu; 2/4da—uskunaga yarimqayrilish bilan plié-relevé; 2/4da harakatdagi oyoq petit battement yo'li bilan sur le cou-de-pied holatiga oldinga o'tkaziladi va oldinlama fondu qilinadi; 2/4da—uskunadan yarimqayrilish bilan plié-relevé; 2/da— yonlama demi-rond bilan plié-

relevé; 2/4da — plié-relevé; 4/4da — plié va 45°ga — tour sur le cou-de-pied en dedans, yakunida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Barchasi teskari tartibda bajariladi. Frappes: yonga beshta, har biri 1/8lik va 3/8da — flic-flac en tournant en dehors, oldinga 45°ga tugallanadi; oltita frappés oldinga va bitta yonga, har biri 1/8lik. frappés teskari tartibda flic-flacen tournant en dedans bilan takrorlanadi.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Uchta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/8lik; uchinchisi oldinlama effacéening kichik pozasida oyoq uchi polda pliéda tugatiladi. Takrorlanadi. Yettita ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/8lik; yettinchisi orqalama écartéening kichik pozasida oyoq uchi polda pliéda tugatiladi; 4/4da — tour temps relevé en dehors, yakunida harakatdagi oyoq yonga 45° yoziladi va yettita ronds de jambe en l'air en dehors qilinadi, har biri 1/8lik. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Battements battus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Épaulement effacéda sakkizta oldinlama battements battus, har biri 1/4lik; o'n oltita battus — har biri 1/8lik. Epaulement effacéda orqalama battements battus takrorlanadi.

7. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchii takt: oldinlama développé ballotté, 90°ga passé va orqalama développé ballotté, 90°ga passé. Ikkinchi takt: birinchisini takrorlash, oxirgi orqalama ballotté V pozitsiyada tugallanadi. Uchinchi takt, yarimbarmoqlarda développé yonga; uchinchii chorakda — plié, to'rtinchii chorakda — yarimbarmoqlarga relevé qilinadi. To'rtinchii takt: yarimbarmoqlarga qisqacha plié relevé birinchii, ikkinchi va uchinchii choraklarda (uch marta), to'rtinchii chorakda harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. 4 taktda: barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

8. *Grands battements jetés balancés (tayyorgarlik). Musiqiy o'lcham 4/4.*

a) Dastlabki holat—I pozitsiya. Dastlabki ikki akkordda harakatdagi oyoq uchi polda orqaga tortiladi. Birinchii takt: birinchii chorakda harakatdagi oyoq I pozitsiya bo'yicha oldinga 90°ga tashlanadi, ayni paytda gavda orqaga egiladi; ikkinchi chorakda holat saqlanadi; uchinchii chorakda oyoq I pozitsiyaga tushiriladi, ayni paytda gavda rostlanadi; to'rtinchii chorakda—pauza. Ikkinchi takt: ayni shu orqaga bajariladi. Sakkiz marta takrorlanadi.

b) birinchi chorakda— oldinlama grand battement jeté balancé; ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq I pozitsiyaga tushiriladi; uchinchi chorakda— orqalama grand battement jeté balancé; to'rtinchi chorakda harakatdagi oyoq I pozitsiyaga tushiriladi va h.k.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kucuk adagio. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: o'ng oyoqda— oldinlama effacéning katta pozasida développé tombé qilinadi, yakunida harakatdagi oyoq oldinlama sur le cou-de-pied holatida joylashadi. Ikkinchi va uchinchi taktlar: birinchisi takrorlanadi. To'rtinchi takt: o'ng oyoqda— orqalama écartée pozasida développé qilinadi va IV arabesqueda demi-rond. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu tarzda attitude effacéda développé tombés bajariladi, yakunida oldinlama écartée pozasida développé qilinadi va croisé pozasida o'ng va chap oyoqda navbati bilan oldinga demi qilinadi.

2. *Battements tendus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng oyoqda—to'rtta oldinlama battements tendus, har biri 1/4lik, uchta battements tendus jetés, har biri 1/8lik; ikkita grands battements, har biri 1/4lik. Ayni shu yonga, orqaga va yonga bajariladi. 2 taktda: chap oyoqda V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. 2 taktda: chap oyoqda – ikkita tours en dehors, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq orqadan.

3. *Ronds de jambe par terre. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki ikki akkordda — préparation en dehors qilinadi. Rond de jambe par terre en tournant en dehors 1/2 qayrilishda 5-nuqtaga, uchta ronds de jambe par terre en face 5-nuqtaga, har biri 1/4lik. 1-nuqtaga qayrilish bilan ronds de jambe takrorlanadi va ayni shu en dedansda bajariladi, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng qo'l oldinda. 2 taktda: II pozitsiyadan o'ng tomonga préparation va tour à la seconde en dehors. 2 taktda: II pozitsiyadan chap tomonga preparation va tour à la seconde en dedans.

4. *45°ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Ikkita fondus oldinlama effacéning kichik pozasida, har biri 2/4lik, 4/4da — keng tombé va tour sur le cou-de-pied en dedans. Sur le cou-de-pied holatidan fondus takrorlanadi va boshqa oyoqda tour bajariladi. Sur le cou-de-pied holatidan— oldinlama écarténing kichik pozasida ikkita fondus qilinadi, har biri 2/4lik; 4/4da keng tombé va tour sur le cou-de-pied

en dedans. sur le cou-de-pied holatidan écartéda boshqa oyoqda fondu tikrorlanadi va tour V pozitsiyada tugallanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda tour en dehors bilan bajariladi.

5. *Grand fouetté effacée. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Taktdan so'ng — o'ng oyoqda 2-nuqtaga yarimbarmoqlarga keng qadam tashlash; birinchi, ikkinchi va uchinchi chorakda — grand fouetté effacée en dehors; to'rtinchi chorakda—en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi. Uch marta ijro etiladi, oxirgi pas de bourrée IV pozitsiyada tugallanadi—tour en dehors uchun grand préparation; 4/4da — attitude croiséda tour en dehors. Ayni shu tarzda grands fouettés effacée en dedans bajariladi, yakunida — oldinlama croisé pozasida tour en dedans bajariladi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Oltita petits battements, har biri 1/8lik; 1/4da—demi-plié, harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi; 45°ga en dehors en faceda to'rtta tours fouettés, har biri 1/4lik. Yen tournantda retits battements, fouettés takrorlanadi.

7. *Kamma adagio. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt, V pozitsiyada grand plié, o'ng oyoq oldinda; chuqur pliédan—tour sur le cou-de-pied en dehors. Ikkinchi takt: tourdan keyin yarimbarmoqlarda qolinadi va o'ng oyoqda— oldinlama effacée pozasiga développé qilinadi; 2-nuqtaga tombé-chassé, effacéening IV pozitsiyasiga tugallanadi — tour en dedans uchun grand préparation. Uchinchi takt: attitude effacéda tour en dedans. To'rtinchi takt: attitude effacéda plié, allongé va chap oyoqda orqaga qadam tashlash, o'ng oyoqda —I pozitsiya bo'yicha orqaga passé va attitude croiséda relevé qilinadi. Beshinchi takt: attitudeda gavda yengilgina pastga egiladi va oldinlama croisé pozasiga en dehorsda qayrilish qilinadi. Oltinchi takt: oldinlama écartée pozasiga o'ng yelkada 8-nuqtaga qayrilish bilan 90°ga passé qilinadi, I arabesqueda 4-nuqtaga en dedansda qayrilish. Yettinchi takt: arabesqueda 7-nuqtaga tour lent en dedans, I pozitsiya bo'yicha oldinga IV pozitsiyaga passé—tour en dehors uchun grand préparation. Sakkizinchi takt: o'ng oyoqda oldinlama effacée pozasida tour en dehors bajariladi.

ALLEGRO

1. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita yonlama assemblés oyoqlarni almashtirib oldinga, har biri

1/4lik; uchta—har biri 1/8lik; ikkita assemblés battus, har biri 1/4lik va V pozitsiyada oldinga siljish bilan ikkita sautes, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yoʻnalishda bajariladi.

2. 2/4 oʻlchamda 16 takt.

Jeté battu, orqalama assemblé croisé, oʻng va chap oyoqda; uchta jetés battus oʻng, chap va oʻng oyoq bilan, oxirgisi assembléda tugallanadi. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yoʻnalishda bajariladi. Har bir sakrash 1/4da qilinadi.

3. 2/4 oʻlchamda 8 takt.

Toʻrtta yonlama jetés fermés oyoqlar almashmasdan, har biri 2/4lik; ikkita orqalama sissonnes tombées croisé, bitta oldinlama croisé, har biri 2/4lik; 1/4da—I arabesqueda grande sissonne ouverte; 1/4da—arabesque plié pozasida pauza.

4. 2/4 oʻlchamda 16 takt.

2/4da — rond de jambe en lʼair saute en dehors va yonlama assemblé; 2/4da—III arabesqueda grande sissonne ouverte, assemblé, ikkita sissonnes fondus III arabesque pozasida, har biri 2/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yoʻnalishda bajariladi. (Grande sissonne ouverte va sissonnes fondus oldinlama croisé pozalarida qilinadi)

5. 2/4 oʻlchamda 32 takt (vals).

4 taktda: II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib ikkita grands échappés qilinadi. 2 taktda: yonlama glissade oyoqlarni almashtirmasdan va yonlama grand assemblé. 2 taktda: V pozitsiyada yarimbarmoqlarga relevé va keyingi sakrash uchun demi-plié qilinadi. Oʻng va chap oyoqda navbati bilan toʻrt marta takrorlanadi.

6. Attitude croiséda grand jeté. Musiqiy oʻlcham 4/4.

a) Diagonal boʻyicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. Préparation: oʻng oyoq orqalama croiséga choʻziladi, oyoq uchi polda. Birinchi chorakda oʻng oyoqda—oldinlama coupé effacée qadami va chap oyoqda—attitude croiséda grand jeté; ikkinchi chorakda demi-pliéda sakrash tugaydi; uchinchi chorakda attitude holati saqlanadi; toʻrtinchi chorakda oʻng oyoq orqalama croiséga tushiriladi, oyoq uchi polda. Toʻrt marta takrorlanadi.

b) birinchi chorakda—coupé qadami va grand jeté; ikkinchi chorakda — demi-pliéda sakrashning tugallanishi, uchinchi chorakda—coupéning navbatdagi qadami va grand jeté; toʻrtinchi chorakda demi-pliéda sakrash tugallanadi va h.k.

7. *I arabesqueda grand jeté. Musiqiy o'lcham 4/4.*

Préparation: chap oyoq orqalama croiséga cho'ziladi, oyoq uchi polda.

Taktdan so'ng — o'ng oyoqda demi-plié qilinadi, chap oyoq orqalama sur le cou-de-piedga bukiladi; birinchi chorakda — I arabesqueda 2-nuqtaga chap oyoqda coupé. O'ng oyoqda grand jeté qilinadi; ikkinchi chorakda demi-pliéda tugallanadi; uchinchi va to'rtinchi chorakda chap oyoqda—I pozitsiya bo'yicha oldinga passé va chap oyoqda turiladi, o'ng oyoq uchi polda orqalama croiséda. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.

8. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Yettita entrechat-quatre, orqaga siljish bilan bitta royale, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi va oldinga siljish bilan ijro etiladi.

9. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

To'rtta grands changements de pieds, har biri 1/4lik; yettita petits changements de pieds, har biri 1/8lik, ikki marta ijro etiladi.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING TO'RTINCHI MISOLI

1. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib to'rtta échappés, har biri 1/4lik; II pozitsiyaga ikkita doubles échappés, har biri 2/4lik. To'rtta échappés takrorlanadi va orqalama sur le cou-de-piedda bir oyoqda tugallandigan ikkita échappés qilinadi. Boshidan qaytariladi, oldinlama sur le cou-de-piedda bir oyoqda tugallandigan échappés qilinadi.

2. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. 1/4da — o'ng oyoqda yonlama jeté qilinadi, chap oyoq sur le cou-de-piedda oldinga; uch marta plié-relevé qilinadi, har biri 1/4 lik; 1/4da —chap oyoqda oldinga jeté croisé; o'ng oyoq orqalama sur le cou-de-piedda; uch marta plié-relevé, har biri 1/4lik. Yonlama jeté takrorlanadi va uchta plié-relevé qilinadi. Oldinlama jeté croisé, ikki marta plié-relevé qilinadi, har biri 1/4lik va 1/4da —en tournant en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée bajariladi. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

2/4da o'ng oyoqda —III arabesqueda 90°ga jeté; 2/4da—plié-relevé, V pozitsiyada tugallanadi. Takrorlanadi. 2/4da o'ng oyoqda —I arabesqueda 90°ga 2-nuqtaga jeté; 2/4da—plié-relevé qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda; 2/4da V pozitsiyadan IV

pozitsiyaga tour sur le cou-de- pied en dedans uchun préparation va 2/4da o'ng tomonga tour en dedans. Boshqa oyoqda takrorlanadi.

4. 3/4 o'lchamda 32 takt (vals).

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat 8 taktda: o'ng oyoqda—I arabesqueda to'rtta grandes sissonnes ouvertes, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq orqadan. 8 taktda: diagonal bo'yicha 2-nuqtadan 6-nuqtaga—to'rtta tours glissades en tournant en dehors; glissade boshida chap qo'l I, o'ng qo'l II pozitsiyada, yakunida — o'ng qo'l I, chap qo'l II pozitsiyada. 8 taktda: diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda pas de bourrée suivi qilinadi, o'ng qo'l III, chap qo'l II pozitsiyada allongé; V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. 6 taktda: to'g'ri chiziq bo'yicha chap oyoqda chapga—pas de bourrée suivi, chap qo'l III, o'ng qo'l II pozitsiyada. 2 taktda: chap oyoqda yon tomonga pliédá qadam tashlanadi, attitude croisening pozasiga o'ng oyoqda jeté qilinadi.

5. 4/4 o'lchamda 4 takt.

2/4da— V pozitsiyadan IV pozitsiyaga tour sur le coude-pied en dehors uchun préparation; 2/4da—tour en dehors. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu narsa ikkala tours bilan alohida takrorlanadi.⁹⁰

6. 4/4 o'lchamda 4 takt.

Dastlabki ikki akkordda—demi-plié va V pozitsiyada barmoqlarda turiladi. O'ng oyoqda—to'rtta oldinlama grands battements jetés croisé pozasida, chap oyoqda—to'rtta III arabesque pozasida, o'ng oyoqda—sakkizta yonga, har biri 1/4lik.

⁹⁰ O'quvchilar (har birining imkoniyatiga qarab) tour va ikkita tours en dedansni bajarganlari ma'qul.

IKKINCHI YARIM YILLIK
SABOQNING BESHINCHI MISOLI
USKUNA OLDDIDAGI MASHQLAR

1. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

Bitta demi-plié, ikkita grands pliés, har biri 4/4lik; I, II, IV va V pozitsiyalarda yarimbarmoqlarga ikkita relevés qilinadi, har biri 2/4lik.

2. *Battements tendus. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Bittadan battement tendu oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/4lik; to'rtta yonga, har biri 1/4lik; 2/4da—II pozitsiyaga grand plié qilinadi; 2/4da barmoqlar cho'ziladi, V pozitsiyada orqadan oyoqlar yig'iladi va ikkita doubles tendus qilinadi, har biri 2/4lik. O'ng oyoqda orqaga boshlab teskari yo'nalishda takrorlanadi. Battements tendus jetés: yettitadan oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/8lik, yettinchisida battement tendu jeté—demi-plié. Battements tendus jetés takrorlanadi.

3. *Ronds de jambe par terre vagrands ronds de jambe jeté. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda — préparation en dehors. To'rtta ronds de jambe par terre, har biri 1/4lik; yettita—har biri 1/8lik; ikkita grands ronds de jambe jetés, har biri 2/4lik; to'rtta—har biri 1/4lik. En dedansda takrorlanadi. 2 taktda: plié en dedans en dehorsda aylanish, V pozitsiyaga yarimbarmoqlarga soutenu va chap oyoq oldinlama sur le cou-de-piedda. 2 taktda: o'ng oyoqda yarimbarmoqlarga gavgani egish bilan port de bras qilinadi.

4. *Battements soutenus. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

O'ng oyoqda —bitta oldinlama soutenu, oyoq uchi polda, bittasi 90°ga; ayni shu chap oyoqda orqaga bajariladi; o'ng oyoqda —to'rtta soutenus 90°ga yonga, har biri 2/4lik. O'ng oyoqda orqaga boshlab teskari yo'nalishda takrorlanadi. Frappés: yonga yettita, har biri 1/8lik; 2/4da —V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors; 2/4da—yonlama fondu qilinadi. Frappés takrorlanadi, en dedansda tour qilinadi. Doubles frappés: o'n oltila yonga, har biri 1/4lik.

5. *Ronds de jambe en l'air. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Sakkiizta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/4lik, o'n beshta—har biri 1/8lik. En dedansda takrorlanadi.

6. *Battements battus va petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Epaulement effacéda o'n beshta oldinlama battements battus, har biri 1/8lik; oxirgisida harakatdagi oyoq effacéning kichik pozasida oldinga 45°ga yoziladi; o'n beshta petits battements, har biri 1/8lik; oxirgisida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Teskari yo'nalishda takrorlanadi, orqalama effacée pozasida 45°ga battements battus tugallanadi.

7. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: oldinga yarimbarmoqlarda développé qilinadi, uchinchi va to'rtinchi choraklar oldidan ikkita qisqa balancés, har biri 1/16lik. Ikkinchi takt: yonlama demi-rond va ikkita qisqa balancés. Uchinchi takt: orqalama demi-rond va ikkita qisqa balancés. To'rtinchi takt: 90°ga orqalama écartée pozasida passé, yarimbarmoqlarga qisqa plié-relevé qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi. En dedansda takrorlanadi.

8. *Grand battements jetés balancés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Dastlabki holat - I pozitsiya. Dastlabki ikki akkordda harakatdagi oyoq uchi polda orqaga olib boriladi. Birinchi chorakda — oldinlama battement balancé; ikkinchi chorakda (I pozitsiyada ushlanmasdan) — orqalama battement balancé; uchinchi chorakda—oldinga; to'rtinchi chorakda harakatdagi oyoq 90°ga ushlab turiladi. Keyingi taktida battements balancés orqaga—oldinga-orqaga ijro etiladi, oxirigisi 90°ga ushlab turiladi. Hammasi takrorlanadi.⁹¹ Sakkizta grands battements jetés I pozitsiyadan yonga qilinadi, har biri 2/4lik.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: grand plié V pozitsiyada (o'ng oyoq oldinda), chuqur pliédan — o'ng oyoqda tour en dedans uchun I arabesque pozasida préparation. Ikkinchi takt: yarimbarmoqlardan tovonlarga tushiladi va arabesqueda tour lent en dedans ijro etiladi. Uchinchi takt: arabesque pozasidan chap oyoqda oldinga 90°ga 4-nuqtaga qayrilish bilan I pozitsiya bo'yicha tezkor passé qilinadi (qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi) III arabesqueda en dedansda qayrilish. To'rtinchi takt: arabesque pozasidan—effacée pozasiga oldinga yarimbarmoqlarga 90°ga passé va IV pozitsiyaga

⁹¹Grands battements jetés balancésda musiqiy aksent oyoqlarni yuqoriga tashlashda bo'lishi lozim. Mazkur kombinatsiyada oddiy grands battements jetéslar ham yuqoriga urg'u berilib bajariladi, birinchi chorakda—90°ga qadam tashlash, ikkinchi chorakda—I pozitsiyada battementsening tugallanishi.

effacéda 8—nuqtaga tushiriladi—tour en dedans uchun grande préparation. Beshinchi takt: I arabesqueda tour en dedans. Oltinchi takt: I pozitsiya bo'yicha passé va orqalama croisé pozasiga o'ng oyoqda oldinga qadam tashlanadi, chap oyoq uchi polda. Yettinchi takt: grand port de bras. Sakkizinchi takt: birinchi chorakda—grand port de brasning boshlanishi (pliéda cho'zilish, gavda oldinga egiladi); ikkinchi chorakda chap oyoqda tezda attitude effacée pozasiga o'tiladi; uchinchi va to'rtinchi choraklarda—yurimbarmoqlarga relevé qilinadi.

Battements tendus —4/4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda—oldinlama effacéning kichik pozasida to'rtta battements tendus, har biri 1/4lik; beshta battements tendus jetés, har biri 1/8 lik; 3/8da—flic-flac en dedans en face, orqalama effacéning kichik pozasida tugallanadi; to'rtta orqalama battements tendus effacée pozasida; beshta battements tendus jetés va flic-flac en dehors en face, yonga 45°ga tugallanadi; to'rtta yonlama battements tendus, har biri 1/4lik; yettita tendus jetés, har biri 1/8lik. Battements tendus va tendus jetés yonga takrorlanadi. 2 taktda: chap oyoqda—II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors. 2 taktda: II pozitsiyadan ikkita tours en dehors.

2. *Battements soutenus. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Oldinlama sroiséning kichik pozasida, oyoq uchi polda, en tournant en dedansda soutenu qilinadi; sroiséning kichik pozasida orqaga, oyoq uchi polda, en tournant en dehorsda soutenu qilinadi; Croiséning kichik pozasida yonga, oyoq uchi polda, en tournant en dedansda soutenu qilinadi, har biri 2/4lik; 2/4 da—V pozitsiyadan ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda alohida bajariladi.

3. *Ronds de jambe en l'air. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. V pozitsiya, O'ng oyoq oldinda. 1/4da o'ng oyoqda—yonga siljish bilan jeté en tournant 1/2 tourda; 1/4da chap oyoqda—rond de jambe en l'air en dedans, pliéda tugallanadi; 1/4da chap oyoqda—yonga siljish bilan 1/2 tourda jeté; 1/4da o'ng oyoqda rond de jambe en l'air en dehors, pliéda tugallanadi. Olti marta ijro etiladi. 2/4da yuqoridan o'ng oyoqda turiladi va tour sur le cou-de-pied en dedans qilinadi, tour IV pozitsiyada tugallanadi—tour sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation; 2/4da—ikkita tours en dehors.

4. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda—o'n oltita petits battements en face, o'n oltita en tournanten dehors, har biri 1/8lik. En tournantni quyidagi tarzda ijro etish tavsiya qilinadi: 2-nuqtaga qayrilish bilan bitta petit battement, boshqasida 2-nuqtaga en face, bitta 3-nuqtaga qayrilish bilan, boshqasida 3-nuqtaga en face va shu taxlitda 4, 5, 6, 7, 8 va 1-nuqtalarga.

5. *Katta adagio. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Birinchi takt: grand plié V pozitsiyaga (o'ng oyoq oldinda), chuqur pliedan chap oyoqda tour sur le cou-de-pied en dehors. Ikkinchi takt: tourdan keyin — chap oyoqda plié qilinadi va o'ng oyoqda yarimbarmoqlarda I arabesqueda 2-nuqtaga turiladi, o'ng qo'l III pozitsiya balandligida; V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. Uchinchi takt: o'ng oyoqda—yarimbarmoqlarda 2-nuqtaga qadam tashlanadi va grand fouetté effacée en dehors qilinadi (3/4da), en dehorsda oyoqlar almashtirilib pas de bourrée tugallanadi. To'rtinchi takt: V pozitsiyada yarimbarmoqlarda o'ng tomonga qayrilish va oldinga pas failli qilinadi. Beshinchi va oltinchi taktlar: chap oyoqda — oldinlama effacée pozasida yarimbarmoqlarda développé qilinadi, orqalama écartéda grand rond de jambe va III arabesque; IV pozitsiyaga tushiriladi—grand tour en dedans uchun préparation. Yettinchi takt: tour à la seconde en dedans, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. Sakkizinchi takt: chap oyoqda—8-nuqtaga yarimbarmoqlarda qadam tashlanadi va grand fouetté effacée en dedans (3/4da); en dedansda oyoqlar almashib pas de bourrée tugallanadi. To'qqizinchi va o'ninchi taktlar: o'ng oyoqda—attitude effacéda yarimbarmoqlarda développé qilinadi, oldinlama écartéda grand rond de jambe va oldinlama croisé qilinadi; IV pozitsiyaga tushiriladi—tour en dedans uchun grande préparation. O'n birinchi takt: II arabesqueda tour en dedans. O'n ikkinchi takt: birinchi chorakda II arabesque pozasida yarimbarmoqlarda qolinadi; ikkinchi chorakda V pozitsiyaga demi-pliédà tushiriladi; uchinchi va to'rtinchi choraklarda orqalama pas failli bajariladi.

ALLEGRO

1. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

2. O'ng va chap oyoqda ikkita yonlama assemblés oyoqlarni almashtirib oldinga, har biri 1/4lik; 2/4da—II pozitsiyaga échappé va II pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors. To'rt marta takrorlanadi va teskari tours en dedans bilan ijro etiladi.

O'ng oyoqda — to'rtta oldinlama battements tendus; chap oyoqda — to'rtta orqaga; o'ng oyoqda — sakkizta yonga, har biri 1/4lik. O'ng oyoqda orqaga boshlanib, teskari tartibda takrorlanadi. Battements tendus jetés: beshta oldinga, har biri 1/8lik; 3/8 da — flic-flac en tournant en dedans, II arabesque pozasida 45°ga tugallanadi; beshta orqalama battements tendus jetés, har biri 1/8lik va 3/8da — flic-flac en tournant en dehors, oldinlama effacéning kichik pozasida tugallanadi; yonga yettita va yettita battements tendus jetés, har biri 1/8lik. O'ng oyoqda orqaga boshlanib, battements tendus jetés teskari tartibda takrorlanadi.

3. *Ronds de jambe par terre va grands ronds de jambe jetés*. 4/4 o'lchamda 12 takt.

Dastlabki ikki akkordda — préparation En dehors. Ikkita ronds de jambe par terre, har biri 1/4lik, uchta — har biri 1/8lik. Takrorlanadi. Ikkita ronds de jambe par terre, oltita grands ronds de jambe jetés, har biri 1/4lik. Ayni shu en dedansda bajariladi. 2 taktda: plié en dehors - en dedansda aylanish va oldinlama relevé 90°ga yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan. 2 taktda: gavdani egish bilan oyoqda 90°ga port de bras qilinadi.

4. 45°ga *battements fondus*. 2/4 o'lchamda 24 takt.

2/4da oldinlama fondu; 2/4da — uskunadan yarimqayrilish bilan plié-relevé (harakatdagi oyoq oldinga 45°ga qoladi); 2/4da — plié-relevé uskunadan yarimqayrilish bilan (qayrilish yakunida harakatdagi oyoq orqadan 45°ga); 2/4da — yonlama demi-rond bilan plié-relevé; ikkita yonlama fondus, har biri 2/4lik. Frappés: yonga uchta, har biri 1/8lik, beshta

har biri 1/16 da. O'ng oyoqda orqaga boshlab fondus va frappés teskari yo'nalishda takrorlanadi; uskunaga yarimqayrilishda birinchi plié-relevé qilinadi. Doubles frappés: o'n ikkita yonga, har biri 1/4lik va 2 taktda— orqalama écartée pozasida yarimbarmoqlarda développé qilinadi, keng tombé harakatdagi oyoqda uskunadan yarimqayrilish bilan II arabesque pozasiga 90°ga plié.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Uchta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/8lik. Yana bir marta takrorlanadi. Keyingi taktda to'rt marta qo'shaloq rond de jambe en l'air qilinadi. Uchta ronds de jambe en l'air, har biri 1/8lik, uchinchisida—plié va 2/4da — ikkita tours temps relevé en dehors, yonga 45°ga tugallanadi; 4/4da—qo'shaloq ronds de jambe en l'air, har bir chorak oldida forshlag. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied va battements battus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Sakkizta petits battements, har biri 1/8lik, asta-sekin qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi; épaulement effacéda o'n ikkita battements battus qilinadi, har biri 1/16lik; 1/4da— oldinlama effacéning kichik pozasi, pliéda oyoq uchi polda; oltita petits battements, har biri 1/8lik; 1/4da — plié, harakatdagi oyoq yonga oyoq uchi polda yoziladi; 2/4da—tournant en dedans bilan soutenu, orqalama effacéning kichik pozasiga pliéda tugallanadi; 2/4da—attitude effacéda yarimbarmoqlarga tezkor relevé qilinadi. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

7. *Battements développés balancés. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Birinchi takt: oldinlama développé, uchinchi chorak oldida —tezkor yonlama balancé demi-rond va ushlanmasdan, demi-rond yana oldinga (d'ici — de la); V pozitsiyada tugallanadi. Ikkinchi takt: yonlama développé va uchinchi chorak oldidan —tezkor balancé demi-rond oldinga va yonga, V pozitsiyada tugallanadi. Uchinchi takt: développé orqaga, balancé demi-rond yonga va orqaga.

To'rtinchi takt: développé yonga, balancé demi-rond orqaga va yonga. Tovonda bajariladi, o'zlashtirishiga qarab—yarimbarmoqlarda.

8. *Grands battements jetés pointés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Ikkita oldinlama grands battements pointés o'ng oyoqda, har biri 1/4lik; uchta—har biri 1/8lik; ikkita orqalama grands battements pointés chap oyoqda, har biri 1/4lik; uchta —har biri 1/8lik; ikkita yonlama grands

battements pointés o'ng oyoqda, har biri 1/4lik; uchta — har biri 1/8; 4/4da—orqalama écartée pozasida yarimbarmoqlarda tezkor développé, attitude effacéga qayriladi. V pozitsiyada tugallanadi va barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinch takt: grand plié I pozitsiyada, chuqur pliédan — tour sur le cou-de-pied en dehors chap oyoqda, yakunida (oxirgi chorakda) — développé o'ng oyoqda oldinga yarimbarmoqlarda. Ikkinchi takt: oldingi holatdan (taktdan so'ng) o'ng oyoqda I pozitsiyaga tushiriladi va tour sur le cou-de-pied en dehorsdan chap oyoqda grand plié takrorlanadi, oldinlama développé yarimbarmoqlarda tugallanadi va yonlama demi-rond bajariladi.⁹⁸ Uchinchi takt: yarimbarmoqlardan tovonga tushiriladi va tour lent en dehors à la seconde qilinadi. To'rtinchi takt: à la seconde holatida plié va o'ng oyoqda yonga yarimbarmoqlarda keng qadam tashlanadi, chap oyoq 90°ga grand battement usulida yonga ko'tariladi; oxirgi chorakda I pozitsiyaga tushiriladi. Ayni shu tours en dedans takrorlanadi. Birinchi orqalama développé qilinadi, ikkinchisi—yonlama demi-rond bilan orqaga h.k.

2. *Battements tendus. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Oldinlama croiséning kichik pozasida oltita battements tendus qilinadi, oltinchisida—demi-plié, har biri 1/4lik; 2/4da—V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors. Orqalama croiséning kichik pozasida oltita battements tendus, demi-plié va V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dedans. Beshta battements tendus yonga, demi-plié va ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors. Beshta battements tendus takrorlanadi va en dedansda tours. Battements tendus jetés: to'rttadan oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/8lik va 2 taktda — préparation va II pozitsiyadan toug à la seconde en dedans.

3. *Battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda —oldinlama effacéning kichik pozasida 45°ga

⁹⁸ O'quv yili oxirida ushbu kombinatsiya murakkabroq shaklda bajarilishi mumkin: buning uchun chuqur pliédan I pozitsiyada tour qilinadi, uchinchi marta takrorlanadi va oxirgi chorakda yarimbarmoqlarda grand rond de jambe développé qilinadi.

bitta fondu qilinadi, bitta 90°ga oldinlama effacéening katta pozasida; chap oyoqda — bitta fondu 45°ga orqalama effacéening kichik pozasida, bitta 90°ga orqalama effacéening katta pozasida (qo'llar — allongé), har biri 2/4lik. O'ng oyoqda — ikkita fondus 90°ga orqalama écartée pozasida, har biri 2/4lik; 2/4da—écartée pozasida plié va en tournant en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée; 2/4da — o'ng oyoqda soutenu en tournant ten dehors, yakunida o'ng oyoq yonga 45°ga yoziladi. Frappés — yettita yonga, har biri 1/8lik; 2/4da — o'ng oyoqda coupé va chap oyoqda — grand fouetté effacée en dehors; 2/4da — 90°ga passé bilan en dehorsda qayrilish; 2/4da — ikkinchi fouetté effacée en dehors; 2/4da—en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée, IV pozitsiyada tugallanadi —tour en dehors uchun grande préparation; 4/4da—ikkita tours tirbouchon en dehors, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi. Ayni shu teskari yo'nalishda.

4. *Ronds de jambe en l'air en tournant. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

4/4da — assemblé croisée oldinga va V pozitsiyadan ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors, yakunida harakatdagi oyoqda yonga 45°da yoziladi. Ikkita ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/4lik, uchta—har biri 1/8lik va sakkizta—en tournant en dehors, har biri 1/4lik. Ayni shu en dedansda bajariladi.

5. *Uzatilgan oyoqda qadam- coupé bilan katta pozalarda tours. 2/4 o'lchamda 4 takt.*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. Taktdan so'ng — demi-plié chap oyoqda, o'ng oyoqda — dégagé 45°ga oldinlama effacée, qo'llar I pozitsiyaga yoziladi. Birinchi chorakda — 2-nuqtaga o'ng oyoqda yarimbarmoqlarda keng qadam tashlanadi va attitude effacée pozasida tour en dedans, ayni paytda o'ng qo'l II pozitsiyaga yoziladi, chap qo'l II pozitsiya orqali III pozitsiyaga ko'tariladi, u bilan tour uchun fors olinadi; ikkinchi chorakda chap oyoqda pliége tushiriladi (coupé), o'ng oyoq sur le cou-de-piedda oldinga bukiladi, qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi. Tour to'rt marta takrorlanadi. I arabesque pozalarida va diagonal bo'yicha pastdan yuqoriga effacée pozalarida oldinga 90°ga tours bajariladi.

6. *Katta adagio. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

IV pozitsiya croisée, o'ng oyoq oldinda. Birinchi takt: grand plié;

chuqur pliédan —yarim tour en dedans chap oyoqda attitudeda, attitude croisée pozasida 1-nuqtaga tugallanadi (chuqur pliédan ko'tarilib, chap qo'l tezda III pozitsiyaga ko'tariladi va u II pozitsiyaga yoziladi, ayni paytda o'ng qo'l II pozitsiyadan tezda III pozitsiyaga ko'tariladi) Ikkinchi takt: attitude pozasi saqlanadi, demi-pliéga tushiriladi, chap qo'l III, o'ng qo'l I pozitsiyaga o'tkaziladi, gavda o'ngga egiladi va tour lent en dehors qilinadi. Uchinchi takt: attitude pozasidan IV arabesque pozasiga o'tiladi, orqaga V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda qadam tashlanadi, dégagé chap oyoqda oldinlama croisée va IV pozitsiyaga tushiriladi—tour en dedans uchun grande préparation. To'rtinchi takt: attitudeda yarim tour en dedans, plié-relevé va ikkinchi yarim tour; V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda. Beshinchi takt: chap oyoqda — yonlama développé, en dehorsda 6-nuqtaga qayrilish bilan 90°ga passé, plié va oldinga chap oyoqda 6-nuqtaga attitude effacée pozasida qadam tashlanadi. Oltinchi takt: poza saqlanib, pliéga tushiriladi, o'ng oyoq orqadan oyoq uchi polda cho'ziladi, gavda orqaga egiladi, keyin o'ng qo'l I pozitsiyaga tushiriladi va tezda o'ng oyoqda yarimbarmoqlarga I arabesqueda 90°ga 2-nuqtaga irg'ib turiladi; I pozitsiya bo'yicha oldinga IV pozitsiyaga chap oyoqda, passé—tour en dedans uchun grande préparation. Yettinchi takt: I arabesqueda tour, I pozitsiya bo'yicha oldinga IV pozitsiyaga passé tugallanadi—tour en dehors uchun grande préparation. Sakkizinchi takt: effacée pozasida oldinga chap oyoqda tour; V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinga. To'qqizinchi va o'ninchi taktlar: chap oyoqda yarimbarmoqlarda—grand rond de jambe développé en dehors, III arabesque pozasi bilan tugallanadi, plié va oyoqlarni almashtirib en tournant en dehorsda pas de bourrée. O'n birinchi takt: chap oyoqda—pas de basque en tournant oldinga 1/2 qayrilishda va pas de basque en tournant orqaga 1/2 qayrilishda. O'n ikkinchi takt: chap oyoqda — failli IV pozitsiyaga tours sur le coude-pied en dehors uchun préparation, ikkita tours en dehors. Yakunida tours yarimbarmoqlarda qolinadi, tayanch o'ng oyoqda, chap oyoq sur le cou-de-pied holatidan oldinga yoziladi, yonga va tezda sur le cou-de-piedga orqadan bukiladi. I pozitsiya saqlanib, qo'l panjalari yoziladi.

ALLEGRO

1. 2/4 o'lchamda 8 takt.

Ikkita assemblés battus o'ng va chap oyoqda oyoqlarni almashtirib oldinga, har biri 1/4lik; uchta oldinlama assemblés croisée, har biri 1/8lik; ikkita yonlama sissonnes fermées chap va o'ng oyoqda, oyoqlarni almashtirib, har biri 1/4lik; 2/4da — orqalama entrechat-trois va orqalama assemblé croisée. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi.

1. 2/4 o'lchamda 8 takt.

Oldinlama effacéening kichik pozasida 45°ga sissonne ouverte, ikkita cabriolés 45°ga, assemblé. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rtta marta takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi. Har bir sakrash 1/4da qilinadi.

2. *Gargouillade (rond de jambe double) en dehors va en dedans.*
Musiqiy o'lcham 2/4.

a) Gargouillade V pozitsiyada tugallanadi, har biri 4/4lik va 4/4da — sirpanuvchi parter sakrash bilan tugallanadigan, pas de basqueda yakunlovchi sakrashga o'xshash gargouillade.

b) Gargouilladening birinchi va ikkinchi ko'rinishining har biri 2/4da ijro etiladi.

3. 3/4 o'lchamda 16 takt (sokin vals).

Attitude croisée da grande sissonne ouverte, assemblé; attitude effacé da grande sissonne ouverte, assemblé; o'ng oyoqda ijro etiladi va chap oyoqda takrorlanadi. Grande sissonne ouverte croisée oldinga, assemblé; grande sissonne ouverte effacée oldinga, assemblé; o'ng oyoqda bajariladi va chap oyoqda takrorlanadi.

4. 2/4 o'lchamda 8 takt.

Tezkor sur'atda bajariladi. Grandes sissonnes ouvertesning to'rtinchi kombinatsiyasi takrorlanadi.⁹⁹

5. 2/4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda—effacéening keng IV pozitsiyasiga sissonne tombée, chap oyoq orqadan oyoq uchi polda uzatiladi; qisqa coupé chap oyoqda

⁹⁹ Oltinchi sinfda ayrim murakkab bo'lmagan kombinatsiyalarni sur'atni o'zgartirib bajarish tavsiya qilinadi. Masalan, birinchi marta kombinatsiyani sekin, yumshoq chuqurroq demi-plié bilan ijro etish, ikkinchi marta — tez, poldan qisqa trampolin ko'tarilish bilan bajarish lozim bo'ladi.

orqadan o'ng oyoqqa va o'ng oyoqda attitude effacéda grand jeté; chap oyoqni tushirmasdan, pas failli V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinga. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi.¹⁰⁰

6. 4/4 o'lchamda 4 takt.

To'g'ri chiziqli bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga harakat. V pozitsiya, o'ng oyoq oldinga. Birinchi takt: o'ng oyoqda yonga qadam tashlanadi va yonga yarimqayrilish bilan grand assemblé qilinadi, qo'llar III pozitsiyada, yakunida 1-nuqtaga V pozitsiyaga orqa bilan to'xtaladi, chap oyoq oldinga 1-nuqtaga qarab har ikkala tovonda o'ngga qayrilish; burilish yakunida o'ng oyoq oldinda. Ikkinchi takt: kombinatsiya takrorlanadi. Uchinchi takt: yonga qadam tashlanadi va grand assemblé en tournant qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinga, tizzalar tortiladi, demi-plié qilinadi va to'rtinchi taktida to'rtta grands changements de pieds bajariladi.

7. 2/4 o'lchamda 16 takt.

Ikkita entrechat-quatge, 1/4 har biri; uchta entrechat-quatge, 1/8 har biri. Takrorlanadi. Oyoqlarni almashtirib échappés battus, 2/4 har biri; ikkita royale, 1/4 har biri. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi.

8. 2/4 o'lchamda 16 takt.

Tours chaînés: diagonal bo'yicha 2-nuqtaga o'ng oyoqda uchta chaînés, har biri 2/4lik; 2/4da—demi-plié V pozitsiyada, o'ng oyoq oldinda. To'rt marta bajariladi, oxirgi chaîné V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. Ayni shu takrorlanadi, ammo chaînésning har biri 1/4da ijro etiladi.

10. O'g'il bolalar sinfi uchun entrechat-six. Musiqiy yulcam 2/4.

Taktdan so'ng—demi-plié va V pozitsiyadan yarimbarmoqlarga relevé; birinchi chorakda — demi-plié, ikkinchi chorakda — entrechat-six. Boshida uskunaga qarab o'rganiladi, o'zlashish darajasiga qarab—zal o'rtasida. Ikkinchi yarim yillikda to'rttadan sakkiztagacha entrechat-six qatorasiga ijro etiladi.

11. 2/4 o'lchamda 4 takt.

O'n oltita petits changements de pieds, har biri 1/8 lik.¹⁰¹

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING BIRINCHI MISOLI

1. 2/4 o'lchamda 16 takt.

¹⁰⁰ Bir necha saboqlardan keyin ushbu kombinatsiya teskari yo'nalishda o'rganiladi.

¹⁰¹ Одатда, ҳар бир сабоқ гавдани эғиш билан portdebrasда тугалланади.

Ikkita échappés battus bajariladi, har biri 2/4lik; ikkita échappés II pozitsiyadan oyoqlarni almashtirib (barmoqlarda), har biri 1/4lik; 2/4da— oyoqni orqaga almashtirib sissonne simple qilinadi. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta bajariladi.

2. 2/4 o'lchamda 16 takt.

V pozitsiyadan qo'shaloq rond de jambe en l'air en dehors, o'ng, chap va o'ng oyoqda, har biri 2/4lik; 2/4da —III arabesqueda grande sissonne ouverte. Boshqa oyoqda takrorlanadi va en dedansda bajariladi.

3. 3/4o'lchamda 16 takt (vals).

Préparation chap oyoqda, o'ng oyoq oldinlama croiséeda, oyoq uchi polda. O'ng oyoqda pliéd coupé-qadam tashlash, unga barmoqlarda sakrab chiqiladi, chap oyoq yonlama grand battement usuli bilan 90°ga tashlanadi, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi va I arabesqueda pliéd buriladi, grand fouetté à la seconde — arabesque ijro etiladi. I pozitsiya bo'yicha chap oyoqda oldinlama croiséega rassé, pliéd chap oyoqda qadam-coupé va ikkinchi grand fouetté à la seconde — I arabesque. Ushbu fouetté besh marta ijro etiladi, har biri 2 taktda. 2 taktda—orqaga chap oyoqda V pozitsiyaga qadam tashlanadi, o'ng oyoq orqadan, demi-plié va 4 taktda — oldinlama pas de bourrée suivi croisée, chap oyoq oldinga, chap qo'l III pozitsiyada, o'ng qo'l II pozitsiyada. Oxirgi taktda attitude croiséeda grande sissonne ouverte qilinadi, chap qo'l I pozitsiyaga yozilgan, o'ng qo'l III pozitsiyaga allongé.

4. 4/4 o'lchamda 8 takt.

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. Barmoqlarga I arabesqueda o'ng oyoqda yuqoridan turiladi va siljish bilan oldinga uch marta plié-relevé qilinadi, uchinchi relevé V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinga. Ayni shu yana ikki marta takrorlanadi, barcha plié-relevélar ijro etiladi, har biri 2/4lik. 2/4da—V pozitsiyadan IV pozitsiyaga préparation, chap oyoq oldinga; 2/4da — tour sur le cou-de-pied en dehors, IV pozitsiyaga tugallanadi. 4/4da — ikkita tour sur le cou-de-pied en dehors, V pozitsiyaga tugallanadi, o'ng oyoq orqadan va barmoqlarda turiladi, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi.

5. 2/4 o'lchamda 8 takt.

Dégagé bilan sakkizta tours en dehors diagonal bo'yicha, har biri 2/4lik.

6. Musiqiy o'lcham 2/4.

Diagonal bo'yicha tours chainés to'rttadan sakkiztagacha, har biri 1/4lik.

7. *Musiqiy o'lcham 2/4.*

Sakkizta tours fouettés 45°ga va o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlariga qarab ko'proq.

8. *Musiqiy o'lcham 3/4 (vals).*

Barmoqlarda V port de bras qilinadi.

SABOQNING IKKINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkitadan demi-pliés, ikkitadan grands pliés, har biri 4/4lik, I, II, IV va V pozitsiyalarda.

2. *Battements tendus. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Uchta oldinlama battements tendus, har biri 1/4lik, ikkita har biri 1/8lik. Takrorlanadi. Oltita yonlama battements tendus, har biri 1/4lik, 2/4da—oyoqda almashib uskunaga yarimqayrilish, yakunida chap oyoq yonga yoziladi, oyoq uchi polda va oyoqda almashib yana uskunaga yarimqayrilish qilinadi, yonga yozilib o'ng oyoq uchi polda; oxirgi nimchorakda demi-rond par terre orqaga qilinadi va barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi. Battements tendus jetés: yettitadan oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/8lik; battements tendus jetés I pozitsiyaga: uchta, uchta va uchta, har biri 1/8lik, beshta—har biri 1/16lik. I pozitsiyaga battements tendus jetés takrorlanadi.

3. *Ronds de jambe par terre va grands battements jetés passés. 1/4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda — préparation en dehors. Sakkizta ronds de jambe par terre, har biri 1/4lik, to'rtta grands battements jetés passés en dehors (oldinga — orqaga), har biri 2/4lik. Ayni shu en dedansda ijro etiladi. 2 taktda — plié en dedans va demi-rond en dehorsda II pozitsiyaga qadar aylanish, yonga 90°ga yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan relevé qilinadi. 2 taktda — uskunaga qarab chapga gavgani egish bilan port de bras, o'ng qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi.

4. *45°ga battements fondus. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

2/4da — oldinlama fondu, 2/4da — yonlama demi-rond bilan plié-

relevé, 2/4da — 45°ga oyoqda plié va tour sur le cou-de-pied en dehors, 2/4da — yonlama fondu. Fondus takrorlanadi va 45°ga ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors qilinadi, yakunida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Barchasi en dedansda takrorlanadi. Frappés: yonga uchta, har biri 1/8lik; 2/4da — oyoqni yarimbarmoqlarda almashtirib uskunaga yarimqayrilish, yakunida chap oyoq yonga 45°ga yoziladi va yana uskunaga yarimbarmoqlarda yarimqayrilish qilinadi, o'ng oyoq yonga 45°ga yoziladi. Frappés takrorlanadi, oyoqni almashtirib uskunadan yarimqayrilishlar bajariladi. Doubles frappés: yonga oltita, har biri 1/4lik, uchta — har biri 1/8lik.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

2/4da — tour sur le cou-de-pied temps relevé en dehors, yakunida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi; uchta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/8lik. Boshidan takrorlanadi. Beshta va yana beshta ronds de jam been dehors, har biri 1/16lik; 4/4da — ikkita tours sur le cou-de-pied temps relevé en dehors. Ayni shu en dedansda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 8 takt 4/4 o'lchamda.*

Yigirma to'rtta petits battements, har biri 1/8lik, 4/4da — tour sur le cou-de-pied en dehors V pozitsiyadan, à la secondeda tugallanadi. Petits battements takrorlanadi, V pozitsiyadan en dedansda tour qilinadi va u attitude effacéda tugallanadi.

7. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 16 takt.*

Birinchi takt: demi-plié, harakatdagi oyoq oldinga uzatiladi, oyoq uchi polda, 90°ga yarimbarmoqlarda relevé qilinadi, ayni paytda tizza tayanch oyoqda tortiladi. Ikkinchi takt: uchta qisqa balancés, V pozitsiyada tugallanadi. Uchinchi va to'rtinchi taktlar: oldinga yarimbarmoqlarda développé, grand rond de jambe en dehors va 90°ga passé. Beshinchi, oltinchi, yettinchi va sakkizinchi taktlar: yarimbarmoqlarda qolinib, oldinlama développé qilinadi, grand rond de jambe en dehors, oyoqlarni tushirmasdan — grand rond de jambe en dedans, yana en dehors va V pozitsiyada tugallanadi. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

8. *Grands battements jetés balancés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

I pozitsiya, harakatdagi oyoq orqadan tortiladi, oyoq uchi polda. Ikkita grands battements balancés oldinga — orqaga, har biri 1/4lik, uchta — oldinga — orqaga — oldinga, har biri 1/8lik. 1/8da harakatdagi oyoq oldinga 90°ga ushlab turiladi va orqalama battements kombinatsiyasi davom

ettiriladi — oldinga va h.k.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: grand plié V pozitsiyada (o'ng oyoq oldinda), chuqur pliédan — o'ng oyoqda attitude effacéda tour en dedans. Ikkinchi takt: attitude croisée pozasiga qadar yarim tour lent en dedans. Qayrilish boshida orqaga Engilgina egiladi va chap qo'l II pozitsiyaga yoziladi; qayrilish yakunlanib, o'ng qo'l tayyorgarlik holatiga tushiriladi va I pozitsiya orqali III pozitsiyaga ko'tariladi. Gavda attitude croiséda IV arabesque pozasidagi kabi holatda: chap yelka orqaga tortilgan, o'ng qo'l, III pozitsiyada joylashib, chapga yo'nalgan, tirsak — oldinga, bosh o'ngga qayrilgan va qo'l orqasida joylashgan. Uchinchi takt: oldingi holatdan egilish, harakatdagi oyoq tizzasi tortiladi va en dehorsda à la seconde holatida 5-nuqtaga qarab yarimqayrilish qilinadi, plié va I arabesqueda 3-nuqtaga chap oyoqda qadam tashlanadi. To'rtinchi takt: 1-nuqtaga buriladi (en dedans), ayni paytda oldinlama croisée pozasida grand rond de jambe en dedans qilinadi. Beshinchi takt: croisée pozasida yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, keng tombé va grand port de bras IV pozitsiyada tugallanadi — tour en dehors uchun grande préparation. Oltinchi takt: attitudeda tour en dehors, V pozitsiyada tugallanadi. Yettinchi takt: o'ng oyoqda — plié en dehorsda aylanish (rond de jambe par terre), V pozitsiyada yarimbarmoqlarda tugallanadi. Sakkizinchi takt: o'ng oyoqda plié, chap oyoqda dégagé 45°ga effacéda oldinga 8-nuqtaga, yuqoridan yarimbarmoqlarda chap oyoqda turiladi va I arabesqueda tour en dedans qilinadi.

Battements tendus va tours — 4 o'lchamda 8 taktda. To'rtta battements tendus o'ng oyoqda oldinlama effacéning kichik pozasida, har biri 1/4lik; beshta battements tendus jetés, har biri 1/8lik va 3/8da — flic-flac en tournant en dedans, orqalama effacéning kichik pozasida tugallanadi; orqalama effacée pozasida to'rtta battements tendus, beshta battements tendus jetés va flic-flac en tournant en dehors, yonga 45°ga tugallanadi; to'rtta yonlama battements tendus, beshta tendus jetés va flic-flac en tournant en dehors, effacéning IV pozitsiyasida 2-nuqtaga, tour sur le cou-de-pied en dedans uchun préparationda tugallanadi. Bitta takt — tour en dedans o'ng oyoqda, croiséning IV pozitsiyasida tugallanadi (chap oyoq oldinga); bitta takt birinchi va ikkinchi chorakda — tour sur le cou-de-pied

En dehors, uchunchi va to'rtinchi chorakda — ikkita tours en dehors.

2. *45°ga battements fondus 4/4 o'lchamda 4 takt.*

2/4da o'ng oyoqda — oldinlama effacéning kichik pozasida fondu; 2/4da — en dedansda yarimqayrilish bilan 6-nuqtaga plié-relevé, qayrilish yakunida harakatdagi oyoq orqalama effacéda; 2/4da o'ng oyoq petit battement usulida oldinlama sur le cou-de-pied holatiga o'tkaziladi va oldinlama effacéning kichik pozasida 6-nuqtaga fondu qilinadi; 2/4da — en dedansda yarimqayrilish bilan 1-nuqtaga plié-relevé qilinadi, qayrilish yakunida harakatdagi oyoq orqalama croiséda. Ikkita yonlama doubles fondus, har biri 2/4lik, 4/4da — keng tombé yonga pliédga o'ng oyoqda va tour à la seconde en dedans o'ng tomonga.

3. *Petits battements sur le cou-de-pied. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiya, épaulementt effacé, o'ng oyoq oldinga. 2 taktda: o'ng oyoqda — o'n ikkita petits battements, har biri 1/8lik, qo'llar asta-sekin tayyorgarlik holatidan ko'tariladi — chap qo'l III, o'ng qo'l II pozitsiyaga ko'tariladi. Oxirgi petit battement pliédga tayanch oyoqda tugallanadi, qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi va 1/4da oyoq uchi bilan polda sirpanib, o'ng oyoqda oldinga 2-nuqtaga jeté sakrashi qilinadi. Qo'llar I pozitsiyaga ko'tariladi, gavda oldinga egiladi, chap oyoq effacéga orqadan 45°ga uzatiladi. 1/4da holat saqlanadi. 2 taktda: oldingi pozadan chap oyoqda épaulementt croiséda o'n ikkita petits battements, asta-sekin qo'llar ko'tarilib — o'ng qo'l III, chap qo'l II pozitsiyaga boradi, keyin tayanch oyoqda demi-plié, qo'llar tayyorgarlik holatiga tushiriladi va 2-nuqtaga jeté sakrashi. Qo'llar I pozitsiyaga ko'tariladi, gavda oldinga egiladi, o'ng oyoq orqalama croiséga 45°ga cho'ziladi. 2 taktda: oldingi pozadan petits battements takrorlanadi, o'ng oyoq épaulementt effacéda jeté sakrashi 2 taktda, demi-pliédan ko'tarilib, orqalama écartée pozasiga 90°ga buriladi, yarimbarmoqlarga relevé qilinadi, keng tombé chap oyoqda va II arabesqueda 90°ga tour en dedans.

4. *II pozitsiya tomonga grands battements jetés balancés.*¹⁰² Musiqiy o'lcham 2/4.

a) V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Birinchi chorakda o'ng oyoqda — yonlama grand battement, gavda chapga egiladi; ikkinchi chorakda

¹⁰² I pozitsiya orqali uskunadagi mashqlarda ijro etiladigan grands battements jetés balancésdan farqli ravishda, ushbu battementslar zal o'rtasida V pozitsiya orqali bajariladi.

oyoqda V pozitsiyaga orqadan tushiriladi, gavda rostlanadi. Ayni shu chap oyoqda, o'ng oyoqda takrorlanadi, kamida sakkizta battements. Ayni shu V pozitsiyada oldinga oyoqlar almashib teskari yo'nalishda ijro etiladi.

b) Birinchi chorakda— o'ng oyoqda, yonga 90°ga ushlab turilib battement qilinadi; ikkinchi chorakda, V pozitsiyada ushlab turilmasdan, chap oyoqda battement yonga 90°ga qilinadi va h.k.

5. *Katta adagio. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: o'ng oyoqda —croiséening IV pozitsiyasiga sissonne tombée —tour en dedans uchun grande préparation, attitude effacéda tour en dedans, V pozitsiyada tugallanadi. Ikkinchi takt: chap oyoqda —croiséening IV pozitsiyasiga sissonne tombée—tour en dedans grande préparation va I arabesqueda tour, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinga. Uchinchi takt: II pozitsiyaga grand échappé va II pozitsiyadan —tour à la seconde en dehors o'ng tomonga. To'rtinchi takt: à la seconde holatidan harakatdagi oyoq écartéda orqaga olib boriladi, V pozitsiyaga tushiriladi, o'ng oyoq orqadan va taktning oxirgi ikki choragida chap oyoqda gargouilla-de en dehors ijro etiladi. 4 taktda —o'ng oyoqda yana bir marta adagio takrorlanadi.

ALLEGRO

1. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng va chap oyoqda navbati bilan, oyoqlarni oldinga almashtirib, to'rtta assemblés battus qilinadi, har biri 1/4lik; 2/4da — croiséening IV pozitsiyasiga échappé qilinadi; 2/4da — II pozitsiyaga échappé va II pozitsiyadan —tour sur le cou-de-pied en dehors. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

2. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

45°da en tournant en dehorsda oldinlama croiséening kichik pozasida sissonne ouverte qilinadi, assemblé croisée oldinga. Uch marta bajariladi, har biri 2/4lik. 2/4da — sissorme ouverte 45°da en tournant en dehors, yon tomonga tugallanadi, yonlama assemblé. Ikkita pas de basque oldinga en tournant 1/2 qayrilishda, har biri 2/4lik. Ikkita orqalama entrechat-cinque, orqalama assemblé tugallanadi, har biri 2/4lik. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi.

3. *2/4 ўлчамда 8 такт yoki 3\4 o'lchamda 16 takt (vals).*

O'ng oyoqda — grande sissorme ouverte attitude croisée siljish bilan oldinga en dedansda yarimqayrilish bilan 5-nuqtaga, assemblé

tugallanadi; attitude croiséeda siljish va en dedansda yarimqayrilish bilan 1-nuqtaga grande sissorme ouverte, assemblé tugallanadi, har biri 2/4lik. 2/4da chap oyoqda taktdan so'ng — oldinlama pas couru (to'rtta qadam, beshinchi qadam — coupé) va o'ng oyoqda — oldinlama grand assemblé croisée, o'ng qo'l I pozitsiyada, chap III pozitsiyada; 2/4da — ikkita entrechat-quatre, qo'llar asta-sekin pastga tushiriladi. Ikkita grands échappés II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib, har biri 2/4lik. O'ng oyoqda — oldinlama croisée pozasida siljish bilan orqaga va en dehorsda yarimqayrilish bilan 5-nuqtaga grande sissonne ouverte qilinadi, assembléda tugallanadi; oldinlama croisée pozasida siljish bilan orqaga va En dehorsda yarimqayrilish bilan 1-nuqtaga grande sissonne ouverte bajariladi, assembléda tugallanadi, har biri 2/4lik.

4. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

90°ga uchta yonlama sissonnes fondues, o'ng, chap va o'ng oyoqda oyoqlarni almashtirib orqaga; bitta sissonne fondue III arabesque pozasida; uchta sissonnes fondues yonga, o'ng, chap va o'ng oyoqda oyoqlarni almashtirib oldinga va oldinlama croisée pozasida bitta sissonne fondue qilinadi, har biri 2 taktda.

5. $4/4$ o'lchamda 8 takt.

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. To'rtta brisés dessus-dessous (o'ng oyoqdan boshlab), har biri 2/4lik; o'ng oyoqda — kichik jeté siljish bilan yonga; chap oyoqda — oldinlama kichik jeté croisée, har biri 1/4lik; jetés yana bir marta takrorlanadi. 4/4da o'ng oyoqda — coupé qadami oldinlama effacéda, attitude croiséeda chap oyoqda grand jeté, assemblé. To'rtinchi chorak pauza. Barchasi takrorlanadi.

6. *Soubresaut. Musiqiy o'lcham 2/4.*

a) har biri 2 taktda ijro etiladi.

b) har biri 1 taktda ijro etiladi.

7. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

4 taktda: o'ng oyoqda — oldinlama sissonne tombée effacée va ikkita cabrioles 45°ga II arabesquening kichik pozasida, en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée. 4 taktda: chap oyoqda — oldinlama sissonne tombé croisée va ikkita cabrioles 45°ga III arabesquening kichik pozasida, assembléda tugallanadi. 4 taktda: o'ng oyoqda — oldinlama sissonne tombée effacée va ikkita cabrioles 45°ga I arabesquening kichik pozasida, en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée. 2 taktda: chap oyoqda

to'g'ri chiziq bo'yicha—yonga qadam tashlanadi va grand assemblé en tournant, qo'llar III pozitsiyada; V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinga. 2 taktda pauza.

8. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

To'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. 2/4da — bitta emboité en tournant oldinga siljish bilan yonga 1/2 tourda va oldinlama assemblé; 2/4da — ikkinchi emboité en tournant va oldinlama assemblé. Qatorasiga sakkizta emboités en tournant oldinga, assemblesiz, har biri 1/4lik; 1/4da— assemblé yonga, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan, va uchta entrechat-quatre, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu emboités en tournant bilan orqaga ijro etiladi.

9. *2/4 o'lchamda 4 takt.*

O'ng oyoqda diagonal bo'yicha 2-nuqtaga — yettita tours chainés, har biri 1/4lik; 1/4da ular V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan.

10. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ttiz ikkita petits changements de pieds, har biri 1/8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING IKKINCHI MISOLI

1. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. 2/4da o'ng oyoqda — oyoqlarni almashtirmasdan yonlama glissade va assemblé battu, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda; croiséening kichik pozasida ikkita oldinlama sus-sous, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.¹⁰³

2. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiyadan qo'shaloq rond de jambe En l'air En dehors, o'ng va chap oyoqda, har biri 2/4lik; o'ng oyoqda — grande sissonne ouverte SH arabesqueda, grande sissonne ouverte I arabesqueda 2-nuqtaga, har biri 2/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

3. *3/4 o'lchamda 32 takt (vals).*

36 taktda: o'ng oyoqda — attitude croiséeda grande sissonne ouverte, plié (oyoqni tushirmasdan) va relevé III arabesqueda; V

¹⁰³ Oddiy pas allegroni ba'zan barmoqlardagi oddiy paslar bilan birlashtirish tavsiya qilinadi.

pozitsiyada tugallanadi. Uch marta bajariladi. O'ng oyoqda — grande sissonne ouverte à la seconde (oyoqni tushirmasdan), plié-relevé I arabesqueda; V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinga. 8 taktda: o'ng oyoqda 2- nuqtaga — to'rt marta tours glissades en tournant, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan, 4 taktda: chap oyoqda to'g'ri chiziq bo'yicha chapga — pas de bourrée suivi, chap qo'l III pozitsiyada, o'ng qo'l II pozitsiyada; oxirgi taktda—chap oyoqda plié, o'ng oyoqda dégagé yonga 45°da, qo'llar II pozitsiyaga yoziladi va 8-nuqtaga buriladi. 4 taktda: ikki marta dégagé bilan tour en dehors (chap tomonga), croiséning IV pozitsiyasida tugallanadi, chap oyoq orqadan, o'ng qo'l III pozitsiyada, chap qo'l II pozitsiyada, bosh o'ngga qayriladi.

4. *3/4 o'lchamda 16 takt (sokin vals).*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. V pozitsiya, chap oyoq oldinda. 4 taktda: o'ng oyoqda barmoqlarga 2-nuqta yo'nalishida yonga qadam tashlanadi, plié va chap oyoqda — grand fouetté effacée en dehors, en dehorsda oyoqlarni almashtirib croiséning IV pozitsiyasiga pas de bourrée va tour sur le cou-de-pied en dehors o'ng tomonga. Navbatdagi 8 taktda: oldingi kombinatsiya ikki marta takrorlanadi, ammo oxirgi marta ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors ijro etiladi. 4 taktda: taktdan so'ng chap oyoqda—oldinlama glissade croisée (sakrovchan), barmoqlarga jeté chap oyoqda attitude croiséda, pozani saqlab, pliéga tushiriladi; o'ng oyoqda — orqalama glissade croisée (sakrovchan), qadam bilan yuqoridan o'ng oyoqda barmoqlarda 5-nuqtaga turiladi va yarim tour en dedans qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda.

5. *3/4 o'lchamda 16 takt (sokin vals).*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. 4 taktda: o'ng oyoqda barmoqlarga 2-nuqta yo'nalishida yonga qadam tashlanadi va chap oyoqda — grand fouetté effacée en dedans, en dedansda oyoqlarni almashtirib croiséning IV pozitsiyasiga pas de bourrée qilinadi va o'ng tomonga tour sur le cou-de-pied en dedans; V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq orqadan. Navbatdagi 8 taktda: oldingi kombinatsiya ikki marta takrorlanadi, oxirgi marta ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans ijro etiladi va tours V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. 4 taktda: yonga

barmoqlarda o'ng oyoqda 2-nuqtaga qadam tashlanadi va plieda oldinlama effacéening kichik pozasiga tushiriladi, chap oyoq uchi polda; barmoqlarda ko'tariladi, chap oyoqda ikkita oldinlama battements battus ijro qilinib, pliéga effacée pozasiga tushiriladi, oyoq uchi polda; battu takrorlanadi, oldinga chap oyoqda 8-nuqtaga keng tombé qilinadi va ikkita tours sur le coude-pied en dedans bajariladi.

6. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

6-nuqtadan 2-nuqtaga—yettita tours chaînés, har biri 1/4lik, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan; o'ng oyoqda 2-nuqtaga dégagé va diagonal bo'yicha yuqoriga 6-nuqtaga pas de bourree suivi.

7. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

a) Diagonal bo'yicha dégagé bilan sakkizta tours en dehors, har biri 2/4lik.

b) diagonal bo'yicha souped bilan sakkizta tours en dedans (tours-piqué), har biri 2/4lik.

8. *Musiqiy o'lcham 2/4.*

En dehors va en dedansda 45°ga tours fouettés.

SABOQNING UCHINCHI MISOLI USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita grands pliés I pozitsiyada va gavdani egish bilan ikkita ports de bras, ikkita grands pliés II pozitsiyaga va yarimbarmoqlarga ikkita relevés, ikkita grands plies IV pozitsiyada va ikkita ports de bras — birinchisi gavdani egish bilan uskuna tomonga, ikkinchisi uskunadan egilish bilan; ikkita grands plies V pozitsiyada va gavdani egish bilan ikkita ports de bras.

2. *Battements tendus. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Yettita oldinlama battements tendus, har biri 1/4lik (yettinchisida—demi-plié), 1/4da—V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda uskunaga to'liq qayrilish, pliéda tugallanadi; yettita orqalama battements tendus (yettinchisida — demi-plié), V pozitsiyada yarimbarmoqlarda uskunadan to'liq qayrilish, pliéda tugallanadi. Ikkitadan battements tendus oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/4lik, takrorlanadi va oxirgi battementda qo'llar tayyorgarlik

holatiga tushiriladi. Battements tendus jetés: yettita oldinga har biri 1/8lik, qo'l asta-sekin III pozitsiyaga ko'tariladi; yettita yonga, qo'l II pozitsiyaga yoziladi va u tayyorgarlik holatiga tushiriladi; yettita orqaga, qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi va yettita yonga, qo'l II pozitsiyaga yoziladi. Battements tendus jetés I pozitsiyaga; yettita va yettita har biri 1/8lik, to'rt marta beshta tendus jetés, har biri 1/16lik.

3. *Ronds de jambe par terre, grands ronds de jambe jetés va grands battements jetés passés. 4/4 o'lchamda 20 takt.*

Dastlabki ikki akkordda — préparation en dehors. To'rtta ronds de jambe par terre, har biri 1/4lik, yettita — har biri 1/8lik; to'rtta grands ronds de jambe jetés, har biri 1/4 lik (oxirgisi oldinga 90°ga tugallanadi) va 4/4da gavdani egish bilan port de bras bajariladi. Harakatdagi oyoq oldinga 90°ga joylashgan holatdan barcha en dedanslar takrorlanadi (port de bras oyoqda orqaga 90°ga ijro etiladi). To'rtta ronds de jambe par terre en dehors, har biri 1/4lik; yettita — har biri 1/8lik; to'rtta grands battements jetés passés (oldinga — orqaga), har biri 2/4lik. Barchasi en dedansda takrorlanadi. 2 taktda — plié en dedans — en dehorsda aylanish; 2 taktda — pliédá cho'zilish bilan va gavdani egish bilan port de bras qilinadi.

4. *Battements fondus 45°da. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

2/4 da — V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors; 2/4da o'ng oyoqda — oldinlama fondu; 2/4da — V pozitsiyadan toug sur le cou-de-pied en dedans o'ng oyoqda o'ng tomonga va 2/4da chap oyoqda (uni petit battement usulida orqaga ko'chirib) — orqalama fondu. O'ng oyoqda — double fondu oldinga va yonga, har biri 2/4lik; 2/4da — II pozitsiyadan ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors 45°ga va 2/4da — ikkita tezkor yonlama fondus. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi. Frappés: yonga yettita va yettita, har biri 1/8lik; doubles frappés: ikkita har biri 1/4lik, uchta har biri 1/8lik, ikkita har biri 1/4lik, ikkita har biri 1/8lik va 1/4da — oyoq almashtirib yarimbarmoqlarda uskunaga tezlikda yarimqayrilish, yakunida chap oyoq yonga 45°da yoziladi.

5. *Ronds de jambe en l'air va petits battements sur le cou-de-pied. 3/4 o'lchamda 16 takt.*

Beshta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/8lik va 3/8da - flic — flas en tournant en dehors, yonga 45°ga tugallanadi; uchta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/8lik, ikki marta 2/4da qo'shaloq rond de jambe en l'air (har bir chorak oldidan forshlagda). Epaulement croiséda o'n

ikkita oldinlama battements battus, har biri 1/16lik, 1/4lik—pliéda o'ng oyoqda tombé, chap oyoq orqalama croiséega cho'ziladi, oyoq uchi polda (diagonal bo'yicha uskunadan arabesquening kichik pozasi). Taktdan so'ng—chap oyoqda yarimbarmoqlarga coupé, o'ng oyoq yonga 45°ga yoziladi va oltita petits battements, har biri 1/8lik; yakunida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi va petits battements tezkor développé bilan II arabesque pozasida 90°ga tugallanadi.

6. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: birinchi va ikkinchi chorakda— oldinlama développé yarimbarmoqlarda va yonlama demi-rond; uchinchi chorak oldidan—tezkor balancé—demi-rond (d'ici-de la) oldinga va yonga, to'rtinchi chorakda holat saqlanadi. Ikkinchi takt: 90°ga attitude yeffacéeda passé, V pozitsiyada tugallanadi. Uchinchi takt: orqalama développé yarimbarmoqlarda, yonlama demi-rond va tezkor balancé — demi-rond (d'ici - de la) orqaga va yonga. To'rtinchi takt: 90°ga oldinlama effacéye pozasiga passé, V pozitsiyada tugallanadi. Beshinchi takt: développé yarimbarmoqlarda yonga, demi-rond oldinga va tezkor balancé — demi-rond (d'ici - de la) yonga va oldinga. Oltinchi takt: 90°da écartée pozasiga orqaga passé, V pozitsiyada tugallanadi. Yettinchi takt: développé yarimbarmoqlarda yonga, demi-rond orqaga va tezkor balancé — demi-rond (d'ici — de la) yonga va orqaga. Sakkizinchi takt: 90°da écartée pozasida oldinga passé va oxirgi ikki chorakda — keng tombé plieda harakatdagi oyoqda uskunaga yarimqayrilish bilan, yakunida —chap oyoqda oldinga 90°ga développé, tayanch oyoq plieda.

7. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Ikkita oldinlama grands battements, har biri 1/4lik, 1/4da oldinlama grand battement tezkor demi-rond bilan yonga; 1/4da — yonlama battement tendu. Ikkita yonlama grands battements, har biri 1/4lik; 1/4da - yonlama grand battement, tezkor orqalama demi-rond bilan; 1/4da — orqalama battement tendu. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Birinchi takt: grand plie I pozitsiyada, chuqur pliedan — tour sur le cou-de-pied en dehors chap oyoqda, orqalama écartée pozasida 90°ga

tugallanadi. Ikkinchi takt: *écartée* pozasida yarim tour lent en dehors va o'ng oyoqda III arabesque pozasida 90°ga 8-nuqtaga plieda tombé. Uchinchi takt: taktdan so'ng, bir nimchorakda—*relevé* yarimbarmoqlarda attitude croiséda va grand port de bras IV pozitsiyada tugallanadi—tour en dehors uchun grande préparation. To'rtinchi takt: tour à la seconde en dehors.

Battements tendus va tours: 4/4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda sakkizta battements tendus doubles (II pozitsiyaga tovonni tushirish bilan), har biri 2/4lik; battements tendus jetés o'n oltila en tournant en dedansda, har biri 1/8lik; 2 taktda: chap oyoqda II pozitsiyadan — tour sur le cou-de-pied on dehors, bitta va ikkita.¹⁰⁴

2. *Battements développés ballottés va grand fouette effacée. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

4/4da—*effacéda* développé ballotté qilinadi, o'ng oyoqda oldinga, chap oyoqda — orqaga; 2/4 da bevosita V pozitsiyadan — yarimbarmoqlar, o'ng oyoqda grand fouette effacée en dehors qilinadi va 2/4da harakatdagi oyoq yonga 90°ga o'tadi, ayni paytda tayanch oyoqda yarimbarmoqlarda ko'tariladi. V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda. 4/4da—*effacéda* développé ballotté, chap oyoqda—orqaga, o'ng oyoqda—oldinga; 2/4da V pozitsiyadan — yarimbarmoqlar, chap oyoqda grand fouette effacée en dedans ijro etiladi; 2/4da harakatdagi oyoq yonga 90°ga o'tkaziladi, ayni paytda tayanch oyoqda yarimbarmoqlarda ko'tariladi. Oxirgi chorakda—chap oyoqda yarimbarmoqlarga coupé, o'ng oyoq yonga 45°ga yoziladi. Frappés: yonga yettita en tournant en dehors, har biri 1/8lik; 5-nuqtagacha qayrilish (yarimqayrilish); to'rtta doubles frappés, har biri 1/4lik, qayrilishning ikkinchi yarmi en dehorsda tugallanadi; 4/4da — yonga 45°ga ikkita doubles fondus qilinadi; 4/4da—o'ng oyoqda tombé va ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans, oldinlama croisée pozasida 90°ga tugallanadi.

3. *Ronds de jambe en l'air sa battements battus. 4/4 o'lchamda 8*

¹⁰⁴ Yuqori sinflarda préparation va II pozitsiyadan tours quyidagi tartibda taqsimlanishi mumkin. Birinchi takt: taktdan so'ng —V pozitsiyada yarimbarmoqlarga demi-plié va relevé, qo'llar I pozitsiyada. Birinchi chorakda harakatdagi oyoq yonga na /45°ga yoziladi. Qo'llar II pozitsiyaga yoziladi: ikkinchi chorakda —II pozitsiyaga demi-plié, qo'llar I va II pozitsiyalarda: uchinchi va to'rtinchi chorakda sur le cou-de-piedda to'xtalish bilan tour ijro etiladi. Ikkinchi takt: birinchi chorakda sur le cou-de-pied holatidan harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi, qo'llar II pozitsiyaga yoziladi; ikkinchi chorakda —II pozitsiyada demi-plié, qo'llar I va II pozitsiyalarda: uchinchi chorakda ikkita tours ijro etiladi; to'rtinchi chorakda V pozitsiyada demi-pliéda to'xtash.

takt.

O'ng oyoqda *préparation*, chap oyoq orqalama *croisée*da uzatilgan oyoq uchi polda. Taktdan so'ng — *dégagé* chap oyoqda yonga 45°ga va plié o'ng oyoqda; 2/4da — *pas de bourrée* dessus-dessous en tournant. V pozitsiyada tugallanadi; 2/4da — ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors chap oyoqda, yakunida o'ng oyoq yonga 45°ga yozilgan. To'rtta ronds de jambe en l'air en tournant en dehors, har biri 1/4lik (qayrilish yarmi 5-nuqttagacha); uchta va uchta ronds de jambe en l'air, har biri 1/8lik (qayrilishning ikkinchi yarmi); beshta ronds de jambe en l'air en dehors en face, har biri 1/8lik; beshinchi rond de jambe pliédá, oldinlama effacée pozasida 45°ga tugallanadi; 1/4da — oldinlama pas couru 2-nuqtga (to'rt qadam), oldinlama effacéening kichik pozasida pliédá tugallanadi, o'ng oyoq uchi polda. O'ng oyoqda — o'n ikkita oldinlama battements battus harakati épaulement effacéda har biri 1/16da; 1/4da pliédá effacée pozasida oldinga tushiriladi, oyoq uchi polda. Battements battus va effacée pozasi takrorlanadi. Oldinlama épaulementt effacéda sakkizta battements battus, har biri 1/16lik; 2/4da harakatdagi oyoq orqalama effacéening kichik pozasiga 45°ga olinadi, pliédá tayanch oyoqqa tushiriladi va en dehorsda oyoqlarni almashtirib *pas de bourrée* qilinadi, IV pozitsiyada tugallanadi — tour en dehors uchun grande *préparation*; 4/4da attitude *croisée* pozasida tour en dehors; qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi. Ayni shu narsa en dedansda tour bilan oldinlama *croisée* pozasida ijro etiladi, yakunida mos tayanch oyoqda, SH pozitsiyaga qo'l ko'tariladi, boshqa qo'l I pozitsiyaga boradi.

4. *Grands battements jetés. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Dastlabki holat — V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Birinchi chorakda o'ng oyoqda — oldinlama grand battement *croisée*. Gavda orqaga tashlanadi, chap qo'l I pozitsiyada, o'ng qo'l II pozitsiyada, bosh o'ngga qayriladi. Ikkinchi chorakda harakatdagi oyoq épaulement *croisé*ni saqlagan holda I pozitsiyaga tushiriladi, qo'llar avvalgi holatda qoladi. Uchinchi chorakda — grand battement I arabesquedá. To'rtinchi chorakda harakatdagi oyoq I pozitsiyaga épaulement *croisé*da tushiriladi. Shu tarzda oltita grands battement ijro etiladi, oxirgi battement (I arabesquedá) V pozitsiyada épaulementt *croisé*da tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. 2/4da chap oyoqda — V pozitsiyadan IV pozitsiyaga tours sur le cou-de-pied en dehors uchun *préparation*; 2/4da — ikkita tours en dehors bajariladi.

5. *Katta adagio. 4/4 o'lchamda 12 takt yoki 3/4 o'lchamda 4 takt*

Diagonal bo'yicha 2-nuqtadan 6-nuqtaga harakat. V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Qadam-coupé chap oyoqda, 6-nuqta yo'nalishi bo'yicha grand assemblé en tournant; qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi; V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinga. 2-nuqtaga, o'ng oyoqda II arabesque pozasiga qadam tashlanadi, chap oyoq uchi polda. II arabesque holatidan—coupé qadami chap oyoqda 6-nuqta yo'nalishi bo'yicha va grand assemblé en tournant; 2-nuqtaga qadam o'ng oyoqda I arabesque pozasiga va grand assemblé en tournant takrorlanadi. Ikkita grands changements de pieds, qo'llar III pozitsiyadan tayyorgarlik holatiga tushiriladi.¹⁰⁶O'ng oyoqda 2-nuqtaga—sissonne tombée keng IV pozitsiyaga effacée, coupé chap oyoqda orqadan o'ngi bilan, grand jeté o'ng oyoqda attitude effacée, o'tuvchan trampolin pas failli II arabesque pozasida va grand assemblé battu yonga, chap qo'l III pozitsiyaga, o'ng qo'l I pozitsiyaga ko'tariladi.

7. *3/4 o'lchamda 16 takt (vals).*

Chap oyoqda préparation, o'ng oyoq croisée oldinga cho'zilgan, oyoq uchi polda. 4 taktda: orqalama effacée qadami pliéda o'ng oyoqda va jeté passé oldinga 90°ga,¹⁰⁷ chap qo'l III pozitsiyaga, o'ng qo'l —II pozitsiyaga ko'tariladi; pas couru orqaga (o'ng oyoqdan boshlanadi, to'rt qadam qilinadi) 4-nuqta yo'nalishi bo'yicha, effacée qadami orqaga pliéda va jeté passé oldinga 90°ga; o'ng qo'l III, chap qo'l II pozitsiyada. 4 taktda: orqaga sakrab (tomoshabinga qaragan holda) 6-nuqtaga va V pozitsiyada turiladi, o'ng oyoq oldinda. 8 taktda: kichik sissonne tombée o'ng oyoqda oldinga 2-nuqtaga effacéning IV pozitsiyasiga va jeté passé orqaga 90°ga; o'ng qo'l III, chap qo'l—II pozitsiyada allongé; pas couru oldinga (to'rt qadam) 2-nuqta yo'nalishi bo'yicha va orqaga 90°ga jeté passé. Ras couru va jeté passé takrorlanadi. O'ng oyoqda — glissade oldinga 2-nuqtaga va grand pas de chat oldinga; chap qo'l III, o'ng—I pozitsiyada. Chap oyoqda to'xtalish, o'ng oyoq croisée orqaga uzatiladi, oyoq uchi polda.¹⁰⁸

8. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. O'ng oyoqda boshlanadi va to'rt marta brisé dessus-dessous bajariladi, har biri 2/4lik; o'ng oyoqda — ikkita oldinlama brisés, har biri 1/4lik; uchta brisés, har biri 1/8lik; chap oyoqda

¹⁰⁶ O'g'il bolalar sinfi uchun ikkita yentrechat-six bajariladi.

¹⁰⁷ Jeté passé oldinga siljimasdan faqat yuqoriga sakrab qilinadi, oyoqlar oldinga tashlanadi: orqalama jeté passé—orqaga oyoq tashlash va oldinga sakrash paytida uchish bilan.

¹⁰⁸ Barcha pas couru lar taktdan so'ng bajariladi.

— ikkita orqalama brisé, har biri 1/4lik; ikkita —har biri 1/8lik va 1/8da — royale. Boshqa oyoqda takrorlanadi.

9. *Tours sissonne tombée. Musiqiy o'lcham 2/4.*

To'g'ri chiziq bo'yicha 1-nuqtaga va diagonal bo'yicha, to'rttadan sakkiztagacha tours. Har bir tour 2/4da o'rganiladi, o'zlashish darajasiga qarab—1/4da bajariladi.

10. *2/4 o'lchamda 4 takt.*

O'n oltita petits changements de pieds, har biri 1/8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING UCHINCHI MISOLI

1. *4/4o'lchamda 8 takt.*

Oyoqlarni almashtirib II pozitsiyaga to'rtta échappés (o'ng oyoqdan boshlanadi), har biri 1/4lik; 4/4da — o'ng oyoqda échappé II pozitsiyaga bir oyoqda tugallanadi, boshqasi esa orqalama sur le coude-piedda va ikkita pliés-relevés, V pozitsiyada tugallanadi. 4/4da— chap oyoqda échappé bir oyoqda tugallanadi va ikkita pliés-relevés, V pozitsiyada tugallanadi. Uchta sauté V pozitsiyada barmoqlarda, har biri 1/8lik, uchinchisida demi-pliéga tushiriladi; 2/4 da—V pozitsiyaga barmoqlarda chap tomonga qayrilish, V pozitsiyada demi-pliéda tugallanadi. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi.

2. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

Oyoqlarni orqaga almashtirib to'rtta sissonnes simples, o'ng va chap oyoqda navbati bilan, har biri 1/4lik; 4/4 da— V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va tour sur le cou-de-pied en dehors, o'ng va chap oyoqda navbati bilan. Boshidan takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

8. *3/4 o'lchamda 16 takt (vals).*

O'ng oyoqda préparation, chap oyoq croiséda oldinga tortilgan, oyoq uchi polda. Bir taktda — grande sissonne ouverte o'ng oyoqda I arabesqueda to'g'ri chiziq bo'yicha 3-nuqtaga, bunda oyoq uchida o'ng oyoqda sirpaniladi, yarim kuchli siljish bilan oldinga. Bir taktda, chap oyoq V pozitsiyaga oldinga qo'yiladi, o'ng oyoqda sissonne simple qilinadi (chap oyoq oldinlama sur le cou-de-piedda) épaulementl effacéda, qo'llar panjarasimon holatda uncha baland bo'lmagan I pozitsiyada birlashtiriladi. Oldingi holatdan xudda shunday grande sissonne ouverte I arabesqueda chap oyoqda to'g'ri chiziq bo'ylab 7-nuqtaga bajariladi va sissonne simple chap oyoqda épaulementl effacéda qilinadi. Kombinatsiya olti marta qilinadi, biroq oltinchi marta, sissonne simple o'rniga V pozitsiyaga

barmoqlarda turiladi, o'ng oyoq oldinga, va oxirgi chorakda qadam oldinga o'ng oyoqda pliéd 2-nuqtaga qadam tashlanadi, chap oyoqda dégage yonga 45°ga bajariladi. Chap oyoqda dégage bilan uch marta toug en dehors bir taktda qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan; bir taktda — grande sissonne ouverte o'ng oyoqda, chap oyoq yarim qayrilgan croisée oldinga, o'ng qo'l III pozitsiyada, chap qo'l II pozitsiyada.

9. *2/4 o'lchamda 16 takt (pitsikato).*

Préparation chap oyoqda, o'ng oyoq oldinlama croisée uzatilgan, oyoq uchi polda. Taktdan so'ng — demi-plié; 2/4da grand fouetté en face ijro etiladi, yuqoridan o'ng oyoqda turib barmoqlarda qadam-coupé qilinadi, attitude effacée pozasi bilan tugallanadi; 2/4da — pliéd chap oyoqda coupé (o'ng oyoq orqasidan qo'yiladi), o'ng oyoq sur le cou-de-piedda oldinga bukilgan (barcha figura épaulement effacéyeda) va bitta emboité oldinga o'ng oyoqda (diagonal bo'yicha siljish bilan oldinga). 2/4da—chap oyoqda qadam tashlanadi va attitude effacée pozasiga ikkinchi grand fouetté; 2/4da — coupé va bitta emboité. I arabesque pozasiga grand fouetté shu tarzda ikki marta ijro etiladi, keyin uchta oldinlama jetés fondus diagonal bo'yicha 8-nuqtaga, har biri 2/4lik (o'ng, chap va o'ng oyoqda); chap oyoqda I arabesqueda 90°ga barmoqlarda turiladi; demi-pliéd tushiriladi va poza saqlanib, uch marta plié-relevé bajariladi, har biri 2/4lik, diagonal bo'yicha orqaga 4-nuqta yo'nalishida siljib, to'rtinchi relevéd barmoqlardagi arabesque pozasi uzoq saqlanib turadi.

10. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va yettita tours sur le cou-de-pied en dehors V pozitsiyadan diagonal bo'yicha oldinga siljish bilan, har bir tour 2/4da.

11. *Tours chaînés va tours fouettés mashqlari.*

SABOQNING TO'RTINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita demi-pliés, ikkita grands pliés I pozitsiyada, har biri 4/4lik; ikkita grands pliés II pozitsiyada, har biri 4/4lik; 4/4da yonga uskunaga qarab gavda egiladi; 4/4da uskundan yonga egilish. Ikkita demi-pliés, ikkita grands pliés, IV pozitsiyada, har biri 4/4lik; ikkita grands pliés V pozitsiyada va gavdani egish bilan ikkita port de bras (orqaga), har biri 4/4lik.

2. *Battements tendus. 2/4 o'lchamda 32 takt.*

Sakkizta oldinlama battements tendus, har biri 1/4lik; beshta yonlama battements tendus, har biri 1/4lik; beshinchisida—demi-plié 1/4da—V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda uskunaga qarab to'liq qayrilish; 2/4da — demi-pliéda bitta yonlama tendu va yarimbarmoqlarda uskunaga qarab to'liq qayrilish. O'ng oyoqda orqaga boshlanib teskari yo'nalishda takrorlanadi. Battements tendus jetés: oldinga yettita, har biri 1/8lik; yonga beshta, har biri 1/8lik; 3/8da — flic-flac en tournant en dehors, orqalama écartée pozasida tugallanadi. Orqalama yecartéening kichik pozasida yettita va yettita battements tendus jetés, har biri 1/8lik. Battements tendus jetés teskari yo'nalishda takrorlanadi.

3. *Ronds de jambe par terre va grands ronds de jambe jele. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Dastlabki ikki akkordda — préparation en dehors. Uchta ronds de jambe par terre va bitta grand rond de jambe jeté, har biri 1/4lik; uch marta bajariladi. Yettita ronds de jambe par terre en dehors, har biri 1/8lik. Barchasi en dedansda takrorlanadi. 2 taktida — pilé en dedans — en dehorsda aylanish va orqaga 90ga yarimbarmoqlarda relevé qilinadi. 2 taktida — plié-relevé uskunadan yarimqayrilish bilan va gavdani egish bilan port de bras, oyoq oldinga 90°ga.

4. *45°ga battements fondus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

2/4da — oldinlama double fondu; 2/4da — to'liq orqalama rond en dehors bilan plié-relevé; 2/4da — tour sur le cou-de-pied en dedans (harakatdagi oyoq orqadan 45°ga joylashgan holatdan) va 2/4da — yonlama fondu. Bittadan fondu oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/4lik. Frappés: yonga uchta, doubles frappés uchta, har biri 1/8lik. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi, harakatdagi oyoq oldinga 45°ga cho'zilgan holatdan tour en dehors ga etiladi.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Ikkita ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/4; uchta — har biri 1/8lik. 2/4da — yarimbarmoqlarda uskunaga qarab oyoqni almashtirib yarimqayrilish, yakunida chap oyoq yonga 45ga yoziladi va oyoqni almashtirib yana uskuna tomonga yarimqayrilish qilinadi, yakunida o'ng oyoq yonga 45°ga yoziladi va uchta ronds de jambe en l'air en dehors ijro etiladi, har biri 1/8lik. Beshta va beshta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/16lik; 2/4da — yonga yarimbarmoqlarda développé qilinadi va

2/4da — flic-flac en tournant en dehors, yonga 90°ga tugallanadi. Oxirgi nimchorakda harakatdagi oyoq 45°ga tushiriladi, so'ngra barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

O'n to'rtta petits battements qilinadi, har biri 1/8lik; 1/8da yarimbarmoqlardan tovonga tushiladi, harakatdagi oyoq yonga yozilgan, oyoq uchi polda. Barchasi takrorlanadi. Yigirma to'rtta petits battements, har biri 1/16lik; 2/4da yarimbarmoqlardan tovonga tushiladi, harakatdagi oyoq yonga yoziladi, oyoq uchi polda. Yigirma to'rtta petits battements takrorlanadi.

7. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinci va ikkinchi taktlar: oldinlama développé yarimbarmoqlarda, uskunaga yarimqayrilish bilan plié-relevé qilinadi, yarimqayrilish bilan yana uskuna tomonga plié-relevé, V pozitsiyada tugallanadi. Uchinchi takt: oldinlama effacée pozasida développé tombé, taktning oxirgi choragida développé effacée oldinga tugatiladi. To'rtinchi takt: effacée pozasidan— orqalama écartée pozasiga demi-rond qilinadi, flic-flac en tournant en dehors, orqalama écartéda 90°ga tugallanadi va harakatdagi oyoq V pozitsiyaga tushiriladi. Navbatdagi to'rtta taktda barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

8. *Grand battements jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkitadan grands battements oldinga, yonga, orqaga va yonga, har biri 1/4lik; to'rtta grands battements jetés passés en dehors (oldinga—orqaga), har biri 2/4lik. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Birinci takt: grand plié I pozitsiyada, chuqur pilédan toug à la seconde en dehors chap oyoqda. Ikkinchi takt: II pozitsiyada grand plié, chuqur pliédan—attitude croisée pozasida chap oyoqda tour en dehors. Uchinchi takt: attitude pozasidan—en dehorsda passé bilan 90°ga qayrilish, yakunida— yonlama développé. To'rtinchi takt: plié tayanch oyoqda, yuqoridan yarimbarmoqlarda o'ng oyoqda turiladi tour à la seconde en dedans bajariladi, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda.

Battements tendus —4/4 o'lchamda 8 takt. Chap oyoqda— oldinlama croiséning katta pozasida oltita battements tendus, har biri 1/4lik; uchta

battements tendus jetés, har biri 1/8lik; o'ng oyoqda — oltita yonlama battements tendus, har biri 1/4lik, uchta battements tendus jetés, har biri 1/8lik. Chap oyoqda orqalama croiséening katta pozasida—oltita battements tendus, har biri 1/4lik; uchta battements tendus jetés, har biri 1/8lik; o'ng oyoqda — to'rtta yonlama battements tendus, har biri 1/4lik; beshta battements tendus jetés, har biri 1/8lik; 3/8da—flic-flac en tournant en dehors, croiséening IV pozitsiyasiga yakunlanadi, tours sur le cou-de-pied en dedans uchun préparation. Bir takt: tour en dedans, IV pozitsiyaga yakunlanadi, chap oyoq orqadan; bir takt: ikkita tours en dedans, IV pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda, va ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors.

2. *45°za battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

2/4da — V pozitsiyadan chap oyoqda ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors; 2/4da—o'ng oyoqda oldinlama croiséening kichik pozasida fondu; 2/4da—V pozitsiyadan o'ng oyoqda ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans; 2/4da chap oyoq petit battement usulida orqaga o'tkaziladi va orqalama croiséening kichik pozasida fondu qilinadi; o'ng oyoqda—ikkita fondus yonga, har biri 2/4lik; 4/4da—plié 45°dan — ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors, yakunida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Frappés: yonga yettita, har biri 1/8lik; double frappé — to'rtta, har biri 1/4lik. 2/4da o'ng oyoqda — fondu oldinga; 2/4da chap oyoqda — fondu orqaga; 4/4 o'ng oyoqda — fondu yonga 90°ga, demi-rond bilan attitude croisée pozasiga plié va relevé. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

3. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

O'n to'rtta petits battements en tournant en dehors, har biri 1/8lik; qo'llar asta-sekin II pozitsiyadan ko'tariladi; chap qo'l III, o'ng qo'l I pozitsiyaga. Qayrilish 2-nuqtaga tugallanadi va 1/4da oldinga pliédga o'ng oyoqda tombé qilinadi, chap oyoqda dégagé yonga 45°ga; 2-nuqta yo'nalishi bo'yicha ikki marta dégagé bilan tour en dehors qilinadi, har biri 2/4lik; ikkinchi tour plié tayanch chap oyoqda tugallanadi va o'ng oyoqda oldinga qadam tashlab bajariladi, coupé bilan bitta va ikkita tours en dedans, har biri 2/4lik. Ikkita toursni bajarayotib, chap qo'l III pozitsiyaga, chap qo'l I pozitsiyaga ko'tariladi.

4. *Grands battements jetés balancés. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Uchta grands battements jetés balancés II pozitsiyaga, o'ng oyoqda, chap va o'ng oyoqda, har biri 1/4lik; uchinchi battement 90°ga ushlanib

turish bilan bir chorak davomida bajariladi. Uchta grands battements oyoqlar orqaga almashib to'rt marta bajariladi va to'rt marta oyoqlar almashib oldinga bajariladi.

5. *Kamma adagio. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

Birinchi takt: grand plié V pozitsiyada (o'ng oyoq oldinda); chuqur pliédan—chap oyoqda ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors. Ikkinchi takt; o'ng oyoqda—développé à la seconde va I pozitsiya bo'yicha passé III arabesqueda demi-pliéd. Uchinchi takt: arabesque pozasida tour lent en dehors. To'rtinchi takt: arabesque pozasidan—90°ga yarimbarmoqlarda oldinlama effacé pozasiga passé, keng tombé o'ng oyoqda pliéd orqalama effacée pozasiga 90°ga allongé, taktning oxirgi choragida—en dehorsda oyoqlar almashib pas de bourrée bajariladi, IV pozitsiyada tugallanadi — tour en dedans uchun grande préparation. Beshinchi takt: attitudeda tour en dedans. Oltinchi takt: attitude pozasidan —yarimbarmoqlarda oldinlama croisée pozasiga grand rond de jambe en dedans. Yettinchi takt: keng tombé o'ng oyoqda pliéd va taktning dastlabki ikki choragida grand port de brasning yarmi bajariladi (pliég tortilish), ikkinchi ikki chorakda—chap oyoqda orqaga tezda I arabesqueda 90°ga o'tiladi. Sakkizinchi takt: o'ng oyoqda oldinlama qadam-coupé va grand fouetté à la seconde—I arabesque, chap oyoqda oldinlama qadam-coupé va ikkinchi grand fouetté à la seconde—I arabesque. To'qqizinchi takt: arabesque pozasidan—90°ga oldinlama croisée pliéd passé (qo'llar I pozitsiyada) va o'ng oyoqda IV arabesqueda 90°ga qadam tashlanadi. O'ninchi takt: IV arabesque pozasida tour lent en dehors. O'n birinchi takt: arabesqueda plié, chap oyoqda orqaga qadam tashlanadi va V pozitsiyada yarimbarmoqlarda yarimqayrilish (chap tomonga), V pozitsiyaga tomoshabinga yelkadan qarab to'xtatiladi, chap oyoq oldinda; chap qo'l III pozitsiyada, o'ng qo'l II pozitsiyada, bosh chapga qayrilgan; oynaga qayrilish bilan plié va pas failli qilinadi. O'n ikkinchi takt: o'ng oyoqda yarimbarmoqlarda 2-nuqtaga qadam tashlanadi, ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda va soubresaut.

ALLEGRO

1. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Uchta yonlama sissomnes fermées, o'ng, chap va o'ng oyoqda orqaga oyoqlarni almashtirib, har biri 1/8lik; ikkita entrechat-quatre, har biri 1/4lik;

ikkita gargouillades en dehors, har biri 2/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

2. 4/4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda—ikkita ballonnés oldinlama effacée pozasida, har biri 1/4lik; ikkita—har biri 1/4lik; 1/8da — yonlama assemblé, 1/4da chap oyoqda—sissonne ouverte 45°ga oldinlama croiséening kichik pozasida; ikkita cabrioles 45°ga, har biri 1/4lik; 1/4da — assemblé. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

3. 3/4 o'lchamda 16 takt (vals).

8 taktda: oldinlama ballotté—assemblé, orqalama ballotté—assemblé. Takrorlanadi. 8 taktda: to'rtta ballottés oldinga—orqaga, oldinga—orqaga (assemblésiz), pas failli (oxirgi ballotté holatidan) va ikkita soubresaut.

4. 2/4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda—II pozitsiyaga oyoqlar almashmasdan grand échappé, oyoqlar almashmasdan (to'liq qayrilish) grand échappé en tournant, har biri 2/4lik. Ikkita grands changements de pieds, har biri 1/4lik; 2/4da—relevé V pozitsiyada yarimbarmoqlarga va entrechat-six. 2/4da chap oyoqda—sissonne ouverte yonga 45°ga va pas couru V pozitsiyada, chap oyoq orqadan (besh qadam), to'g'ri chiziq bo'yicha o'ngga siljish bilan; V pozitsiyada tugallanadi demi-pliéda; 2/4da o'ng oyoqda—sissonne ouverte yonga 45°ga va pas couru V pozitsiyada, o'ng oyoq orqadan, to'g'ri chiziq bo'yicha siljish bilan chapga; 2/4da sissonne ouverte qaytariladi va chap oyoqda pas couru; 2/4da o'ng oyoqda—oyoqlar almashmasdan (o'ng oyoq oldinda) yonlama glissade va o'ng oyoq orqaga qo'yilib yonlama grand assemblé. Qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi.

9. 3/4 o'lchamda 16 takt (vals).

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga—pas couru (ikkita qadam, uchinchi qadamda-soupé) va attitude croiséda grand jeté; uch marta ijro etiladi. Uchinchi grand jeté assembléda tugallanadi, royale. I arabesqueda o'ng oyoqda o'ngga yarimqayrilish bilan sahnaviy sissonne, 4-nuqtaga sahnaviy yugurish, keyin boshqa diagonal bo'yicha grands jetésni ijro etish uchun préparationda turiladi.

10. 3/4 o'lchamda 16 takt (vals).

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga—oyoqlarni almashtirmasdan (chap oyoq oldinda) oldinlama glissade, I arabesqueda o'ng oyoqda grand jeté, assemblé, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq

oldinda, entrechat-quatre. Uch marta bajariladi. To'g'ri chiziq bo'yicha chapga: chap oyoqda—yonlama katta sissonne tombée, oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi, glissade yonga oyoqlarni almashtirmasdan grand jeté va attitude effacée. Attitude pozasida pliége to'xtaladi.

11. *4/4 o'lchamda 4 takt.*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. O'ng oyoqda préparation, chap oyoq croiséda oldinga cho'zilgan, oyoq uchi polda. 2/4da — qadam-coupé chap oyoqda va grand cabriole effacée pozasida oldinga; 2/4da — V pozitsiyaga assemblé, o'ng oyoq orqadan, va entrechat-quatre; 2/4da — oldinlama glissade, 2-nuqtaga, oldinlama effacée pozasida grand cabriole; 2/4da—assemblé, enlrechat-quatre. Glissade-cabriole takrorlanadi. 1/4da —2- nuqtaga o'ng oyoqda oldinlama sissonne tombée, ikkita cabrioles 1 arabesque pozasida, assemblé.¹⁰⁹

12. *3/4 o'lchamda 16 takt(vals).*

Chap oyoqda préparation, o'ng oyoq croiséda oldinga cho'zilgan, oyoq uchi polda. 8 taktda: qadam-coupé o'ng oyoqda va grand fouetté sauté à la seconde — I arabesque. Ayni shu qadam-coupé bilan chap va o'ng oyoqda takrorlanadi. pas faillida tugallanadi. 8 taktda: o'ng oyoqda — pas couru oldinga (to'rt qadam, beshinchi qadam-coupé), grand assemblé croisée oldinga, qo'llar III pozitsiyada, 2-nuqtaga o'ng oyoqda turiladi II arabesque pozasida oyoq uchi polda; mar-coupé chap oyoqda diagonal bo'yicha yuqoridan 6-nuqtaga va grand assemblé en tournant, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda, yarimbarmoqlarda dik etib chiqiladi o'ng oyoqda 1 arabesqueda 90°ga va poza saqlanib, demi-pliéga tushiriladi.

13. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

To'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga—to'rtta emboités oldinga siljish bilan yonga 1/2 tourda, har biri 1/4lik; oltita emboités—har biri 1/8 lik va 1/4da assemblé oldinga. Yonga siljish bilan to'rtta orqalama emboités (3-nuqtadan 7-nuqtaga) 1/2 tourda, har biri 1/4lik, oltita emboités orqaga, har biri 1/8lik; 1/4da — assemblé orqaga.

14. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. O'ng oyoqda boshlanib uch marta

¹⁰⁹ Qiz bolalar sinfida grands cabrioles katta pozalarda temps levé bajarilib grand cabriolega tayyorgarlik bilan almashtiriladi.

brisé dessus-dessous ijro etiladi, har biri 2/4lik; 2/4da—pas de bourrée oyoqlarni almashtirib en tournant en dehors va entrechat-quatre. O'ng oyoqda diagonal bo'yicha oldinga 2-nuqtaga—ikkita tours sissonne tombée, har biri 2/4lik tour, uchta—har biri 1/4lik va 1/4da o'ng oyoqda orqalama effacéning katta pozasiga turiladi, chap oyoq uchi polga cho'zilgan.

11. 2/4 o'lchamda 8 takt.

O'ttiz ikkita petits changements de pieds, har biri 1/8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING TO'RTINCHI MISOLI

1. 2/4 o'lchamda 8 takt.

II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib o'n oltita échappés, har biri 1/4lik.

2. 2/4 o'lchamda 16 takt.

O'ng va chap oyoqda navbati bilan oyoqlarni almashtirib orqaga to'rtta sissonnes simples, har biri 1/4lik; qo'shaloq ronds de jambe en l'air En dehors o'ng va chap oyoqda, har biri 2/4lik. Boshidan takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

3. 2/4 o'lchamda 16 takt (polka).

Uchta gargouillades En dehors, har biri bir taktdan; bir taktda — ikkita orqalama pas de chat. Ikkita gargouillades en dehors, har biri bir taktda; ikki taktda—V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va tour sur le cou-de-pied en dehors. Barchasi boshdan takrorlanadi va yakunida V pozitsiyadan ikkita tours en dehors qilinadi. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi.

4. 4/4 o'lchamda 8 takt.

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. 1/4da o'ng oyoqda—yonga siljish bilan jeté 1/4 tourda (2-nuqtaga chap yelkada to'xtalish); 1/2da 45°dan—tour sur le cou-de-pied en dedans o'ng oyoqda, 2-nuqtaga chap yelka yelkada tugallanadi, chap oyoqda yonga 45°ga. 1/4da — yonga siljish bilan jeté 1/2 tourda chap oyoqda va tour sur le cou-de-pied en dehors chap oyoqda. Jetés takrorlanadi va ikki marta tours qilinadi. 4/4da—pas de bourrée suivi diagonal bo'yicha yuqoriga 6-nuqtaga (o'ng oyoq oldinda), chap oyoqda 8-nuqta yo'nalishi bo'yicha dégagé va 4/4da—pas de bourrée suivi diagonal bo'yicha yuqoriga 4-nuqtaga, demi-pliéda V pozitsiyada tugallanadi va barcha kombinatsiya boshqa oyoqda takrorlanadi.

5. 3/4 o'lchamda 16 takt (vals).

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. 4 taktda: o'ng oyoqda—V

pozitsiyadan IV pozitsiyaga tours sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation va ikkita tours en dehors. 4 taktda: chap oyoqda—V pozitsiyadan IV pozitsiyaga (chap oyoq orqaga qo'yiladi) tours sur le cou-de-pied en dedans uchun préparation va ikkita tours en dedans; V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. 4 taktda: chap oyoqda—III arabesqueda grande sissonne ouverte va 90°dan o'ng oyoq oldinga olinib, effacéning IV pozitsiyasiga turiladi, chap qo'l oldinda, o'ng qo'l II pozitsiyada — préparation — va ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors o'ng oyoqda, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinga.¹¹⁰ taktda: chap oyoqda — III arabesqueda grande sissonne ouverte qilinadi; poza saqlanadi, demi-pliega tushiriladi; o'ng oyoqda oldinga diagonal bo'yicha glissade va grand pas de chat oldinga, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi.

6. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

2/4da —V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va o'n bitta tours sur le cou-de-pied en dehors V pozitsiyadan oldinga siljish bilan diagonal bo'yicha 2-nuqtaga, har biri 2/4lik; V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda; diagonal bo'yicha oldinga 2-nuqtaga to'rt marta tours glissade en tournant bajariladi, har biri 2/4lik, croiséning IV pozitsiyasida tugallanadi, o'ng oyoq orqadan, chap qo'l III pozitsiyada, o'ng qo'l II pozitsiyada.

7. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Diagonal bo'yicha dégagé bilan yettita tours en dehors, har biri 2/4lik, yettinchi tour esa oldinlama tombé arabesque pozasiga 45°ga tugallanadi va 2/4da ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans qilinadi.

8. *Tours chaînés va tours fouettés mashqlari.*

¹¹⁰Tours en dehorsdan keyingi to'xtalish yuqori sinflarda keng tarqalgan qoidalaridan istisno sanaladi.

YETTINCHI SINIF

Klassik raqsdagi barcha asosiy harakatlarni takomillashtirish va
ishlov berish

SABOQNING BIRINCHI MISOLI USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

Oldingi sinflar bilan taqqoslaganda sur'at (temp) tezlashadi.

1. *4/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita demi-plié qilinadi, har biri 4/4lik; 4/4da—bitta grand plié; 2/4da — bitta grand plié va 2/4da —yarimbarmoqlarga relevé I, II, IV va V pozitsiyalarda.

2. *Battements tendus. 2/4 o'lchamda 24 takt.*

To'rtta oldinlama battements tendus, har biri 1/4lik, uchta battements tendus jetés, har biri 1/8lik; 2/8da — flic-flac yarim qayrilish bilan en dedansda va 2/8da — flic-flac yarim qayrilish bilan en dehorsda; to'rtta battements tendus oldinga, to'rtta yonga, har biri 1/4lik. Barcha kombinatsiya teskari yo'nalishda takrorlanadi va oltita yonlama battements tendus jetés bajariladi, har biri 1/8lik, 2/8da — flic-flac en tournant en dedans; oltita battements tendus jetés takrorlanadi va en tournant en dehorsda flic-flac bajariladi. O'n oltita tendus jetés 1 pozitsiyada, har biri 1/8lik.

3. *Ronds de jambe par terre va grands ronds de jambe jetés. 4/4 o'lchamda 12 takt.*

En dehors: to'rtta ronds de jambe par terre, har biri 1/4; ikkita grands ronds de jambe jetés, har biri 1/4lik; uchta —har biri 1/8lik; uchta ronds de jambe par terre, har biri 1/8lik; beshta —har biri 1/16lik; 2/4da —plie en dehorsda aylanish va 2/4da —en dedans—en dehors en dedansda tezkor aylanish. Barchasi en dedansda takrorlanadi va 4 taktda bajariladi. Ikki marta port de bras pliega egilish va gavdani egish bilan.

4. *45°ga battements fondus. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita oldinlama doubles fondus, har biri 2/4lik; 2/4da - bitta yonlama double fondu; ikkita doubles fondus, har biri 1/4lik. Frappés yonga beshta va ikkita doubles, har biri 1/8lik, beshta —har biri 1/16lik; 2/4da —pliéga tombé harakatdagi oyoq V pozitsiyada orqadan, chap oyoq oldinlama sur le

cou-de-piedda ko'tariladi; yarimbarmoqlarda uskunadan to'liq qayrilish, chap oyoq orqalama sur le cou-de-pied o'tkazilib, chap oyoqda yarimbarmoqlarda coupé tugallanadi, harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

2/4da — tour temps relevé en dehors; 2/4da — ikkita tours temps relevé en dehors, yakunida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Ikkita ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/4lik; 2/4da — ikki marta qo'shaloq rond de jambe en l'air (har bir chorak oldidan forshlag); beshta va beshta — har biri 1/16lik. 2/4da — yonlama développé 90°ga va 2/4da — ikkita ronds de jambe en l'air 90°ga. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied va battements battus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Epaulement effacéda o'n ikkita oldinlama battements battus, har biri 1/16lik; 1/4da — oldinlama effacéning kichik pozasi, oyoq uchi polda plieda; 2/4da — passé 45°ga yarimbarmoqlarda orqalama effacéning kichik pozasiga plieda (harakatdagi oyoq 45°ga) va 2/4da — ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans; yakunida harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. O'n ikkita petits battements, har biri 1/16lik; 1/4da — développé 90°ga orqalama écartée pozasiga; 2/4da — orqalama écartée pozasiga fouetté en dehorsda qayrilish va 2/4da — attitude effacée allōngéda demi-rond. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

7. *Battements développés. 4/4 o'lchamda 8 takt yoki 3/4 o'lchamda 32 takt (vals).*

Birinchi takt: yarimbarmoqlarda — grand rond de jambe développé en dehors. Ikkinchi takt: I pozitsiya bo'yicha demi-pliédada oldinga 90°ga tezkor passé va birinchichorakda yarimbarmoqlarga relevé; ikkinchi chorakda — uskunaga qarab yarimqayrilish va plieda tushiriladi; uchinchi chorakda—I pozitsiya bo'yicha passé demi-pliédada oldinga 90°ga va yarimbarmoqlarga relevé; to'rtinchi chorakda—uskunadan yarimqayrilish va plieda tushiriladi. Uchinchi takt: oldinlama effacée pozasiga yarimbarmoqlarda 90°ga passé, développé tombé, oldinlama effacée pozasida 90°ga tugallanadi. To'rtinchi takt: oldinlama effacée pozasiga fouetté en dehorsda qayrilish va orqalama écartée pozasiga demi-rond. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

8. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita oldinlama grands battements, yarimbarmoqlarda Engil

ko'tarilish bilan ikkita grands battements. Ayni shu chap oyoqda orqaga, o'ng oyoqda yonga bajariladi va to'rtta orqalama grands battements écartée pozasida, har biri 1/4. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.¹¹¹

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: V pozitsiyada grand plié (o'ng oyoq oldinda); chuqur pliédan — bir yarim tour sur le cou-de-pied en dedans; I arabesqueda 7-nuqtaga tugallanadi. Ikkinchi takt: gavda Engilgina egilib, en dedans I arabesqueda 2-nuqtaga buriladi, o'ng qo'l III pozitsiya balandligida ko'tariladi, gavda rostlanadi. Uchinchi takt: egiladi va chap oyoq orqalama écartéda chiqariladi. To'rtinchi takt: keng tombé chap oyoqda va o'ng oyoqda — oldinlama écartée pozasida 90°ga fondu, o'ng oyoqda tombé va ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans; attitude effacée pozasida tugallanadi. Beshinchi takt: attitude pozasidan chap oyoq yonga olinadi, croisée oldinga, yarimbarmoqlarda ko'tariladi va croiséening IV pozitsiyasida tushiriladi—tours en dedans uchun grande préparation. Oltinchi takt: bir yarim tourd á la seconde en dedans; IV arabesque pozasida pliédan tugallanadi. Yettinchi takt: o'ng oyoqda orqaga qadam tashlanadi, chap oyoqda— yonlama développée va attitude croisée pozasiga demi-ronds. Sakkizinchi takt: 3/4da — renversé en dehors, to'rtinchi chorak — V pozitsiyada demi-pliédan pauza.

Battements tendus va tours 4/4 o'lchamda — 8 takt. Chap oyoqda— IV arabesque pozasida to'rtta battements tendus; o'ng oyoqda— ikkita oldinlama effacéening kichik pozasida va ikkita ayni shu pozada qayrilish bilan 4-nuqtaga; to'rtta battements tendus chap oyoqda IV arabesque pozasida (4-nuqtaga), ikkita battements tendus o'ng oyoqda oldinlama effacéening kichik pozasida 6-nuqtaga va ikkita 8-nuqtaga. En faceda 1-nuqtaga qayriladi va o'ng oyoqda yonlama battements tendus jetés bajariladi, har biri 1/8lik; 2/8da — flic-flac en tournant en dedans IV pozitsiyada tugallanadi—tours sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation; I taktida bitta va yana bitta tour qilinadi; 1 taktida ikkita va ikkita

¹¹¹ Yuqori sinflarda (yettinchi va sakkizinchi) uskuna oldidagi mashqlardan faqat bitta misol keltirilgan, chunki mazkur sinflarda dars beradigan pedagoglarning tajribasi zal o'rtasidagi saboqlarni tashkil etishga bog'liq tarzda ularga uskuna oldidagi mashqlarni tashkil etishni aytib turadi. Zal o'rtasidagi saboqni o'tkazish uchun to'rtta misol taklif qilinadi.

tours en dehors o'ng tomonga.

2. *Battements fondus. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

O'ng oyoqda—oldinlama effacéning kichik pozasida 45°ga ikkita battements fondus, har biri 1/4lik; 2/4da — bitta fondu 90°ga oldinlama effacée pozasida; coupé; 2/4da chap oyoqda — grand fouetté effacée en dedans; 2/4da harakatdagi oyoq yonga 90°ga o'tkaziladi; 4/4da— plié va attitude croiséeda tour en dehors; coupé; o'ng oyoqda — yettita frappés yonga, har biri 1/8lik. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi, ammo oldinlama croisée pozasida tour qilinadi va frappés o'rniga petits battements sur le cou-de-pied bajariladi.

3. *Grands battements jetés. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Croisée pozasida to'rttadan grands battements oldinga, yonga va III arabesque pozasida, har biri 1/4lik. 4/4da chap oyoqda — II pozitsiyada grand échappé va ikkita tours à la seconde en dehors.

4. *Katta adagio. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: diagonal bo'yicha 2-nuqtaga o'ng oyoqda — tours chaînés, I arabesqueda 90°ga o'ng oyoqda pliéda tugallanadi. Ikkinchi takt: tour lent en dedans arabesque pozasida pliéda. Uchinchi takt: 90°ga qayrilish bilan en dedansda 6-nuqtaga oldinlama croisée pozasiga passé, yarimbarmoqlar, chassé, pliéda yiqilib, chap oyoqda III arabesque pozasiga passé 90°ga qayrilish bilan en dehorsda 2-nuqtaga effacée pozasiga oldinga, yarimbarmoqlar, chassé, effacée IV pozitsiyasida tugallanadi—tours en dedans uchun grande préparation. To'rtinchi takt: attitude effacée pozasida ikkita tours. Beshinchi takt: attitude effacéeda o'tuvchan yarimbarmoqlarga relevé va taktning dastlabki ikki choragida —III arabesque pozasiga grand fouetté en tournant en dedans; uchinchi va to'rtinchi chorakda chap oyoq yonga o'tkaziladi va yarimbarmoqlarda ko'tariladi. Oltinchi takt: I arabesque pozasiga 2-nuqtaga grand fouetté en tournant en dedans va orqaga V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda qadam tashlanadi, chap oyoq oldinga. Yettinchi takt: II arabesque pozasida chap va o'ng oyoqda balancé, yuqoridan yarimbarmoqlarga chap oyoqda turiladi, ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans qilinadi, tours croiséening katta pozasida oldinga tugallanadi. Sakkizinchi takt: croisée pozasidan— tombé, écartéda oldinga grand assemblé, V pozitsiyaga yarimbarmoqlarda relevé va entrechat-six.

ALLEGRO ¹¹²

1. 2/4 o'lchamda 16 takt.

Ikkita échappés battus, sissonne ouverte battue yonga 45°ga, assemblé, ikkita brisés oldinga. O'ng va chap oyoqda navbati bilan to'rt marta takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi.

9. 2/4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda—45°ga en tournant en dehorsda oldinlama croiséening kichik pozasiga sissonne ouverte, assemblé; chap oyoqda — sissonne ouverte 45°ga en tournant en dedansda orqalama croiséening kichik pozasiga, assemblé, o'ng oyoqda uchta ballonnés battus yonga siljish bilan, assemblé. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi.

10. 3/4 o'lchamda 16 takt (vals).

O'ng oyoqda — attitude croiséeda grande sissonne ouverte, assemblé, sissonne renversée en dehors, yonlama glissade oyoqlarni almashtirmasdan va o'ng oyoqda—attitude croiséeda tugallanadigan grand jeté passé yonga, assemblé, entrechat-six. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi.

11. 2/4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda — sissonne simple (oldinlama effacéeda tugallanadi) va grand fouetté sauté effacée en dehors, failli-coupé va grand jeté III arabesqueda, oyoqlarni yonga almashtirmasdan va kichik yonlama cabriole fermé chap va o'ng oyoqda glissade qilinadi. Chap oyoqda — sissonne simple (orqalama effacéeda tugallanadi) va grand fouetté sauté effacée en dedans, failli (orqaga siljish bilan); o'ng oyoqda — sissonne tombée effacée oldinga, 45°ga II arabesque pozasida ikkita cabrioles, assemblé.

15. 3/4 o'lchamda 16 takt (vals).

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda — pas couru (to'rtta qadam, beshinchi qadam-coupé), attitude croiséeda grand jeté, assemblé, entrechat-six (qo'llar III pozitsiyada). Ayni shu holat chap oyoqda diagonal bo'yicha 8-nuqtaga va o'ng oyoqda 2-nuqtaga takrorlanadi. Yakunida tours chaînés 2-nuqtaga bajariladi va ular V pozitsiyada, o'ng oyoq orqadan tugallanadi.

6. 4/4 o'lchamda 4 takt.

To'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga o'ng oyoqda — qadam-

¹¹² Barcha yangi harakatlar alohida o'rganiladi, so'ngra kombinatsiyada birlashtiriladi.

coupé bilan ikkita sauts de basque, har biri 4/4lik (saut de basque 2/4da ijro etiladi, 2/4da esa demi-pliéda sakrashdan keyin yakunlovchi holatda qolinadi). Qatorasiga ikkita sauts de basque, har biri 2/4lik, sissonne ouverte yonga, en tournant en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourrée qilinadi va V pozitsiyada yarimbarmoqlarda qayrilish.

7. 4/4 o'ldamda 4 takt.

Diagonal bo'yicha yuqoriga 2-nuqtadan 6-nuqtaga — keng qadamli ikkita jetés entrelacés, har biri 4/4lik (2/4da — jetés, 2/4da esa demi-pliéga I arabesquening yakunlovchi pozasi). Qatorasiga uchta jetés Entre-lacés, har biri 2/4lik, assembléda tugallanadi.

8. 2/4 o'ldamda 8 takt.

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda — emboités oldinga siljish bilan 1/2 tour bo'yicha, har biri 1/8lik; qadam-coupé o'ng oyoqda 2-nuqtaga va grand assemblé en tournant.¹¹³ Ayni shu narsa chap oyoqda diagonal bo'yicha 8-nuqtaga bajariladi.

9. Musiqiy o'ldam 2/4.

Diagonal bo'yicha effacéda va croiséda tours sissonnes tombées, har bir tour 1/4da yoki 1/8da qilinadi.

10. 2/4 o'ldamda 8 takt.

Yettita entrechat-quatre va bitta royale, o'ng va chap oyoqda navbati bilan va o'n oltita petits changements de pieds, har biri 1/8lik.¹¹⁴

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING BIRINCHI MISOLI ¹¹⁵

6. 2/4 o'ldamda 16 takt.

II pozitsiyada oyoqlarni almashtirib ikkita échappés, ikkita échappés en tournant 1/2 qayrilishda, har biri 1/4lik; uchta sus-sous siljish bilan oldinga, har biri 1/8lik va 2/4da — double échappé II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib. Boshqa oyoqda takrorlanadi va yana ikki marta sus-sous bilan orqaga bajariladi.

7. 2/4 o'ldamda 8 takt (pitsikato).

Préparation — chap oyoq orqalama croiséda oyoq uchi polda.

¹¹³ O'g'il bolalar sinfi uchun — grand assemblé battu en tournant.

¹¹⁴ Har bir saboq gvardani egish bilan port de brasda tugallanadi.

¹¹⁵ Keltirilgan misollar bilan chegaralanib qolmaslik kerak; sinfda raqs adabiyotini o'tkazib borish zarur: o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda eski klassik repertuar va zamonaviy balet spektakllarining variatsiya va kodlari qisman yoki to'liq o'zlashtiriladi.

Taktdan so'ng—demi-plié, coupé barmoqlarda chap oyoqda, o'ng oyoqda — qo'shaloq rond de jambe en l'air en dehors, birinchi chorakda demi-pliéda chap oyoqda tugallanadi. Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi chorakda qo'shaloq rond de jambe uch marta takrorlanadi (V pozitsiyaga tushirmasdan); ikkita jetés en tournant to'g'ri chiziq bo'yicha siljish bilan yonga 1/2 tour bo'yicha, har biri 1/4lik; 1/4da — qo'shaloq rond de jambe en l'air en dehors; 1/4da — pas de bourrée dessous en tournant; demi-pliéga o'ng oyoqda tugallanadi, chap oyoqda orqalama sur le cou-de-pied, coupé va kombinatsiya yana bir marta takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi.

8. *3/4 o'lchamda 16 takt (vals).*

Préparation — chap oyoq croiséda oldinga oyoq uchi polda. 4 taktda: mar-coupé chap oyoqda va grand pas de chat oldinga, grande sissonne ouverte o'ng oyoqda oldinlama effacée pozasida, barmoqlardan tushmasdan—effacéda orqaga grand rond, en dehorsda oyoqlarni almashtirib pas de bourréda tugallanadi. 4 taktda: grande sissonne ouverte IV arabesqueda o'ng oyoqda, plié-relevé, V pozitsiyada tugallanadi. 4 taktda: grande sissonne ouverte o'ng oyoqda oldinlama écartée pozasida, chap oyoqda — V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors. 4 taktda: o'ng oyoqda croisé yo'nalishida — oltita tours chainés, o'ng oyoqda croisée pozasiga turiladi, chap oyoq orqadan oyoq uchi polda, o'ng qo'l III pozitsiya, chap qo'l II pozitsiyada.

9. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

6 taktda: diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga—pas de bourrée suivi, o'ng qo'l III pozitsiyada, chap qo'l II pozitsiyada allongé. 2 taktda: pas failli IV pozitsiyaga—tours sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation va ikkita tours o'ng tomonga, IV pozitsiyada tugallanadi, qo'llar III arabesque holatida.

11. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

Préparation — chap oyoq croiséda orqadan oyoq uchi polda. Taktdan so'ng—dégagé chap oyoqda yonga va pas de bourrée dessus en tournant, birinchi chorakda tugallanadi; ikkinchi chorakda o'ng oyoqda — pas de bourrée dessous en tournant; uchinchi va to'rtinchi chorakda — dégage bilan ikki marta tour en dehors chap oyoqda. Kombinatsiya to'rt marta siljish bilan diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga takrorlanadi.

12. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Entrechat-quatre, sissonne simple oyoqlarni almashtirib orqaga, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi. To'rtta sissonnes simples oyoqlarni almashtirib orqaga, har biri 1/4lik. Barchasi boshidan takrorlanadi va yana bir marta oyoqlarni almashtirib sissonnes simplesda oldinga bajariladi.

SABOQNING IKKINCHI MISOLI

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: II pozitsiyada port de bras bilan grand plié; chuqur pliédan—tour en dehors o'ng oyoqda orqalama écartée pozasida. Ikkinchi takt: écartée pozasidan I arabesqueda 2-nuqtaga qayrilish. Uchinchi takt: quyiga egilib, arabesque pozasida dastlabki holatga ko'tarilish. To'rtinchi takt: chap oyoqda yarimbarmoqlarga coupé, o'ng oyoqda—grand fouetté effacée en dehors, en dehorsda yarimbarmoqlarda passé bilan 90°ga tezkor qayrilish (1/8da) va ikkinchi fouetté effacée en dehors. Beshinchi takt: orqaga o'ng oyoqda yarimbarmoqlarda qadam tashlash, chap oyoqda — oldinlama effacée pozasida développé va grand rond yonga va orqaga. Oltinchi takt: yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan — en dehorsda yarimqayrilish (taktning birinchi choragida) orqa bilan 1-nuqtaga, yakunida chap oyoqda oldinga 90°ga qayrilish va grand rond yonga va orqaga. Yettinchi takt: yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan — en dehorsda 1-nuqtaga qarab yarimqayrilish, yakunida chap oyoq oldinga 90°ga qayrilish, demi-rond yonga va tayanch oyoqda plié. Sakkizinchi takt: yuqoridan yarimbarmoqlarda chap oyoqda turiladi va tour á la seconde en dedans qilinadi, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi, tour pozasi bilan II arabesquyeda 90°ga pliédan tugallanadi.

Battements tendus va tours —4/4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda oldinlama croiséening kichik pozasida to'rtta battements tendus, har biri 1/4lik, oltita battements tendus jetés, har biri 1/8lik, 2/8da — flic-fac en tournant en dedans orqalama croiséening kichik pozasida tugallanadi. Battements tendus va battements tendus jetés orqalama croisée pozasida takrorlanadi, en dehorsda flic-flas qilinadi, yonga 45°ga tugallanadi. To'rtta battements tendus yonga, har biri 1/4lik, yettita battements tendus jetés, har biri 1/8lik, va 2 taktda II pozitsiyadan — bitta tour, ikkita va ikkita tours sur

le cou-de-pied en dehors.

2. *45°ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Uchta yonlama doubles fondus, har biri 2/4lik; 2/4da harakatdagi oyoq yonga 45°ga yozilgan holatdan ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors, yonga 45°ga tugallanadi; yettita frappés yonga, har biri 1/8lik; 2/4da — effacée pozasida oldinga 90°ga développé; 1/4da—oldinlama effacée pozasida tezkor qayrilish fouetté en dehors; 1/4da harakatdagi oyoq V pozitsiyaga orqadan qo'yiladi, so'ngra barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

3. *Ronds de jambe en l'air ba renversé. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

4/4da — développé oldinga, demi-rond yonga va I pozitsiya bo'yicha attitude croiséeda tezkor passé; 4/4da — renverse en dehors, taktning uchinchi choragida tugallanadi; to'rtinchi chorakda yarimbarmoqlarga ko'tariladi, harakatdagi oyoq yonga 45°ga yoziladi. Yettita ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/8lik; 2/4da — attitude croiséeda développé va 2/4da—renversé en dehors. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

4. *Katta adagio. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: grand plié V pozitsiyada (o'ng oyoq oldinda); chuqur pliédan— chap oyoqda ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors, á la secondeda tugallanadi. Ikkinchi takt: tour lent en dehors á la seconde. Uchinchi takt: tayanch oyoqda plié, keng qadam bilan yarimbarmoqlarga o'ng oyoqqa o'tiladi, chap oyoq yonga 90°ga ko'tariladi va oldinlama croisée pozasiga grand fouetté en tournant en dehors qilinadi. To'rtinchi takt: croiséening IV pozitsiyasiga tushiriladi — tours eh dedans uchun grande préparation—I arabesqueda ikkita tours qilinadi. Beshinchi takt: taktning dastlabki ikki choragida o'ng oyoqda— oldinga I pozitsiya bo'yicha orqalama croisée pozasiga passé qilinadi, chap oyoq uchi polda; keyingi ikki chorakda—IV pozitsiyada tugallanadigan grand port de bras— tours en dedans uchun grande préparation. Oltinchi takt: oldinlama croisée pozasida ikkita tours. Yettinchi takt: croisée pozasidan— oldinlama écartéeda va attitude effacéeda grand rond; V pozitsiyada, chap oyoq oldinga tugallanadi. Sakkizinchi takt: chap oyoqda—en tournant en dedansda oltita parter sakrashlari (ikkita qayrilish) I arabesque pozasida va ikkita tours tirbouchon en dedans, chap qo'l III pozitsiyaga, o'ng qo'l I pozitsiyaga ko'tariladi.

ALLEGRO

1. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

To'rta assemblés battus o'ng va chap oyoqda navbati bilan, gargouillade en dehors, ikkita entrechats-quatre; boshqa oyoqda takrorlanadi va barchasi teskari tartibda bajariladi.

2. $4/4$ o'lchamda 4 takt.

O'ng oyoqda—qo'shaloq rond de jambe en l'air sauté en dehors va pas de bourrée dessous en tournant: chap oyoqda—qo'shaloq rond de jambe en l'air sauté en dedans va pas de bourrée dessus en tournant; o'ng oyoqda— orqalama croiséening kichik pozasida ikkita sissonnes fermées battues, attitude croiséeda grande sissonne soubresaut, qisqa coupé chap oyoqda va o'ng oyoqda - yonlama grand assemblé; V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi.

3. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

O'ng oyoqda — oldinlama croisée pozasiga grande sissonne ouverte en tournant en dehors, assemblé va grande sissonne ouverte en tournant en dehors á la seconde, assemblé; chap oyoqda — sissonne tombée effacée oldinga va 8-nuqtaga — grand assemblé en tournant, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda; grande sissonne ouverte III arabesqueda chap oyoqda, o'ng oyoqda sakrash bilan orqaga o'tkaziladi, assemblé; grande sissonne ouverte en tournant en dedans (chap tomonga) attitude croiséeda, assemblé va grande sissonne ouverte en tournant en dedans á la seconde, assemblé. O'ng oyoqda— o'tuvchan sissonne tombée yonga, pas de bourrée ikkita entrechat-six.¹¹⁶

4. $2/4$ o'lchamda 8 takt.

To'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga o'ng oyoqda— qadam-coupé bilan, bitta chassé bilan, assembléda yonga tugallanadi va royale; to'g'ri chiziq bo'yicha 3-nuqtadan 7-nuqtaga chap oyoqda — uchta sauts de basque qadam-coupé bilan, havoda teskari qayrilishlar bilan, orqalama assembléda tugallanadi, entrechat-quatre. (Har bir saut de basque $2/4$ da ijro etiladi.)

¹¹⁶ O'g'il bolalar sinfi uchun—V pozitsiyada yarimbarmoqlarga relevé va ikkita tours en l'air chap tomonga.

5. $3/4$ o'lchamda 32 takt (vals).

To'g'ri chiziq bo'yicha 8-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. V pozitsiya, chap oyoq oldinda. Brisé oldinga, chap qo'l II, o'ng qo'l I pozitsiyada, kichik pas de chat oldinga, o'ng qo'l II pozitsiyaga o'tkaziladi, chap qo'l I pozitsiyada. Takrorlanadi. Yonga oyoqlarni almashtirmasdan glissade, o'ng oyoqda — grand jeté passé yonlama attitude croiséda tugallanadi, o'ng qo'l III, chap qo'l II pozitsiyada, sissonne tombée en tournant en dehors va cabriole fermé 45°ga chap oyoqda IV arabesqueda. Barchasi boshidan takrorlanadi. 2-nuqtadan o'ngga qayrilish va to'g'ri chiziq bo'yicha 4-nuqtaga harakat qilib 3-nuqta atrofidan, to'rt marta glissade qilinadi, II arabesque pozasiga o'ng va chap oyoqda navbati bilan grand jeté; 4-nuqtagacha borib, diagonal bo'yicha 8-nuqta yo'nalishida qayrilish va yana uch marta glissade bajariladi, grand jeté II arabesqueda; oldinlama effacéda chap oyoqda sissonne tombée, coupé va attitude effacéda grand jeté.

6. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

Préparation — chap oyoq croiséda oldinga oyoq uchi polda. 4 taktda: qadam-coupé chap oyoqda va o'ng oyoqda—oldinlama effacée pozasida grand cabriole, assemblé, V pozitsiyada o'ng oyoq orqadan tugallanadi, entrechat-quatre. 4 taktda: glissade oldinga (2-nuqtaga) oyoqlarni almashtirmasdan, o'ng oyoqda — oldinlama effacée pozasida grand cabriole, assemblé, entrechat-quatre. 4 taktda: glissade grand cabriole takrorlanadi, effacée pozasida temps levé, tombé qilinadi va en dehorsda oyoqlarni almashtirib o'tuvchan pas de bourrée. 4 taktda: o'ng oyoqda 2-nuqtaga I arabesque pozasiga oyoq uchi polda turiladi va diagonal bo'yicha yuqoriga 6-nuqtaga chassé bajariladi va grand assemblé en tournant.

7. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

Diagonal bo'yicha yuqoriga 2-nuqtadan 6-nuqtaga—keng qadam bilan I arabesque pozasiga uchta jetés entrelaces, har biri 2 taktda; 2 taktda arabesque pozasidan chap oyoqda pliége yiqiladi va o'ng oyoqda dégagé bilan tour en dehors qilinadi, I arabesqueda 90°ga tour tugallanadi. 4 taktda: chap oyoqda II arabesque pozasida sahnaviy sissonne, 1-nuqtaga sahnaviy yugurish, o'ng oyoqda III arabesque pozasiga oyoq uchi polda. 4 taktda: keng qadamda—5-nuqta yo'nalishida épaulement croiséda ikkita jetés entrelacés, qo'llar III pozitsiyada.

8. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Chap oyoqda—entrechat-cinque orqaga, assemblé; o'ng oyoqda—entrechat-trois orqaga, assemblé, o'ng oyoqda — entrechal-cinque orqaga, assemblé; chap oyoqda — entrechat-trois orqaga, en tournant en dehorsda oyoqlar almashib pas de bourrée. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi. (tez sur'atda bajariladi)

9. *2/4 o'lchamda 4 takt.*

O'n oltita petits changements de pieds, har biri 1/8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING IKKINCHI MISOLI

1. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita échappés II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib, har biri 1/4lik, o'ng va chap oyoqda; o'ng oyoqda—uchta sissonnes simples en tournant (o'ng tomonga), har biri 1/8lik. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. To'rtta qo'shaloq ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 2/4lik, o'ng va chap oyoqda navbati bilan. Ayni shu ronds de jambe en l'air en dedans bilan takrorlanadi.

2. *3/4 o'lchamda 32 takt (vals).*

8 taktda: o'ng oyoqda attitude croiséda jeté; o'ng qo'l III, chap qo'l II pozitsiyada; attitude pozasida plié-relevé; IV arabesque pozasida plié-relevé, plié va en tournant en dehorsda pas de bourrée, demi-pliéda chap oyoqda tugallanadi, o'ng oyoqda—dégagé effacée oldinga oyoq uchi polda. 8 taktda: ng oyoqda — épaulement effacéda ikki marta qo'shaloq rond de jambe en l'air en dehors, ikki marta barmoqlarda ko'tariladi va ronds de jambeda oyoq uchi polda effacée oldinga tugallanadi; qo'shaloq rond de jambe en l'air ham effacée yo'nalishida; keng tombé o'ng oyoqda va ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans. 8 taktda: orqaga o'ng oyoqda croisée pozasiga oldinga 90°da jeté; croisée pozasida ikki marta plié-relevé; plié va en tournant en dedansda oyoqlar almashib pas de bourrée. 8 taktda: chap oyoqda — glissade yonga (sakrovchan) oyoqlarni almashtirmasdan; grand assemblé yonga; grande sissonne ouverte chap oyoqda attitude croiséda; o'ng oyoqda—45°ga orqalama effacée pozasida sissonne ouverte; keng tombé va ikkita tours sur le coude-pied en dehors.

3. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

2 taktda: diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda — pas

de bourrée suivi, V pozitsiyada demi-pliéda tugallanadi, o'ng oyoq oldinda. 2 taktda: beshta parter sakrashlari en tournant en dedansda o'ng oyoqda I arabesque pozasida va tour tirbouchon en dedans; qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi; pliéda o'ng oyoqda tugallanadi, chap oyoq uchi polda, oldinlama croiséning kichik pozasida. Keyingi 12 taktda yo'nalishda kombinatsiya chap oyoqda 8-nuqta yo'nalishida, so'ngra o'ng va chap oyoqda 2 va 8-nuqtalar yo'nalishida.

4. *6/8 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi taktning birinchi nimchoragida yuqoridan o'ng oyoqda barmoqlarda kichik II arabesque pozasiga turiladi va barmoqlarda to'rtta sakrash qilinadi, har biri 1/8lik; oltinchi nimchorakda demi-pliéga tushiriladi, ayni paytda chap oyoq egilib oldinlama effacéga o'tkaziladi. Navbatdagi taktda mana shunday sakrashlar chap oyoqda bajariladi. So'ngra bitta taktda o'ng oyoqda en tournant en dedansda sakrashlar qilinadi (shuningdek II arabesque pozasida ham) va bitta taktda—chap oyoqda barmoqlarda yonga qadam tashlanadi, o'ng oyoqni 45°ga bukib. oldinlama croiséning kichik pozasida ikkita sakrash qilinadi, demi-plié V pozitsiyada va barmoqlarda qayrilish; V pozitsiyada demi-pliéda tugallanadi. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi.

5. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

2 taktda: diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga—o'ng oyoqdan boshlab oltita emboités qilinadi, oldinga barmoqlarda 1/2 tourda, har biri 1/4lik; 2/4da V pozitsiyaga demi-pliéda tushiriladi. 2 taktda: pas de bourrée suivi 2-nuqtaga (o'ng oyoq oldinda), ikkinchi taktning oxirgi nimchoragida barmoqlarda qolinib, chap oyoq V pozitsiyaga oldinga qo'yiladi va barchasi boshqa oyoqda 8-nuqta yo'nalishda takrorlanadi. Kombinatsiya tezkor sur'atda bajariladi.

6. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga uch marta bittadan coupé bilan birgalikda tour en dedans bajariladi, turning har biri 2/4lik va 2/4da—coupé bilan birgalikda ikkita tours en dedans. To'rt marta takrorlanadi.

7. *Tours chaînés va tours fouettés mashqlari.*

SABOQNING UCHINCHI MISOLI

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: I pozitsiyada grand plié; chuqur pliédan—chap oyoqda tour á la seconde en dehors. Ikkinchi takt: plié á la seconde va attitudeda tour en dehors. Uchinchi takt: attitude pozasidan—en dehors 6-nuqtaga qayrilish oldinlame effacée pozasiga, qayrilish 1-nuqtaga tugallanadi, oyoq effacée pozasidan yonga olinadi. To'rtinchi takt: oldinlame croisée pozasida tayanch oyoqda plié va tour en dedans. Beshinchi takt: keng tombé o'ng oyoqda va grand port de bras IV pozitsiyada tugallanadi—tour en dehors uchun grande préparation. Oltinchi takt: III arabesqueda tour. Yettinchi takt: taktdan so'ng tayanch o'ng oyoqda attitude croisée yarimbarmoqlarda ko'tariladi va taktning birinchi choragida grand port de bras boshlanadi (pliéga cho'zilish); ikkinchi chorakda to'liq qayrilish bilan chap tomonga o'tiladi, chap oyoqda IV arabesqueda 90°ga; uchinchi va to'rtinchi chorakda—demi-rond yonga; sakkizinchi takt: attitude croisée allongé pozasiga grand fouetté en tournant en dedans va V pozitsiyada yarimbarmoqlarda orqaga qadam tashlanadi.

Battements tendus va tours—4/4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda — to'rtta battements tendus doubles (tovonni II pozitsiyaga tushirib), har biri 2/4lik; to'rtta battements tendus yonga, har biri 1/4lik, va yettita battements tendus jetés en tournant en dedans, har biri 1/8lik. 2 taktda: o'ng oyoqda—bitta va ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans II pozitsiyadan; IV pozitsiyada tugallanadi, tours en dehors uchun préparation, chap oyoq oldinda. 2 taktda: ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors, IV pozitsiyada tugallanadi; plié o'ng oyoqda, IV pozitsiyada orqadan joylashib va unga gavgani uzatib, ikki yarimta tours en dedans qilinadi.

2. *45°ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Oldinlame sroiséening kichik pozasida ikkita doubles fondus, ikkita yonga, har biri 2/4lik; uchta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/8lik; demi-pliédan tugallanadigan ikki marta qo'shaloq rond de jambe en l'air en dehors, har biri 1/4lik; 2/4da—III arabesque pozasida développé va 2/4da — renversé en dehors. Ayni shu teskari yo'nalishda bajariladi.

3. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda— oldinlama effacée pozasida ikkita grands battements; ikkita yumshoq grands battements o'sha pozada, har biri 1/4lik. Chap oyoqda o'sha narsa orqalama effacée pozasida qilinadi va o'ng oyoqda yonga; V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. Sissonne tombée chap oyoqda IV pozitsiyada croisée —tours sur le cou-de-pied en dedans uchun préparation; ikkita tours en dedans I arabesque pozasida 90°ga tugallanadi.

4. *Katta adagio. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Préparation o'ng oyoqda, chap oyoqda orqalama croisé oyoq uchi polda. Taktdan so'ng—demi-plié va dégagé chap oyoqda yonga. Birinchi takt: pas de bourrée dessus-dessous en tournant, V pozitsiyada tugallanadi—tours sur le cou-de-pied en dedans uchun préparation, ikkita tours en dedans o'ng oyoqda qilinadi, á la secondeda tugallanadi. Ikkinchi takt: attitude effacée pozasida grand fouetté en tournant en dedans va grand fouetté en tournant en dedans I arabesque pozasiga 3-nuqtaga. Uchinchi takt: chap oyoqda orqaga qadam tashlanadi, o'ng oyoqda— orqalama écartée pozasida développé, plié va pas de bourrée en tournant en dehors; IV pozitsiyada tugallanadi— tours en dehors uchun grande préparation. To'rtinchi takt: ikkita tours III arabesque pozasida, taktning oxirgi nimchoragida—qisqa plié chap oyoqda, yarimbarmoqlarda ko'tariladi, o'ng oyoqda grand battement usulida yonga tashlanadi. Beshinchi takt: oldinlama croisée pozasiga grand fouetté en tournant en dehors, croisée pozasida yarimbarmoqlarga relevé va IV pozitsiyaga tushiriladi—tours en dedans uchun grande préparation. Oltinchi takt: II arabesque pozasida ikkita tours, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda; taktning oxirgi choragida chap oyoqda oldinlama croisée pozasida yarimbarmoqlarda tezkor développé qilinadi. Yettinchi takt: keng tombé, chassé oldinga, IV pozitsiyada tugallanadi—tours en dehors uchun grande préparation; ikkita tours tirbouchon en dehors, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. Sakkizinchi takt: chap oyoqda —oldinlama effacéening keng IV pozitsiyasiga sissonne tombée, coupé o'ng oyoqda va attitude effacéeda grand jeté; yakunida yarimbarmoqlarda attitude pozasiga sekingina ko'tariladi.

ALLEGRO

1. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

Ikkita yonlama assemblés, o'ng va chap oyoqda oyoqlarni almashtirib oldinga; ikkita jetés battus yonga, o'ng va chap oyoqda, orqalama sur le cou-de-pied holati bilan tugallanadi, har biri $1/4$ lik. To'rt marta takrorlanadi, qisqa coupé qilinadi va barchasi teskari yo'nalishda bajariladi.

1. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. Kichik sissonne tombée croisée oldinga en tournant en dehorsda (o'ng tomonga) va kichik cabriole fermé o'ng oyoqda III arabesque pozasida, ikkita entrechat-quatre. Uch marta bajariladi. Chap oyoqda — oyoqlarni almashtirmasdan yonlama glissade va grand assemblé battu; o'ng oyoqda — entrechat-cinque orqaga, assemblé. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Har bir sakrash $1/4$ da qilinadi.

2. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda — oldinlama kichik sissonne tombée effacée va kichik cabriole fermé II arabesque pozasida, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. Ayni shunday sissonne tombée va cabriole fermé chap oyoqda qilinadi. O'ng oyoqda — oldinlama sissonne tombée effacée, ikkita cabrioles 45° ga II arabesque pozasida va en dehorsda oyoqlar almashib pas de bourrée. O'ng oyoqda — ikkita jetés renversés en dehors; chap oyoqda — croiséening IV pozitsiyasida oldinlama sissonne tombée, coupé o'ng oyoqda va grand jeté chap oyoqda attitude croiséeda, coupé va attitude croiséeda ikkinchi grand jeté; assembléda tugallanadi.

3. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

$4/4$ o'lchamda 4 takt. pozitsiya, chap oyoq oldinda. Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda — oyoqlarni almashtirmasdan oldinlama glissade, grand jeté I arabesqueda, assemblé, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq orqadan, entrechat-six. Uch marta bajariladi, ammo oxirgi marta assembléda V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda va shu tarzda entrechat-six qilinadi. To'g'ri chiziq bo'yicha chap tomonga — oyoqlarni almashtirmasdan glissade, I arabesqueda chap oyoqda grand jeté; oyoqni polga tushirmasdan — I arabesqueda o'ng va chap oyoqda, ikki marta sakrashda qayrilib gavda to'g'ri chiziq bo'yicha o'ng va chap tomonga grand jeté.

Diagonal bo'yicha yuqoriga 2-nuqtadan 6-nuqtaga — ikkita jetés en trenlacés qadam bilan, ikkita jetés entrelacés chassé, I arabesque pozasiga,

failli-coupé, grand assemblé croisée oldinga, yarimbarmoqlarda V pozitsiyaga o'ng tomonga qayrilish va oltita tours chainés 2- nuqtaga, I arabesqueda 90°ga demi-pliega tugallanadi.

4. *4/4 o'lchamda 8 takt.*

2 taktda: diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda — qadam-coupédan ikkita sauts de basque, chassé bilan ikkita sauts de basque, qo'llar sakrashlarda III pozitsiyaga ko'tariladi. 2 taktda: sahnaviy sissonne I arabesqueda qayrilish bilan o'ngga, sahnaviy yugurish 4-nuqtaga, V pozitsiyaga turiladi, chap oyoq oldinda. 4 taktda: diagonal bo'yicha 4-nuqtadan 8-nuqtaga—to'rt marta tour sissonne tombée bajariladi, har biri 2/4lik; olti marta tour sissonne tombée, har biri 1/4lik; ikkita—har biri 1/8lik va chap oyoqda orqalama effacee pozasiga turiladi, o'ng oyoq uchi orqadan polda.

5. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

To'g'ri chiziq bo'yicha 7-nuqtadan 3-nuqtaga — to'rtta jetés battus en tournant siljish bilan yonga 1/2 tourda, har biri 1/4lik; oltita oldinlama emboités yonga siljish bilan 1/2 tourda, har biri 1/8lik; assemblé yonga; ikkita brisés oldinga, har biri 1/4lik, uchta —har biri 1/8lik; ikkita brisés orqaga, har biri 1/4lik, uchta har biri 1/8lik.

6. *2/4 ўлчамда 8 такт.*

Yettita temps levés I pozitsiyada, yettita II pozitsiyada, o'n oltita petits changements de pieds, har biri 1/8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING UCHINCHI MISOLI

1. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Ikkita échappés II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirib, har biri 1/4lik; uchta échappés, har biri 1/8lik; oldinga siljish bilan ikkita sus-sous, har biri 1/4lik; uchta sus-sous, har biri 1/8lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

2. *3/4 o'lchamda 32 takt (vals).*

8 taktda: o'ng oyoqda 2-nuqtaga—grande sissonne ouverte I arabesqueda, plié-relevé; grande sissonne ouverte I arabesqueda, passé bilan plié-relevé 90°ga va o'ng yelkada qayrilish bilan 2-nuqtaga oldinlama écartée pozasiga; En tournant En dedansda oyoqlar almashib pas de bourrée da tugallanadi. 4 taktda: o'ng oyoqda — oldinlama pas de bourrée suivi croisée. 4 taktda: chap oyoqda—grande sissonne ouverte á la seconde,

plié tayanch oyoqda va tour tirbouchon en dedans, o'ng qo'l III, chap qo'l I pozitsiyaga ko'tariladi. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi.

3. *3/4 o'lchamda 16 takt (vals).*

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. 2 taktda: chap oyoqda— oldinlama écartée pozasiga grande sissonne ouverte, I pozitsiya bo'yicha passé, chap oyoq qayrilish bilan en dedansda oldinga 4-nuqtaga tashlanadi, ayni paytda barmoqlarda ko'tarilib, attitude croisée qayriladi, chap qo'l III, o'ng qo'l I pozitsiyaga (oddiy grand fouetté en tournant en dedans). 2 taktda: attitudedan chap oyoq passé bilan 90°ga oldinlama écartée pozasiga V pozitsiyada barmoqlarda tashlanadi, V pozitsiyaga demi-pliéda tushiriladi, chap oyoq oldinda qayrilish qilinadi, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi. 4 taktda: barchasi takrorlanadi. 4 taktda: o'ng oyoqda — pas de bourree suivi to'g'ri chiziq bo'yicha o'ngga, croiséening IV pozitsiyasida tugallanadi, chap oyoq oldinda. 4 taktda: ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors, IV pozitsiyada tugallanadi; ikkita tours en dehors, V pozitsiyada tugallanadi.

4. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga bajariladi, dégagé bilan bittadan tour en dehors, har bir tour 2/4da va 2/4da — dégagé bilan ikkita tours en dehors. To'rt marta takrorlanadi.

5. *2/4 o'lchamda 8 takt.*

V pozitsiyadan V pozitsiyaga réparation va o'n beshta tours sur le cou-de-pied en dehors V pozitsiyadan oldinga siljish bilan diagonal bo'yicha, har bir tour 1/4da.

6. *Tours chaînés va tours fouettés mashqlari.*

SABOQNING TO'RTINCHI MISOLI

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: grand plié V pozitsiyada port de bras bilan (o'ng oyoq oldinda); chuqur pliédan—ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors chap oyoqda, oldinlama écartée pozasida 90°ga tugallanadi; chap qo'l III, o'ng qo'l I pozitsiyada. Ikkinchi takt: écartée pozasida tour lent en dehors. Uchinchi takt: passé o'ng oyoqda 90°ga III arabesque pozasiga pliéda yarimbarmoqlarga ko'tarilish bilan; 90°ga oldinlama effacée pozasiga pliéda yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan passé. To'rtinchi takt: 90°ga III arabesque pozasiga pliéda yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan passé va attitudeda tour en dehors. Beshinchi takt: renversé en dehors va développé

chap oyoqda yonga. Oltinchi takt: yarimbarmoqlarga relevé va oldinlama effacée pozasiga pliédemi-rond; yarimbarmoqlarga relevé va orqalama effacée pozasiga pliéd grand rond en dehors. Yettinchi takt: effacéega pas de bourrée ballotté, 2-nuqtaga, oldinga—orqaga, oldinga—orqaga boshlanadi. Sakkizinchi takt: yuqoridan yarimbarmoqlarda chap oyoqda turiladi va oldinlama effacée pozasida tour en dehors qilinadi.

Battements tendus — $4/4$ o'lchamda 4 takt. O'ng oyoqda — to'rtta oldinlama battements tendus effacée; chap oyoqda — to'rtta orqalama effacéening katta pozasida; o'ng oyoqda—écarténing katta pozasida to'rtta orqaga, har biri $1/4$ lik va écartée pozasida orqaga yettita battements tendus jetés, har biri $1/8$ lik. 2 takt: chap oyoqda — sissonne ouverte 45° ga yarimbarmoqlarda oldinlama croisée va IV pozitsiyada tushiriladi — tour sur le cou-de-pied en dedans uchun préparation; bitta tour en dedans chap tomonga, IV pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda, ikkita tours en dedans o'ng tomonga qilinadi, IV pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda, ikkita tours en dehors o'ng tomonga.

2. *90° ga battements fondus. $4/4$ o'lchamda 4 takt.*

O'ng oyoqda— oldinlama yeffacéening katta pozasida ikkita battements fondus; chap oyoqda — ikkita I arabesque pozasida, har biri $2/4$ lik; 90° ga ikkita yonlama battements fondus, har biri $2/4$ lik; $4/4$ da — plié va tour en dehors IV arabesque pozasida. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda tour bilan oldinlama croisée pozasida bajariladi.

3. *Grands battements jetés balancés II pozitsiyaga. $2/4$ o'lchamda 8 takt.*

Oyoqlarni almashtirib uchta orqalama grands battements, har biri $1/8$ lik, uchinchi battementda harakatdagi oyoq 90° ga ushlab turiladi. To'rt marta takrorlanadi va to'rt marta oyoqlarni almashtirib oldinga bajariladi.

4. *Katta adagio. $4/4$ o'lchamda 12 takt.*

Birinchi takt: grand plié V pozitsiyada (o'ng oyoq oldinda); chuqur pliédan — ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans, attitude effacéeda tugallanadi. Ikkinchi takt: attitude pozasidan—grand rond yonga, effacée pozasiga oldinga; yarimbarmoqlarga relevé va effacéening IV pozitsiyasiga tushiriladi—tours en dedans uchun grande préparation. Uchinchi takt: attitude effacéeda ikkita tours qilinadi. To'rtinchi takt: attitude pozasidan—keng tombé, chassé orqaga, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda; o'ng oyoqda oldinlama croisée pozasida yarimbarmoqlarda développée

qilinadi, keng tombé, chassé, IV pozitsiyada tugallanadi—tours en dedans uchun grande préparation. Beshinchi takt: ikkita tours á la seconde en dedans. Oltinchi takt: á la seconde holatidan—grand fouetté en tournant en dedans IV arabesque pozasiga va attitudedan renversé en dehors, o'ng qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi. Yettinchi takt: chap oyoqda—croisée pozasida oldinlama développé va oldinlama écartée pozasi orqali renversé en dedans. Sakkizinchi takt: 8-nuqtaga—oldinlama pas couru, oldinlama effacéning kichik pozasida pliédá tugallanadi; chap oyoq uchi polda; to'rtta battements battus o'n oltilik o'lchovda effacéda oldinga va oldinlama effacée pozasiga oyoq uchi polda pliédá tushiriladi. Battements battus takrorlanadi, so'ngra bitta petit battement qilinadi, chap oyoq orqaga olinadi va attitude effacé pozasiga développé qilinadi. To'qqizinchi takt: attitudeda tour lent en dedans. O'ninchi takt: coupé chap oyoqda yarimbarmoqlarda va o'ng oyoqda — grand fouetté effacée en dehors; orqaga o'ng oyoqda yarimbarmoqlarda keng qadam tashlanadi va chap oyoqda — grand fouetté effacée en dedans. O'n birinchi takt: yuqoridan yarimbarmoqlarda chap oyoqda turiladi va bitta tour en dedans I arabesque pozasida qilinadi; plié tayanch oyoqda va attitude effacée pozasida ikkinchi tour qilinadi, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda. O'n ikkinchi takt: failli IV pozitsiyada—tours sur le cou-de-pied en dehors uchun préparation, ikkita tours, orqalama écarténing katta pozasida tugallanadi, qo'llar III pozitsiyada, o'ng oyoq V pozitsiyaga orqadan qo'yiladi va soubresaut bajariladi.

ALLEGRO

1. 2/4 o'lchamda 16 takt.

O'ng oyoqda — uchta oldinlama assemblés croisée qilinadi, chap oyoqda — uchta orqalama assemblés croisée, har biri 1/8lik; o'ng oyoqda 2/4da —45°ga yonlama sissonne ouverte battue, assemblé; chap oyoqda — ikkita sissonnes fermées battues orqalama croiséening kichik pozasida, har biri 1/4lik. Boshqa oyoqda takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

7. 2/4 o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda — sissonne ouverte 45°ga en tournant. En dehors oldinlama effacéning kichik pozasiga, 45°ga effacée pozasida ikkita cabrioles, assemblé, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan; sissomie ouverte 45°ga en tournant en dedansda orqalama effacéning kichik pozasiga ikkita cabrioles 45°ga effacée pozasida, assemblé, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq oldinda. Chap oyoqda — ikki marta brisé dessus-

dessous; chap oyoqda—oyoqlarni almashtirmasdan yonlama glissade, kichik cabriole fermé yonga; o'ng oyoqda — oyoqlarni almashtirmasdan yonlama glissade va yonlama kichik cabriole fermé.

8. $3/4$ o'lchamda 8 takt.

O'ng oyoqda 2-nuqtaga — V pozitsiyadan I arabesqueda grand jeté va chap oyoqni tushirmasdan — orqalama grand jeté, jeté yakunida o'ng oyoq développé effacée usulida oldinga 90° ga yoziladi, assemblé, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan, uchta entrechat-quatre, ikkita grands pas de basque oldinga, grands jetés chap oyoqda 8-nuqtaga takrorlanadi, uchta entrechat-quatre va ikkita grands pas de basque orqaga.

9. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

Préparation— chap oyoq oldinlama croisée oyoq uchi polda. O'ng oyoqda — 2-nuqtaga oyoqlarni almashtirmasdan oldinlama glissade va oldinlama grand cabriole effacée; temps levé bilan tayanch oyoq o'ng oyoqqa orqalama effacée I arabesquega olib boriladi, en dehorsda oyoqlar almashib pas de bourrée tugallanadi. Ayni shu narsa chap va o'ng oyoqda takrorlanadi. Chap oyoqda — yonlama glissade, grand fouetté sauté à la seconde — I arabesque, failli va oldinlama écartée pozasida entrechat-six de volé.

10. $3/4$ o'lchamda 8 takt (vals).

Diagonal bo'yicha 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda — oyoqlarni almashtirmasdan oldinlama glissade, oltita grands jetés — pas de chat o'ng oyoqda yarimbarmoqlarda I arabesquega dik etib turiladi.

11. $4/4$ o'lchamda 8 takt.

V pozitsiya, o'ng oyoq oldinda. O'ng oyoqda— yonlama grande sissonne ouverte; temps levé bilan tayanch oyoqda—demi-rond III arabesqueda; temps levée yarim qayrilish bilan en dehorsda, ayni payda o'ng oyoq 90° ga passé qiladi, oldinlama croisée pozasiga 90° ga tugallanadi, assemblé. 5-nuqtaga qaragan holda, chap oyoqda yonlama grande sissonne ouverte qilinadi, temps levé tayanch oyoqda—oldinlama croisée pozasiga demi-rond, temps levé yarim qayrilish bilan en dedansda (1-nuqtaga), ayni paytda chap oyoqda 90° ga III arabesque pozasiga passé qilinadi, assemblé. Oldinlama effacée o'ng oyoqda sissonne tombée, ikkita grands cabrioles I arabesque pozasida, assemblé va to'rtta entrechat-six. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi.

7. O'g'il bolalar sinfi uchun relevé.

8. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

Yettita oldinlama brisés o'ng oyoqda, royale; yettita oldinlama brisés chap oyoqda, royale. Ayni shu teskari yo'nalishda takrorlanadi. Kombinatsiya tezkor sur'atda bajariladi.

9. *2/4 o'lchamda 4 takt.*

O'n oltita petits changements de pieds, har biri 1/8lik.

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING TO'RTINCHI MISOLI

1. *2/4 o'lchamda 16 takt*

O'ng oyoqda —croiséening IV pozitsiyasida uchta échappés, har biri 1/4lik; 1/4da—V pozitsiyaga chap tomonga qayrilish. Boshqa oyoqda takrorlanadi. O'ng oyoqda—V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va uch marta tour sur le cou-de-pied en dehors. Préparation takrorlanadi va chap oyoqda tours bajariladi. Kombinatsiya tours en dedans bilan takrorlanadi.

2. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

1/4da o'ng oyoqda—qo'shaloq rond de jambe en l'air en dehors; 1/4da—o'ng oyoqda I pozitsiya bo'ylab demi-pliéda orqaga 45°ga passé; 2/4da — pas de chat, en dehorsda oyoqlar almashib pas de bourrée. Yana bir marta takrorlanadi. Qo'shaloq rond de jambe en l'air en dedans chap va o'ng oyoqda, har biri 2/4lik; o'ng oyoqda—beshta sissonnes simples en tournant o'ng tomonga, ulardan ikkitasi 1/4da, uchta 1/8da. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi.

3. *3/4 o'lchamda 32 takt (vals).*

V pozitsiya, chap oyoq oldinda. 4 taktda: o'ng oyoqda 2-nuqtaga qadam tashlanadi, chap oyoqda grand fouetté effacée en dehors, plié-relevé attitudeda allongé. 4 taktda: attitudeda grand fouette va relevé takrorlanadi. 4 taktda: chap oyoqda — pas de bourrée suivi croisée oldinga, plié chap oyoqda tugallanadi, o'ng oyoqda yonga 45°ga dégagé. 4 taktda: ikki marta tour fouetté en dedans, pas de bourrée dessus en tournant va V pozitsiyaga barmoqlarda turiladi. 4 taktda: chap oyoqda 8-nuqtaga qadam tashlanadi, o'ng oyoqda—grand fouetté effacée en dedans, oldinlama effacée pozasida plié-relevé. 4 taktda: effacée pozasida grand fouetté va relevé takrorlanadi. 4 taktda: chap oyoqda — pas de bourrée suivi yonga, croiséening IV pozitsiyasida tugallanadi, chap oyoq orqaga olinadi. 4 taktda: tour sur le cou-de-pied on dehors, yonga 45°ga tugallanadi; ikki marta tour fouetté en

dehors va pas de bourrée dessous en tournant bajariladi.

4. *2/4 o'Ichamda 16 takt.*

Diagonal bo'ylab 6-nuqtadan 2-nuqtaga harakat. Préparation o'ng oyoqda, chap oyoq orqalama croiséda oyoq uchi polda. Taktdan so'ng — dégagé chap oyoqda yonga pliéda va 2-nuqtaga buriish. 2/4da — pas de bourrée dessus-dessous en tournant; 2/4da — tour va tour en dehors chap oyoqda dégagé bilan; to'rt marta tour en dedans o'ng oyoqda coupé bilan, har biri 1/4lik; yuqoridan barmoqlarda o'ng oyoqda I arabesqueda 90°ga turiladi; besh marta plié-relevé arabesque pozasida, diagonal bo'ylab orqaga siljib, har biri 1/4lik, beshinchi relevédan keyin 1/4da — pliéda chap oyoqda coupé va 2/4da o'ng oyoqda ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans, V pozitsiyada tugallanadi, chap oyoq oldinda. Oltita sissonnes simples, o'ng va chap oyoqda navbati bilan oyoqlarni almashtirib oldinga va kichik siljish bilan diagonal bo'ylab 2-nuqtaga, har biri 1/4lik; oltinchi sissonne croiséning IV pozitsiyasida tugallanadi, chap oyoq oldinda; 2/4da—ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors, V pozitsiyada tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. Diagonal bo'ylab yuqoriga yettita orqalama jetés fondus (yumshoq qadamlar), o'ng va chap oyoqda navbati bilan, har biri 1/4lik; yettinchi jeté fondudan keyin 1/4da o'ng oyoqda I arabesque pozasiga 90°ga barmoqlarda dik etib turiladi.

5. *2/4 o'Ichamda 8 takt.*

O'n oltita tours fouettés, har biri 1/4lik.

6. *2/4 o'Ichamda 8 takt.*

V pozitsiyaga barmoqlarda turiladi. Sakkizta grand battements jetés yonga, o'ng va chap oyoqda navbati bilan va oyoqlar almashib orqaga, sakkizta grands battements jetés oyoqlar almashib oldinga, har biri 1/4lik.

SAKKIZINCHI SINF

Mahorat va artistlikni rivojlantirish

SABOQNING BIRINCHI MISOLI

USKUNA OLDIDAGI MASHQLAR

1. 4/4 o'lchamda 16 takt.

I va II pozitsiyalarda ikkitadan demi-pliés va ikkitadan grands pliés; IV va V pozitsiyalarda ikkitadan grands pliés, har biri 1/4lik; gavgani orqaga egish bilan ikkita port de bras; gavgani yonga egish bilan uskunaga qarab bitta port de bras va bitta uskunadan yonga egish bilan, har biri 4/4lik.

2. Battements tendus. 2/4 o'lchamda 32 takt.

Demi-pliéda—oldinga, yonga, orqaga va yonga ikkitadan battements tendus, har biri 1/4lik; to'rtta yonga uzatilgan tayanch oyoqda, har biri 1/4lik, uchta va uchta har biri 1/8lik. Teskari yo'nalishda takrorlanadi. Battements tendus jetés: yettita oldinga, yettita yonga, har biri 1/8lik; battements tendus jetés I pozitsiyaga—to'rt marta beshtadan, har biri 1/16lik, 45°ga to'xtalish bilan, har beshinchisida jeté. Battements tendus jetés teskari yo'nalishda takrorlanadi.

3. Ronds de jambe par terre. 2/4 o'lchamda 24 takt.

En dehors: to'rtta ronds de jambe par terre, 1/4 har biri, uchta 1/8 har biri, beshta 1/6 har biri, oldinga oyoq uchi polda tugallanadi; tezkor passé I pozitsiya bo'ylab (jetés) orqaga — oldinga — orqaga, oldinga — orqaga — oldinga 45°ga, 1/8 har biri; uchta grands ronds de jambe jetés en dehors, har biri 1/4 va ikkita har biri 1/8. Barchasi en dedansda takrorlanadi va 8 taktida plié en dedans—en dehorsda aylanish qilinadi, relevé orqaga 90°ga yarimbarmoqlarda ko'tarilish bilan va gavgani egish bilan port de bras.

4. 45°ga battements fondus. 2/4 o'lchamda 24 takt.

2/4da—fondu oldinga; 2/4da—plié va uskunadan yarimqayrilish bilan relevé (harakatdagi oyoq oldinga uzatilgan); 2/4da—passé I pozitsiya bo'ylab demi-pliéda orqaga va yarimbarmoqlarda uskunaga yarimqayrilish, yakunida harakatdagi oyoq oldinda 45°ga; 2/4da — yonlama demi-rond bilan plié-relevé; 2/4da — ikkita pliés-relevés; 2/4da — plié va ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors; ikkita yonlama doubles fondus, 2/4 har biri. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi. Frappés: yonga oltita, 1/8 har biri va 2/8da — flic-flac en tournant en dedans to'xtalish bilan yonga 45°ga.

Frappés takrorlanadi, en dehorsda flic-flac en tournant qilinadi; uchta doubles frappés, har biri 1/8, yana ikki marta takrorlanadi va 2/4da flic-flac en tournant en dedans to'xtalish bilan oldinlama écartée pozasiga 90°ga bajariladi.

5. *Ronds de jambe en l'air. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

To'rta ronds de jambe en l'air en dehors, har biri 1/4, beshta va beshta — har biri 1/16; 4/4da— orqalama écartée pozasiga développé qilinadi va ikkita ronds de jambe en l'air en dehors 90°ga; 4/4da— attitude effacéeda demi-rond qilinadi, flic-flac en tournant en dehors oldinlama effacéening katta pozasiga tugallanadi, keyin harakatdagi oyoq II pozitsiya tomon olib borilib, 45°ga tushiriladi. Barchasi en dedansda takrorlanadi.

6. *Petits battements sur le cou-de-pied. 2/4 o'lchamda 16 takt.*

Sakkizta yonlama doubles frappés oyoq uchi polda II pozitsiyaga qo'shaloq o'tkazish bilan oyoqda sur le cou-de-pied, ko'tarilish bilan tayanch oyoqda yarimbarmoqlarda va tovonga tushirish bilan, har biri 1/4; yigirma Sakkizta petits battements, har biri 1/16 va 1/4da demi-pliéga tushiriladi, harakatdagi oyoq yonga oyoq uchi polda yoziladi. Barchasi takrorlanadi.

7. *Battements développés. 3/4 o'lchamda 32 takt (vals).*

4 taktda: développé oldinga yarimbarmoqlarda, demi-rond yonga, attitude effacéeda 90°ga passé. 4 taktda: attitude effacée pozasida tugallanadigan fouetté en dedansning ikki marta qayrilishi, harakatdagi oyoq oldinlama écartée pozasiga o'tkaziladi, V pozitsiyaga tugallanadi. 4 taktda: développé orqaga yarimbarmoqlarda, demi-rond yonga, oldinlama effacée pozasiga 90°ga passé. 4 taktda: oldinlama effacée pozasiga tugallanadigan ikki marta qayrilish fouette en dehors, harakatdagi oyoq orqalama écartée pozasiga o'tkaziladi, V pozitsiyaga tugallanadi. 4 taktda: développé yonga yarimbarmoqlarda, demi-rond oldinga, orqalama écartée pozasiga 90°ga passé. 4 taktda: ikkita qisqa balancés, tombé V pozitsiyaga pliédá o'ng oyoqda va développé chap oyoqda oldinga gavdani egish bilan orqaga, V pozitsiyaga tugallanadi. 4 taktda: développé yonga yarimbarmoqlarda, demi-rond orqaga, oldinlama écartée pozasiga 90°ga passé. 4 taktda: ikkita qisqa balancés, V pozitsiyaga pliédá o'ng oyoqda tombé, chap oyoq—90°ga arabesque pozasi va yarimbarmoqlarda uskunaga yarimqayrilish. Yakunida chap oyoq oldinda 90ga, chap qo'l III

pozitsiyada.

8. *Grands battements jetés. 2/4 o'lchamda 8 takt.*

Oldinlama grand battement yonlama demi-rond bilan oyoq uchi polda II pozitsiyaga tugallanadi. Oyoq uchidan navbatdagi yonlama grand battement orqalama demi-rond bilan qilinadi orqadan oyoq uchi polda tugallanadi. So'ngra aynan shu orqaga bajariladi — yonga va yonga — oldinga, har biri grand battement 1/4lik. Ikkita oldinlama grands battements V pozitsiyaga va ikkita yonga, 1/4 har biri. Barchasi teskari yo'nalishda takrorlanadi.

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 4 takt.*

Birinchi takt: grand plié V pozitsiyada (o'ng oyoq oldinda); chuqur pliédan — bir yarim tour en dedans o'ng oyoqda oldinlama croiséening katta pozasida, IV arabesqueda tugallanadi. Ikkinchi takt: egilish quyiga va ko'tarilish gavdani arabesque pozasida. Uchinchi takt: arabesque pozasidan yarimqayrilish en dehors á la seconde va 1-nuqtadan yarim tour lent en dehors. To'rtinchi takt: passé I pozitsiya bo'ylab III arabesqueda demi-pliédan va tezkor qayrilish en dehorsda yarimbarmoqlarda passé bilan 90°ga oldinlama effacée pozasiga; V pozitsiyaga tugallanadi, chap oyoq orqadan.

Battements tendus va tours — 4/4 o'lchamda 8 takt. O'ng oyoqda — to'rtta battements tendus oldinlama croiséening kichik pozasida; chap oyoqda — to'rtta orqalama croiséening kichik pozasida, har biri 1/4; o'ng oyoqda — uchta yonlama battements tendus, har biri 1/4 va 1/4 — V pozitsiyadan tour sur le cou-de-pied en dehors. Battements tendus yonga takrorlanadi va V pozitsiyadan en dedansda tour qilinadi. Battements tendus jetés: yettita yonga, har biri 1/8 va 4/4da — préparation va II pozitsiyadan ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors. Battements tendus jetés takrorlanadi II pozitsiyadan uchta tours En dehors qilinadi.

2. *90°ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: o'ng oyoqda — oldinlama effacée pozasida 90°ga ikkita battements fondus. Ikkinchi takt: o'ng oyoq IV pozitsiyaga effacéda tushiriladi va attitude effacéda o'ng oyoqda ikkita tours en dedans bajariladi. Uchinchi takt: tombé orqaga chap oyoqda va tour en dehors III arabesque pozasida, plié va ikkita tours tirbouchon en dehors. To'rtinchi takt: tirbouchon holatidan o'ng oyoqda 45°ga oldinga tushiriladi va yarim

qayrilgan holat va grand rond de jambe en dehorsda renversé en dehors qilinadi. Renversé pas de bourrée tugallanib, pliéda o'ng oyoqqa yiqiladi va u bilan ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans bajariladi, coupé yarimbarmoqlarda chap oyoqda tugallanadi, o'ng oyoq yonga 45°ga yoziladi. Beshinchi va oltinchi taktlar: o'ng oyoqda—yettita va yana yetti marta frappés yonga, har biri 1/8. Yettinchi takt: o'ng oyoqda—ikkita fondus 90°ga orqalama effacée pozasida. Sakkizinchi takt: tombé orqaga o'ng oyoqda va ikkita tours en dehors oldinlama effacée pozasida, chap qo'l III, o'ng qo'l I pozitsiyada, panjalar arabesque holatida.

3. *Katta adagio. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinchi takt: grand plié V pozitsiyada (o'ng oyoq oldinda), chuqur pliédan—o'ng oyoqda III arabesque pozasiga grande sissonne ouverte. Ikkinchi takt: arabesque pozasida pliéga tour lent en dehors. Uchinchi takt: yarimbarmoqlarda attitude croiséda ko'tariladi va taktning dastlabki ikki choragida grand port de bras bajariladi, IV pozitsiyaga tugallanadi —tours en dedans uchun grande préparation; ikkita tours oldinlama croisée pozasida. To'rtinchi takt: croisée pozasidan renversé en dedans bajariladi, tezkor développé chap oyoqda yarimbarmoqlarda attitude croiséda, tombé va chassé orqaga. Beshinchi takt: o'ng oyoqda — préparation va ikkita tours á la seconde en dehors II pozitsiyadan. Oltinchi takt: á la seconde holatidan renversé qilinadi (attitude) en dehors, chap oyoqda yonga qadam tashlanadi va oldinga o'ng oyoqda IV arabesqueda 90°ga qadam tashlanadi. Yettinchi takt: IV arabesquedan — renversé en écarté, orqalama écartée pozasida plié va 6-nuqtaga chap oyoqda I arabesqueda 90°ga qadam tashlanadi. Sakkizinchi takt: plié arabesque pozasida grand jeté o'ng oyoqda I arabesqueda 2-nuqtaga, oyoqlarni almashtirish bilan en dehorsda pas de bourrée, IV pozitsiyaga tugallanadi—tours sur le cou-de-pied en dehors va uchta tours en dehors o'ng tomonga to'xtalish bilan III arabesque pozasida pliéga oyoq uchi polda.

ALLEGRO

1. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

To'rtta assemblés battus o'ng va chap oyoqda navbati bilan oyoqlarni almashtirish bilan oldinga, har biri 1/4; II pozitsiyaga oyoqlarni almashtirish bilan ikkita échappés battus, har biri 2/4. Barchasi takrorlanadi va teskari yo'nalishda bajariladi.

2. $2/4$ o'lchamda 16 takt.

O'ng oyoqda —ehors oldinlama croisée kichik pozasigasissonne ouverte 45°ga en tournant en d, assemblé; orqalama écartée kichik pozasigasissonne ouverte 45°ga en tournant en dehors, assemblé. En tournant en dedans oldidan (chap tomonga) to'liq qayrilish bilan uchta brisés, dégagé o'ng oyoqda effacée orqaga oyoqlarni almashtirish bilan pas de bourrée. Qo'shaloq rond de jambe en l'air sauté en dehors, assemblé, o'ng oyoqda, chap va o'ng oyoqda; entrechat-cinque orqaga o'ng oyoqda, qisqa coupé va chap oyoqda — assemblé oldinlama croiséening kichik pozasida. Barchasi boshqa oyoqda takrorlanadi. Aynan shu teskari yo'nalishda ijro etiladi.

3. $3/4$ (vals) o'lchamda 16 takt.

O'ng oyoqda — grande sissonne ouverte en tournant en dehors orqalama écartée pozasiga, assemblé; grande sissonne ouverte o'ng oyoqda IV arabesque pozasiga, o'ng tomonga to'liq qayrilish bilan, assemblé. Ikkita grands pas de basque oldinga, o'ng va chap oyoqda. Sissonne tombée o'ng oyoqda oldinga 4-nuqtaga va grand cabriole I arabesqueda, ikkinchi cabriole I arabesqueda 6-nuqtaga qayrilish bilan, uchinchi cabriole 8-nuqtaga qayrilish bilan. Yarimqayrilish bilan chapg — glissade chap oyoqda yonga (yelka bilan 1-nuqtaga), grand jeté III arabesqueda, 2-nuqtaga chap oyoqda, o'ng oyoqda — glissade oldinga 2-nuqtaga va pas ciseaux.

4. $3/4$ (vals) o'lchamda 16 takt.

Diagonal bo'ylab 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda—attitude croiséda pas couru va grand jeté. Takrorlanadi. O'ng oyoqda—glissade oldinga, grand cabriole oldinlama effacée pozasida va ikkita kichik jetés; diagonal bo'ylab yuqoriga 6-nuqtaga—croiséyeda chassé bilan (qo'llar III pozitsiyada) jeté entrelacé, uch marta bajariladi; yuqoridan yarimbarmoqlarda o'ng oyoqda turiladi, tezda 6-nuqtaga qayriladi va ikkita tours sur le cou-de-pied en dedans qilinadi, effacée pozasida orqaga 90°ga tugallanib, qo'llar allongé holatida.

5. $3/4$ o'lchamda 32 takt (vals).

16 taktda: préparation—o'ng oyoq croisé oldinga oyoq uchi polda. Chap oyoqda — oyoqlar almashmasdan yonlama glissade, grand cabriole fouetté à la seconde—I arabesque, o'tuvchan pas de bourrée oyoqlarni almashtirish bilan en dehorsda, yakunida croiséening kichik pozasida chap oyoqda sissonne simple, o'ng oyoqda orqalama sur le cou-de-pied. Ayni shu narsa o'ng va chap oyoqda takrorlanadi. O'ng oyoqda—oyoqlar

almashmasdan yonlama glissade, grand cabriole fouetté à la seconde — I arabesque va grand fouetté sauté en tournant en dedans III arabesqueda. 16 taktda: diagonal bo'y lab 2- nuqtaga o'ng oyoqda — chassé effacéye oldinga va ikkita tours en l'air o'ng tomonga; chap oyoqda — chassé croise oldinga va ikkita tour en l'air chap tomonga; o'ng oyoqda — chassé effacéye oldinga va ikkita tours en l'air o'ng tomonga; chap oyoqda — katta sissonne tombée yonga, o'tuvchan pas de bourrée oyoqlarni almashtirish bilan en dehorsda; chap oyoqda — kichik assemblé yonga, V pozitsiyaga tugallanadi, chap oyoq oldinda, gavda egilishi chapga; sissonne soubresaux chap oyoqda orqalama effacée pozasiga allongé. (Qizlar sinfida ushbu kombinatsiyaning oxirgi 16 takti bajarilmaydi)

6. 4/4 o'lchamda 4 takt.

Diagonal bo'y lab 6-nuqtadan 2-nuqtaga o'ng oyoqda — ikkita jetés par terre, 2/4 har biri; to'rtta 1/4 har biri; 2/4da o'ng oyoqda yarimbarmoqlarda I arabesqueda 2-nuqtaga turiladi va V pozitsiyaga demi-pliéga tushiriladi, chap oyoq oldinda; 2/4da—sissonne tombée en tournant en dehors croisé oldinga o'ng oyoqda (qayrilish o'ng tomonga) va 4/4da — tours chaînés o'ng oyoqda croisé yo'nalishida, yakunida croisée pozasiga o'ng oyoqda turiladi, chap oyoq orqadan oyoq uchi polda.

7. 2/4 o'lchamda 8 takt.

To'rtta entrechat-six, 1/4 har biri; yettita petits changements de pieds, 1/8 har biri. Takrorlanadi.¹¹⁷

BARMOQLARDAGI MASHQLARNING BIRINCHI MISOLI ¹¹⁸

1. 4/4 o'lchamda 8 takt.

Oyoqlarni almashtirish bilan orqaga uchta sissonnes simples, o'ng oyoqda, chap va o'ng oyoqda, 1/4 har biri; 1/4da— attitude croisée grande sissonne ouverte, o'ng qo'l III, chap qo'l I pozitsiyada. Boshqa oyoqda takrorlanadi.

4/4da o'ng oyoqda — V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va uch marta tour sur le cou-de-pied en dehors. 4/4da chap oyoqda — V pozitsiyadan V pozitsiyaga préparation va uch marta tour en dehors. Barchasi takrorlanadi.

¹¹⁷Odatda, har bir saboq port de brasda gavdani egish bilan tugallanadi.

¹¹⁸O'tilgan dasturga muvofiq saboqlar oxirida balet spektakllari repertuari bo'yicha raqs adabiyotlari olib boriladi.

2. $3/4$ o'lchamda 16 takt (vals).

Préparation — o'ng oyoqda croisé orqadan oyoq uchi polda. 4 taktda: barmoqlarda o'ng oyoqda 2-nuqtaga qadam tashlanadi va grand fouetté effacée en dehors, failli, grand assemblé oldinlama écartée pozasida. 4 taktda: o'ng oyoqda — to'rtta sissonnes simples en tournant (o'ng tomonga). 4 taktda: yuqoridan 2-nuqtaga o'ng oyoqda turiladi va tour en dedans sur le cou-de-pied qilinadi, o'ng qo'l III, chap qo'l I pozitsiyada, barmoqlarga chap oyoqda qo'yiladi va tour en dehors bajariladi, chap qo'l III pozitsiyaga ko'tariladi, o'ng qo'l I pozitsiyaga tushiriladi; chap oyoqda plié va ikkita tours en dedans o'ng oyoqda; V pozitsiyaga pliédá tugallanadi, chap oyoq oldinda, tezkor qayrilish barmoqlarda V pozitsiyaga (o'ng tomonga), qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi. 4 taktda: préparation V pozitsiyadan va ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors.

3. $3/4$ o'lchamda 32 takt (vals).

4 taktda: o'ng oyoqda — attitude croiséeda grande sissonne ouverte, tayanch oyoqda plié (V pozitsiyaga tushirmasdan) va renversé en dehors. 4 taktda: chap oyoqda — III arabesqueda grande sissonne ouverte, tayanch oyoqda plié va ikkita tours tirbouchon en dehors, V pozitsiyaga tugallanadi. 4 taktda: dégagé o'ng oyoqda yonga oyoq uchi polda va to'g'ri chiziq bo'ylab chapga pas de bourrée suivi, o'ng oyoq oldinda. 4 taktda: o'ng oyoqda — oldinlama croisée pozasiga grande sissonne ouverte, plié tayanch oyoqda va renversé en dedans. 4 taktda: chap oyoqda — attitude croiséeda grande sissonne ouverte va renversé en dehors. 4 taktda: o'ng oyoqda—III arabesqueda grande sissonne ouverte, plié va ikkita tours tirbouchon en dehors. 4 taktda: o'ng oyoqda diagonal bo'ylab 2-nuqtaga — to'rt marta tours glissades en tournant. 4 taktda: tours chainés, taktning oxirgi choragi I arabesque pozasi bilan 90°ga tugallanadi.

4. $4/4$ o'lchamda 4 takt.

Préparation — o'ng oyoq croisé oldinga oyoq uchi polda. Birinchi takt: plié o'ng oyoqda va attitude effacéeda yarim tour en dedans, attitudeda plié va ikkinchi yarim tour, plié va butun tour, I pozitsiya bo'ylab passé chap oyoqda oldinga pliédá IV arabesque pozasiga tugallanadi, o'ng oyoq oyoq uchi polda. Ikkinchi takt: coupé o'ng oyoqda va barcha tourslar chap oyoqda takrorlanadi. Uchinchi takt: chap oyoqda coupé va o'ng oyoqda — croisé yo'nalishida oldinga pas de bourrée suivi. To'rtinchi takt: o'ng oyoqda — V pozitsiyadan IV pozitsiyaga préparation, ikkita tours sur le cou-de-pied en

dedans, V pozitsiyaga tugallanadi, o'ng oyoq oldinda va o'ng oyoqda barmoqlarda attitude croisée allongéda dik etib turiladi.

5. 2/4 o'lchamda 8 takt.

45°ga sakkizta tours fouetté: o'ng oyoqda en dehors, chap oyoqda en dedans, navbati bilan; o'ng oyoqda en dehorsda 45°ga Sakkizta tours fouetté.

SABOQNING IKKINCHI MISOLI

ZAL O'RTASIDAGI MASHQLAR

1. *Kichik adagio va battements tendus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

Birinci takt: demi-plié V pozitsiyada (o'ng oyoq oldinda), qo'llar yonga yarimbalandlikka yoziladi; chap oyoqda ikkita tours sur le cou-de-pied en dehors, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi; chap oyoqda demi-plié tugallanadi, o'ng qo'l oldinlama effacéyega 45°ga yoziladi, qo'llar II pozitsiyaga tushiriladi. Ikkinchi takt: o'ng oyoqda attitude effacéda turiladi va tour lent en dedansning yarmi 6-nuqtadan qilinadi, I pozitsiya bo'ylab oldinlama croisée pozasiga 90°ga yarimbarmoqlarda passé. Uchinchi takt: pliédada chap oyoqda keng tombé, o'ng oyoq orqadan 90°ga ko'tariladi, gavda quyiga tushiriladi va tayanch oyoqda tortiladi, en dehors oldinlama écartée pozasiga qayriladi. To'rtinchi takt: écartée pozasida plié, yuqoridan yarimbarmoqlarda o'ng oyoqda turiladi va attitude effacéda bir yarim tour en dedans qilinadi, chap qo'l III, o'ng qo'l I pozitsiyaga ko'tariladi; attitude croisée pozasi bilan tugallanadi, qo'l panjalari arabesque holatiga qayriladi, chap panjaga nazar tashlanadi. Beshinchi takt: attitude pozasidan croisée IV pozitsiyaga turiladi, o'ng qo'l II, chap qo'l I pozitsiyaga tushiriladi: grand plié, chuqur pliédan— tour en dehors o'ng oyoqda IV arabesqueda. Oltinchi takt: arabesque pozasida qayrilish bilan en dehors 4-nuqtaga oldinlama croisée pozasiga plié-relevé, qo'llar III pozitsiyaga ko'tariladi, En dehors (yarimbarmoqlarda) I arabesqueda 2-nuqtaga qayriladi, bunda chap oyoqda grand rond en dehors ijro etiladi. Yettinchi takt: orqaga chap oyoqda tombé va III arabesqueda ikkita tours en dehors. Sakkiztainchi takt: arabesque pozasidan— renversé en dehors, V pozitsiyaga chap oyoqda tugallanadi, chap tomonga glissade en tournant en dehors bajariladi.

Battements tendus — 4 taktda. O'ng oyoqda — Sakkizta yonlama battements tendus, har biri 1/4lik, o'n oltita battements tendus jetés, har biri 1/8lik. 2 taktda: chap oyoqda — préparation V pozitsiyadan orqaga IV

pozitsiyaga va tour sur le cou-de-pied en dedans o'ng tomonga; IV pozitsiyaga tugallanadi, chap oyoq oldinda; ikkita tours en dedans chap tomonga, IV pozitsiyaga tugallanadi, o'ng oyoq oldinda va uchta tours en dedans o'ng tomonga.

2. *45°ga battements fondus. 4/4 o'lchamda 8 takt.*

O'ng oyoqda — oldinlama effacéning kichik pozasida uchta fondus, har biri 1/4lik; 1/4da yarimbarmoqlarda qolinadi, harakatdagi oyoqda orqalama effacéning kichik pozasiga o'tkaziladi. Orqalama effacée pozasida uchta fondus, har biri 1/4; 1/4da harakatdagi oyoq oldinlama effacéning kichik pozasiga o'tkaziladi; 1/4da — o'ng oyoqda oldinga tombé va tour sur le cou-de-pied en dedans; 1/4da — V pozitsiyaga chap oyoqda tombé va tour sur le cou-de-pied en dehors; 2/4da — chap oyoqda ikkita tours temps relevé en dehors, yarimbarmoqlarda développé oldinga tugallanadi; 2/4da — attitude croisée grand rond; 2/4da — renversé en dehors va chap oyoq yonga 45°ga yoziladi. Chap oyoqda — o'n to'rtta petits battements en tournant en dedans, har biri 1/8; 1/4da chap oyoqda pliége tushiriladi, o'ng oyoq croisé orqaga oyoq uchi polda tortilgan. 2/4da — pliége tombé o'ng oyoqda 5-nuqtaga va bir yarim tour sur le cou-de-pied en dedans, oldinlama croisée pozasiga 90°ga tugallanadi; 2/4da — renversé en dedans; 4/4da — oldinga o'ng oyoqda IV arabesque pozasiga 90°ga qadam tashlanadi va renversé en écartée.

3. *Katta adagio. 3/4 o'lchamda 16 takt (vals).*

V pozitsiya, o'ngoyoq oldinda. 4 taktda: II pozitsiyaga grand échappé va chap oyoqda ikkita tours á la seconde en dehors; o'ng oyoqni ushlab turmasdan — chapga plié va ikkita tours tirbouchon en dehors, V pozitsiyaga tugallanadi, o'ng oyoq orqadan. 4 taktda: grand échappé IV pozitsiyaga croisé va chap oyoqda I arabesqueda ikkita tours en dedans; 4 taktda: arabesque pozasidan — grand fouetté en tournant en dedans III arabesqueda va I arabesqueda. 4 taktda: arabesque pozasidan — oldinga o'ng oyoqda coupé-qadam tashlanadi va pas ciseau, failli va oldinlama écartée pozasida entrechat-six de volé.

ALLEGRO

1. *2/4 o'lchamda 16 takt.*

O'ng va chap oyoqda ikkita assemblés battus, oyoqlarni almashtirish bilan oldinga, har biri 1/4lik; uchta zanoskasiz assemblés, har biri 1/8lik;

1/4da —yonga 45°ga sissonne ouverte battue; 1/4da — pas de bourrée dessous en tournant; uchta brisés oldinga, har biri 1/8. Boshqa oyoqda takrorlanadi va barchasi teskari yoʻnalishda bajariladi.

2. 3/4 oʻlchamda 8 takt.

Birinchi takt: oʻng oyoqda — sissonne soubresaut attitude croisée, assemblé, entrechat-quatre. Ikkinchi takt: oʻng oyoqda — attitude effacée sissonne soubresaut, assemblé, entrechat-quatre, V pozitsiyaga tugallanadi, chap oyoq oldinda. Uchinchi takt: chap oyoqda — sissonne renversée en dehors, entrechat-quatre. Toʻrtinchi takt: chap oyoqda—yonlama glissade, grand assemblé battu, entrechat-quatre. Beshinchi takt: chap oyoqda—oldinlama croisée pozasida grande sissonne ouverte, I arabesqueda 90°ga passé, temps levé bilan oʻng oyoqda, assemblé. Oltinchi takt: chap oyoqda—sissonne renversée en dedans, entrechat-quatre. Yettinchi takt: chap oyoqda— yonlama glissade, enlrechat-six de volé yonga, V pozitsiyaga yarimbarmoqlarga relevé. Sakkizinchi takt: uchta entrechat-six.

3. 3/4 oʻlchamda 16 takt (vals).

V pozitsiya, oʻng oyoq oldinda. 4 taktda: toʻgʻri chiziq boʻylab 7-nuqtadan 3-nuqtaga oʻng oyoqda — chassé va saut de basque, chassé va I arabesqueda 3-nuqtaga grand cabriole. 4 taktda: 3-nuqtadan 7-nuqtaga chap oyoqda — chassé va saut de basque, chassé va I arabesqueda 7-nuqtaga grand cabriole. 4 taktda: oʻng oyoqda — chassé, saut de basque va grand rond de jambe en dehors bilan sissonne renversée en dehors, V pozitsiyaga tugallanadi, oʻng oyoq oldinda. 4 taktda: diagonal boʻylab 2-nuqtaga — uchta jetés par terre, toʻrtinchi jeténing faqat yarmi qilinadi, yaʼni I arabesqueda pliége toʻxtatiladi.

10. 3/4 oʻlchamda 16 takt (vals).

